Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyalar.

Farhod Musajon - dramaturg adib.

XI. Miraziz A‘zam va Tursunboy Adashboyev ijodi

Miraziz A‘zamning hayoti va ijodiy faoliyati.

M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.

Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati.

Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi.

T.Adashboyevning so‘nggi yillardagi ijodiy faoliyati.

Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she‘rlari badiiyati.

XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi

Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati.

Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan she‘rlarining mavzu doirasi.

Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar.

Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari.

Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari.

Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

Muhammad Alining temuriylarga bag‘ishlab yozilgan romanlari haqida.

XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko‘chimov ijodi

Anvar Obidjon ijodi o‘zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo‘nalish sifatida.

Anvar Obidjon she‘rlarida kitobxon ongiga ta‘sir qilish emas, qalbiga yo‘l topishga bo‘lgan urinishlar.

Anvar Obidjonning “Sen eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi – o‘quvchilarning eng sevimli to‘plami.

Anvar Obidjon – ustozlar e‘tirofida.

Abusaid Ko‘chimovning hayoti va ijodiy faoliyati.

Abusaid Ko‘chimovning kichikintoylarga bag‘ishlangan she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

Abusaid Ko‘chimov ertak va dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

XIV. Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarning ijodi

Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati.

Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi.

Hamza Imonberdiyevning “Adolat kaliti” ertagida ilgari surilgan g‘oyalar.

Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik.

Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj‘) shaklidagi turkumidagi she‘rlarning o‘ziga xosligi.

Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o‘yinlari haqidagi she‘rlari haqida.

Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari haqida.

XV. Chet el bolalar adabiyoti

15.1 Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili.

15.2 Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar haqida.

15.3 Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar.

15.4 Aka-uka Grimmlar yozgan ertaklarda ulug‘langan yoki qoralangan fazilatlar va xislatlar haqida.

15.5 Xans Kristian Andersen ijodining ko‘p qirrali va rang-barang ekanligi.

15.6 Xans Kristian Andersen asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

XVI. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari

16.1 Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g‘oyalar.

16.2 Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi.

16.3 Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalarga atab yaratgan asarlarining o'ziga xos xususiyatlari.

XVII. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari(davomi)

17.1 Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilgan "Yangi alifbo" asari haqida.

17.2 Lev Nikolayevich Tolstoyning "Mo'ysafid olma ekdi" hikoyasida ilgari surilgan g'oyalar haqida.

17.3 Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar.

17.4 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarining janr jihatdan rang-barangligi.

17.5 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarida ilgari surilgan g'oyalar.

2.1. ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari

№	Mavzular nomi	Soat	ped. tex	Adabiyot
	3- yarimyllik Kirish.Umumiy tilshunoslik haqida ma'lumot	2	BBB	[1-9]
	Fonetika. Fonetika haqida umumiy ma'lumot. Fonema va uning variantlari. Fonetik jarayonlar	2	FSMU	[7-8]
	Orfoepiya. Orfoepik meyorlar. Grafika va yozuv tarixi. Orfografiya. O'zbek tilining imlo qoidalari	2	Aqliy hujum	[3-9]
	Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot. Tarixiy shakllanish jihatidan hozirgi o'zbek adbiy tili. Leksikografiya. Lug'at va ularning turlari Leksikogrfiya	2	Munozara	[1-4]
	Morfemika. Morfema va uning turlari. So'z yasalihi va grammatika	2	Fikriy Hujum	[2-5]
	Jami:	10		
	4-semestr			
	Morfologiya so'z turkumlariga xos bo'lim sifatida. Ot, sifat, son va olmosh so'z turkumi	2	BBB	[3-9]
	Fe'l va ravish so'z turkumlari. Ko'makchi fe'l va fe'llarning yasalihi. Yordamchi so'z turkumlari. Modal, undov, taqlid so'zlar	2	Fikriy hujum	[2-4]
	Sintaksis haqida umumiy ma'lumot. So'z birikmalari va gap. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar	2	Fikriy hujum	[3-9]
	Jami:	16		

2.2. Amaliy mashg'ulotlari mavzulari

№	Mavzular nomi	Soat	Ped. Tex	Adabi yot
	3-yarim yillik Til haqida umumiy ma'lumot. Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari. O'zbek adabiy tilining mundariyasi va bo'limlari. Mashqlar ishlash	2	Aqliy hujum	[1-9]
	Fonetika. Nutq tovushlarining tasnifi. Fonetik jarayonlarga oid mashqlar bajarish. Urg'uning fonetik tabiati. Fonetik tahlil ko'nikmasini hosil qilishga doir mashqlar bajarish	2	Fikriy hujum	[7-8]
	Orfoepik meyorlar. Grafika.	2	Aqliy hujum	[3-9]
	O'zbek tilining imlo qoidalari. Matnni imlo tomondan tahlil qilish ustida mashqlar bajarish	2	Munozara	[1-5]
	Leksema va so'z. Ma'no ko'chish turlari. Omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalarining mohiyatini aniqlashga	2	Fikriy hujum	[1-4]

	oid mashqlar bajarish. O'zbek tilining boyish manbalari.			
	Morfema va uning turlarini aniqlash. So'zlarning morfemik tahlili yuzasida test va mashqlar bajarish	2	Aqliy hujum	[2-5]
	Morfemika, so'z yasalishi va grammatikaga kirish materiallari yuzasidan kollokvium o'tkazish	2	Munozara Blis so'rov	[2-8]
	Jami:	14		
	4-semestr			
	So'zlarni turkumlarga ajratish. Ot, sifat, son so'z turkumlariga xos grammatik kategoriyalar. Mazkur turkumlar yuzasidan umumiy morfologik tahlil bo'yicha mashqlar bajarish	2	Fikriy Hujum	[1-4]
	Fe'ning nisbat, zamon, shaxs-son, mayl, vazifadosh shakllarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish. Fe'l va ravish so'z turkumlari yuzasidan umumiy morfologik tahlil bo'yicha mashqlar bajarish	2	Fikriy hujum	[2-5]
	Yordamchi so'z turkumlari. Modal, undov, taqlid so'zlar. Mashqlar bajarish	2	Aqliy hujum	[2-8]
	So'z birikmalari turlari, so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida tahlil qoliplari	2	Munozara	[2-4]
	Gap.Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlashga doir mashqlar bajarish	2	Fikriy hujum	[2-5]
	Jami	24		

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “Ona tili” qismi nazariy mashg'ulotlari mazmuni.

1-mavzu. Kirish.Umumiy tilshunoslik haqida ma'lumot.

(2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

Til ijtimoiy, doim o'zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. O'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tuzilish o'zlari (elementlari): tovushlar tizimi, leksikasi (yoki lug'at tarkibi), grammatik qurilishi. Tilning paydo bo'lishi, tilning taraqqiyoti, tilning tasnifi.

Adabiyotlar: A1; A2.

2-mavzu. Fonetika. Fonetika haqida umumiy ma'lumot. Fonema va uning variantlari.

(2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

Fonetika. Fonema va uning variantlari. Fonetik jarayonlar. Fonetika. Nutq tovushlarining tasnifi. Unli va undosh tovushlar ustida ishlash. Apparati. Artikulyatsiya. Artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli.

Adabiyotlar: A1; A2.

3-mavzu. Orfoepiya. Orfoepik meyorlar. Grafika va yozuv tarixi. Orfografiya. O'zbek tilining imlo qoidalari.

(2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

O'zbek adabiy tilining orfoepik meyorlari. Talaffuz qoidalari haqida umumiy ma'lumot. Ona tili grafikasi (yozuv tizimi) haqida ma'lumot. Harf tilning asosiy grafik vositasi ekanligi. Tovush va harf. Alifbo (alfavit). **Adabiyotlar: A1; A2.**

Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyil(prinsip)lari; morfologik, fonetik, an'anaviy-etimologik, differensiyalash, grafik tamoyillar. Morfologik tamoyilning asosiy va etakchi tamoyil ekanligi.

Ona tili imlosining asosiy qoidalari: ayrim harflar, o'zak-negiz va qo'shimchalar, qo'shma so'zlar imlosi; bo'g'in ko'chirish, bosh harflarning yozilish qoidalari.

4-mavzu. Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot . Tarixiy shakllanish jihatidan hozirgi ona tili leksikasi. Leksikografiya. Lug'at va ularning turlari

Frazeologiya.

(2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

Leksika (lug'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumiy ma'lumot.

Leksema va soʻz, ularning oʻzaro farqlari. Soʻzning leksik va grammatik maʼnosi. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi. Maʼno koʻchirishning asosiy turlari.

Ona tilida soʻzlarning shakl va maʼno munosabatlariga koʻra turlari haqida maʼlumot. Omonimlar, ularning koʻp maʼnoli soʻzlardan (polisemantizmlardan) farqi. Sinonimlar (maʼnodosh soʻzlar) va sinonimiya qatori. Antonimlar. Paronimlar. Omonim, sinonim, antonim va paronimlarning asosiy turlari va nutqda qoʻllanish xususiyatlari. Hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikasining rivojlanish tarixi. Oʻzbek tilining boyish manbalari. Fazemalarning oʻrganiliksh obyekti. Adabiy hamda noadabiy qatlam. Leksikografiya haqida umumiy maʼlumot. Lugʻat birliklarining ifodalanishi. Lugʻatlar va ularning turlari. Ensiklopedik hamda filologik lugʻatlar. Bir tilli va koʻp tilli lingvistik lugʻatlar. Bir tilli lingvistik lugʻatlarning tiplari.

Adabiyotlar: A1; A2.

**5-mavzu. Morfemika. Morfema va uning turlari. Soʻz yasalishi va grammatika
(2 soat maʼruza, 2 soat amaliy mashgʻulot)**

Morfemika haqida umumiy maʼlumot. Soʻzning maʼnoli qismlarining oʻzgarishi tarixi. Morfema va uning turlari. Asos-negiz morfema hamda affiks morfema. Soʻz yasalishi taraqqiyoti. Soʻz yasalishi haqida umumiy maʼlumot. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida soʻz yasalishi turlari. **Adabiyotlar: A1; A2.**

**6-mavzu. Morfologiya. Ona tilida soʻz turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy maʼlumot. Mustaqil soʻz turkumlari. Ot, sifat, son va olmosh soʻz turkumlari
(2 soat maʼruza, 2 soat amaliy mashgʻulot)**

Grammatika haqida umumiy maʼlumot. Soʻzning grammatik maʼnosi va grammatik shakli. Soʻzlarning sintetik, analitik, juft va takroriy, aralash hamda nol koʻrsatkichli shakllari. Grammatik kategoriya haqida umumiy maʼlumot. Grammatik kategoriya, grammatik maʼno va ularni ifoda qiluvchi vositalar tizimi ekanligi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning qismlari ekanligi.

Morfologiya haqida umumiy maʼlumot. Morfologiya grammatikaning soʻz turkumlari va shu turkumlarga xos kategorial, nokategorial shakllar tizimini, soʻzning birikish vaqtidagi oʻzgarishini tekshiradigan boʻlimi ekanligi. Soʻzning morfologik tuzilishi soʻz shaklining qismlaridan (shakl yasash uchun asos boʻluvchi hamda shakl hosil qiluvchi va soʻz oʻzgartuvchi affikslardan) iborat ekanligi. Ona tilida soʻz turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy maʼlumot. Hozirgi ona tilida soʻzlarning ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻz, undov soʻz, taqlid soʻz turkumlariga ajratilishi. **Adabiyotlar: A1; A2.**

**7-mavzu. Feʼl va ravish soʻz turkumlari. Koʻmakchi feʼl va feʼllarning yasalishi. Yordamchi soʻz turkumlari. Modal, undov, taqlid soʻzlar
(2 soat maʼruza, 2 soat amaliy mashgʻulot)**

Feʼllarning tuslanishi. SHaxs-son (yoki tuslovchi) affikslar. Ularning turlari.

Koʻmakchilar. Ularning grammatik xususiyatlari, turlari: asl koʻmakchilar, ot koʻmakchilar, feʼl koʻmakchilar, koʻmakchi va kelishik qoʻshimchalari.

Koʻmakchi otlar. Bogʻlovchilar. Ularning grammatik xususiyatlari. Bogʻlovchilarning qoʻllanishiga koʻra turlari: yakka bogʻlovchilar va takroriy bogʻlovchilar. Grammatik maʼno va vazifalariga koʻra bogʻlovchilarning turlari: teng bogʻlovchilar (biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi); ergashtiruvchi bogʻlovchilar (aniqlov, sabab, shart va toʻsiqsizlik, moslashtiruv - oʻxshatish bogʻlovchilari.)Undovlar. Ularning grammatik xususiyatlari. Undovlarning otlashishi, sintaktik vazifasi. Undovlarning turlari: his-hayajon (emotsional) va buyruq- hisob undovlari.

Adabiyotlar: A1; A2.

**8-mavzu. Sintaksis. Soʻz birikmalari va gap. Soʻz birikmalari va gap. Gap boʻlaklari. Bosh boʻlaklar va ikkinchi darajali boʻlaklar.
(2 soat maʼruza, 2 soat amaliy mashgʻulot)**

Sintaksis haqida umumiy maʼlumot. Soʻz birikmasi, gap boʻlagi va gap sintaksisning tekshirish obʼekti sifatida. Gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi; teng va ergash bogʻlanish

haqida umumiy ma'lumot. Ergash bog'lanish so'z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi.

So'z birikmasi. So'z birikmasining tuzilishi va grammatik ma'nolari. Birikma tarkibidagi so'zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv. So'z birikmalarining turlari: hokim so'zning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra turlari (otli, fe'lli, ravishli, sifatli, modal so'zli birikmalar). Tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra turlari (to'ldiruvchili, aniqlovchili, holli so'z birikmalari). Tuzilishiga ko'ra turlari: sodda so'z birikmalari, murakkab so'z birikmalari.

Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari: darak, so'roq, buyruq gaplar. His-hayajoniga ko'ra turlari: his- hayajonli (undov) gaplar, his-hayajonsiz gaplar, ularning turlari (darak- undov, so'roq-undov, buyruq-undov gaplar) Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot. Ega va kesim (bosh bo'laklar) ikki tarkibli gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning ifodalanishi, tiplari.

2.4. Mustaqil ish to'shriqlari (shu jumladan grafik ishlar ham).

№	Mavzular nomi	Soat	Ada biyo t
	I. yarimyillik Til oilalarini aniqlash yuzasidan mashqlar. O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash	2	[3-8]
	O'zbek tili lahjalariga xos xususiyatlarni aniqlash bo'yicha mashqlar	2	[2-4]
	Fonetikaning 'redmeti va vazifasini aniqlash	2	[3-5]
	Fonema va uning variantlariga oid mashqlar	2	[2-5]
	Nutq organlari va ularning vazifalarini aniqlash bo'yicha mashqlar	2	[4-5]
	Unli tovushlar tasnifigaoid amaliy mashqlar	2	[6-9]
	Unli tovushlarning umumiy tavsifi va unga doir mashqlar bajarish	2	[7-9]
	Undosh tovushlar tasnifiga oid amaliy mashqlar	2	[2-8]
	Undosh tovushlar tavsifi va ularning so'zlarda ishlatilish o'rnini aniqlash yuzasidan mashqlar	2	[2-4]
	So'zlarni bo'g'inlarga ajratish va ti'larini aniqlash. Mashqlar bajarish	2	[4-5]
	So'z urg'usining qo'llanishiga oid mashqlar bajarish	2	[3-5]
	Kombinatorva 'ozitsiono'zgarishlarga doir amaliy mashqlarishlash	2	[2-8]
	Singarmonizm hodisasiga doir mashqlar bajarish	2	[2-7]
	O'zbek tilida so'zlarni transkri'siya asosida yozish bo'yicha mashqlar	2	[3-5]
	Grafika. Grafika haqidagi tushunchani mustahkamlash.	2	[1-9]
	Orfografiya. Fonetik, morfologik, shakliy yozuv bo'yicha mashqlar.	2	[5-7]
	Orfoe'iya. Orfoe'iya tushunchasini mustahkamlash. Orfoe'ik me'yorlar bo'yicha og'zaki va yozma mashqlar	2	[3-8]

	Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni farqlashga doir mashqlar bajarish	2	[2-4]
	Omonimlar va ularning turlarini aniqlash bo'yicha mashqlar	2	[3-5]
	Sinonimlar va ularning turlarini aniqlashga doir mashqlar	2	[2-5]
	Antonimlar va 'aronimlarni aniqlashga doir mashqlar	2	[4-5]
	Istorizm va arxaizmlar. Berilgan matndan tarixiy so'zlar, arxaik so'zlar va istorizmlarni to'ish, ularning ma'nolarini aniqlash va izohlash yuzasidan mashqlar	2	[6-9]
	Umumiy va chegaralangan leksika	2	[7-9]
	Jargon va argoga oid so'zlar. Shevaga oid so'zlar. Matndan jargon va argolarni to'ish, ularning mazmunini aniqlash	2	[2-8]
	Orfoe'iya. Orfoe'iya me'yorlari	2	[3-5]
	Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot	2	[2-8]
	So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Birma'nolivako' ma'noliso'zlar	2	[2-7]
	So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Tarixiyshakllanishjiatdanhozirgio'zbektilileksikasi	2	[3-5]
	O'zbek tilining faol va nofaol leksikasi. Hissiy-ta'siriy bo'yoqdorlik va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi	2	[1-9]
	Frazeologiya haqida tushuncha. Frazeologik iboralarining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari	2	[5-7]
	Leksikografiya. Morfemika haqida umumiy ma'lumot. Morfema haqida ma'lumot. Morfema va uning turlari.	2	[3-8]
	Affiksial morfemalarning turlari va xususiyatlari. So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot. Hozirgi va tarixiy so'z yasalishi. So'z yasash usullari. Affiksatsiya, kom'ozitsiya, abbreviatsiya, semantik, sintaktik-leksik, fonetik usullar bilan so'z yasalishi	2	[2-4]
	Grammatika haqida umumiy ma'lumot. Morfologiya so'z turkumlariga xos bo'lim sifatida.	2	[3-5]

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta

o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

- 1.Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent."O'zbekiston"2016.56 B
2. Sh.Mirziyoyev Buyuk xalqimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent."O'zbekiston"2016.488 B
3. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent."O'zbekiston"2016.488 B
4. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil ,qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent."O'zbekiston"2017.104.B
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947 sonli Farmoni.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T:O'zbekiston 2014.46 b.
- 7.Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T:"Sharq" nashriyot-matbaa konserti,1997
- 8.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
9. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
- 10.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 11.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
12. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.
13. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
14. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi,2011, 260 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ibragimova Z. Anvar Obidjon– bolalar shoiri.– T.: Yangi asr avlodi, 2006 .
2. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., "Fan", 2004
3. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. Toshkent, "O'qituvchi", 1994.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., "Musiq", 2010. Bolalik kuychisi. T.:Fan, 1978 ; yana: Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. T.,1985; yana: Oliy o'quv yurtlarida bolalar adabiyotini o'qitish muammolari. "Til va adabiyot ta'limi" j., 1999y., 3-4 -sonlar.
5. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. T.:Fan, 1989.
6. O'zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild.T:O'qituvchi, 2006.
7. O'zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. T.,:Yosh gvardiya, 1969.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET

1-MA'RUZA

UMUMIY TILSHUNOSLIK DAN MA'LUMOT

Reja:

1. Tilshunoslik fani, uning vazifalari haqida ma'lumot.
2. Tilning ijtimoiy mohiyati, tuzilishi.
3. Tilning paydo bo'lishi, taraqqiyoti.
4. Til ijtimoiy hodisa.
5. Til va tafakkur.
6. Til va nutq.
7. O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili.
8. Tilning tuzilishi va tizim sifatidagi xususiyatlari.
9. Til taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa.
10. Milliy til va adabiy til.

Tayanch so'z va iboralar: Tilshunoslik, til, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususiy tilshunoslik, umumiy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, tovushga taqlid nazariyasi, undov nazariyasi, mehnat qiyqiriqlari nazariyasi, ijtimoiy shartnoma nazariyasi, til ijtimoiy hodisa, til va tafakkur, til va nutq, O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili, milliy til va adabiy til.

Manbalardan ma'lumki, hozirgi zamon fanlarini quyidagi yirik guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tabiiy fanlar.
2. Texnika fanlari.
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar.
4. Matematika fanlari¹.

Tilshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiga mansub bo'lib, inson tili, ya'ni so'zlashuv quroli uning o'rganish obyektidir. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da bu fanga shunday ta'rif beriladi: "Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan"².

Tilshunoslik fani yuqoridagi guruh fanlarning ko'pchiligi bilan aloqadordir.

Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Har qanday til tovush tilidir, chunki nutq tovushlarning muayyan ketma-ketligidan iborat bo'lgan so'zlardan tashkil topadi. Nutq tovushlari esa **fizika** fanining **akustika** bo'limida ham o'rganiladi. Nutq faoliyati insonning markaziy asab tizimi yordamida boshqariladi, demak, tilshunoslik fani **fiziologiya** fani bilan aloqada bo'lishi lozim. **Kimyo** fanida **valentlik** degan tushuncha mavjud. Bu molekula tarkibidagi atomning boshqa atom bilan bog'lanish xususiyatidir. Xuddi shu xususiyat tildagi so'zlarda ham mavjuddir. Masalan, *qizil, shirin, achchiq, yirik* so'zlari *olma* so'zi bilan bog'lana oladi, lekin *yupqa, aqlli, a'lochi, beg'am, ozg'in* so'zlari *olma* so'zi bilan bog'lana olmaydi.

Tilshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar. Har qanday fan **falsafa** bilan bog'liq, chunki falsafa barcha fanlarning kelib chiqish manbasi sifatida tan olingan. Tilshunoslik fani, birinchidan, falsafaning bilish nazariyasi bilan bog'langan bo'lsa, ikkinchidan, bu fan bilan shug'ullanuvchi mutaxassis o'z tadqiqotlarida muayyan falsafiy yo'nalishga tayanadi.

Ma'lumki, adabiyot so'z san'ati sifatida tan olingan. Demak, tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan bo'lmish so'z adabiyot uchun ham asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, tilshunoslik adabiyotni o'rganadigan **adabiyotshunoslik** fani bilan chambarchas bog'liqdir.

Tilshunoslik **tarix** fani bilan bog'liq, chunki til tarixi shu tilning egasi bo'lmish millat tarixining bir qismidir.

¹ A. Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. "Шарк" НМАК бош тахририяти. Т.: 2001, 11-бет.

² А. Ҳожиёв. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. –Т.: 2002, 107-бет.

Siz "mantiqiy fikr", "bu mantiqqa to'g'ri kelmaydigan fikr" degan gaplarni eshitgansiz. Bu esa tilshunoslik va **mantiq** fanlarining o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Har ikkala fanni birlashtiruvchi narsa tafakkurdir. Tafakkur tilda so'z, so'z birikmasi va gaplar orqali namoyon bo'lsa, mantiqda hukm, tushuncha va xulosalar ko'rinishida aks etadi.

Tilshunoslik va matematik fanlar. Hozirgi paytda matematika fani aralashmagan fan bo'lmasa kerak. Oddiy arifmetik amallardan tortib, murakkab matematik formulalar ham barcha fanlardagi hisob-kitoblarda qo'llanadi. Tilshunoslikda "**Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar**" degan nomlarning mavjudligi oddiy arifmetik sonlarning qo'llanishiga misol bo'ladi. Endi quyidagi parchaga e'tibor qiling: "*Vaholanki eng tor tovushni 0 raqami bilan, eng keng tovushni 1 raqami bilan belgilasak, tovushlarning bu jihatdan farqi quyidagicha bo'ladi:*

$$\begin{array}{c} i - u - o - e - \hat{a} - a \\ 0 - 0,2 - 0,3 - 0,8 - 0,9 - 1 \end{array}^{3}$$

Bu parchada ishlatilgan ifodalar nisbatan murakkabroq formulalarga misol bo'la oladi.

Tilshunoslik va texnik fanlar. Tilshunoslik va texnik fanlardan hisoblangan **kibernetikaning** o'zaro bog'liqligi shundaki, kibernetikaning mahsuli bo'lmish EHM ham insonga o'xshab axborot qabul qilib, uni uzatish vazifasini bajaradi. EHM yaratilishi uchun inson organizmi asos bo'lib xizmat qilgan. EHMning paydo bo'lishi avtomatik tarjimaning yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

Tilshunoslik fanining turlari. Tilshunoslik ikkita xususiyatiga ko'ra turlarga bo'linadi:

1. O'rganish obyektining hajmiga ko'ra:

a) xususiyl tilshunoslik alohida olingan tilning tovush tizimi, lug'at boyligi va grammatik qurilishini o'rganadi, shu sababli bunday tilshunoslik "o'zbek tilshunosligi", "rus tilshunosligi" kabi nomlar bilan ataladi.

b) umumiy tilshunoslik yer yuzida mavjud bo'lgan barcha tillarning umumiy xususiyatlarini, kelib chiqishini, dunyo tillarning tasiflanishini o'rganadi. U o'z tadqiqotlarida xususiyl tilshunoslik yutuqlaridan unumli foydalanadi.

2. O'rganish maqsadiga ko'ra:

a) nazariyl tilshunoslik til hodisalariga nazariyl jihatdan yondashadi, ya'ni shu hodisalar bo'yicha umumlashma tarzida chqarilgan xulosalar, qoidalar yaratadi.

b) amaliyl tilshunoslik tilga amaliyl nuqtai nazardan yondashadi, ya'ni uning insonlar hayotidagi amaliyl ahamiyatini o'rganadi. Masalan, chet tillarni o'rganish, avtomatik tarjima kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

2-§. Tilning paydo bo'lishi

Olimlarning taxminiga ko'ra, til ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo'lgan. Bunga shubha qilishga o'rin yo'q, chunki insoniyat tarixi shu davrdan boshlanadi. Inson inson deb atalishi uchun u hayvonot olamidanda ajralib chiqishi lozim edi. Tilning paydo bo'lishi mazkur jarayonni boshlab berdi. Xo'sh, eng universal aloqa vositasi bo'lgan til qanday paydo bo'lgan? Bu o'rinda biz hozir yer yuzida mavjud bo'lgan uch mingga yaqin tilni nazarda tutayotganimiz yo'q, balki umuman dastlabki tilni nazarda tutmoqdamiz.

Dastlabki tilning paydo bo'lishi haqida hech qanday yozma ma'lumot yo'q, chunki yozuvning, ya'ni og'zaki nutqni uzoq masofaga, uzoq davrga yetkazish vositasining o'zi ancha keyin paydo bo'ldi. Demak, dastlabki tilning qachon, qayerda va qanday paydo bo'lganligini faqat taxmin qilish mumkin. Bu uchta savolga taxminan quyidagicha javob berish mumkin: **dastlabki til fikrlovchi inson shakllangan paytda, shunday inson paydo bo'lishi mumkin bo'lgan joyda va insonlarning bir-birlariga nimanidir aytish istagi yuzaga kelganligi uchun paydo bo'lgan.**

Dastlabki tilning paydo bo'lishi to'g'risida aniq moddiy dalillarning yo'qligi bir qancha farazlarning (ba'zi manbalarda **nazariya** ham deyiladi) yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

1. Tovushga taqlid nazariyasi qadimgi Yunonistonda antik davrda (eramizdan oldingi 1-2 asrlarda) **stoiklar** degan faylasuflar guruhi tomonidan shakllantirilgan bo'lib, unga ko'ra

³ Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. "Universitet" nashriyoti. -T.: 2006, 14-bet.

inson tili tabiatdagi turli tovushlarga taqlid qilish asosida paydo bo'lgan emish. Haqiqatan ham, deyarli barcha tillarda tovushga taqlid bildiruvchi so'zlar mavjud. Masalan, o'zbek tilida *taq-tuq, shitir-shitir*; rus tilida *gav-gav* (it hurishiga taqlid), *kva-kva* (qurbaqa ovozigacha taqlid), *ga-ga* (o'rdak ovozigacha taqlid) kabi so'zlar bor va hatto shu so'zlar asosida bir qancha so'zlar ham yasalgan: *shitirlamoq, taqa, kvakayet, gavknul*. Bu nazariyaning g'ayri-ilmiy nazariya ekanligi quyidalarda namoyon bo'ladi:

1) tovushga taqlid so'zlar barcha tillarda ham juda ozchilikni tashkil etadi va lug'at tarkibidagi boshqa so'zlarning qanday kelib chiqqanligini bu nazariya asoslab bera olmaydi;

2) mantiqan fikrlaganda, rivojlangan tillarga nisbatan rivojlanmagan tillarda bunday so'zlar ko'p bo'lishi kerak edi, vaholanki, tekshirishlar buning aksini ko'rsatadi;

3) qadimgi odamning hali uncha rivojlanmagan hiqildog'i bunday so'zlarni talaffuz qilishga moslashmagan.

2. Undov nazariyasi eramizdan oldin yashab o'tgan Epikur (341-270) degan faylasuf tarafdorlari bo'lmish **epikuristlar** tomonidan o'ylab topilgan nazariya bo'lib, unga ko'ra til insonning his-tuyg'ularini ifodalaydigan *oh, uf, dod* kabi undov so'zlar asosida yuzaga kelgan emish. To'g'ri, taqlid so'zlar kabi undov so'zlar ham har bir tilning lug'at tarkibida mavjud va ular asosida ham yangi so'zlar hosil qilish mumkin: *uflamoq, dodlamoq* kabi. Bu nazariya ham quyidagi kamchiliklarga ega:

1) undov so'zlar ham barcha tillarda juda ozchilikni tashkil etadi va bu nazariya ham lug'at tarkibidagi boshqa so'zlarning qanday kelib chiqqanligini asoslab bera olmaydi;

2) inson o'z his-tuyg'usini yolg'iz qolganda ham ifodalashi mumkin, vaholanki, tilning asosiy vazifasi aloqa-aralashuv vositasi bo'lishdir.

3) bu nazariya tilning paydo bo'lishini ong bilan emas, his-tuyg'u bilan izohlab qo'ya qoladi.

3. Mehnat qiyqiriqlari nazariyasi XIX asrda yashagan fransuz faylasuflari L.Nuare va K.Byuxerlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning fikricha, til odamlarning jamoa bo'lib mehnat qilishi jarayonida chiqaradigan qiyqiriq ovozlari asosida paydo bo'lgan emish. Masalan, odam yer chopayotganda (*hah*), og'ir narsani ko'tarayotganda (*ho'o'p*) o'ziga yordam berish uchun turlicha ovozlar chiqaradi. Bu nazariya insonning beixtiyor chiqargan va ma'no ifodalamaydigan ovozlar asosiga qurilganligi bilan undov nazariyasiga o'xshab ketadi. Bu ovozlar his-tuyg'u ifodalamaydi, shu bilan bu nazariyalar o'zaro farq qiladi. Bu nazariyaning g'ayri-ilmiyligi esa quyidagilarda ko'rinadi:

1) mehnat qiyqiriqlarining tildagi miqdori o'ta kamdir;

2) mehnat qiyqiriqlari, yuqorida qayd qilinganidek, his-tuyg'u ifodalamaydi;

3) bu ovozlar faqat mehnat jarayonini tartibga solish uchun zarur.

4. Ijtimoiy shartnoma nazariyasi XIX asrda paydo bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, yer yuzidagi odamlar tushunchalarga nom berishda o'zaro kelishib olishgan emish. Bunga turtki bo'lgan narsa shuki, 1887-yilda taxallusi **Doktor Esperanto** ("umidvor shifokor" degani) bo'lgan polyak ko'z shifokori **Lyudvik Zamenxof**⁴ tomonidan **esperanto** tili o'ylab topilgan⁵. Bu til ko'pgina Yevropa tillaridan olingan so'zlar asosida shakllangan. Bundan tashqari, olimlar ayrim ilmiy atamalarni qo'llashda o'zaro kelishib olishi ham bunga sabab bo'lgan. Masalan, 1892-yilda ximiklarning Jeneva shahrida o'tkazilgan qurultoyida terminologiya masalasida kelishib olingan. Albatta, sun'iy tilning va atamalarning yaratilishi bo'yicha kelishuv dastlabki tilning paydo bo'lishini izohlay olmaydi. Buning sabablari quyidagicha oddiydir:

1) bu nazariya ijtimoiy kelishuvgacha tilning mavjudligini inkor qiladi;

2) bu nazariya tabiiy tilning emas, balki sun'iy tilning yaratilishinagina tushuntira oladi.

⁴ Энциклопедик луғат. "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. Н-Х. –Т.: 1990, 440-бет.

⁵ Энциклопедик луғат. "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. А-Н. –Т.: 1990, 289-бет.

Ko'rib o'tilgan barcha nazariyalarning eng asosiy kamchiligi shundaki, ularda insonning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisani, ya'ni tilni shu faoliyatdan ajratgan holda tushuntirishga harakat qilinadi.

Inson hayvonot olamidani ajralib chiqqandan keyin ijtimoiy mehnat bilan shug'ullana boshlagan. Bu jarayon, albatta, juda uzoq davom etgan. Shu davr mobaynida odamsimon mavjudot jamoa bo'lib yashashni va mehnat qilishni o'rganadi. Mehnat jarayonida bu mavjudotlarda (ular arxeologlar tomonidan *avstralopitek*, *pitekantrop*, *sinantrop*, *neandertal odami* kabi nomlar bilan ataladi) tafakkur shakllana boradi. Buni taxminan quyidagicha tushuntirish mumkin. Oldiniga mehnat harakatlari mehnat predmetidan ajralmagan holda amalga oshirilgan. Masalan, biz nafas olish uchun o'ylab o'tirmaymiz, ya'ni miyani ishlatmaymiz. Bu instinktiv tarzda yuz beradi. Yuqoridagi jarayon ham shunday bo'lgan bo'lishi kerak. Ma'lum bir davrda mehnat harakati va mehnat predmeti bir-biridan ajraladi, chunki mazkur harakatlar odamsimon mavjudotning ibtidoiy xotirasida saqlanib qolgan edi va u endi o'z tasavvurlariga taqlid qilishi mumkin bo'ladi, natijada mehnat predmeti bo'lmasa ham, u bilan qilinadigan harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Bu esa odamsimon mavjudotda **ibtidoiy ongning** dastlabki kurtaklari shakllanayotganidan dalolatdir. Hozirgi odamga eng yaqin turgan odamsimon mavjudot fanda *homo sapiens* (lot. *ongli odam*) deb yuritiladi. Ana shu *homo sapiens* o'z taraqqiyotining ma'lum davrida o'z jamoadoshiga nimanidir aytish istagini sezgan bo'lishi kerak va natijada dastlabki ibtidoiy so'zlar talaffuz qilingan. Albatta, ungacha *homo sapiens*ning nutq a'zolari muayyan tovushlar miqdorini talaffuz qilishga moslashgan bo'lishi kerak edi. Bizningcha, ana shu tariqa dastlabki til paydo bo'lgan.

Kembridj universiteti professori Jorj Yulning yozishicha, tilning paydo bo'lishida quyidagi manbalar mavjud bo'lgan:

1. Ilohiy manba (The divine source).
2. Tabiiy tovush manbasi(The natural sound).
3. Ijtimoiy o'zaro ta'sir manbasi(The social interaction source).
4. Jismonan moslashish manbasi (The physical adaptation source).
5. Instrumental manba (The tool-making source).
6. Genetik manba (The genetic source).⁶

In the biblical tradition, as described in the book of Genesis, God created Adam and "whatsoever Adam called every living creature, that was the name thereof."Alternatively, following a Hindu tradition, language came from Sarasvati, wife of Brahma, creator of the universe. In most religions, there appears to be a divine source who provides humans with language. In an attempt to rediscover this original divine language, a few experiments have been carried out, with rather conflicting results.

3-§. Til ijtimoiy hodisadir

Ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunish kerak? Eng avval mana shu savolga javob berish lozim. "Ijtimoiy" degani yakka shaxsga emas, balki butun jamiyatga tegishli deganidir. Demak, nimaiki butun jamiyat uchun xizmat qilsa, jamiyat tomonidan rivojlantirilsa, shu narsa ijtimoiy hodisadir. Bunga birinchi navbatda **til** kiradi. Adabiyot, san'at, madaniyat ham ijtimoiy hodisalardir, lekin bu hodisalarning asosida baribir til turadi.

Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo'lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir. Odamlar til vositasida o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatining shakllanishida tilning roli beqiyosdir. Til bo'lmasa, jamiyatning bo'lishi mumkin emas, chunki til insonlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne'matdir. Bundan tashqari, til bir millatni boshqa millatdan ajratib turuvchi eng muhim belgilardan biridir. Til taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liq.

Til insonga, inson jamiyatga xos bo'lgan hodisadir. Til insonlar orasida aloqa vositasi bo'lgan bir qurol.

⁶ George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010, 2-6-betlar.

Til ma'lum bir fikrni ifodalaydi, shuning uchun insonlar gaplashganda o'z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar. Shu bilan birga, gaplashuv orqali, fikr olishuv yo'li bilan inson o'z fikrini to'ldiradi, chuqurlashtiradi ham. Til fikr bilan chambarchas bog'langan. Til ong qadar eskidir. Ong, fikr paydo bo'lishi bilan til ham paydo bo'ladi.

Til tizimdir. Uning turli sohalari, tovushlari, so'zlari, qo'shimchalari, gap qurilishi bir-biri bilan bog'lanib, yagona bir sistemani tashkil etadi.

Til bir jihati, ya'ni tovush tomoni bilan tabiiy, yana bir jihati nutqiy qobiliyat tomoni bilan yakka shaxsga xos. Ammo, mohiyat e'tibori bilan jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, ijtimoiy hodisadir. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rab turgan til muhitiga bog'liq. Misol uchun, o'zbek bolasi go'dakligidan ruslar orasida tarbiyalansa, u faqat ruscha so'zlab, o'z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari (yuz tuzilishi, sochining rangi va h.) o'zgarmagan holda saqlanib qoladi. Yana misol sifatida Maugli va bo'rilar orasida o'sgan ikki qizni misol qilsak bo'ladi.

Til juda katta ma'rifiy ahamiyatga ega. Mavjudotning mohiyatini, haqiqatini bilish «ma'rifat» deyiladi. Tilning ilmiy ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oliy martabasini o'z ichiga oladi.


Til kishilar orasida so'zlashish vositasigina bo'lib qolmay, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'gan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari til tufayli bilim avloddan -avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Ya'ni til o'tgan avlodlar tajribasi, bilimlari natijalarini kelgusi avlodga yetkazuvchi ko'prikdir hamdir. Kishilar hayot tajribalari, ilmiy yutuqlarini so'zlarda, gaplarda, kitoblarda yig'adilar va ular avloddan-avlodga o'tib, boyib, rivojlanib boradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi. Bular esa tilning ulkan ma'rifiy ahamiyatidir.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy norma sifatida jamiyat a'zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir.

Shunday qilib, til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har doim rivojlanib turadigan o'ziga xos ijtimoiy hodisadir.

4-§. Til va tafakkur

Tafakkur – bu fikrlash deganidir. Inson gapirishdan oldin o'ylaydi, fikrlaydi. “Avval o'yla, keyin so'yla” degan maqol bejiz yaratilmagan. Demak, til va tafakkur o'zaro chambarchas bog'liqdir. Tafakkur borliqning ongda aks etishi bo'lsa, til tafakkurning muayyan belgilar (masalan, tovushlar) orqali ifoda qilinishidir. Buni quyidagi chizmada aks ettirish mumkin:



Yuqoridagi maqolda fikrning so'zdan oldin kelishiga ishora qilingan. Borliq dastavval so'zlovchi ongida fikr shaklida namoyon bo'ladi, keyin bu fikr so'zlar vositasida gapga aylanib, tinglovchiga yetkaziladi. Tafakkur va tilning o'xshash va farqli tomonlari bor. O'xshashligi:

1. Til ham, tafakkur ham insonga xos.
2. Har ikkalasi ham borliqni aks ettiradi.
3. Har ikkalasi ham bir paytda paydo bo'lgan.

Farqlari:

1. Tafakkur birliklari tushuncha, hukm, xulosa hisoblansa, til birliklari so'z, birikma va gapdir.
2. Tafakkurni mantiq fani o'rgansa, tilni tilshunoslik o'rganadi.
3. Turli millat vakillari bir xil fikrlashlari mumkin, lekin ular o'z fikrlarini har xil tillarda ifodalaydilar.

Tafakkur va til bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, chunki til bo'lmaganida insonning tafakkuri yuzaga chiqmagan bo'lar edi. Xuddi shuningdek, tafakkur bo'lmasa, tilga hech qanday ehtiyoj yo'q. Biz bu o'rinda til deganda fikrni ifodalovchi har qanday vositani nazarda tutyapmiz: kar-soqovlarning imo-ishora tili, yo'l harakati belgilari va boshqalar ham shu jumlagi kiradi.

5-§. Til va nutq

Til va nutq tushunchalari yaqin-yaqingacha farqlanmasdan kelinardi, bu ikki so'zni ma'nodosh (sinonim) so'zlar sifatida ishlataverar edik. Keyingi paytlardagi tadqiqotlar til va nutq tushunchalarini farqlash zarurligini ko'rsatadi.

Til deganda ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo'lgan hodisani tushunishimiz kerak. **Nutq** esa shu tilning ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir. Ayrim olimlar til va nutq tushunchalarini farqlashda shaxmat o'yinini misol qilib keltirishadi⁷. Shaxmat donalari, taxtasi, shaxmat o'yini qoidalari yig'indisi tilga qiyos qilinadi. Bu narsalar taxminan to'rt ming yildan beri o'zgarishga uchramasdan kelyapti. Har bir shaxmatchining o'yin uslubi, o'ziga xos xususiyatlarini esa nutqqa o'xshatishadi. Muayyan til birliklari vositasida turli fikrni ifoda qilish mumkin. "*Ega+to'ldiruvchi+kesim*" ko'rinishidagi qolip tilga tegishli bo'lsa, nutqda shu qolip asosida son-sanoqsiz gaplar tuzish mumkin: "*Men ukamni ko'rdim // Sobir akasiga yordamlashdi // Salim opasidan eshitdi...*" Bu esa shu nutqning yaratuvchisiga bog'liqdir.

Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev til qurilishida uning ikki holatini - **lison** va **nutq** tushunchalarining farqlanishi haqida yozadi. "*Lison*, - deb yozadi olim, - kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. *Nutq* esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi"⁸. Olimning fikricha, bu juftlikda nutq asosiy rol o'ynaydi, chunki tildagi hodisalar dastlab nutqda yuzaga keladi va keyinchalik lisonga ko'chadi. O'z navbatida bu hodisa lison dan nutqqa olib chiqiladi⁹.

Til va nutq tushunchalari ikkita har xil hodisalarni ifodalamas ekan, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas, chunki hodisani shu hodisaning namoyon bo'lishiga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi.

6-§. O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili

Til jamiyatsiz mavjud bo'la olmaydi. Jamiyat a'zolari tilning yashashi, rivojlanishi uchun mas'uldirlar. Shu munosabat bilan, o'tgan asrning 70-80-yillaridagi o'zbek tilining ahvolini eslash o'rinlidir. Bu davrda o'zbek tilining faoliyat ko'rsatish doirasi juda torayib, uning butunlay yo'qolib ketish xavfi paydo bo'ldi. Ana shunda jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu qonunning qabul qilinishi istiqbol tomon qo'yilgan ilk qadamlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"¹⁰.

Eng avvalo, "**davlat tili**" tushunchasiga izoh berib o'tish lozim. Bu degani til boshqa davlat ramzlari qatorida qonun asosida davlat himoyasiga olingani, til bilan bog'liq masalalar davlat darajasida hal qilinadi, deganidir.

Quyida mazkur qonunni to'lagicha keltiramiz.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI DAVLAT TILI HAQIDA (yangi tahrirda)

⁷ X.Неъматов, О.Бозоров. Тил ва нутқ. "Ўқитувчи" нашриёти, - Т.: 1996, 9-бет.

⁸ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. "Universitet" nashriyoti. –T., 2006, 4-bet.

⁹ O'sha kitob, 5-bet.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2001-yil, 6-bet.

1-modda: O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

2-modda: O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda: O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda: O'zbekiston Respublikasida Davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda: O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

6-modda: O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7-modda: Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda: O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari Davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda: Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatiga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda: Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda: Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda: O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda: Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda: O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda: O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda: Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda: Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda: Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda: Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy, madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda: Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda: Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda: Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda: O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda: O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7-§. Tilning tuzilishi va tizim sifatidagi xususiyatlari

Tilning tuzilishi. Yer yuzidagi har qanday til tuzilish jihatidan quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug'at tarkibi.
3. Grammatik qurilishi.

Dastlab til og'zaki shaklda paydo bo'lgan va bu tilning asosini nutq tovushlari tashkil etgan. Har qanday tilda muayyan miqdordagi nutq tovushlari mavjud bo'lib, bu shu tilning **tovush tizimini** tashkil etadi. Shu tovushlarning turlicha birikishi orqali so'zlar hosil bo'ladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida 30 ta nutq tovushi bor. Shulardan *a, d, m, o* tovushlarining turlicha joylashtirilishi natijasida *odam, omad, moda* kabi so'zlarni hosil qilish mumkin.

Har qanday tilda mavjud bo'lgan so'zlar yig'indisi shu tilning **lug'at tarkibi** (ayrim darsliklarda **leksika**) deb yuritiladi. Lug'at tarkibi bir tilni boshqa tildan farqlantiradi. Leksika muayyan til paydo bo'lgan paytdan boshlab shu tilning egasi bo'lmish xalq tomonidan boyitib borilishi lozim, aks holda bu til iste'moldan chiqib, o'lik tilga aylanadi.

Lug'at tarkibidagi so'zlar tarixiy jihatdan aynan shu tilga tegishli bo'lmasligi mumkin, lekin bu so'zlar shu tilda so'zlashuvchi odamlar uchun o'zaro muloqot vositasi bo'lib kela olsa, ular mazkur tilning lug'at tarkibiga mansub bo'ladi. Masalan, *kitob, maktab, a'lo* so'zlari aslan

arabcha bo‘lib, o‘zbek tiliga taxminan VII-VIII asrlarda kirib kelgan. Hozirgi paytda bu so‘zlar o‘zbek millatiga mansub barcha odamlar uchun tushunarli va ular shu insonlar tomonidan o‘zbekcha so‘zlar sifatida qabul qilinadi. Hatto bu so‘zlar asosida *kitobxon, maktabdosh, a‘lochi* kabi yangi so‘zlar ham yasalgan.

Tovushlar tizimi va leksikaning mavjudligi tilning muloqot vositasi darajasiga ko‘tarilishi uchun yetarli emas. Buning uchun so‘zlar o‘zaro birikib so‘z birikmasi va gaplar hosil qilinishi lozim. Buni esa tilning **grammatik qurilishi** belgilaydi. Demak, muayyan tilga mansub bo‘lgan so‘z, so‘z birikmasi va gaplarning qurilishi shu tilning **grammatik qurilishi** deb yuritiladi. *”Bizning fakultetimizda talabalar ko‘p to‘garaklarga qatnashadilar”* gapini olib ko‘raylik. Avvalo, so‘zlarning qurilishini tekshiramiz: *Biz-ning fakultet-imiz-da talaba-lar ko‘p to‘garak-lar-ga qatnash-a-di-lar*”. Ko‘rinyaptiki, ko‘p so‘zidan boshqa barcha so‘zlar turli ma’noli qismlarga ajraladi. Endi so‘z birikmalarining qurilishini tekshiramiz: *Bizning fakultetimizda, fakultetimizda qatnashadilar, ko‘p to‘garaklarga, to‘garaklarga qatnashadilar*. Va, nihoyat, gap qurilishini tekshiramiz: *”Bizning (aniqlovchi) fakultetimizda (hol) talabalar (ega) ko‘p (aniqlovchi) to‘garaklarga (hol) qatnashadilar (kesim)”*. Demak, tildagi har bir birlik o‘zining ichki qurilish qonuniyatlariga asosan tarkib topadi.

Til tizim sifatida. Bu masalaga to‘xtalishdan oldin **”tizim”** tushunchasi izohlanishi kerak. Manbalarda bu tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: **”Tizim** - 3. O‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi, majmui”¹¹. Yana: **”Sistema** (yun.), o‘zaro munosabat va aloqada bo‘lgan, muayyan yaxlitlik, birlik hosil qiluvchi juda ko‘p elementlar”¹². Demak, tizimning asosiy belgilari, birinchidan, juda ko‘p qismlardan iborat bo‘lishi kerak, ikkinchidan, bu qismlar o‘zaro munosabatda, aloqada bo‘lishi lozim.

Tizimga misol keltirish uchun gapni uzoqdan boshlashga to‘g‘ri keladi. Astronomiyadan ma’lumki, Yer sayyorasi Quyosh tizimiga kiruvchi 9 ta sayyoraning biridir. O‘z navbatida, Quyosh tizimi ham kamida xuddi shunga o‘xshagan 100 mlrd. yulduzni o‘z ichiga olgan Galaktika (bizda uni Somon yo‘li deyishadi)¹³ tizimi tarkibiga kiradi. Bizning galaktika esa galaktikalar tizimiga mansubdir.

Endi ulkan tizimlardan nisbatan kichik tizimlarga, ya’ni Yer sayyorasiga qaytamiz. Yer yuzida yashovchi aholi 5600 dan ortiq tilda so‘zlashadi. Yuqorida aytilganidek, til ijtimoiy hodisalar tizimiga mansub bo‘lib, bu tizimga yana adabiyot, san’at, madaniyat kabi bir qancha ijtimoiy hodisalar kiradi. Til ham o‘z navbatida tizim sifatida o‘zaro bog‘langan va munosabatda bo‘ladigan tovushlar tizimi, lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi kabi qismlardan iborat (yuqorida bularning har biriga ta’rif berildi). Bu o‘rinda biz bu qismlarning o‘zaro aloqasi va munosabatini ochishga harakat qilamiz. Yakka olingan nutq tovushi so‘z sifatida shakllanmasa yoki so‘z tarkibiga kirmasa, u oddiy **fiziologik** hodisa sifatida qolaveradi. Boshqacha aytganda, nutq tovushi **ijtimoiy** ahamiyat kasb qilishi lozim. Masalan, **u** tovushi so‘zlashuvchi insonlar uchun **”o‘zga shaxs”** ma’nosini ifodalovchi so‘zga aylanmasa, oddiy tovushligicha qolaveradi. O‘z navbatida **u** so‘zi gap ichida ishtirok etib, ma’lum vazifa bajarmasa, oddiy so‘zligicha qolaveradi. Mazkur so‘z ishtirok etgan gap esa **”gap”** deb ataluvchi tizim tarkibiga kiradi.

Xullas, tilning tovushlar tizimi, lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi til tizimini tashkil etadi.

8-§. Til taraqqiy qilib, o‘zgarib boruvchi hodisa


Tarixdan ma’lumki, yuqori va quyi paleolit davrida odamlar urug‘-urug‘ bo‘lib yashashgan. Buning sababi shuki, birgalashib ov qilish yolg‘iz faoliyat ko‘rsatishdan afzalroq hisoblangan. Demak, bu davrda **urug‘ tili** mavjud bo‘lgan va bu til urug‘ a’zolari uchun umumiy til hisoblangan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davriga kelib odamlar qabilalarga birlasha boshlaganlar va natijada **qabila tili** shakllangan. Qabila tili shu qabila tarkibiga kiruvchi barcha urug‘ a’zolari uchun umumiy til hisoblangan. Odamlar o‘rtasidagi tenglik yo‘qola borishi

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. –Т., 2008, 85-бет.

¹² Энциклопедик луғат. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. Н-Ҳ.–Т.: 1990, 188-бет.

¹³ Энциклопедик луғат. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. Н-Ҳ.–Т.: 1990, 173-бет.

natijasida, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumining yemirish davrida qabila ittifoqlari paydo bo'lgan, natijada endi **qabila ittifoqi tili** paydo bo'lgan. Keyinchalik ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, qabilalar o'rtasidagi aloqalarning yo'qolib, hududiy aloqalarning yuzaga kelishi natijasida xalqlar paydo bo'lgan. Natijada endi **xalq tili** shakllanadi, qabila tillari xalq tili tarkibida shevalar ko'rinishida saqlanib qoladi. Xalqlar yagona hudud, yagona til, yagona madaniyat va yagona ma'naviy birlikka erishgandan keyin millat sifatida shakllanadilar va buning natijasida **millat tili** paydo bo'ladi. Bu jarayonni quyidagi chizmada aks ettirish mumkin:



Ko'rinyaptiki, til to'xtovsiz o'zgarib, rivojlanib boruvchi ijtimoiy hodisa ekan. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Tildagi o'zgarishlar birinchi navbatda uning **lug'at tarkibida** aks etadi. Kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ilm-fan, madaniyat hamda iqtisodning rivojlanishi tilning lug'at tarkibini boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan o'zgaradi. Buni til tarixini o'rganish orqaligina sezish mumkin. Tilning muntazam tarzda taraqqiy qilib borishini ona tilimiz bo'lgan **o'zbek tili** misolida ko'rib chiqamiz.

O'zbek tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug'at tarkibida katta o'zgarishlar yuz berdi. Tilimiz lug'at tarkibining ichki imkoniyatlar vositasida yangi yasalgan so'zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga boyib borishi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, *aqldosh, telemahmadana, muzlatgich, purkagich* kabi yangidan yasalgan so'zlar, *broker, diler, makler, komputer, menejer, fermer, biznes* kabi boshqa tillardan olingan so'zlar bunga misol bo'la oladi. Ayrim o'zbekcha so'zlarning ma'nosida o'zgarishlar yuz berib, ular boshqa ma'nolarda qo'llana boshladi. Masalan, *ishbilarmon* va *tadbirkor* so'zlari ilgari sifat turkumiga mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu so'zlar ot turkumiga ko'chib o'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'lib qoldi.

O'zbek tilining fonetik tizimida, nisbatan kam bo'lsa ham, ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, o'zlashma so'zlarda bo'g'inning o'zbek tiliga xos bo'lmagan yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarda ikkita har xil unlining o'zbek tili uchun xos bo'lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, poema, geologiya, teatr, bionika* kabi (arabcha *doim, inshoot, maorif, taassurot, shuur, tabiiy* kabi so'zlar ilgaridan mavjud edi).

Ona tilimizning grammatik qurilishida ham juz'iy o'zgarishlar ro'y berdi. Masalan, morfologik o'zgarishlarga *-lar* ko'plik qo'shimchasi ma'nolari kengayishini (hurmat, kinoya, jamlash, ayirish, noaniqlik, kuchaytirish), egalik qo'shimchasi ma'nosidagi umumdan ajralganlik (*Bobur bog'i, Navoiy ko'chasi*) kabi ma'noning paydo bo'lishi kiritilsa, sintaktik o'zgarishlarga boshqa tillarning ta'sirida yangicha tarkibdagi to'liqsiz gaplarning (*Tug'ilgan kuningiz bilan, Bayramlar bilan* va h.) yuzaga kelganligini, qo'shma gaplar tasnifidagi o'zgarishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Ona tilimizning bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog'liq ravishda davom etadi.

9-§. Milliy til va adabiy til

Qayerda yashashidan qat'i nazar bir millatga mansub bo'lgan barcha insonlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy til** deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qarg'ish so'zlari), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatilgan chet so'zlar) kabi guruh so'zlarni qamrab oladi.

Ayrim manbalarda milliy til tarkibiy jihatdan **jonli xalq tili** va **adabiy tilga** bo'linib, birinchisi yana **jargonlar** va **dialektlarga**, ikkinchisi esa **og'zaki** va **yozma** turlarga ajraladi.¹⁴

¹⁴ A.Myxtopov, YA.Muxtorov, U.Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi. "O'qituvchi" nashriyoti. –T., 1995, 9-bet

Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqalashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, **fin** tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari mavjud.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Millat sifatida mavjud nom – o'zbek etnonimini xalqimiz rasmiy ravishda qachon olgan?
2. Adabiy til deb nimaga aytiladi?
3. Milliy tilning adabiy tildan farqi nimada?
4. O'zbek xalqi tarixiga mansub bo'lgan adabiy nutq me'yoriga rioya qilib yozilgan yozma yodgorlikdan qaysilarini bilasiz?
5. O'zbek tili tarixini qanday asosiy taraqqiyot bosqichlariga ajratish mumkin?
6. Tilshunoslik fani, uning vazifalari haqida gapiring.
7. Tilning ijtimoiy mohiyati asoslang.
8. Tilning paydo bo'lishi haqida gapiring.
9. Nima uchun til ijtimoiy hodisa?
10. Til va tafakkur haqida gapiring..
11. Til va nutqni farqlab bering.
12. Tilning tuzilishi va tizim sifatidagi xususiyatlarini ayting.
13. Nima uchun til taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa?
14. Milliy til va adabiy tilni farqlab bering.
15. O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi Qonuni moddalarini yod oling.

3- MA'RUZA

FONETIKA VA FONOLOGIYA; NUTQ APPARATI; ONA TILNING UNLI TOVUSHLAR TIZIMI

REJA:

1. Fonetika haqida ma'lumot.
2. Nutq a'zolari, nutq apparati.
3. Fonetik akustika.
4. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi
5. Fonetika haqida umumiy ma'lumot
6. Tilning fonetik vositalari.
7. Nutq tovushlarining tasnifi
8. O'zbek adabiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi
9. Ayrim unli tovushlar tavsifi haqida ma'lumot

Tayanch so'z va iboralar: Fonetika, umumiy fonetika, xususiy fonetika, tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, eksperimental fonetika, nutq a'zolari, nutq apparati, fonologiya, tilning fonetik vositalari, unli fonemalar.

Fonetika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, turlari, o'zgarishi, so'z ma'nolarini farqlashdagi roli, shuningdek, urg'u, intonatsiya(ohang) nutqning fonetik bo'linishi kabi masalalar o'rganiladi.

Fonetika ham o'rganish obyekti haqida hajmiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Umumiy fonetikada dunyodagi barcha tillarning tovush tomoni va u bilan bogʻliq hodisalarni oʻrganadi. Bularga barcha tillarda unli va undosh tovushlarning mavjudligi, nutq apparati, tovush oʻzgarishlari kabilar kiradi.

2. Xususiy fonetikada muayyan bir tilning fonetik xususiyatlari oʻrganiladi. Masalan, oʻzbek tili fonetikasi, turkman tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi. Fonetikaning bu turi tilning fonetik tomonini qay tarzda oʻrgashiga qarab ikki turga boʻlinadi: **1) tavsifiy fonetikada** muayyan tilning fonetik tizimi tarixiy jarayon va dalillarga bogʻlanmagan holda oʻrganiladi. **2) tarixiy fonetikada** maʼlum bir tilning fonetik tizimi til tarixi bilan bogʻliq tarzda oʻrganiladi.

3. Qiyosiy fonetikada bir-biriga yaqin tillarning fonetik xususiyatlari qiyoslab oʻrganiladi. Masalan, oʻzbek va rus tillarini qiyoslab oʻrganish maktablarda shu tillarni oʻqitishning metodik muammolarini hal qilishda yordam beradi.

4. Eksperimental fonetikada fonetik biliklar va hodisalar maxsus asboblarda yordamida tekshiriladi. Bunda olingan natijalar nazariy xulosalarning ishonchliligi taʼminlanadi.

2-§. Fonetik birliklar va ularning turlari

Fonetik birliklar deganda soʻz yoki qoʻshimchalarning shakliy tomonini hosil qiladigan va ularning maʼnolarini farqlash, chegaralash vazifalarini bajariladigan birliklar tushuniladi. Bunday birliklar soʻz va qoʻshimchalarning qaysi tomoni (shakl va mazmun) uchun muhimligi jihatidan ikki guruhga boʻlinadi: **1. Segment (ingl. qism, boʻlak¹⁵) birliklar** soʻz yoki qoʻshimchalar tarkibida birin-ketin kelib, oʻzaro ulanadigan birliklardir. Bularga **nutq tovushlari** va **boʻgʻin** kiradi. **2. Ustsegment (supersegment) birliklar** qoʻsimcha, soʻz, jumla, gap yoki matnning mazmun tomoniga aloqador birliklardir. Bu guruhga **urgʻu, ohang (intonatsiya), toʻxtam (pauza)** kiradi.

Quyida shu birliklar bilan batafsil tanishamiz.

3-§. Nutq apparati

Avvalo, nutq tovushlarining **anatomik-fiziologik** tomonini koʻrib chiqamiz. Bunda nutq tovushlarining hosil boʻlishida ishtirok etadigan nutq aʼzolari bilan tanishamiz. Bunday nutq aʼzolarining jami **nutq apparati** deb yuritiladi.

Nutq apparatiga quyidagilar kiradi:

1. Nafas apparati: oʻpka, bronxlar (bir juft), nafas yoʻli (traxeya).

2. Boʻgʻiz boʻshligʻida xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon togʻaylar hamda un paychalari joylashgan.

3. Ogʻiz boʻshligʻida til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan.

4. Burun boʻshligʻi.

5. Markaziy asab tizimi.


Nutq aʼzolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq aʼzosining vazifasi xususida toʻxtalib oʻtamiz.

1-rasm¹⁶. Nafas apparati:

1 – qalqonsimon togʻay; 2 – uzuksimon togʻay; 3 – kekirdak(traxeya); 4 – bronxlar; 5 – bronxlarning ichki tarmoqlari; 6 – oʻpkaning tepa qismi; 7 – oʻpkaning tag (ost) qismi.

¹⁵ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 682.



¹⁶ Rasmlar olindi: Jamolxonov H.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 27-29-betlar.




2-rasm. Bo'g'iz(hiqildoq):

A - bo'g'izning old tomoni: 1 - qalqonsimon tog'ay; 2 - uzuksimon tog'ay; 3 - til osti suyagi; 4 - qalqonsimon tog'ayni til osti suyagiga ulab turuvchi pay; 5 - uzuksimon tog'ayni qalqonsimon tog'ay orasidagi pay; 6 - kekirdak(traxeya).

B - bo'g'izning orqa tomoni: qalqonsimon tog'ay; 2 - uzuksimon tog'ay; 3 - qalqonsimon tog'ayning yuqori shoxlari; 4 - qalqonsimon tog'ayni quyi shoxlari; 5 - cho'michsimon tog'aylar; 6 - bo'g'iz qopqog'i; 7 - traxeyaning pardasimon (orqa) qismi.



3-rasm. Bo'g'izning ko'ndalang




kesilgandagi ko'rinishi:

1- qalqonsimon tog'ay; 2- cho'michsimon tog'aylar; 3 - un paychalarining qirralari; 4 - ovoz paychalari orasidagi tirqish.

O'pka inson organizmini kislorod bilan ta'minlovchi a'zo ekanligi hammaga ma'lum. Nutq a'zosi sifatida esa o'pka nutq tovushlarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya'ni inson nafas olganida o'pka va undagi bronxlar havoga to'ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi.

Havo oqimi **nafas yo'li** orqali **bo'g'izga** tomon harakatlanadi. Bo'g'izdagi **cho'michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar** un paychalarini ushlab turuvchi a'zolaridir. **Un paychalari** esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o'xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog'ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko'z oldingizga keltiring). **Og'iz bo'shlig'i** tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. **Til** juda ko'p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (**q, g', x**) hosil bo'lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, cho'chchayishi, jiplashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. **M, n, ng** tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi **burun bo'shlig'i** orqali o'tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy asab tizimi** nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor.



4-§. Fonetik akustika

Endi nutq tovushlarining fizik-akustik tomonlari bilan tanishamiz. Bunda fonetikaning fizika fani boʻlimlaridan biri boʻlmish akustika bilan aloqadorligi namoyon boʻladi va natijada fonetikada **fonetik akustika** degan boʻlim borligi aniqlanadi.

Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa oʻpkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil boʻladigan ovoz va nutq aʼzolarida **hosil** boʻladigan shovqinning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari akustikasida koʻyidagilar farqlanadi:

1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi maʼlum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga koʻra har xil chiqishidir: un paychalari koʻp tebransa, tovush baland boʻladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

2. Nutq tovushlarining kuchi maʼlum kenglikdagi maydondan maʼlum vaqtda oʻtadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: “Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm² maydondan 1 sekundda oʻtadigan energiya miqdoridir”¹⁷ Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bogʻliq: tebranish kengligi katta boʻlsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik boʻlsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil boʻladi. Tovushlarning tembri ogʻiz boʻshligʻi va burun boʻshligʻining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil boʻlishiga bogʻliq.

4. Tovushning choʻziqlik darajasi un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan oʻlchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush choʻziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa boʻladi.

5-§. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Har qanday tovushni talaffuz qilishda biror nutq aʼzosining faolligi yetarli boʻlmaydi. Bunda aʼzolarining maʼlum izchillikdagi kompleks ishtiroki zarur boʻladi. Nutq aʼzolarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati **artikulyatsiya** (ingl. *boʻgʻim* maʼnosi bildiradi)¹⁸ deyiladi. Artikulyatsiyada ikki narsa farqlanadi: **artikulyatsiya oʻrni** va **artikulyatsiya usuli**. Tovush hosil qilishda u yoki bu nutq aʼzosining faol qatnashgan qismi artikulyatsiya oʻrni deyiladi. Masalan, **b, p** kabi tovushlarni hosil qilishda lablar, **d, t** kabi tovushlarni hosil qilishda esa tilning oldingi qismi qatnashadi. Demak, **b, p** tovushlarining artikulyatsiya oʻrni lablar, **d, t** tovushlarining artikulyatsiya oʻrni esa til oldidir.

¹⁷ Jamolxonov H.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 25-bet.

¹⁸ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 49.

Tovush hosil qilish paytida havo oqimining ikki nutq a'zosining bir-biri bilan jipslashishi natijasida portlab chiqishi yoki a'zolarning jipslashmay, ular orasidan sirg'alib o'tishi **artikulyatsiya usulu** deb ataladi. Masalan, **b, p, d, t** tovushlarining artikulyatsiya usulu – portlash, **v, f, z, s** tovushlarining artikulyatsiya usulu sirg'alishdir.

Jorj Yul artikulyatsiya haqida gapirib yozadiki, bitta tovushni talaffuz qilayotgan paytning o'zida ikkinchi tovushni talaffuz qilish jarayoni **koartikulyatsiya** deb ataladi.¹⁹

The process of making one sound almost at the same time as the next sound is called coarticulation.

Fonologiya haqida umumiy ma'lumot

Fonologiya so'zi tarjima qilinganda "tovush haqidagi ta'limot" degan ma'noni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - ta'limot). "Fonologiya, - deb yozadi Jorj Yul, - aslida tildagi nutq tovushlari tizimi va modellarini tavsiflashdir".²⁰

Phonology is essentially the description of the systems and patterns of speech sounds in a language.

Bu bo'limda tovushlarning so'z va qo'shimchalar ma'nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar **fonetika** bo'limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta'bir joiz bo'lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o'rganiladi. Fonetika va fonologiyaning o'zaro munosabatiga kelsak, ikkinchisi birinchisining yuqori bosqichidir, ya'ni fonetika nutqqa daxldor bo'lsa, fonologiya tilga taxldordir.

Tovush va fonema

Tovush va fonemaning o'zaro farqi ham nutq va til o'rtasidagi o'zaro farqqa borib taqaladi. Boshqacha aytganda, tovush nutqqa tegishli tushuncha bo'lsa, fonema tilga tegishli tushunchadir.

So'zlar tarkibidagi nutq tovushlari ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi. Bu ularning asosiy vazifasidir: *tob, toj, toy, tok, tol, tom, tor, top, tot, tosh, tog', toq*. Ko'rinyaptiki, bu so'zlar o'zaro bitta (oxirgi) tovush bilan farq qilyapti. So'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush **fonema** deb ataladi. Fonemaning aniq talaffuz qilingan, quloqqa eshitilgan ko'rinishi **tovush yoki fon (allofon)** deb yuritiladi²¹. Masalan, *bir, bilan* so'zlaridagi qisqa **i**, *biy, tiy* so'zlaridagi cho'ziq **i**, *qirq, G'iro*t so'zlaridagi ruscha **и** ga yaqin aytiladigan **i fon (allofon)** hisoblanadi. Jorj Yul yuqorida zikr qilingan darsligida yozishicha, fonema ongda mavhum tushuncha sifatida mavjud bo'lgan paytda, real nutqda uning turli variantlari hosil bo'ladi.²²

Fonemalarini tasnif qilganda ularni bir-biridan farqlantiruvchi belgilar **farqlovchi (differensial)** belgilar hisoblansa, shu tovushlar uchun umumiy belgilar esa **birlashtiruvchi (integral)** belgilar sanaladi: **b** va **p** tovushlari uchun lablar ishtirokida hosil bo'lish va portlovchilik belgilari **birlashtiruvchi** belgilar sanalsa, jarangli-jarangsizlik belgisi **farqlovchi** belgidir.

Fonemalarning turlari

Fonemalar quyidagi xususiyatlariga ko'ra ikkita guruhga bo'linadi:

	Unli fonemalar	Undosh fonemalar
.	Unli fonemalar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi.	Undosh fonemalarni hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi.
.	Unlilarni cho'zib talaffuz qilish mumkin.	Undoshlarni cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi

¹⁹ George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010, 42-bet.

²⁰ George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010, 42-bet.

²¹ A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 35-bet.

²² George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010, 43-bet.

.	Unlilar talaffuzida un paychalari albatta titraydi.	Undoshlar talaffuzida un paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.
.	Unlilar bo'g'in hosil qilib biladi: <i>a-ka, o-i-la, mu-do-fa-a</i> .	Undoshlar bo'g'in hosil qilib bilmaydi, ular bo'g'in tarkibida kelishi mumkin.

O'zbek adabiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi

Hozirgi o'zbek adabiy tilida unli fonemalar oltita: **i, e, a, u, o', o**. Tildagi unlilar tizimi **vokalizm** (*ingl. unli* degan ma'noni bildiradi²³) deb yuritiladi.

Unlilar hosil bo'lishida til va lablar faol ishtirok etadi, shuning uchun ular tasnifi uch xususiyatga asoslanadi: tilning oldinga yoki orqaga harakat qilish darajasiga, tilning tanglay tomon ko'tarilish darajasiga va lablarning ishtirokiga ko'ra. Shu jihatdan unlilar uch tomondan tasnif qilinadi:

- 1) tilning gorizontaal harakatiga ko'ra;
- 2) tilning vertikal harakatiga ko'ra;
- 3) lablarning ishtirokiga ko'ra.

Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra unlilar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) old qator unlilar: **i, e, a;**
- 2) orqa qator unlilar: **u, o', o**.

Og'iz bo'shlig'idagi eng faol a'zo **tildir**. U unlilarni talaffuz qilishda oldinga yoki orqaga qarab harakat qiladi. Masalan, *i, e, a* unlilarini hosil qilishda til oldinga siljiydi, *u, o', o* unlilarini hosil qilishda orqaga tortiladi.

Tilning vertikal harakatiga ko'ra unlilar uch turga ajratiladi:

- 1) yuqori (tor) unlilar: **i, u;**
- 2) o'rta (keng) unlilar: **e, o';**
- 3) quyi (keng) unlilar: **a, o**.

Unlilar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko'tarilishi va tushishi **vertikal** harakat sanaladi. Bu harakat tufayli og'izning ochilish darajasi har xil bo'ladi. Masalan, **i, u** unlilarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi va og'izning ochilish darajasi tor bo'ladi; **a, o** unlilarini hosil qilishda esa til tanglaydan uzoqlashadi va til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq keng bo'ladi.

Lablarning ishtirokiga ko'ra unlilar ikkiga bo'linadi:

- 1) lablangan unlilar: **u, o', o;**
- 2) lablanmagan unlilar: **i, e, a**.

Unlilar talaffuzida lablar ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi mumkin. Masalan, **u, o', o** unlilarini hosil qilishda lablar cho'chchayadi, **i, e, a** unlilarini hosil qilishda bunday holat kuzatilmaydi.

Unli fonemalar tasnifi jadvali:

Lablarning ishtirokiga ko'ra	Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra
	Old qator	Orqa qator	
Yuqori tor unlilar	<i>i</i>		Lablanmagan
		<i>u</i>	Lablangan
O'rta (keng) unlilar	<i>e</i>		Lablanmagan
		<i>o'</i>	Lablangan
Quyi (keng) unlilar	<i>a</i>		Lablanmagan
		<i>o</i>	Lablangan

O'zbek tilshunosligida unli fonemalarning boshqacharoq tasniflari ham bor. Chunonchi B.To'ychiboyevning «O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari», O.Azizovning «Tilshunoslikka kirish», M.Mirtojiyevning «O'zbek tili fonetikasi» kabi qo'llanmalarda har bir tilshunos unli tovushlar haqida o'z fikrlarini bayon qilgan.

²³ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 843.

Shunday qilib, o'zbek adabiy tili, vokalizmining tasnifi va tavsifi masalalari hozirgacha ancha munozarali bo'lib qolayotganligini anglash qiyin emas. Bunday munozaralarga sabab bo'layotgan omillar quyidagicha: 1) eski o'zbek adabiy tili vokalizmga xos 9 unlili tizimning hamda shu tizimga xos juftliklarning (i-y, u-u, a-a, o-o) hozirgi adabiy til unlilar tizimi ham saqlanganligini asoslashga intilish; 2) qipchoq lahjasi shevalari unlilarga xos fonologik xususiyatlarning hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizimida borligini asoslash harakati; 3) fonemalar o'rnida ularning o'ttenkalarini (variantlarini) ko'rsatish holatlarining mavjudligi va hokazolar.

Unli tovushlar tasnifi va tavsifi masalasi bo'yicha «Unlilarning unsiz taqdiri» («O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 1997-yil 4-iyul sonida) nomli maqolada ham bu borada olib borilgan munozoralar keng talqin etilgan.

Ayrim unli fonemalar tavsifi

I unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ipak*), so'z o'rtasida (*tilak*) va so'z oxirida (*tulki*) keladi.
- 2) so'z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytiladi: *bilan, sira*.
- 3) **k, g, x** undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytiladi: *qir, G'iro, oxir*.
- 4) cho'ziq varianti bor: *muhim, musiqa*.
- 5) **e(e)** tovushiga moyil varianti bor: *mix-mex*,

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*urmoq*), so'z o'rtasida (*tugun*) va so'z oxirida (*urg'u*) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: *kuch, gul*;
- 3) *qulf, g'ulg'ula, tuxum* so'zlarida esa til orqa varianti qo'llangan.
- 4) **i** tovushi kabi kuchsizlanishi, ya'ni qisqarishi ham mumkin: *tuxum, bulbul, tutun* kabi.

E unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida, so'zning birinchi bo'g'inida keladi: *eshik, elak, e'tibor, kel, bet* kabi.
- 2) jonli nutqda sheva ta'sirida **i** tovushiga moyillashadi: *deydi – diydi*.
- 3) o'g'uz shevalarida **a** tovushiga o'tish holati ham mavjud: *eshik – ashik, deb – dab, kel – gal* kabi. Lekin adabiy tilda **e** tarzida talaffuz etiladi.

A unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ari*), o'rtasida (*daftar*) va so'z oxirida (*qora*) keladi.
- 2) **q, x, g'** tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: *qaxr, g'azab, xabar*.
- 3) ba'zi so'zlarda sheva ta'sirida o tovush kabi aytiladi: *baho – boho, shavla – shovla*. Adabiy tilda a tarzida talaffuz etiladi.

O unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*olim*), o'rtasida (*toza*) va so'z oxirida (*bobo*) keladi.

O' unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) sodda so'zlarning asosan birinchi bo'g'inida uchraydi: *o'g'il, bo'ri, to'g'ri, o'rin, bo'yin*.
- 2) o'zlashma so'zlarning oxirgi bo'g'inida ham keladi: *ro'baro', xushro'y, gulro', kubok, (kubo'k)*.
- 3) til oldi varianti ham bor: *o'rik, ko'l, cho'l*.

Olinma so'zlarda, xususan, arab tilidan o'zlashgan leksik qatlamda unlilar juft va ketma-ket (qush) tarzda keladi: *matbaa, taajjub, itoat* kabi. Ko'pincha a,u va i qo'sh unlilari bilan kelgan arabcha so'zlar o'zbek tilida ko'proq uchraydi.

Qo'sh unlili so'zlar	Juft unlili so'zlar
Manfaat	Maorif
Inshoot	Soat
Mudofaa	Mushoir
Taalluqli	Itoat
Taassurot	Shoir
Mutolaa	Baodob
Taajjub	Qiroat

Matbaa	Muammo
Badiiy	Oila
Tabiiy	Muallif
Shuur	Jamoat

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh fonema bo'lib, bular **b, d, f, g, h, j** (*jurnal, vijdon* kabi so'zlardagi birinchi va ikkinchi undosh), **dj** (*jumla, joy* kabi so'zlaridagi birinchi undosh), **k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng** fonemalaridir. Undosh fonemalar tizimi tilshunoslikda **konsonantizm** (ingl. **undosh** degan ma'noni ifodalaydi²⁴) deb ham yuritiladi. Undosh fonemalar ham uch tomondan tasnif qilinadi:

- 1) hosil bo'lish (artikulyatsiya) o'rniga ko'ra;
- 2) hosil bo'lish (artikulyatsiya) usuliga ko'ra;
- 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

Hosil bo'lish (artikulyatsiya) o'rniga ko'ra undoshlar uch guruhga bo'linadi:

- 1) lab undoshlari;
- 2) til undoshlari;
- 3) bo'g'iz undoshi.

Lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida paydo bo'luvchi undoshlar bo'lib, ularga **b, n, m, v, f** undoshlari kiradi.

Lab undoshlaridan **b, p, m** undoshlari, shuningdek, *ov, qovun, vodi, voris, birov* kabi so'zlaridan **v** undoshi hamda *pufak, tufli, juft, Fotima* kabi so'zlaridagi **f** undoshi ikki lab orasida paydo bo'ladi; *vatan, va'da, vafo, vagon, arava* kabi so'zlar tarkibidagi **v** undoshi, *fazo, farzand, fitna, telefon* kabi so'zlar tarkibidagif undoshi pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra lab undoshlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) lab-lab undoshlari: **b, p, m, v, f**;
- 2) lab-tish undoshlari: **v, f**.

Til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil bo'lib, ularga **g, d, j** (*jurnal* so'zidagi undosh), **dj** (*jilo* so'zidagi undosh), **z, y, k, l, n, ng, r, s, m, x, ch, sh, q, g'** undoshlari kiradi.

Undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi, masalan, **z, s, sh** kabi undoshlar tilning old qismida, **y** undoshi tilning o'rta qismida, **k, g, ng** kabi undoshlar tilning orqa qismida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra til undoshlari to'rt guruhga ajratiladi:

- 1) til oldi undoshlari: **d, j** (*jurnal* so'zidagi kabi), **dj** (*jiyda* so'zidagi kabi) **z, l, n, r, s, t, ch, sh**;
- 2) til o'rta undoshi: **y**;
- 3) til orqa undoshlari: **k, g, ng**;
- 4) chuqur til orqa undoshlari: **q, g', x**.

Bo'g'iz undoshi faqat bitta – **h** dan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida paydo bo'ladi.

Hosil bo'lish (artikulyatsiya) usuliga ko'ra undoshlar uch guruhga bo'linadi:

- 1) portlovchilar;
- 2) sirg'aluvchilar;
- 3) portlovchi – sirg'aluvchilar.

Portlovchi undoshlar ikki nutq a'zosining o'zaro jipslashuvi va o'p kadan chiqayotgan havo oqimining ana shu a'zolarga zarb bilan urilib, portlab o'tishidan hosil bo'ladigan undoshlar bo'lib, ularga **b, g, d, dj** (*jilva* so'zidagi) **k, p, t, ch, q** undoshlari kiradi. Bular orasida **dj** (*jajji* so'zidagi) va **ch** undoshlari o'ziga xos artikulyatsiyasi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Shu jihatdan portlovchilar ikki turga ajratiladi:

- a) sof portlovchilar: **b, g, d, k, p, t, q**;
- b) qorishiq portlovchilar (affrikatlar): **dj** (*jahon* so'zidagi) **dj** (d+j), **ch** (t+sh).

Sirg'aluvchi undoshlar ikki nutq a'zosining bir-biriga yaqinlashishi va havo oqimining ana shu a'zo orasidan sirg'alib chiqishi bilan hosil bo'ladigan undoshlar bo'lib, ularga **v, j** (*jirafa* so'zidagi), **z, y, s, f, x, sh, g', h** undoshlari kiradi.

²⁴ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 166.

Portlovchi – sirg‘aluvchilar undoshlar bir vaqtning o‘zida ham portlash, ham sirg‘alish ro‘y berishi natijasida hosil bo‘ladi. Ularga *m, n, ng, l, r* undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra boshqa undoshlar (portlovchilar, sirg‘aluvchilar)dangina emas, balki o‘zaro ham farq qiladi. Chunonchi, *m* undoshining hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining bir qismi og‘iz bo‘shlig‘idan lablarning to‘siqligiga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib, *n* undoshining hosil bo‘lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘i orqali sirg‘alib chiqadi. Portlovchi-sirg‘aluvchilardan bo‘lmish *ng* undoshining talaffuzida tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, yarim portlash yuz beradi va havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib chiqadi.

Demak, *m, n, ng* undoshlari talaffuz qilinganda, havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘i orqali sirg‘alib chiqqani uchun ular burun undoshlari deb ataladi. *L* undoshini hosil qilishda til uchi milkka tegadi, ammo havo oqimining milkning ikki yonidan sirg‘alib o‘tishi uning og‘iz bo‘shlig‘idan qisman portlab, qisman sirg‘alib chiqishiga sabab bo‘ladi, shuning uchun u **yon tovush** deb ataladi; *r* undoshini hosil qilishda o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tilning uchiga zarb bilan uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘idan yarim portlab, yarim sirg‘alib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun u **titroq tovush** deyiladi. Shu jihatdan portlovchi-sirg‘aluvchi tovushlar uch turga ajratiladi:

a) burun undoshlari: *m, n, ng*;

b) yon undoshi: *l*;

d) titroq undosh: *r*.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar dastlab ikki turga bo‘linadi:

1. Sonor yoki shovqin ishtirok etgan ovozdor undoshlar; 2. Shovqinli undoshlar.

Sonor (ingl. sonorous - jarangdor degani²⁵) undoshlar tarkibiga ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo‘ladi, ularga *m, n, ng, l, r* undoshlari kiradi. Bunday undoshlarning hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi bo‘g‘iz bo‘shlig‘idagi un (ovoz) paychalarini faol ishtirok ettiradi, shuning uchun bu undoshlar unlilarga yaqin turadi. Lekin bu undoshlar havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida yuzaga keladi.

Shovqinli undoshlar tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko‘p bo‘ladi yoki ovoz mutlaqo qatnashmaydi. Ularga *b, v, g, d, j, dj* (*jijan* so‘zidagi kabi), *z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, g’, h* undoshlari kiradi. Bunday undoshlar tarkibida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko‘ra, ikki turga bo‘linadi:

1) jarangli undoshlar tarkibida qisman bo‘lsa-da ovoz qatnashgan shovqinli undoshlardir: *b, v, g, d, j, dj* (*jilg‘a* so‘zidagi kabi) *z, y, g’*.

2) jarangsiz undoshlar faqat shovqinning o‘zidan iborat bo‘lgan, tarkibida ovoz mutlaqo qatnashmagan undoshlardir: *k, p, s, t, f, x, ch, sh, h*.

Undosh fonemalar tasnifi jadvali

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra	Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra	Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra						
		Lab undoshlari		Til undoshlari				Bo‘g‘iz undoshi
		lab-lab	lab-tish	til oldi	til o‘rta	til orqa	Chuqur til orqa	
Portlovchilar	jarangli	b, m		d, r, n		g, ng		
	jarangsiz	p		t		k	q	
Sirg‘aluvchilar	jarangli		v	z, j, l	y		g‘	

²⁵ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 843.

	jarangsiz		f	s, sh			x	H
Qorishiqalar	jarangsiz			ch				
	jarangli			<i>ĵ</i>				

Undosh tovushlar tavsifi

1.Lab undoshlari

B fonemasi - lab-lab, sof portlovchi, jarangli undosh fonemasi bo‘lib, so‘z boshida (*bahor*), o‘rtasida (*abadiy*) va oxirida (*kitob*) uchraydi. Bu fonema so‘z oxirida kelganda jarangsizlashadi va **p** fonemasi bilan almashadi: *maktab* – *maktap*, *odob*- *odop*. Bu fonema ko‘pincha ikki unli orasida kelganda yoki ikki fe‘l birikib talaffuz qilinganda, **v** fonemasi kabi aytiladi va ba‘zan shunday yoziladi: *kabob* – *kavob*, *qobirg‘a* - *qovurg‘a*, *sabil* – *savil*, *qurbaqa* – *qurvaqa*, *ko‘ra ber* – *ko‘raver* kabi.

So‘z boshida kelgan **b** fonemasi ayrim shevalarda talaffuz paytida **m** fonemasiga o‘tadi: *murch* > *burch* (garmdori – Xorazm shevasida). Tarixan **b** va **m** fonemalarining almashinuvi turkiy tillarda kuzatiladi: *ben* – *men*, *bunga* – *munga* va h.

V fonemasi – lab-lab va lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangli undosh fonemasi. So‘zning boshida (*vazifa*, *vafo*), o‘rtasida (*sovun*, *lavlagi*, *taqvim*) va oxirida (*o‘tov*, *birov*) kela oladi. Sof o‘zbekcha so‘zlarda bu fonema so‘z boshida deyarli qo‘llanmaydi.

M fonemasi - lab-lab, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*mehr*, *mo‘ylov*, *mulk*), o‘rtasida (*omon*, *umr*) va oxirida (*tom*, *bodom*, *qadam*) kela oladi.

P fonemasi – lab-lab, sof portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*pilla*, *po‘choq*, *parda*), o‘rtasida (*opa*, *qipiq*, *to‘piq*) va oxirida (*cho‘p*, *top*, *sop*) kela oladi. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oxirida bu fonema deyarli uchramaydi.

F fonemasi - lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, faqat o‘zbek tiliga arab, fors va rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning boshida (*faqir*, *oftob*, *fabrika*), o‘rtasida (*qofiya*, *iffat*, *kofe*) va oxirida (*sarf*, *urf*) kela oladi. Ba‘zi so‘zlarda talaffuzda **p** fonemasi bilan almashadi: *foyda* > *poyda*, *Farida* > *Parida*. Bunday o‘zgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

2.Til undoshlari

T fonemasi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*to‘ti*, *tuxum*), o‘rtasi (*katta*, *vatan*) va oxirida (*savat*, *qavat*, *harakat*) kela oladi. O‘zbek milliy tilining o‘g‘uz lahjasiga mansub shevalarda **t** ba‘zan **d** ga o‘tadi: *tuz* > *duz*, *o‘t* > *o‘d* kabi. Bu o‘tishlar adabiy orfografiyada ifodalanmaydi.

Arab, rus yoki fors-tojik tillaridan o‘zlashtirigan so‘zlardagi qo‘sh undoshlar tarkibidagi **t** fonemasi talaffuzda ko‘pincha tushib qoladi: *g‘isht* > *g‘ish*, *pastqam* > *pasqam*, *taksist* > *taksis* kabi. Bu o‘zgarish yozma imloda aks etmaydi.

D fonemasi til oldi, portlovchi, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*devor*, *do‘kon*, *dala*), o‘rtasida (*shabada*, *sodda*, *to‘da*) va oxirida (*qasd*, *hudud*, *gard*) kela oladi. So‘z oxirida kelgan **d** fonemasi talaffuzda hamma vaqt jarangsizlashadi va **t** fonemasiga o‘tadi: *Asad*>*Asat*, *Samarqand*>*Samarqant*, *Xo‘jand*>*Xo‘jant* kabi. Bu fonema ham o‘zlashma so‘zlar tarkibidagi qo‘sh undoshlar ichida kelganda tushib qolishi mumkin: *farzand*>*farzan*, *baland*>*balan*.

N fonemasi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*nom*, *nima*, *nusxa*), o‘rtasida (*aniq*, *tiniq*) va oxirida (*un*, *to‘n*, *son*) kela oladi. Bu fonema ayrim so‘zlar tarkibida **b** yoki **m** fonemalaridan oldin kelganda, shu fonemalar ta‘sirida talaffuzda (yozuvda aslicha yoziladi) **m** fonemasiga o‘tadi: *manba*>*mamba*, *tanbal*>*tambal*, *ko‘nmadi* >*ko‘mmadi* kabi.

S fonemasi til oldi, sirg‘aluvchi, shoqinli, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*soat*, *semiz*, *sabr*), o‘rtasida (*asar*, *mustaqil*, *osma*) va oxirida (*tus*, *mos*, *tovus*) kela oladi. Bu fonema o‘zbek tilidagi eng faol qo‘llanadigan fonemalardan biridir.

Z fonemasi til oldi, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*zahar, zehn, zina*), o'rtasida (*Aziza, andoza, qiziq*) va so'z oxirida (*tig'iz, qarz, yulduz*) kela oladi; bu fonema sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida deyarli qo'llanmaydi. Ayrim so'zlar tarkibida yonidagi jarangsiz fonemalar ta'sirida ko'pincha **s** fonemasiga o'tadi: *rizq > risq, tuzsiz > tussis*. Bu fonema ba'zi so'zlarda **y** fonemasiga mos kelishi mumkin: *sizlamoq > siylamoq, so'zlamoq > so'ylamoq, yozmoq > yoymoq* kabi.

Sh fonemasi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh fonemas bo'lib, so'z boshida (*shart, shahar, sholi*), o'rtasida (*hashar, o'sha*) va oxirida (*qish, yosh, tashvish*) keladi. Bu fonema so'zlarning turli o'rinlarida ko'p qo'llanadi.

J til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh fonema arab, fors-tojik va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning boshida (*janr*), o'rtasida (*vijdon, sajda, furajka*) oxirida (*garaj*) uchraydi.

J til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli undosh fonema so'zning boshida (*jamalak, jabr, jilov*), o'rtasida (*kajava, ojiz, o'jar*) va oxirida (*xorij, xiroj, saj*) keladi. Bu fonema o'zbekcha so'zlar oxirida deyarli qo'llanmaydi. O'zlashma so'zlar oxirida qo'sh undoshlar tarkibida kelgan **J** fonemasi **ch** fonemasiga o'xshab talaffuz qilinadi: *mavj > mavch, avj > avch*.

Ch fonemasi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo'lib, so'zning boshida (*chaqa, chigit, chuqur*), o'rtasida (*achchiq, ochiq, ko'cha*) va oxirida (*och, uch, kech*) keladi. Ayrim so'zlarda o'zidan keyingi jarangsiz undoshlar ta'sirida talaffuzda **sh** fonemasiga o'tadi: *kechdi > keshti, qochdi > qoshti, sochdi > soshti*.

L fonemasi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, jarangli (sonor) undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*lagan, latifa, lof*), o'rtasida (*olis, uloq, belgi*) va oxirida (*kasal, kel, yol*) keladi. Bu fonema so'z o'rtasida kelganda so'zlashuv nutqida ko'pincha tushib qoladi: *olsa > osa, kelsa > kesa, bo'lsa > bo'sa, kelgan > kegan*.

R fonemasi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, titroq, sonor, jarangli undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*randa, rang, ruh*), o'rtasida (*arra, mo'ri, baraka*) va oxirida (*bozor, hozir, huzur*) keladi. Bu fonema sof o'zbekcha (turkiycha) so'zlar boshida qo'llanmaydi.

Y fonemasi til o'rta, sirg'aluvchi va jarangli undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*yigit, yo'l, yil*), o'rtasida (*sayr, qayir*) va oxirida (*to'y, uy, oy*) keladi.

K fonemasi til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*katta, kim, ko'p*), o'rtasida (*ikki, aka, uka*) va oxirida (*tilak, yuk, to'k*) keladi. Bu fonema bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda, **k** fonemasi **g** fonemasiga o'tadi va bu holat yozuvda ham aks etadi: *malak > malagi, ko'ylak > ko'ylagim*.

G fonemasi til orqa, sof portlovchi, jarangli undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*gulxan, gilam, go'zal*), o'rtasida (*tugun, agar, egri*) va oxirida (*barg, biolog, pedagog*) keladi. Bu fonema sof o'zbekcha so'zlar oxirida deyarli qo'llanmaydi. **G** fonemasi bilan boshlanadigan qo'shimchalar **k** fonemasi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda **k** fonemasiga, **q** fonemasi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda esa **q** fonemasiga aylanadi: *ko'k+ga > ko'kka, boq+gan > boqqan*. O'zlashma so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: *geologga, biologga*.

Ng fonemasi til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, jarangli, sonor undosh fonema bo'lib, so'z boshida mutlaqo uchramaydi. So'z o'rtasida (*yangi, bangi*) va oxirida (*bodring, ong*) keladi.

Q fonemasi chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*qadr, qovoq, qo'l*), o'rtasida (*oqil, baqir, chuqur*) va oxirida (*o'roq, yo'q*) keladi. Bu fonema ayrim ko'p bo'g'inli so'zlar oxirida kelganida unli bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilsa, **g** fonemasiga almashadi: *quloq+im > qulog'im, to'yoq+i > tuyog'i. To'qson, maqtov, maqsad* kabi so'zlarda esa **x** fonemasiga o'xshab talaffuz qilinadi.

G' fonemasi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh fonemas bo'lib, so'z boshida (*g'azab, g'ildirak, g'o'za*), o'rtasida (*dag'al, og'ir, o'g'ri*) va oxirida (*tog', bug', tig'*) keladi.

X fonemasi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh fonema bo'lib, so'z boshida (*xabar, xurjun, xol*), o'rtasida (*paxta, axir*) va oxirida (*six, mix*) qo'llanadi.

3. Bo'g'iz undoshi

H fonemasi bo'g'izda hosil qilinadigan, sirg'aluvchi, jarangsiz fonema bo'lib, so'z boshida (*halol, hikoya, hukumat*), o'rtasida (*sayohat, ohu*) va oxirida (*sayyoh, eh*) qo'llanadi. Bu fonema asosan arab, fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda uchraydi.

Qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi

Ma'lumki, unli fonemalar so'zlarni shakllantirishda yakka holda, qo'sh holatda va ketma-ket holda qo'llanadi. Unlilarning yakka holatda kelishi o'zbek tili tabiatiga xos bo'lib, turli tipdagi ikki unli ketma-ket bir o'rinda kelishi yoki bir xil unlining bir o'rinda **qo'sh** holda qo'llanishi (*poema, doim, sanoat, taajjub, matbaa*) turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida boshqa tillarning ta'siri, xalqlarning o'zaro aloqasi tufayli paydo bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *ao, oa, oi, ia, io* kabi turli unlilarning ketma-ket bir o'rinda kelish hollari mavjud: *jamoat, faol, doira, ...*

Bir xil unlilarning *aa, uu, ii, oo* kabi qo'sh kelish hollari uchraydi: *taalluqli, shuur, badiiy, inshoot*. Deyarli barcha undoshlar qo'sh holatda (*g, x, h, g'* undoshlari bundan mustasno) qo'llanadi: *qubba, avval, sodda, mijja, lazzat, tayyor, ikki, alla, omma, anneksiya, oppoq, burro, issiq, o'ttiz, iffat, achchiq, ishshaymoq, to'qqiz*. Bu undoshlar talaffuzda ham qo'sh tarzda aytiladi. Bu hodisa aloqalarning kengayishi tufayli yangi so'zlar hisobiga boyimoqda: *musson, Anna, Emma, milliard, affiks*. Qo'sh unlilar so'zning o'rtasida (*manfaat*), so'z oxirida (*mutolaa*), qo'sh undoshlar esa so'z boshida (*ssenariy*), o'rtasida (*qattiq*) va oxirida (*kongress*) qo'llanadi.

Turkiy tilga turli tipdagi undoshlarning so'z oxirida **ketma-ket (qator)** kelishi qo'sh undoshlarga nisbatan ancha ilgari o'zlashdi: *daraxt, g'isht, payvand, Samarqand, baxt, xursand* kabi.

O'zbek tilida oldin so'z boshida undoshlarning ketma-ket kelish hollari yo'q edi, rus tili va boshqa tillarning ta'sirida adabiy tilimizda bu holat ham paydo bo'ldi: *brom, drezina, ftor, grek, krem, stol, traktor, xrom, shkaf* kabi.

Fonemalar bo'g'in, so'z va jumla tarkibida qo'llanib, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi va buning natijasida xilma-xil o'zgarishlarga uchraydi. Nutq zanjiridagi fonemalarning turlicha o'zgarishlari **fonetik o'zgarishlar** deb ataladi.

Fonetik o'zgarishlar fonemalarning o'zaro ta'siri natijasida yoki fonemalarning so'z tarkibidagi o'rniga qarab ro'y berishi mumkin. shunga ko'ra ular ikki xil bo'ladi:

1. Kombinator o'zgarishlar.

2. Pozitsion o'zgarishlar.

Masalan: *ketdi* va *obod* so'zlaridagi **d** undoshi **t** undoshi kabi talaffuz qilinadi. [ketti], [obot]; birinchi holatda jarangli **d** undoshi jarangsiz **t** undoshi ta'sirida o'zgaradi (kombinator o'zgarish yuz beradi); ikkinchi holatda so'z oxirida kelgan jarangli **d** undoshi jarangsizlashadi (demak, pozitsion o'zgarish yuz beradi).

1. Kombinator o'zgarishlar

So'z tarkibidagi fonemalarning o'zaro ta'siriga ko'ra o'zgarishi **kombinator o'zgarishlar** deyiladi. Bunga **assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilyatsiya (*ingl. assimilation* - o'xshatish degani²⁶) hodisasiga ko'ra so'z tarkibidagi bir xil toifadagi fonemalardan biri ikkinchisini o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib oladi. Masalan: *chiq+gan* → *chiqqan*. Bunda o'zak tarkibidagi **q** fonemasi affiks tarkibidagi **g** fonemasini aynan o'ziga o'xshash fonema **q** ga aylantiriladi; *tosh+gan* → *toshkan*. Bunda o'zakdagi jarangsiz **sh** fonemasi affiks tarkibidagi **g** fonemasini o'ziga qisman o'xshatadi, yozilishi: *toshgan*. Shunga ko'ra assimilyatsiya ikki turga bo'linadi:

1) to'liq assimilyatsiya;

2) to'liqsiz assimilyatsiya.

So'z tarkibidagi bir fonemaning boshqasini aynan o'zi kabi fonemaga aylantirishi **to'liq** assimilyatsiyadir: *bir+ta* = *bitta*, *tuz+sa* = *tussa*, *ayt+di* = *aytti*, (yozilishi *tuzsa, aytdi*).

So'z tarkibidagi bir fonemaning boshqasini qisman o'xshatib olishi **to'liqsiz** assimilyatsiya bo'ladi: *ish+ga* = *ishka*, *osh+di* = *oshti*, *shan+ba* = *shamba*, (yozilishi: *ishga, oshdi, shanba*).

²⁶ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 52.

Oldin kelgan fonema o'zidan keyin kelgan fonemani (masalan, *bilak+ga=bilakka*) yoki aksincha keyin kelgan fonema o'zidan oldin kelgan fonemani (masalan, *non+voy novvoy*) o'ziga aynan yoki qisman o'xshatishi mumkin. Shunga ko'ra assimilyatsiya yana ikki turga ajratiladi:

1) **progressiv assimilyatsiya**;

2) **regressiv assimilyatsiya**.

Progressiv assimilyatsiyada oldingi fonema o'zidan keyin fonemani o'ziga o'xshatadi: *qishloq+ga→qishloqqa*, *idish+da→idishta*, *ko'k+ga→ko'kka* (yozilishi *qishloqqa*, *idishda*, *ko'kka*).

Regressiv assimilyatsiyada keyingi fonema o'zidan oldingi fonemani o'ziga o'xshatadi: *tanbur→tambur*, *mazkur→maskur*, (yozilishi: *tanbur*, *mazkur*).

O'zgargan fonemalar orasidagi masofa jihatidan assimilyatsiya ikkiga bo'linadi:

1) **kontakt assimilyatsiya** yonma-yon kelgan undoshlarning o'zaro o'xshash bo'lib qolishidir: *oq+gan→oqqan*; 2) **distant assimilyatsiya** uzoqda joylashgan fonemalarning o'zaro ta'sir natijasida o'zgarishidir: *soch→choch*.

2. **Akkomodatsiya** (ingl. **accommodation** – *moslashuv* degani²⁷) hodisasida unli va undosh tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida o'zaro moslashuvdir. Masalan, *go'zal* so'zidagi *o* orqa qator unlisi *g* undoshi ta'sirida old qator unliga aylanadi. Bunda ikki holat kuzatiladi: 1) **unli undoshga moslashadi** (misol yuqorida); 2) **undosh unliga moslashadi**: *shafqat* so'zidagi *f* undoshi lab-tish undoshi hisoblansa, *pufak* so'zida bu fonema *u* unlisining ta'sirida lab-lab undoshiga o'zgaradi, uni lab va tish orqali talaffuz qilishning iloji yo'q.

Akkomodatsiya ham moslashgan tovushlarning **o'rniga** qarab ikki xil bo'ladi: a) **progressiv akkomodatsiyada** oldingi tovush keying tovushga ta'sir qiladi: *gul* so'zidagi oldingi *g* tovushi keyingi orqa qator *u* unlisini old qator unliga aylantiradi; b) **regressiv akkomodatsiyada** keyingi tovush oldingisini o'zgartiradi: *bukmoq* so'zidagi *k* undoshi o'zidan oldingi orqa qator *u* unlisini old qator unliga o'zgartiradi.

3. **Dissimilyatsiya** (ingl. **dissimilation** – *noo'xshashlik* deganidir) hodisasiga ko'ra ikkita aynan yoki qisman bir xil fonemadan biri o'zgarib, noo'xshash fonemaga aylanadi: *zarur→zaril*, *mabodo→nabodo*, *bebosh→bevosh* (yozilishi: *zarur*, *mabodo*, *bebosh*).

Dissimilyatsiya ham o'zgarishning yo'nalishiga qarab ikki xil bo'ladi: a) **progressiv dissimilyatsiyada** keyingi tovush o'zgarishga uchraydi: *birorta → birona*; b) **regressiv dissimilyatsiyada** oldingi tovush o'zgarishga uchraydi: *to'qson → to'xson*.

4. **Metateza** (ingl. **metathesis** – *o'rin almashish* deganidir²⁸) hodisasiga ko'ra so'z tarkibidagi tovushlar o'rin almashadi: *daryo→dayro*, *ahvol→avhol*, *tuproq→turpoq*, *yomg'ir→yong'ir* (yozilishi: *daryo*, *ahvol*, *tuproq*, *yomg'ir*).

2. Pozitsion o'zgarishlar

So'z tarkibidagi tovushlarning o'rniga ko'ra o'zgarishi **pozitsion o'zgarishlar** deyiladi. Bunga quyidagi hodisalar kiradi:

1. **Aferezis** – keyingi so'z boshidagi unlikning tushirilishi: *ne uchun→nechun*.

2. **Apokopa** – so'z oxiridagi tovushning tushirib qoldirilishi: *do'st →do's*, *farzand →farzan*, *Toshkent →Toshken*, *Samarqand →Samarqan*.

3. **Eliziya** – unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlanadigan so'zning qo'shilishi natijasida birinchi so'z oxiridagi unlikning tishishi: *yoza oldi →yozoldi*, *bora oldi →boroldi* kabi.

4. **Epenteza** – so'z o'rtasida tovush orttirilishi: *sinf→sinif*, *fikr →fikir*, *aql →aqil* kabilar.

5. **Epiteza** – so'z oxirida tovush orttirilishi: *otpusk→otpuska*, *kiosk →kioska*, *tank →tanka* kabi.

6. **Geminatsiya** – so'zdagi bir undoshning ikkilantirilishi: *maza→mazza*, *achi+q→acchiq*, *isi+q→issiq*.

7. **Degeminatsiya** – geminatsiyaning teskarisi: *sen+ni→seni*, *qay+yoqqa→qayoqqa*.

8. **Prokopa** – so'z boshida tovush tushirilishi: *yilon →ilon*, *yigna→igna*.

9. **Proteza** – so'z boshida tovush orttirilishi: *rus →o'ris*, *shkaf →ishkaf*, *stol →ustol* kabi.

²⁷ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 19.

²⁸ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 477.

10. Reduksiya – unli tovushning urgʻusiz boʻgʻinda kuchsizlanishi: *bilan*→*bɒlan*, *biroq*→*bɒroq*, *birikma*→*bɒrikma* kabi.

11. Sandxi - toʻliqsiz feʼllarning birinchi tovushi tushirib, oldingi feʼlga qoʻshib yozilishi: *kelar* *edi*→*kelardi*.

12. Singarmonizm - unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uygʻunligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi. Bunga koʻra soʻzlarning oldingi boʻgʻinida qanday unli kelsa, keyingi boʻgʻinida ham shunday unli kelishi kerak: *burun*, *quruq*, *uzun*. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati buzilgan. Masalan, *bola* soʻzida birinchi unli til orqa boʻlsa, ikkinchisi til oldi unli.

13. Sinkopa – soʻz oʻrtasidagi tovushning tushib qolishi: *sust+ay*→*susay*, *pastqam*→*pasqam* (*pastqam*), *oʻgil*→*oʻgʻli*, *burun*→*burni*, *shahar*→*shahri* kabi.

14. Sinerezis - ketma-ket kelgan unilarning bir choʻziq unli sifatida aytilishi: *mudofaa*→*mudofa*:, *maorif*→*mo:rif*.

15. Spirantizatsiya – ayrim jarangsiz undoshlarning jaranglilashuvi: *koʻylak+i*→*koʻylagi*, *oʻchog+i*→*oʻchogʻi*.

Fonemalar boʻgʻin, soʻz va jumla tarkibida qoʻllanib, bir-biriga taʼsir koʻrsatadi va buning natijasida xilma-xil oʻzgarishlarga uchraydi. Nutq zanjiridagi fonemalarning turlicha oʻzgarishlari **fonetik oʻzgarishlar** deb ataladi.

Fonetik oʻzgarishlar fonemalarning oʻzaro taʼsiri natijasida yoki fonemalarning soʻz tarkibidagi oʻrniga qarab roʻy berishi mumkin. shunga koʻra ular ikki xil boʻladi:

1. Kombinator oʻzgarishlar.

2. Pozitsion oʻzgarishlar.

Masalan: *ketdi* va *obod* soʻzlaridagi **d** undoshi **t** undoshi kabi talaffuz qilinadi. [ketti], [obot]; birinchi holatda jarangli **d** undoshi jarangsiz **t** undoshi taʼsirida oʻzgaradi (kombinator oʻzgarish yuz beradi); ikkinchi holatda soʻz oxirida kelgan jarangli **d** undoshi jarangsizlashadi (demak, pozitsion oʻzgarish yuz beradi).

1. Kombinator oʻzgarishlar

Soʻz tarkibidagi fonemalarning oʻzaro taʼsiriga koʻra oʻzgarishi **kombinator oʻzgarishlar** deyiladi. Bunga **assimilyatsiya**, **dissimilyatsiya**, **metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilyatsiya (*ingl. assimilation* - oʻxshatish degani²⁹) hodisasiga koʻra soʻz tarkibidagi bir xil toifadagi fonemalardan biri ikkinchisini oʻziga aynan yoki qisman oʻxshatib oladi. Masalan: *chiq+gan*→*chiqqan*. Bunda oʻzak tarkibidagi **q** fonemasi affiks tarkibidagi **g** fonemasini aynan oʻziga oʻxshash fonema **q** ga aylantiriladi; *tosh+gan*→*toshkan*. Bunda oʻzakdagi jarangsiz **sh** fonemasi affiks tarkibidagi **g** fonemasini oʻziga qisman oʻxshatadi, yozilishi: *toshgan*. Shunga koʻra assimilyatsiya ikki turga boʻlinadi:

1) toʻliq assimilyatsiya;

2) toʻliqsiz assimilyatsiya.

Soʻz tarkibidagi bir fonemaning boshqasini aynan oʻzi kabi fonemaga aylantirishi **toʻliq** assimilyatsiyadir: *bir+ta*=*bitta*, *tuz+sa*=*tussa*, *ayt+di*=*aytti*, (yozilishi *tuzsa*, *aytdi*).

Soʻz tarkibidagi bir fonemaning boshqasini qisman oʻxshatib olishi **toʻliqsiz** assimilyatsiya boʻladi: *ish+ga*=*ishka*, *osh+di*=*oshti*, *shan+ba*=*shamba*, (yozilishi: *ishga*, *oshdi*, *shanba*).

Oldin kelgan fonema oʻzidan keyin kelgan fonemani (masalan, *bilak+ga*=*bilakka*) yoki aksincha keyin kelgan fonema oʻzidan oldin kelgan fonemani (masalan, *non+voy novvoy*) oʻziga aynan yoki qisman oʻxshatishi mumkin. Shunga koʻra assimilyatsiya yana ikki turga ajratiladi:

1) progressiv assimilyatsiya;

2) regressiv assimilyatsiya.

Progressiv assimilyatsiyada oldingi fonema oʻzidan keyin fonemani oʻziga oʻxshatadi: *qishloq+ga*→*qishloqqa*, *idish+da*→*idishda*, *koʻk+ga*→*koʻkka* (yozilishi *qishloqqa*, *idishda*, *koʻkka*).

Regressiv assimilyatsiyada keyingi fonema oʻzidan oldingi fonemani oʻziga oʻxshatadi: *tanbur*→*tambur*, *mazkur*→*maskur*, (yozilishi: *tanbur*, *mazkur*).

²⁹ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 52.

O'zgargan fonemalar orasidagi masofa jihatidan assimilyatsiya ikkiga bo'linadi: **1) kontakt assimilyatsiya** yonma-yon kelgan undoshlarning o'zaro o'xshash bo'lib qolishidir: *oq+gan→oqqan*; **2) distant assimilyatsiya** uzoqda joylashgan fonemalarning o'zaro ta'sir natijasida o'zgarishidir: *soch→choch*.

2. Akkomodatsiya (ingl. **accommodation** – moslashuv degani³⁰) hodisasida unli va undosh tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida o'zaro moslashuvdir. Masalan, *go`zal* so'zidagi *o`* orqa qator unlisi *g* undoshi ta'sirida old qator unliga aylanadi. Bunda ikki holat kuzatiladi: **1) unli undoshga moslashadi** (misol yuqorida); **2) undosh unliga moslashadi**: *shafqat* so'zidagi *f* undoshi lab-tish undoshi hisoblansa, *pufak* so'zida bu fonema *u* unlisining ta'sirida lab-lab undoshiga o'zgaradi, uni lab va tish orqali talaffuz qilishning iloji yo`q.

Akkomodatsiya ham moslashgan tovushlarning **o`rniga** qarab ikki xil bo'ladi: **a) progressiv akkomodatsiyada** oldingi tovush keying tovushga ta'sir qiladi: *gul* so'zidagi oldingi *g* tovushi keyingi orqa qator *u* unlisini old qator unliga aylantiradi; **b) regressiv akkomodatsiyada** keyingi tovush oldingisini o'zgartiradi: *bukmoq* so'zidagi *k* undoshi o'zidan oldingi orqa qator *u* unlisini old qator unliga o'zgartiradi.

3. Dissimilyatsiya (ingl. **dissimilation** – noo'xshashlik deganidir) hodisasiga ko'ra ikkita aynan yoki qisman bir xil fonemadan biri o'zgarib, noo'xshash fonemaga aylanadi: *zarur→zaril*, *mabodo→nabodo*, *bebosh→bevosh* (yozilishi: *zarur*, *mabodo*, *bebosh*).

Dissimilyatsiya ham o'zgarishning yo`nalishiga qarab ikki xil bo'ladi: **a) progressiv dissimilyatsiyada** keyingi tovush o'zgarishga uchraydi: *birorta → bironta*; **b) regressiv dissimilyatsiyada** oldingi tovush o'zgarishga uchraydi: *to`qson → to`xson*.

4. Metateza (ingl. **metathesis** – o`rin almashish deganidir<sup>31</sup>) hodisasiga ko'ra so'z tarkibidagi tovushlar o`rin almashadi: *daryo→dayro*, *ahvol→avhol*, *tuproq→turpoq*, *yomg`ir→yong`ir* (yozilishi: *daryo*, *ahvol*, *tuproq*, *yomg`ir*)

2. Pozitsion o'zgarishlar

So'z tarkibidagi tovushlarning o`rniga ko'ra o'zgarishi **pozitsion o'zgarishlar** deyiladi. Bunga quyidagi hodisalar kiradi:

1. Aferezis – keyingi so'z boshidagi unlikning tushirilishi: *ne uchun→nechun*.

2. Apokopa – so'z oxiridagi tovushning tushirib qoldirilishi: *do`st →do`s*, *farzand →farzan*, *Toshkent →Toshken*, *Samarqand →Samarqan*.

3. Eliziya – unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlanadigan so'zning qo'shilishi natijasida birinchi so'z oxiridagi unlikning tishishi: *yoza oldi →yozoldi*, *bora oldi →boroldi* kabi.

4. Epenteza – so'z o`rtasida tovush orttirilishi: *sinf→sinif*, *fikr →fikir*, *aql →aqil* kabilar.

5. Epiteza – so'z oxirida tovush orttirilishi: *otpusk→ otpuska*, *kiosk →kioska*, *tank →tanka* kabi.

6. Geminatsiya – so'zdagi bir undoshning ikkilantirilishi: *maza→mazza*, *achi+q→acchiq*, *isi+q→issiq*.

7. Degeminatsiya – geminatsiyaning teskarisi: *sen+ni→seni*, *qay+yoqqa→qayoqqa*.

8. Prokopa – so'z boshida tovush tushirilishi: *yilon →ilon*, *yigna→igna*.

9. Proteza – so'z boshida tovush orttirilishi: *rus →o`ris*, *shkaf →ishkaf*, *stol →ustol* kabi.

10. Reduksiya – unli tovushning urg'usiz bo'g'inda kuchsizlanishi: *bilan→b~~il~~an*, *biroq →b~~er~~oq*, *birikma →b~~er~~ikma* kabi.

11. Sandxi – to'liqsiz fe'llarning birinchi tovushi tushirib, oldingi fe'lga qo'shib yozilishi: *kelar edi→kelardi*.

12. Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi. Bunga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inida qanday unli kelsa, keyingi bo'g'inida ham shunday unli kelishi kerak: *burun*, *quruq*, *uzun*. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati buzilgan. Masalan, *bola* so'zida birinchi unli til orqa bo'lsa, ikkinchisi til oldi unli.

³⁰ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 19.

³¹ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 477.

13. Sinkopa – soʻz oʻrtasidagi tovushning tushib qolishi: *sust+ay→susay, pastqam→pasqam (pastqam), oʻgil→oʻgʻli, burun→burni, shahar→shahri* kabi.

14. Sinerezis - ketma-ket kelgan unilarning bir choʻziq unli sifatida aytilishi: *mudofaa→mudofa:, maorif→mo:rif*.

15. Spirantizatsiya – ayrim jarangsiz undoshlarning jaranglilashuvi: *koʻylak+i→koʻylagi, oʻchog+i→oʻchogʻi*.

3-MAʼRUZA

ORFOEPIYA.ORFOEPIK MEʼYORLAR. GRAFIKA VA YOZUV TARIXI. IMLO QOIDALARI

REJA:

1. Orfoepiya haqida umumiy maʼlumot.
2. Unli fonemalar orfoepiyasi.
3. Undosh fonemalar orfoepiyasi.
4. Transkripsiya(fonetik yozuv).

Tayanch soʻz va iboralar: Orfoepiya, lahja(dialekt), qipchoq lahjasi, oʻgʻuz lahjasi, qarluq – chigil – uygʻur lahjasi, toʻgʻri talaffuz qilish, unlilar talaffuzi, undoshlar talaffuzi, transkripsiya(fonetik yozuv).

Orfoepiya³² adabiy til talaffuz meʼyorlarini oʻrganuvchi tilshunoslikning sohasidir.

Orfoepiya milliy til uchun yagona talaffuz meʼyorlarini belgilaydi. Maʼlumki, oʻzbek milliy tili dialektik tarkibi jihatdan rang-barang boʻlib, u uch katta lahja(dialekt)ni oʻz ichiga oladi:

1. Qipchoq lahjasi.

2. Oʻgʻuz lahjasi.

3. Qarluq – chigil – uygʻur lahjasi.

Bu lahjalar baʼzi leksik, fonetik va morfologik belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, qipchoq lahjasida soʻz boshida adabiy tildagi **y** undoshi oʻrnida **j** undoshi (*yoʻq→joʻq, yigirma→jigirma*) talaffuz qilinadi: **ch** undoshi oʻrnida **sh** undoshi (*kech→kesh, kechir→keshir*) aytiladi.

Oʻgʻuz lahjasida soʻz boshida kelgan **t, k** jarangsiz undoshlari **d, g** jarangli undoshlari tarzida aytiladi: *togʻ→dogʻ, keldi→galdi*.

Qarluq – chigil – uygʻur lahjasida esa soʻz ohiridagi **q** undoshi **gʻ** tarzida talaffuz qilinadi yoki umuman talaffuz qilanmaydi, **k** undoshi **y** tarzida aytiladi: *qishloq→qishlogʻ*, (yoki *qishlo:*), *iliq→iligʻ* (yoki *ilu:*), *qatiq→qatigʻ* (yoki *qatu:*), *kesak→kesay, kepak→kepay, telpak→telpay*. Lekin, soʻzlar tarkibidagi tovushlar har xil lahjalarda turlicha talaffuz qilinsa ham, adabiy til anʼanalariga mos keladiganlari tanlab olinadi.

Adabiy talaffuz meʼyorlari tilning tovushlar tizimi (sistemi) asosida yaratiladi, bu esa talaffuz meʼyorlarini belgilashda tilning tovush tarkibi, ularning nutqdagi turli kombinator va pozitsion oʻzgarishlarini hisobga olishini taqozo etadi. Masalan, soʻz oxirida kelgan **b** undoshining jarangsiz **p** tarzida aytilishi: *kitop, maktab, kelip* (yozilishi: *kitob, maktab, kelib*), **q** undoshining soʻz oʻrtasida **s** yoki **sh** undoshidan oldin kelib, **x** tarzida talaffuz qilinishi: *oxsil, oxshom, taxsim* (yozilishi: *oqsil, oqshom, taqsim*), baʼzan soʻz oxirida kelgan **d, t** undoshlarining talaffuzda tushib qolishi: *xursan, monan, farzan, doʻs, sus, gʻish* (yozilishi: *xursand, monand, farzand, doʻst, sust, gʻisht*) adabiy talaffuz meʼyorlariga mos.

Koʻrinadiki, soʻzning talaffuzdagi shakli yozuvdagi shakliga hamma vaqt toʻgʻri kelavermaydi. Orfoepiya unlilar talaffuzi, ayrim undoshlar talaffuzi, oʻzlashma soʻzlar talaffuzi, ayrim grammatik shakllar talaffuzi qoidalarini oʻz ichiga oladi.

1. Unlilar orfoepiyasi

i unlisi:

1) *bir, bitta, kir, tiq* kabi bir boʻgʻinli soʻzlarda, *kishi, bilan, bilak, tila, firibgar* kabi ikki boʻgʻinli va koʻp boʻgʻinli soʻzlarda qisqa aytiladi;

³² Orfoepiya - grekcha *orphos* – “toʻgʻri” *epos* – “nutq” degani.

2) chuqur til orqa undoshlari *q, g', x* dan keyin kelganda , qisqa til orqa unlisi kabi talaffuz qilinadi: *qish, qirg'iz, qirmizi, og'iz, g'irrom, xira, axir* kabi;

3) *bino, ahil, do'stlik, birja* kabi so'zlarda, shuningdek, *y* undoshdan oldin kelganda, cho'ziq talaffuz qilinadi: *ziyrak, tiyrak, biyron, tiyin* kabi.

U unlisi:

1) *kun, tun, buvi, buloq* kabi so'zlarda qisqa aytiladi;

2) *maxsus, mag'rur, masrur, urg'u, yozuv* kabi so'zlarda, shuningdek, *y* undoshlaridan oldin kelganda , cho'ziq talaffuz qilinadi: *tuyg'u, buyruq, uyg'ur* kabi;

3) *tugun, tutun, tuzum, tushuncha, ustun* kabi so'zlarning ikkinchi bo'g'inida qisqa *i* tarzida aytiladi.

O' unlisi:

1) *bo'r, zo'r, o't, do'st, to'rva, sho'rva, ko'lanka* kabi bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlarda qisqa talaffuz qilinadi

2) *zo'rg'a, lo'nda* kabi ikki bo'g'inli so'zlarda, shuningdek, takroriy so'zlarning birinchi qismida cho'ziq aytiladi: *zo'r-bazo'r, mo'l-mo'l, ko'p-ko'p* kabi.

E unlisi:

1) *ertalab, erta, erka, ertak* kabi so'zlarda kengroq talaffuz qilinadi;

2) *gerdaymoq, keksa, men, sen, kema* kabi so'zlarda bir oz torroq talaffuz qilinadi;

3) *attestatsiya, delegatsiya, injener, metro, metafora, metonimiya* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg'usiz bo'g'inida *i* tarzida aytiladi.

O unlisi:

1) *ong, tong, son, ot, ol* kabi bir bo'g'inli so'zlarda, *ona, ota, xola, tog'a, bola* kabi ikki bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inida, *bahor, qaror, daho, baho, davo* kabi ikki bo'g'inli so'zlarning ikkinchi bo'g'inida, *obod, ozod, ozor, omon, olomon, oshqozon* kabi ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlarning hamma bo'g'inlarida keladi;

2) hamma bo'g'inida **o** keladigan *tolqon, to'polon, poymol* so'zlarining birinchi yoki ikkinchi bo'g'inini tarkibidagi **o** unlisi **a** tarzida aytiladi;

3) *ocherk, kosmos, tonna* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg'uli bo'g'inida **o'** tarzida aytiladi;

4) *kometa, komediya, botanika, geologiya* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg'usiz bo'g'inida **a** tarzida talaffuz qilinadi;

5) *direktor, traktor, auditor* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa **i** tarzida aytiladi.

A unlisi:

1) *kam, sal, chang* kabi bir bo'g'inli so'zlarda, *dada, aka, katta, kaltak* kabi ikki bo'g'inli so'zlarda, *arava, pakana, mastava* kabi ko'p bo'g'inli so'zlarda **yumshoq** aytiladi;

2) chuqur til orqa undoshlari **q, g', x** undoshlaridan keyin kelib, til orqa unlisi tarzida talaffuz qilinadi: *qarg'a, qalam, g'arb, g'laba, xalta, xabar*;

3) *a'lo, ma'no, da'vo, ta'sir, ma'rifat* kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarning birinchi bo'g'inida **cho'ziq** talaffuz qilinadi;

4) *mudofaa, mutolaa, murojaat* kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlardan bir unli bilan talaffuz qilinadi.

2. Ayrim undoshlar orfoepiyasi

1. So'z oxirida kelgan jarangli *b, v, g, d, j, j, z* undosh tovushlar jarangsiz *p, f, k, t, ch, sh, s* tarzida talaffuz qilinadi:

maktab→[maktap], *Salimov* →[salimɒf], *pedagog*→[pidagok], *zavod*→[zavot], *avj*→[avch], *garaj*[garish], *faraz*→ [faras].

2. ba'zan so'z o'rtasida jarangsiz undoshlardan oldin kelgan **v, z** jarangli undoshlar ham jarangsiyaz **f, s** tarzida aytiladi: *avtobus* →[aftobus], *mazkur*→ [maskur].

3. Ayrim undoshlardan (**g, s, t, sh**) oldin qo'llangan chuqur til orqa portlovchi **q** undoshi sirg'aluvchi **x** tarzida talaffuz qilinadi: *naqd* → [naxt], *maqсад*→ [maxsat], *vaqt*→ [vaxt], *qaqsha*→ [qaxsha].

4. kombinator o'zgarishga uchragan ayrim so'zlar talaffuz me'yorlariga mos deb qaraladi: *manba*→[mamba], *tanbur*→ [tambur], *karnay*→[kannay], *bebosh*→[bevosh], *buncha*→[muncha].

3. Ayrim affiksalar orfoepiyasi

1. Hozirgi o'zbek tilida qaratqich va tushum kelishigi affikslari (*-ning* va *-ni*) bir xil *-ni* tarzida aytiladi. Qiyoslang : *maktabni* (hovlisi), *maktabni* (esladi), *kitobni* (muqovasi), *kitobni* (o'qidi).

2. *Men, sen* olmoshlariga qaratqich kelishigi affiksi (*-ning*), tushum kelishigi affiksi (*-ni*) hamda qarashlilik affiksi (*-niki*) qo'shilganda, **n** undoshi bitta talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan: *men+ning* = *meni*, *sen+ ni* = *seni*, *men+ niki* = *meniki*.

3. Oxiri **b, p, d, t, s, f, x, ch, sh, h** undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilgan jo'nalish kelishigi affiksi **-ka** tarzida aytiladi: *kitobka* (*kitobga*), *kanopka* (*kanopga*), *avlotka* (*avlodga*), *tutka* (*tutga*), *giloska* (*gilosga*), *insofka* (*insofga*), *mixka* (*mixga*), *sochka* (*sochga*), *idishka* (*idishga*).

4. Oxiri **k** yoki **g** bilan tugagan so'zlarga **g** undoshi bilan boshlanadigan *-ga*, *-gan*, *-gach*, *-guncha*, *-gin* affiksalar qo'shilganda, affikslardagi **g** undoshi **k** tarzida aytiladi : *etak-etakka*, *barg - barkka*, *ek - ekkan*, *tug - tukkan* kabi.

5. Oxiri **q** yoki **g'** bilan tugagan so'zlarga **g** undoshi bilan boshlanadigan *-ga*, *-gan*, *gach*, *gunsha*, *-gin* kabi affiksalar qo'shilganda, affikslardagi **g'** undoshi **q** tarzida talaffuz qilinadi: *qishloq - qishloqqa*, *tog' - toqqa*, *chiq - chiqqan*, *sog' - soqqach* kabi.

6. Oxiri **b, p, d, t, s, f, x, ch, sh, h** undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilgan o'rin payt va chiqish kelishigi affikslari *-ta*, *-tan* tarzida aytiladi: *kitopta* (*kitobga*), *kanoptan* (*kanopdan*), *zavottan* (*zavotdan*), *muhlatta* (*muhlatda*), *gilostan* (*gilosdan*), *takliftan* (*taklifdan*), *cho'michda* (*chomichda*).

7. *Dorboz*, *ishqiboz*, *kaptarboz*, *bog'bon*, *darvozabon*, *taroziyon* so'zlari tarkibidagi *-bos*, *-bon* shaklida talaffuz qilindi: *dorvos*, *ishqivos*, *kaptarvos*, *bog'von*, *darvozabon*, *taroziyon* kabi.

Transkripsiya(fonetik yozuv)

Og'zaki nutqda fonemalarning turlicha o'zgarishlarini, har xil variantlarda talaffuz etilishini aniq aks ettiradigan yozuv **fonetik yozuv** yoki **transkripsiya** (*ingl. transcription – qayta yozish degani*³³) deyiladi. Bu yozuvda harflardan tashqari, maxsus belgilar ham ishlatiladi.

Transkripsidagi ko'pchilik belgilar alfavitdagi harflardan farq qilmaydi, ayrim o'rinlarda ba'zi qo'shimcha belgilar olinadi. Lekin transkripsiyada alfavitda bo'lmagan ba'zi belgi – harflar ham qo'llanadi.

Transkripsiyaning asosiy qoidalari va unda ishlatiladigan belgi – harflar quyidagilardan iborat:

1. Transkripsiya qilinadigan tovush yoki nutq parchasi kvadrat qavslarga olinadi: *kitob* – [kitɒp], *telefon* – [tilifon].

2. Transkripsiyada nutqiy taktlar bir – biridan bitta vertikal chiziq bilan, jumlar esa ikkita vertikal chiziq [//] bilan ajratiladi. Katta harflar ishlatilmaydi.

3. Ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'u belgisi qo'yiladi, bir bo'g'inli so'zlarda urg'u qo'yilmaydi: [paxtá], [paxtakór], [gap].

4. [ɔ] belgisi **o** unlisini ifodalaydi: [qɔp], [ɔzɔt], [ɔbɔt].

5. [o] harf belgisi **o'** unlisini ifodalaydi: [ozarɔ], [kon], [sozlar].

6. [ɒ] belgisi *bilan*, *chigit*, *kishi* kabi ko'p bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inidagi hamda *tik*, *bir*, *chit* kabi bir bo'g'inli so'zlarda qisqa til oldi unlisini ifodalaydi: *bɒlan*, *chɒgit*, *kɒshi*, *tɒk*, *bɒr*, *chɒt*.

7. [ʊ] belgisi *qish*, *g'isht*, *xirmon* kabi *qʊsh*, *g'ʊsht*, *xɒrmon*.

8. *b, g, d, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, x, q, g', h* harflari o'z vazifasida ishlatiladi.

9. [v] belgisi *vaza*, *vazir*, *zavod* kabi so'zlarda lab-tish undoshini ifodalaydi: *vaza*, *vazi:r*, *zavot*.

³³ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр.801.

10. [w] belgisi *vodiy, sovuq, saylov* kabi soʻzlarda lab – lab v undoshini ifodalaydi: [wɔdi:], [sɔwɔq], [saylɔw].

11. [f] belgisi *fazo, fabrika, fil* kabi soʻzlarda lab – tish undoshini ifodalaydi: [fazɔ], [fabrika], [fil].

12. [fʻ] belgisi *tufli, tuf, uf* kabi soʻzlarda lab-lab f undoshini ifodalaydi: [tufʻli], [tufʻ], [ufʻ].

13. [ʃ] belgisi *juda, jazo, jilva* kabi soʻzlarda jarangli qorishiq portlovchi undoshini ifodalaydi: [ʃuda], [ʃazo], [ʃilva].

14. [ŋ] belgisi *ng* til orqa burun tovushini ifodalaydi: [oŋ], [eŋ], [miŋ].

15. [ç] belgisi til oldi jarangsiz qorishiq portlovchi *ch* undoshini ifodalaydi: [çɛdam], [çaros].

16. [ʂ] belgisi til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi *sh* undoshini ifodalaydi: [ʂaʂmaqɔm], [ʂaʂka], [ʂarɔyt].

17. Unli tovushning choʻziqligi [ɔ] belgisini unlikning oʻng tomoniga qoʻyilishi bilan koʻrsatiladi [ilmi:], [me:mor], [a:lo].

18. Undosh tovushning yumshoq talaffuz qilinishi [ʲ] belgisini undoshning oʻng tomoniga, teparoqqa qoʻyilishi bilan koʻrsatiladi: [aprelʲ], [iyunʲ], [iyulʲ].

OʻZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

Harflar imlosi

Unlilar imlosi

1. Aa harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, ogʻa; sentabr, noyabr* kabi soʻzlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi soʻzlarning oldingi boʻgʻinida, *vaqt, vahm* kabi soʻzlarda **a** aytiladi va yoziladi.

2. Oo harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi soʻzlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi oʻzlashma soʻzlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. Ii harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi soʻzlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *oʻtin, oʻrik, boʻlim* kabi oldingi boʻgʻinida oʻ unlisi keladigan soʻzlarning keyingi boʻgʻinida **i** aytiladi va yoziladi.

4. Uu harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura; koʻzgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi soʻzlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirgʻovul, chirmovuq* kabi soʻzlarning oldingi boʻgʻinida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq boʻgʻin boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **Oʻoʻ harfi** *oʻt, oʻq, oʻzbek, oʻsimlik, doʻppi; boʻtakoʻz, semizoʻt, gulkoʻrpa, nooʻrin* kabi soʻzlarda orqa qator oʻrta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **Ee harfi** *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; eʻlon, neʻmat, sheʻr* kabi soʻzlarda old qator oʻrta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga *baʻzan y* undoshi qoʻshib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) ia: material, milliard, radiator; tabiat, shariat kabi;

b) io: biologiya, million, stadion, radio kabi;

d) ai: mozaika, ukrain, said, maishat kabi;

e) oi: alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oila kabi;

f) ea: teatr, okean, laureat kabi;

2) **ae, oe** unlilar soʻz ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. Bb harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi soʻzlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi soʻzlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi soʻzlarda baʼzan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. Pp harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi soʻzlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. Vv harfi:

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi oʻzlashma soʻzlarda **v** baʼzan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. Ff harfi:

1) *fan, feʼl, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi soʻzlarda **f** tovushi baʼzan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. Mm harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi soʻzlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. Dd harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *odob, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxoʻr* kabi soʻzlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. Tt harfi *tong, tun; butun, oʻtin, oʻt, kut* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. Zz harfi:

1) *zar, zamon; toza, oʻzbek; yoz, gʻoz* kabi soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, boʻzchi, tuzsiz* kabi soʻzlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. Ss harfi *sogʻ, somon, oson, asos, olmos* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. Sh sh harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq (ʻ) belgisi qoʻyiladi: *Isʻhoq, asʻhob* kabi.

18. Jj harfi:

1) *jon, jahon, jiyya, tijorat; rivoj, vaj* kabi soʻzlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, proyektor; gijda, ajdar, tiraj* kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. Ch ch harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. Rr harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. Ll harfi *lola, loyiq, laʼl; iloj, mahal* kabi soʻzlarda sirgʻaluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. Nn harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, koʻrinmaslik* kabi soʻzlarda **n** tovushi baʼzan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. Gg harfi *gul, goʻzal; ega, gugurt; teg, eg* kabi soʻzlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. Kk harfi *koʻl, koʻylak; uka, moki; tok, bilak* kabi soʻzlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. Yy harfi *yoʻl, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi soʻzlarda til oʻrta sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. Ng ng harflar birikmasi *yangi, koʻngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi soʻzlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. Qq harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. Gʻgʻ harfi *gʻoz, bagʻir, togʻ* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. Xx harfi *xabar, xoʻroz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. Hh harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi boʻgʻiz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; doʻst, artist, gʻisht* kabi soʻzlarda **d, t** tovushi baʼzan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi oʻzlashma soʻzlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qoʻshilsa, soʻz oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar=metallar, kilogramm+mi=kilogrammi* kabi.

32. ʻ – tutuq belgisi:

1) *aʻlo, baʻzan, maʻyus, taʻzim, raʻy, taʻb; eʻlon, eʻtibor, eʻtiqod, meʻmor, neʻmat, sheʻr, feʻl; Nuʻmon, shuʻla* kabi oʻzlashma soʻzlarda unli dan keyin shu unli tovushning choʻziqroq aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi; *moʻjiza, moʻtadil, moʻtabar* kabi soʻzlarda **oʻ** unlisi choʻziqroq aytilsa ham, *tutuq belgisi* qoʻyilmaydi;

2) *inʻom, sanʻat, qatʻiy, masʻul* kabi oʻzlashma soʻzlarda unli dan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi.

Asos va qoʻshimchalar imlosi

33. Qoʻshimcha qoʻshilishi bilan soʻz oxiridagi unli oʻzgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan feʻllarga **-v, -q, -qi** qoʻshimchasi qoʻshilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; soʻra-soʻroq, boʻya-boʻyoq; oʻyna-oʻynoqi, sayra-sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan koʻpchilik feʻllarga **-v, -q** qoʻshimchasi qoʻshilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *oʻqi - oʻquvchi, qazi - qazuvchi, sovi - sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim feʻllarga **-q** qoʻshimchasi qoʻshilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *ogʻri-ogʻriq, qavi-qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha feʻllarga **-uv** qoʻshiladi: *ol-oluv, yoz-yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor feʻlga **-uq** qoʻshiladi: *uz - uzuq, yut - yutuq* kabi.

Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq (shuningdek, bulduriq)* kabi soʻzlarning uchinchi boʻgʻinida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. k, q undoshi bilan tugagan koʻp boʻgʻinli soʻzlarga, shuningdek, *bek, yoʻq* kabi ayrim bir boʻgʻinli soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **gʻ** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak - tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi;*

tayoq-tayog'i, qo'shiq-qo'shig'i, yaxshiroq-yaxshirog'i, yo'q-yo'g'i kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin-o'rnim, qorin-qorni, burun-burning, o'gil-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug' - ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov* kabi;

2) **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha** qo'shimchalari qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shanча kabi*; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) **o, o', u, e** unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari)** shaklida tovush ortirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro'; mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro'* ; *mavqe* so'zlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa **-si** shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi **y** undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda **-si** qo'shiladi: *dohiysi* kabi);

4) **men, sen** olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo'shimchalari ba'zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin **-vachcha** qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi **-di** qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-illa (chirilla, taqilla)** qo'shimchasi so'z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bolganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel so'zidan boshqa*) , shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -guncha, -gani, -gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkani, ekkini, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qatʼi nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bugʻga, sogʻga, ogʻgan, sigʻguncha* kabi.

Qoʻshib yozish

38. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi soʻzlar yordamida yasalgan **qoʻshma ot** va **qoʻshma sifatlar** qoʻshib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bugʻdoyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. -(a) r (inkori -mas) qoʻshimchasi bilan tugaydigan qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: *oʻrinbosar, otboqar, choʻlquvar, ishyoqmas, qushqoʻnmas* kabi.

40. Takror taqlid soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshish bilan yasalgan ot va feʼllar qoʻshib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), oʻxshatish yoʻli bilan bildiruvchi qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: *karnaygul, qoʻziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirgʻiykoʻz* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, oʻzidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: *olaqargʻa, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun moʻljallanganligini bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqoʻra, nosqovoq, koʻzoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: *togʻolcha, choʻlyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryogʻdi, Urtoʻqmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir soʻzga aylanishi bilan yuzaga kelgan qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: *mingboshi, soʻzboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki **obod** soʻzi bilan ifodalangan joy nomlari qoʻshib yoziladi: *Yangiyoʻl, Toʻrtkoʻl, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot boʻlgan joy nomlari ajratib yoziladi: *Oʻrta Osiyo, Koʻhna Urganch, Oʻrta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan oʻzlashtirilgan yoki soʻma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan hosil qilingan qoʻshma soʻzlar qoʻshib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, telekoʻrsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qoʻshiladigan qoʻshimchalar qoʻshib yoziladi: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *OʻzXDP MK (Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

50. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan koʻrsatiladi: *yoʻoʻq, nimaa, himm, uff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft soʻz va takror soʻz qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovuntarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-toʻrt, oʻn-oʻn beshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, oʻylab-netib, soʻramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, yop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bitalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xoʻshlashmoq* kabi;

2) juft soʻz qismlari orasida **-u (-yu)** bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: *doʻst-u dushman (doʻst-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qoʻyasan, uxlabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar* kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (*lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi*).

53. So'zning **-ma, ba-** qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *ro'baro', darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: *keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qo'shimchasi o'miga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7- *sinf*, 5- "A" *sinfi*, 3-, 7-, 8- *sinf o'quvchilari*, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X *sinf* kabi.

Ajratib yozish

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bolsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi* kabi. Lekin **bilan** ko'makchisining **-la** shakli, **uchun** ko'makchisining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha** so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so'zi **yoq, yer** so'zlari bilan ishlatilganda bir **y** tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *on bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. **Yildan yilga, tomdan tomga** kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiqlik darajasini bildiruvchi **ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi** kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga **i** shaklida, unli bilan tigagan so'zlarga **yi** shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimai hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O'rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov),*

Qoratogʻ, Pomir (togʻlar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi boʻlib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va sanʼat asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qoʻyilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *“Tong” (mehmonxona), “Saodat” (firma), „Navroʻz” (xayriya jamgʻarmasi), “Kamalak” (matbaa birlashmasi), „Gʻuncha” (bogʻcha), “Botanika” (sanatori), “Paxtakor” (stadion), “Qutlugʻ qon” (roman), “Dilorom” (opera), “Tanovar” (kuy), “Ozodlik” (haykal), “Jasorat” (yodgorlik), “Sino” (sovutgich) kabi.*

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroʻz bayrami kabi.*

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Oʻzbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.*

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning oʻrinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.*

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunosl instituti kabi.*

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *“Oʻzbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal).* Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *“Sogʻlom avlod uchun” (orden), “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi” (faxriy unvon), “Matbaa aʼlochisi” (nishon) kabi.*

73. Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.*

Eslatma:

1) koʻchirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi soʻzi (agar u atoqli ot boʻlmasa) kichik harf bilan yoziladi: *“Bu men”, – qoʻrqibgina javob berdi koʻlaga (O.Yoqubov);*

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qoʻyiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

– mazkur ishni koʻrib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

– maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar toʻgʻri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qoʻyib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:

1) umumturkiy soʻzlar; 2) oʻzbekcha soʻzlar; 3) tojik tilidan kirgan soʻzlar; 4) arab tilidan kirgan soʻzlar; 5) rus tilidan kirgan soʻzlar (*“Oʻzbek tili” darsligidan*).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot boʻlmagan baʼzi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH (Amerika Qoʻshma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida*

bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (*Toshkent davlat texnika universiteti*) kabi.

Ko'chirish qoidalari

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxta-kor* kabi. **Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi:** *va'-da, ma'-rifat, mash'al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi.

2) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (**sh, ch, ng**) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5 - "A" sinf, V "B" guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *"Navro'z-92" (festival), "O'qituvchi-91" (ko'rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (g'o'za navlari), "Boing-767" (samolyot), „Foton-774" (televizor)* kabi.

82. *A.J.Jabborov, A. D. Abduvaliyev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (*va boshqalar*), **sh.k.** (*shu kabilar*) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

4-MA`RUZA

Leksikologiya. Tarixiy shakllanish jihatidan hozirgi o'zbek adabiy tili . Leksikografiya.

Reja:

1. Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot
2. So'z va leksema munosabati.
3. Leksemaning ifoda va mazmun tomoni.
4. Lug'aviy ma'no va uning tarkibiy qismlari.
5. Leksemalarda bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.
6. Lug'aviy ma'noning turlari.
7. Lug'aviy ma'no taraqqiyoti yo'llari.

Tayanch so'z va iboralar: leksikologiya, lug'at tarkibi, lug'aviy ma'no, leksema, so'z, lug'aviy birlik, nomema, semema, so'z ma'nosining torayishi, so'z ma'nosining kengayishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.

Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot

Oldingi bo'limlarda ta'kidlanganidek, tilda mavjud bo'lgan so'zlar yig'indisi **lug'at tarkibi** yoki **leksika** deb yuritiladi. Lug'at tarkibni o'rganadigan bo'lim esa **leksikologiya** (yun. *lexikos* – lug'atga oid, *logos* – ta'limot) deb ataladi.

Lug'at tarkibiga mansub bo'lmish birlik **so'z** tilshunoslik fanining asosiy birligi bo'lib, u tilning boshqa bo'limlarida, jumladan, morfologiya, so'z yasash va uslubiyat bo'limlarida ham o'rganiladi.

Morfologiyada soʻzning qaysi leksik-grammatik guruhga mansubligi oʻrganilsa, soʻz yasalihi boʻlimida u yasalgan yoki yasalmagan birlik sifatida tekshiriladi. Uslubiyat boʻlimida esa soʻz qoʻllanish maʼqulligi yoki maʼqul emasligi jihatidan tekshiriladi.

Leksikologiya boʻlimida soʻzning ifodalagan maʼnosi, lugʼat tizimida tutgan oʻrni, kelib chiqishi, qoʻllanish darajasi oʻrganiladi. Bu boʻlimda soʻz **lugʼaviy birlik** sifatida oʻrganiladi. Soʻz muayyan tilning lugʼat tarkibiga mansub boʻlganligi uchun leksikologiya mazkur tilning lugʼat tarkibini tizim sifatida tekshiradi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni **inson** soʻzi misolida isbotlashga harakat qilamiz:

Morfologik nuqtai nazardan bu soʻz quyidagi xususiyatlarga ega: 1) ot turkumiga tegishli; 2) turdosh ot, aniq ot, yakka ot; 3) bosh kelishikda; 4) birlikda.

Soʻz yasalihi nuqtai nazaridan bu soʻz quyidagi xususiyatlarga ega: 1) tub soʻz; 2) sifat yasalihi uchun asos boʻla oladi: *insoniy*, *insonparvar*;

Uslubiyat nuqtai nazaridan bu soʻz quyidagi xususiyatlarga ega: 1) kitobiy uslubda qoʻllanadi; 2) hissiy-taʼsiriy boʻyoqqa ega.

Leksikologiya nuqtai nazaridan bu soʻz quyidagi xususiyatlarga ega: 1) lugʼaviy manoga ega; ongʻli mavjudot; 2) bu soʻz *odam*, *kishi*, *bashar* soʻzlariga maʼnodosh hisoblanadi; 3) oʻzbek tiliga arab tilidan kirib kelgan; 4) nisbatan faol soʻz hisoblanadi;

Demak, tilshunoslik har bir boʻlimida soʻzning turli qirralari tadqiq qilinarkan.

Ilmiy adabiyotlarda leksikologiya bir qancha turlarga boʻlinadi.

Oʻrganish obyektining hajmiga koʻra ikki turga boʻlinadi:

1. **Umumiy leksikologiya** dunyodagi barcha tillarning lugʼat tarkibini tekshiradi.

2. **Xususiy leksikologiya** maʼlum bir tilning lugʼat tarkibini oʻrganadi va lugʼat tarkibini **qay holatda** oʻrganishga qarab ikki turga boʻlinadi:

1) **tavsifiy leksikologiya** maʼlum bir tilning lugʼat tarkibini **statik (turgʻun)** holatda, yaʼni uning tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻlanmagan holatda oʻrganadi. Bu yana **sinxronik** (yun. *sin* – “birga”, *chronos* – “vaqt” degani) **leksikologiya** deb ham ataladi.

2) **tarixiy leksikologiya** maʼlum bir tilning lugʼat tarkibini **dinamik (harakatli)** holatda, yaʼni uning tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻlangan holatda oʻrganadi. Bu esa **diaxronik** (yun. *dia* – “orqali”, *chronos* – “vaqt” degani) **leksikologiya** deb ham ataladi³⁴.

Leksemalarda bir maʼnolilik va koʻp maʼnolilik

Til birligi sifatida tan olingan leksemalarda ham bir maʼnolilik va koʻp maʼnolilik mavjuddir. Boshqacha aytganda, bitta leksema bir sememaga, boshqa leksema esa bir necha sememaga ega boʻlishi mumkin.

Til va nutq birliklarini barcha sathlarda farqlay borish lozim. Shunday ekan, bir maʼnolilik va koʻp maʼnolilik hodisalarini taʼriflashda ham shunday yoʻl tutish kerak boʻladi.

Tilshunos olimlar bu oʻrinda lisoniy maʼno va nutqiy maʼnolarni farqlaydilar.³⁵ **Lisoniy maʼno** deganda til birliklariga xos boʻlgan maʼno nazarda tutiladi. **Nutqiy maʼno** esa leksemaning nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda ifodalaydigan maʼnosidir. Masalan, *Poyida yigʻlaydi kumush qor yum-yum (Oybek)* gapidagi *kumush* leksemasi til biligi sifatida “oq-koʻkish rangli yaltiroq, asl metall”³⁶ maʼnosini bildirsa, atoqli adibimiz Oybek bu leksemani “oq rangli” maʼnosida qoʻllagan.

Shuni taʼkidlash lozimki, nutqiy maʼno leksemaning koʻchma maʼnosi emas, chunki bu maʼno hali til vakillarining barchasi tomonidan tan olinmagan, umumlashmagan maʼnodir.

Shunday ekan, biz bu oʻrinda leksemadagi **lisoniy maʼnoning** bitta yoki bittadan ortiq ekanligi haqida soʻz yuritamiz.

Agar leksema bittagina maʼnoga ega boʻlsa, bunday leksemalarga **bir maʼnoli leksemalar** deyiladi. Bu hodisa tilshunoslikda **monosemiya** (yun. *mono* – bir, *sema* - belgi) deb ham yuritiladi. Masalan, *koʻl* leksemasining yagona sememasi quyidagi semalarni qamrab

³⁴ H.A.Jamolxonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2-qism. –T., 2004, 3-4-betlar.

³⁵ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. T., 2006, 53-bet.

³⁶ Oʻzbek tilining izohli lugʼati. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. –T., 2006, 427-bet.

oladi: 1) suvga to'lgan havza; 2) atrofi berk suv havzasi; 3) chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi; Shu leksemaning gap tarkibidagi hosilasi bo'lgan *ko'l* so'zida ham shu ma'nolar mavjud: *Ko'l juda katta edi*.

Ko'pincha lmiy atamalar, atoqli otlar, yangilik bo'yog'i o'chmagan leksemalar bir manoli hisoblanadi.

Agar leksema birdan ortiq ma'noga ega bo'lsa, bunday leksema **ko'p ma'noli leksema** deb ataladi. Bu hodisa tilshunoslikda **polisemiya** (yun. *poli* – ko'p, *sema* – belgi) deb ham yuritiladi.

Masalan, izohli lug'atda **og'ir** so'zining jami 17 ta ma'nosi keltirilgan³⁷. Shulardan ba'zilarini quyida keltiramiz:

- 1) vazni katta bo'lgan, tosh bosadigan, vaznli, vazmin (*og'ir yuk*);
- 2) o'zini tuta biladigan, sipo, vazmin, bosiq (*og'ir, vazmin yigit*);
- 3) muayyan me'yori buzilgan, talabga javob bermaydigan (*og'ir havo*);
- 4) yomon oqibatlariga olib borishi mumkin bo'lgan, jiddiy, xavfli (*og'ir dard*) va h

Sinonimlar va ularning turlari. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) – grekcha *synonymos* yoki *synonymon* – “bir nomli” degan ma'noni bildirib, shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Sinonim so'zlar bir xil predmetlarni (*ovqat, osh, taom*), predmetning bir xil belgisini (*ishchan, harakatchan, tirishqoq*), bir xildagi harakatni (*asramoq, saqlamoq*) bildiradi.

Bunday so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llanadigan so'z **asosiy so'z (dominanta, bosh so'z)** deb ataladi: chiroyli, go'zal, ko'hlik.

Ko'p ma'noli so'zlar ko'chma ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: *o'qishni bitirmoq* – *o'qishni tugatmoq*; *ishni bitirmoq* – *ishni bajarmoq*; *sotib bitirmoq* – *sotib yo'qotmoq*.

Sinonim so'zlar nutqning ta'sirli bo'lishiga yordam beradi. Ular bir xil so'z turkumiga oid bo'ladi: *yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol* (ot); *hayoli, andishali, oriyatli, iboli* (sifat); *yarim, ikkidan bir* (son), *hamma, bari, barcha* (olmosh); *gapirdi, so'zladi* (fe'l), *ko'p, mo'l, bisyor* (ravish); *va, hamda* (bog'lovchi); *kabi, singari, yanglig'* (ko'makchi); *xuddi, naq* (yuklama) va hokazo.

Tildagi o'zlashma (boshqa tildan kirgan) so'zlar o'zbekcha so'zlar bilangina emas, balki o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin: *respublika* (lot.) – *jumhuriyat* (arab.). Tub so'zlar yasama so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: *his* (tub) – *sezqi* (yasama), *savol* (tub) – *so'roq* (yasama), *ho'l* (tub) – *quruq* (yasama). Sinonimik qatordagi so'zlar eskirishi mumkin: *odat, rasm, urf, fan* (rasm, odat); *iltimos, o'tinch, tavallo*; *oqsoq, cho'loq, lang*.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

- 1) **leksik (lug'aviy) sinonimlar.** Bular ham ikki xil bo'ladi:
a) to'liq sinonimlar har jihatdan teng keladigan, o'zaro farq qilmaydigan, birining o'rnida ikkinchisini bimalol qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlardir (bular yana **leksik dubletlar** deb qam yuritiladi): *kosmos* – *fazo*, *respublika* – *jumhuriyat*, *savol* – *so'roq*; **b) ma'noviy sinonimlar** ayrim ma'no nozikliklari bilan farq qiladigan, birining o'rnida ikkinchisini har doim ham qo'llab bo'lmaydigan sinonimlardir: *ovqat, taom, yemish, xo'rak*; *kuldi, jilmaydi, tirjaydi, irjaydi, ishshaydi, irshaydi, xoxoladi*; **2) frazeologik sinonimlar:** *boshi osmonda* – *og'zi qulog'ida* – *do'ppisini osmonga otmoq* (o'ta xursand). **3) leksik-frazeologik sinonimlar** so'z va ibora o'rtasidagi ma'nodoshlikdir: *yuvosh* – *qo'y og'zidan cho'p olmagan*; **4) grammatik sinonimlar** ikki xil bo'ladi: **a) morfologik sinonimlar:** *adabiyotchi* – *adabiyotshunos*, *keldilar* – *kelishdi*. Qo'shimcha va ko'makchilarning o'zaro sinonimligi ham morfologik, ya'ni grammatik sinonimlar jumlasiga kiradi: *maktabga ketdi* – *maktab tomon ketdi*. **b) sintaktik sinonimlar** erkin so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasidagi sinonimlikdir: *dala ishlari* – *daladagi ishlar*; *kitobni o'qidi* – *Kitob o'qildi*.

³⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.3-jild, –T., 2007, 187-189-betlar.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida «Sinonim so'zlar» tushunchasi turli xilda talqin etiladi. Bir guruh olimlar (F.Kamol, M.Mirzayev, U.Tursunov, A.Doniyorov) sinonim so'zlar deganda ma'nosi bir xil, shakli har xil bo'lgan so'zlarni; ikkinchi guruh olimlar (Y.Pinxasov, A.Mirtojiyev, Y.Tojiyev, I.Qo'chqortoyev) ma'nosi bir – biriga yaqin, shakli har xil bo'lgan so'zlarni va uchinchi guruh olimlar esa (A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, H.Ne'matov, E.Qilichev, Sh.Orifjonova) ma'no jihatidan o'xshash, shakl, uslubiy bo'yoq va qo'llanish jihatidan bir-biridan farq qiluvchi so'zlarni tushunishadi. Biz «Ma'nodosh so'z» tushunchasini ta'riflashda uchinchi guruh olimlarning fikriga qo'shilamiz.

Ma'nodosh so'z ma'lum bir matnda ayni bir narsa, belgi, harakat, holat miqdorni turlicha atash vositasi majmuasini tashkil etadi. Masalan, bahor bu yil yurtimizga juda kech kirib keldi. Fasllar kelinchagi hammaning qalbiga olam-olam quvonch olib keldi. Ha, u fasllar ichida eng go'zal fasl. Ko'klamda olam uyg'onadi, bobo dehqon yerga baraka urug'ini qadaydi, issiq o'lkalarga uchib ketgan qushlar yana o'z inlariga qaytadilar. Uyg'onish, yasharish fasli – bahor ana shunday ne'matlarga boy. Ushbu matndagi bahor, u fasllar kelinchagi, ko'klam, uyg'onish, yasharish fasli kabi so'z va so'z birikmalari shu matnda bir tushunchani atab, nomlab kelayapti. Ona tili ta'limi jarayonida tilshunoslikdagi sinonim tushunchasiga tayansak, yuqorida ko'rsatilgan matnni umuman yarata olmaymiz. Zeroki, bahor, u, fasllar kelinchagi ko'klam, uyg'onish, yasharish fasli singarilar bir-biri bilan mutlaqo sinonim emas, balki shu matnda bir-birini bema'lol almashtira oladigan so'z va birikmalardir. Chunki ular ma'lum bir nutq sharoitida ayni bir narsani atab, nomlab keladi, nutq ravonligini, uning ta'sirchanligini ta'minlaydi, boshqacha aytganda lingvistik sinonim bajaradigan barcha vazifani bajara oladi. Yana bir misolni ko'rib o'tsak: Jamol Toshkentdan xursand bo'lib keldi. U bizga poytaxtdan xushxabar olib keldi matnida Karimning u, Toshkentning poytaht so'zlari orasida ma'nodoshlik, qiymatdoshlik va vazifadoshlik aniq ko'rinib turibdi. Chunonchi, poytaxt hamda Toshkent so'zlari orasidagi umumiylik shundaki, Toshkent so'zining semantik strukturasida «O'zbekistonning poytaxti» semasi mavjud. Mana shu asosda poytaxt va Toshkent so'zlari ma'lum matniy sharoitda bir – biriga qiymatdosh, vazifadosh yoki ma'nodosh bo'la oladi. Karim va u so'zlarining o'zaro qiymatdosh yoxud ma'nodosh bo'la olishiga asos shundan iboratki, Karim so'zida ham, u kishilik olmoshida ham shaxs semasi mavjud va ma'lum matniy sharoitda ko'rsatish olmoshi yoki kishilik olmoshi istagan atoqli yoki turdosh otni almashtira oladi.

Biz u va Karim so'zlarini yoxud oq oltin va paxta so'zlarini lingvistik sinonimlar sifatida baholash tarafdori emasmiz. Xuddi shuningdek, tashvish va boshog'riq kabi lisoniy birliklarni bir-biriga lingvistik sinonimi deb baholash fikridan yiroqmiz, biroq nutqda har bir betda, har bir satrda bunday birliklarning bir-birini bema'lol almashtirish, bir-biriga qiymatdosh, vazifadosh va ma'nodosh ekanligidan ko'z yumolmaymiz. Til qonuniyatlari asosida matnda ma'nodosh, qiymatdosh yoxud vazifadosh bo'la oladigan, ya'ni biri o'rnida ikkinchisi bema'lol qo'llana oladigan hodisalarni birgalikda olib tahlil qilsakkina, so'zning barcha ma'nodoshini, qiymatdoshini va ular orasidagi noziq uslubiy va ma'naviy farqlarni anglay olamiz.

Ma'nodosh so'zlar – ma'nolari bir-biriga yaqin so'zlar sirasidir. Chunonchi, yuz – bet – aft – bashara – chehra – jamol – diydor – oraz – ruhsor; yahshi – durust – tuzuq – hub – soz; odam – qishi – inson – qimsa ; shamol – shabada – el qabi suzlar qatori shunday siralardandir.

Ma'nodosh so'zlar qatorida bitta so'z, albatta, umumiy ma'noli, keng iste'molli so'z bo'ladi. Yuqoridagi siralarda yuz, yaxshi, odam, shamol shunday so'zlardir. Bunday so'zlar ma'nodosh so'zlar qatorining bosh, yetakchi yoki asosiy so'zi deb ataladi. Ma'nodosh so'zlar qatoridagi boshqa so'zlarning ma'nosi bosh so'z ma'nosiga nisbatan aniqlanadi. Chunonchi, bet – turq – bashara – yuz tushunchasini salbiy munosabat bilan ifodalasa, chehra - jamol- diydor shu tushunchani ijobiy munosabat bilan ifodalaydi. Oraz – ruxsor so'zlari esa ko'tarinki, badiiy, she'riy uslubga xos ijobiy munosabatli so'zlardir.

O'zbek tilida sinonimlar ko'p qo'llanadi. Lug'aviy sinonimlar ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. To'liq sinonimlar, 2. Ma'naviy sinonimlar.

To'liq sinonimlar ma'nosida va ishlatilishida bir-biridan farq qilmaydi. Masalan, tilshunoslik va lingvistika atamaları aynan bir tushunchani anglatadi, ularning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin.

To'liq sinonimlar boshqa tillardan so'z olinishi natijasida hosil bo'ladi: respublika, jumhuriyat; doston, poema; kosmos, fazo.

Ma'noviy sinonimlarda sinonimik qatordagi so'zlar bir – biridan nozik ma'nosi bilan farq qiladi. Masalan, nam, ho'l, shalabbo sinonimlari ho'llik darajasi, tiqillatdi, taqillatdi, duqillatdi, gursillatdi sinonimlari taqillatish darajasi har xilligini ifodalaydi.

Ma'nodosh so'zlarning qo'llanishiga ko'ra quyidagi turlari mavjud.

Uslubiy sinonimlar ma'lum bir uslubda qo'llanib, boshqa uslubda qo'llanmasligi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, keldi, tashrif buyurdi uslubiy sinonimlaridan tashrif buyurdi so'zi kitobiy uslubdagina ishlatiladi; ko'klam, bahor, oftob, quyosh sinonimlaridan ko'klam, oftob so'zlari o'rnida ilmiy uslubda ko'proq bahor, quyosh so'zlari ishlatiladi.

Sinonimlarning yana bir turi **frazeologik birlik** boshqa bir frazeologik birlikka sinonim bo'ladi. Masalan, qo'lni yuvib qo'ltiqqa urish – xafsalasi pir bo'lish; kayfi uchib ketdi – yuragi yorilayozdi.

Frazeologik birliklar bilan so'zlar sinonim bo'ladi; esi chiqib ketdi – qo'rqdi, yog' tomsa yalaguday - top - toza, lom - mim demadi - gapirmadi, indamadi.

Sinonimlarning yana bir turi - Grammatik sinonimlar bo'lib, ular morfologik va sintaktik sinonimlarga ajratiladi. Hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiluvchi - yapti, -(a) tir, - moqda qo'shimchalari morfologik sinonimlardir. Kuz shamoli, kuzgi shamol, ishni boshlash, ishga kirishish; inshoni o'qish, inshodan o'qish kabi so'z birikmalari; xat yozdim, xat yozildi kabi gaplar sintaktik sinonimlar hisoblanadi.

Lug'aviy, uslubiy, frazeologik va grammatik sinonimlar barchasi birgalikda ma'nodoshlik hodisasini yuzaga keltiradi.

So'zlar kabi qo'shimchalar ham ma'nodoshlik xususiyatiga ega. Demak, sinonim qo'shimchalar vazifasi bir xil bo'lgan qo'shimchalar doirasida, ya'ni so'z yasovchi yoki shakl yasovchi qo'shimchalar doirasida bo'ladi: bexabar – xabarsiz (- be va - siz sifat yasovchi); edir – egiz (- dir va – giz ortirma nisbat yasovchi qo'shimcha). Sifat yasovchi – li, - dor, - ser, - ba qo'shimchalari o'zaro sinonim; savlatli, savlatdor, sersavlat, basavlat.

George Yule Two or more words with very closely related meanings are called synonyms. They can often, though not always, be substituted for each other in sentences. In the appropriate circumstances, we can say, What was his answer? or What was his reply? with much the same meaning. Other common examples of synonyms are the pairs: almost/nearly, big/large, broad/wide, buy/purchase, cab/taxi, car/automobile, couch/sofa, freedom/ liberty.

We should keep in mind that the idea of “sameness” of meaning used in discussing synonymy is not necessarily “total sameness.” There are many occasions when one word is appropriate in a sentence, but its synonym would be odd. For example, whereas the word answer fits in the sentence Sandy had only one answer correct on the test, the word reply would sound odd. Synonymous forms may also differ in terms of formal versus informal uses. The sentence My father purchased a large automobile has virtually the same meaning as My dad bought a big car, with four synonymous replacements, but the second version sounds much more casual or informal than the first.³⁸

Antonimlar va ularning turlari

Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) - grekcha *anti* – “zid”, “qarama-qarshi”, *onoma* yoki *onyma* “nom” degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir. Antonimik juftlikdagi so'zlar faqat bir xil so'z turkumlariga oid bo'ladi: *yer-osmon* (ot), *uzun-qisqa* (sifat), *ko'p - oz* (ravish), *keldi - ketdi* (fe'l).

³⁸ George Yule. The Study of Language. Cambridge University Press. 2010. 117-b.

Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.

Ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin: *qattiq yer – yumshoq yer; qattiq (xasis) odam – saxiy odam*. Antonimik juftlar ko'chma ma'no ifodalashi mumkin: *tun-u kun* (ravishga ko'chgan), *achchiq-chuchuk* (otga ko'chgan).

Bir sinonimik qatordagi antonim so'z sinonimik qatordagi barcha so'zlarga antonim bo'ladi: *chiroyli – go'zal – xushro'y – ko'hlik = xunuk – badbashara – badburush – ta'viya*.

Antonimlikda uchta belgi bor: 1) shakliy jihatdan har xillik; 2) ma'no jihatdan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro ziddlik. Ana shu uchta belgiga ega bo'lgan ikkita so'zgina o'zaro antonim bo'lishi mumkin.

Antonimlar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi. 1. So'z antonimlar. 2. Affiks antonimlar.

Nutqimizda lug'aviy antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir – biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'atga tazod san'ati deyiladi.

O'zbek tilida affiks antonimlar juda kam. – li va siz, ba – be, li – be, qo'shimchalarini olsak, ularni bilimli – bilimsiz, borakali – bebaraka, nuqsonli – benuqson kabi so'zlarda ko'rishimiz mumkin.

So'zlarning o'zaro antonimik munosabat hosil qilishi ma'nodagi ziddlik asosida bo'lar ekan, bu hodisa, sinonimlardagi kabi, faqat bir turkumga oid so'zlar doirasi bilan cheklanadi; *kun – tun, qish – yoz; do'st – dushman, katta – kichik, uzoq – yaqin, boshlamoq – tugatmoq* va hokazo.

Har qanday so'z o'zaro antonimik munosabatga kirishavermaydi. Shunday bo'lishi tabiiy, chunki juda ko'pgina narsa – hodisalar o'zining ziddiga ega emas. Qarama – qarshi juftiga egalik hodisasi ko'proq narsa – hodisalarning belgisida kuzatiladi. Shuning uchun ham antonimiya asosan belgi bildiruvchi so'z (sifat va ravishlar) da uchraydi. Ot va fe'l turkumidagi sanoqli darajadagi atamalar ham ularning belgilaridagi ziddlik asosida yuzaga keladi.

George Yule antonimlarni quyidagicha izohlaydi: Two forms with opposite meanings are called antonyms. Some common examples are the pairs: alive/dead, big/small, fast/slow, happy/sad, hot/cold, long/short, male/ female, married/single, old/new, rich/poor, true/false. Antonyms are usually divided into two main types, "gradable" (opposites along a scale) and "non-gradable" (direct opposites). Gradable antonyms, such as the pair big/ small, can be used in comparative constructions like I'm bigger than you and A pony is smaller than a horse. Also, the negative of one member of a gradable pair does not necessarily imply the other. For example, the sentence My car isn't old, doesn't necessarily mean My car is new.³⁹

Uyadosh so'zlar deganda bir jinsdagi narsa, belgi, harakatning har xil ko'rinishlarini atovchi so'zlar qatori tushuniladi. Chunonchi, otning turlarini atab keluvchi aygir, baytal, biya, qulun, toy, g'o'nan, dunan, saman, turiq, qorabayir, bedov kabi so'zlar; daraxt turlarini atovchi chinor, tol, terak, mirzaterak, baqaterak, oq terak, ko'k terak, majnuntol, qayrag'och, sada archa, qayin, gujum; qovun turlarini atovchi amiriy, sherozi, ko'kcha, qizil urug', bo'rikalla, barginoy; rang turlarini ifodalovchi ko'kish, qizg'ish, qoramtir, oqimtir kabi so'zlar; harakatni ifodalovchi sudralmoq, emaklamoq, siljimoq, elamoq, uchmoq; kulimsiramoq, jilmaymoq, xo-xolamok, kabi tilimizning minglab durdonalari uyadosh so'zlar katoriga kiradi. Ona tilini o'qitish oldida turgan asosiy vazifalardan biri mana shunday so'zlar xazinasini o'quvchilar mulkiga aylantirishdan iboratdir.

Giponimiya

Giponimiya (yunoncha . hipo — ostida, pastda + onoma — nom) deganda leksemalar o'rtasidagi pog'onali munasabatlar tushuniladi. Buni piramida shaklida tasavvur qilish mumkin: uning eng pastida keng tushuncha yotadi, uning ustiga joylashadigan tushunchalar bir-biriga nisbatan torayib boraveradi; yoki buni matryoshka o'yinchog'i misolida ham tushuntirsa bo'ladi.

³⁹ George Yule. The Study of Language. Cambridge University Press.2010.117-b.

Giponimik munosabatlarda giponim va giperonim tushunchalari mavjud.

Giponim — qism mohiyatining butun mohiyatiga boʻlgan munosabatini ifodalaydigan tushunchadir, ya'ni kengroq tushuncha tarkibiga kiradigan torroq tushuncha ifodasidir. Masalan: *ko'ylak* tushunchasi *kiyim* tushunchasi tarkibiga, *sigir* tushunchasi *hayvon* tushunchasi tarkibiga kiradi. Bunda *ko'ylak* va *sigir* soʻzlari **giponim** hisoblanadi.

Giperonim (giper — orttirma -) — umumiylik, tur, narsalar, xususiyatlar, belgilar sinfi kabi tushunchani ifodalaydigan soʻzdir. Masalan, yuqoridagi vaziyatda *hayvon* va *kiyim* soʻzlari **giperonim** hisoblanadi.

Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrogʻi, gipo-giperonimiya), ya'ni tur-jins munosabati.

Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi koʻpgina maʼnoni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon boʻluvchi lugʻaviy birlik. Giponim esa maʼlum jins turining nomini hamda oʻzining semantik tarkibida implitsit tarzda jins maʼnosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy boʻlgan lugʻaviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obʼektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bogʻliq. Masalan, [*daraxt*] giperonimi jins maʼnosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan [*daraxt*] leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, [*daraxt*]-[*qayin*], [*daraxt*]-[*terak*], [*daraxt*]-[*dub*], [*daraxt*]-[*archa*].

Giponimlar teng huquqli boʻlib, giperonimga munosabati bir xil. Oʻz navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bogʻlanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi [*daraxt*] nomi dastlab ikki guruhga boʻlinadi: mevali daraxt va manzarali daraxt. Mevali daraxt oʻz mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksema koʻp maʼnoli boʻlganligi bois bir tomondan [*meva*], ikkinchi tomondan [*daraxt*] giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

[**Meva**]: [*olma*]-[*oʻrik*]-[*shaftoli*]-[*behi*].

[**Daraxt**]: [*olma*]-[*oʻrik*]-[*shaftoli*]-[*behi*].

[*Daraxt*] giperonimi jins tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu jinsning turini bildiruvchi soʻz bilan bogʻlanadi. [*Daraxt*] leksemasi uning turi nomi oʻrnida qoʻllanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim oʻrnida qoʻllanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. Shu boisdan oʻz oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: *oʻrik daraxti*, *shaftoli daraxti* kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema boʻlib xizmat qiladi. Masalan, [*daraxt*] giperonim leksemasining sememasi «tanasidan shoxlanuvchi oʻsimlik» boʻlib, «qizil, yashil, yoki sariq rangli yongʻoqdan piyolagacha boʻlgan hajmdagi sersuv meva beruvchi daraxt» sememasiga ega [*olma*] leksemasining «daraxt» semasi [*daraxt*] giperonim leksemasi semasining sememalashgan koʻrinishi.

Giperonimning maʼnosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va «xiraroq» (noaniqroq), giponim leksemaning maʼnosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va «yorqinroq». Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning maʼnoviy mohiyati barcha giponimining maʼnoviy mohiyati yigʻindisiga teng.

Aytilganidek, daraxt mevali va mevasiz daraxtga boʻlinadi. Demak, borliqdagi bu boʻlinish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema oʻzbek tilida yoʻq. Demak, giponimning oʻrni boʻsh boʻlib, ular leksik lakuna (boʻsh xona) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik toʻldiraverishi mumkin (Masalan: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* soʻz birikmalari).

Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lugʻaviy lakunaga ega boʻladi. Bu boʻsh xona ayni bir jinsning turli belgisi bilan chegaralanmagan miqdorda toʻlib borish imkoniyatiga ega. Masalan, 10 ta uzum nomini biluvchi odam uchun oʻzbek tilidagi 600 ta uzum navi nomining 590 tasi lugʻaviy lakuna hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham («mevali daraxt» va «mevasiz daraxt» tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemani maʼlum bir kishining bilmasligi) boʻlishi mumkin.

Graduonimiya(gr. *gradatio* – “koʻtarilish”, “oʻsish”, *onymo* – “nom”).Lugʻaviy birliklar oʻzaro maʼnoviy munosabatiga koʻra maʼlum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan maʼlum va uning eng yorqin namunasi – *oʻrta* soʻzini oʻz ichiga olgan soʻzlar qatori. Masalan:

Katta– oʻrta– kichik

Yosh– oʻrta– qari

Uzoq– oʻrta– yaqin

Baland –oʻrta– past

Uzun– oʻrta– qisqa.

Maʼlumki *oʻrta* soʻzi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom maʼnoda oʻrtalik, oraliq, yaʼni ikki bir-biriga zid belgi oraligʻidagi holatni koʻrsatadi. *Oʻrta* leksemasi antonimlar oraligʻidan oʻrin olsa, *katta – oʻrta – kichik*darajalanishi kam seziladi. Lekin *oʻrta* leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, maʼlum bir belgining kamayishi yoki oʻsishi asosida idrok etilsa, maʼnoviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Darajalanish qatori aʼzolari kamida uchta boʻladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bogʻlangan soʻzlar qatorini:

a) gʻayrilisoniy asos;

b) sof lisoniy asosgatayanib ajratish mumkin.

Gʻayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson goʻdaklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik holatini, oʻsimlik navnihollik, koʻchatlik, yetilganlik, quriganlik davrini boshidan kechiradi –oʻsadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, boʻyoqchilar birgina qora rangning hatto oʻndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi boʻlganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, *nihol – koʻchat – daraxt, ninni – chaqaloq, goʻdak –bola, buzoq – tana – gʻunajin – sigir* kabi.

Graduonimik lugʻaviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

a) maʼnoviy omil;

b) soʻzlararo paradigmatic munosabat.

Graduonimik qatorni ajratishdagi maʼnoviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida maʼlum bir belgining oz-koʻpligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, *darcha – eshik – darvoza* leksemasining «Oʻzbek tili izohli lugʻati»dagi izohini kuzataylik:

1. Darcha – ilgari vaqtlarda deraza vazifasini oʻtagan bir yoki qoʻsh tavaqali, eshik yoki devorga oʻrnatilgan kichkina eshikcha (OʻTIL, I, 212.)

2. Eshik – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida oʻrnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama (OʻTIL, II, 457).

3. Darvoza – hovli, qo‘rg‘on, qal‘a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa (O‘TIL, I, 209).

Ajratilgan so‘zlar miqdoriy ko‘rsatkichlarni ifodalovchi leksemalardir. Bu *darcha* leksemasi izohidagi *kichkina* va *eshikcha* so‘zlari, *darvoza* leksemasi izohidagi *katta* so‘zi.

Boshqa bir leksema qatorini olamiz: *gulobi* – *pushti* – *qizg‘ish* – *qizil* – *ol* – *qirmizi*.

Bu leksemalar qayd etilgan lug‘atda quyidagicha izohlangan:

1. **Gulobi** – gulob rangli, pushti (O‘TIL, I, 197).
2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil (O‘TIL, II, 608).
3. **Qizg‘ish** – qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg‘imtir (O‘TIL, II, 573)
4. **Qizil** – qon rangidagi, qirmizi, olvali (O‘TIL, II, 570).
5. **Ol** – qizil, qirmizi (O‘TIL, II, 529).
6. **Qirmizi** – qizil rangli, qizil, ol (O‘TIL, II, 581).

Bu tavsif, albatta, mukammal emas. Chunki ular o‘zining graduonimik tizimidan uzib tavsiflangan. Agar ular bir sistema a‘zolari sifatida tahlil etilsa, quyidagi tavsiflarga ega bo‘lishar edi:

1. **Gulobi** – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo‘yoqli rang.
2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to‘qroq.
3. **Qizg‘ish** – pushtidan to‘qroq, qizildan ochroq, qizg‘imtir rang.
4. **Qizil** – qon rang.
5. **Ol** – qizildan to‘qroq rang.
6. **Qirmizi** – to‘q qizil rang.

Demak, lug‘aviy graduonimik qatorni ajratish uchun ma‘noviy omil o‘zaro yaqin tushunchani ifodalovchilar sirasidagi har bir leksemada ma‘lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon bo‘ladi. Shu asosda ma‘noviy omilning o‘zi ikki turga bo‘linadi:

- 1) bir-biriga yaqin va o‘xshash tushunchani ifodalashi;
- 2) ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishi.

Graduonimik qator lug‘aviy paradigmaga qo‘yiladigan quyidagi talabning barchasiga javob berdi:

- 1) lug‘aviy paradigmaning bitta yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashishi;
- 2) lug‘aviy paradigmaning ochiqligi;
- 3) lug‘aviy paradigmaning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga yetakchi leksema bilangina kirishi;
- 4) lug‘aviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma‘lum bir belgining oz-ko‘pligiga qarab, lug‘aviy ma‘noviy qatorda, tizimda namoyon bo‘lishi bo‘lib, bunda dominanta va qurshov leksema farqlanadi.

Lug‘aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiy qonunlari mavjud:

a) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishi qonuni tajallilanadi;

b) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi;

d) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug'aviy ma'noviy qatorni – paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanadi.

Tilning lug'at tarkibidagi so'zlar kelib chiqishi jihatidan turli-tumandir. Dunyoda faqat o'z so'zlaridagina foydalanidan birona til yo'q. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Shunga ko'ra tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarni bir qancha guruhlariga bo'lish mumkin.

O'zbek tili leksikasida o'z qatlam

Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo'limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo'ladi.

O'zbek xalqi qardosh bo'lmagan tojiklar bilan qadimdan aloqada bo'ldi. SHuning tarixiy sabablar bilan bog'liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo'ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan. Bular o'zbek tili leksikasiga ko'plab so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O'z qatlam.
2. O'zlashgan qatlam.

I. O'z qatlam. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kiradi.

1. Umumturkiy so'zlar. Ko'pchilik turkum xalqlar tilida qo'llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar **umumturkiy so'zlar** deyiladi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so'zlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: **o'zbek, qozoq, uyg'ur, boshqird, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no'g'oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qumiq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari** tillari mavjud.

Umuturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi.

Umuturkiy so'zlar turli sohalarga oid bo'lib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuyg'u bildiradigan so'zlar kiradi: *kishi, oyoq, qo'l, bosh, ko'z, qosh, qizil, ko'k, yashil, oq, bir, ikki, uch, to'rt, o'n, kel, tur, yot, o'tir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez* kabi.

2. O'zbekcha so'zlar. O'zbek tili ichida o'zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so'zlar **o'zbekcha so'zlar** deyiladi. O'zbekcha so'zlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida, o'z qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli o'zbekcha so'zlarga shu tildagi so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida hosil qilingan so'zlar: *ter+im+chi, bir+lash+ma, qo'l+lan+ma, o't+kaz+gich, tur+g'un, bola+larcha.*

2. Boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbek tilidagi yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasalgan so'zlar: a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: *mard+lik, jang+chi, do'st+lik, pul+siz*; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: *rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li*; d) ruscha-internotsional so'zlardan yasalgan so'zlar: *sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi.*

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qo'shimchalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: *til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz* va boshqalar.

O'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek o'z affiks bilan boshqa til leksemalaridan yasalishlar tushuniladi.

O'zbek tili lug'at boyligidagi eng qadimgi qism umumturkiy leksemalardan iborat. Bunday leksemalar ko'pchilik turkiy tillarda hozir ham ishlatiladi. Umumturkiy leksemalarning asosini *bosh-*, *ko'z-*, *qosh-*, *qo'l-*, *yuz-*, *uch-*, *yot-*, *bo'l-* kabi bir bo'g'inli tub leksemalar tashkil qiladi. Bulardan tashqari, o'zbek tili lug'at boyligidagi umumturkiy qatlamda *ona-*, *bola-*, *bobo-*, *qora-*, *tekin-* kabi ikki bo'g'inli tub leksemalar ham anchagina.

Hozirgi o'zbek tili lug'at boyligida, ko'pchilik turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qismdan tashqari, o'zbek tilining o'z mustaqil taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan qism ham mavjud. Buni, bir tomondan, o'zbek tilining o'zi doirasidagi yangi-yangi yasalishlarda ko'rsak, ikkinchi tomondan, leksemalarning leksik ma'no taraqqiyoti natijalarida ko'ramiz. Masalan, *boshlang'ich-*, *belgili-*, *yutuqli-*, *yonilg'i-*, *yoqilg'i-*, *yollanma-*, *yozuvchi-* kabi leksemalar – o'zbek tilining o'z imkoniyatlari bilan yasalgan leksemalar.

Bulardan tashqari, boshqa tildan olingan leksemaga o'zbekcha affiksni qo'shib leksema yasash ham avj olgan. Masalan, *jangchi-*, *xizmatchi-*, *traktorchi-*, *ekskavatorchi-*, *paroxodchilik-* kabilarda leksema yasash asosi – boshqa til leksemasi, yasovchilar esa – o'zbek tiliniki.

Buning aksi, ya'ni o'zbekcha leksemaga boshqa tilga xos morfemani qo'shib leksema hosil qilish ham uchraydi. Masalan, *bebosh-* (*bevosh-*), *be-ish-*, *bilimdon-*, *tug'ruqxona-* kabilar shu yo'l bilan yasalgan.

O'zlashgan qatlamga xos leksemalarni o'z qatlam leksemalaridan ajratib olish hamma vaqt yengil bo'lavermaydi. Bularni o'zaro farqlashda ko'pincha leksemalarning tovush tuzilishiga suyanib (ba'zan harfiy ifodasini ham hisobga olgan holda) fikr yuritiladi.

Tovush tuzilishi jihatidan o'z qatlamga xos leksemalarning asosiy belgilari deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) O'zbekcha tub leksemalar asosan bir bo'g'inli, qisman ikki bo'g'inli bo'ladi (uch bo'g'inli, hatto ikki bo'g'inli leksemalar tarixan hosila leksema bo'lib chiqadi);

2) Bir bo'g'inlilarda CVC turi asosiy o'rinni egallaydi, VC turi ikkinchi o'rinda, CV turi esa uchinchi o'rinda turadi;

3) Ikki bo'g'inli leksemalar ko'pincha ochiq bo'g'inlardan tuzilgan bo'ladi;

4) O'zbekcha leksemalar *r*, *l*, *v*, *h* tovushlari bilan boshlanmaydi;

5) O'zbekcha leksemalarda *j* sirg'aluvchi tovushi, *h* bo'g'iz tovushi (ayrim undov va tasvir birliklaridan tashqari) qatnashmaydi;

6) Leksemalarning oxiri *e*, *u* tovushi bilan tugamaydi (ayrim undov va tasvir birliklaridan tashqari);

7) Birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'in ovoz tovush bilan boshlanmaydi;

8) Leksema boshlanishida, ko'pincha leksema oxirida ham ikki va undan ortiq konsonant qatorasiga kelmaydi (*ost-*, *ust-*, *old-*, *ort-* kabi bir necha leksema bundan mustasno);

9) Urg'u leksemashaklning odatda oxirgi bo'g'inida bo'ladi.

Grafik jihatdan o'zbekcha leksemalarda tutuq belgisi ishlatilmaydi.

5-MA'RUZA

MORFEMIKA. SO'Z YASALISHI VA GRAMMATIKA

REJA:

1. Morfemika haqida umumiy ma'lumot.
2. Asos morfema va uning xususiyatlari.
3. Affiks morfema va uning xususiyatlari.
4. Affiksial morfemalarning turlari.
5. Affikslarda shakl va ma'no munosabati.
6. So'zning morfema tarkibidagi o'zgarishlar.
7. Morfologik qayta bo'linish.

Tayanch so'z va iboralar: morfemika, asos morfema, affiks morfema, derivatsion morfema, grammatik morfema, affiksial omonimiya, affiksial sinonimiya, affiksial antonimiya, affiksial pleonazm, affiksial polisemiya, morfonologiya.

Morfemika haqida umumiy ma'lumot

Morfemika soʻzning eng kichik maʼnoli qismlari haqidagi taʼlimotdir. Bu kichik qismlar tilshunoslikda **morfemalar** deb yuritiladi. Masalan, *paxtakorlarimizga* soʻzi *paxta*, *-kor*, *-lar*, *-imiz*, *-ga* qismlaridan iborat. Bu qismlar turli xil soʻzlar tarkibida qatnashib, oʻziga xos maʼnolar ifodalaydi. Bu qismlar yana boʻlinadigan boʻlsa, ularning maʼnosi yoʻqoladi. Demak, morfema soʻzning eng kichik maʼnoli qismidir.

Morfema tarkibiga koʻra fonemalar kompleksidan, baʼzan bitta fonemadan iborat boʻladi. Masalan, *u-ni*, *kitob-i*.

Morfema soʻz tuzilishida zarur boʻlgan eng kichik maʼnoli qism sifatida yasama soʻzlarning ham, soʻz shakllarining ham tarkibiga kiradi va shu shakllarda ajratiladi. Boshqacha aytganda, **morfema affikslari boʻlgan soʻzlardagina ajratiladi**. Masalan, *gulzor*, *paxtakor*, *temirchilik*, *oʻqiganman* kabilar morfemalarga ajratiladi, ammo *uy*, *kitob*, *olma*, *oq*, *koʻm-koʻk* kabi soʻzlar morfemalarga ajratilmaydi. Ular **yaxlit** soʻzlardir.

Morfemalar vazifasiga koʻra soʻz yasalishiga ham, soʻz oʻzgarishiga ham aloqadordir. Masalan, *temir-chi* soʻz yasash hodisasi, *temir-ni* shakl yasash hodisasi. Koʻrinadiki, «yasash» termini (keng maʼnoda) hosil qilish maʼnosini ifodalaydi.

Morfema eng kichik maʼnoli qism sifatida shu tilda (oʻzbek tilida) soʻzlovchilarning xotirasida saqlanadi. Bu esa soʻzlarni maʼnosi anglashilib turadigan qismlarga ajratish va, aksincha, xotirada mavjud boʻlgan morfemalar asosida yangi soʻz yasash yoki soʻzlarni turli grammatik shakllarga koʻra oʻzgartirish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan qaraganda, morfema, hammadan burun, **tilning** eng muhim elementidir. Biroq morfema oʻz holicha xotirada saqlanib qoladigan narsa boʻlibgina qolmay, balki grammatik shakllarning tuzilishida ham ishtirok etadi. Bu jihatdan esa morfema til elementi boʻlishi bilan birga, ayni zamonda nutq elementi ham hisoblanadi.

Morfema biror soʻz doirasiga kirmay turib, leksik yoki grammatik qiymatga ega boʻlmaydi. Masalan, *-chi* morfemasi garchi oʻzbek tilida shaxs oti yasovchi element sifatida xotirada saqlansa-da, ammo bunda konkret biron shaxs oti nazarda tutilmaydi. Shuningdek, *-ni* affiksi tushum maʼnosidagi til elementi sifatida xotirada saqlansa ham, u konkret soʻzning tushum kelishigi maʼnosini bildirmaydi.

Morfemaning leksik yoki grammatik xarakterdagi konkret maʼnoga ega boʻlishi faqat nutqda, yaʼni gapda yuzaga keladi. Shuning uchun soʻzlarning morfemalarga boʻlinishi nutq jihatidan emas, til jihatidandir.

Prof.R.Sayfullayeva morfemalarni quyidagicha tasnif qiladi: **Morfemalarning funktsional-semantik tasnifi**. Morfema funktsional-semantik xususiyatiga koʻra 2 guruhga boʻlinadi:

1) derivatsion morfema; 2) grammatik morfema.

Derivatsion morfema soʻzga qoʻshilib, yangi soʻz hosil qiladi. Yangi soʻz yangi lugʻaviy va grammatik maʼnoga ega boʻladi. Masalan, [*paxta*] leksemasi [*-chi*] affiksini olib, (*paxtachi*) soʻzi vujudga keladi. Yangi lugʻaviy maʼno yangi grammatik maʼnoni ham vujudga keltirdi: narsa-buyum oti shaxs otiga aylandi. Shu bilan birgalikda, yangi soʻzning valentlik imkoniyati ham asos soʻznikidan keskin farqlanadigan holga keladi.

Grammatik morfema asosiy xususiyatiga koʻra uchga ajraladi:

1) lugʻaviy shakl hosil qiluvchi morfema; 2) sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema;

3) lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema.

Lugʻaviy shakl hosil qiluvchi morfema leksema lugʻaviy maʼnosini nutqqa moslashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, [*kitob*] leksemasining sememasida birlik va koʻplik maʼnosi nomaʼlum. Son lugʻaviy shakl hosil qiluvchisi boʻlgan [*-lar*] uni koʻplik tomon muayyanlashtiradi. Bu morfemaning jziga xos turi *lugʻaviy-cintaktik shakl hosil qiluvchi morfema bʻyilib*, lugʻaviy maʼnoni muayyanlashtirish, nutqqa xoslash bilan birga ((*kelgan*), (*oʻqigach*)), soʻzni sintaktik aloqaga ham kiritadi: *oʻqigan bola*, *oʻqigach gapirmoq*.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema soʻzning sintaktik qurilmadagi oʻrnini belgilaydi. Masalan, kesimlik kategoriyasi soʻzga kesimlik mavqeini beradi. Kesimning ega va hol bilan sintaktik aloqasini taʼminlaydi. Kelishik morfemalari oldingi mustaqil soʻzni keyingi, egalik qoʻshimchalari esa keyingi mustaqil soʻzni oldingisiga bogʻlash vazifasini bajaradi.

Morfemaning struktur tasnifi. Morfema tuzilishiga koʻra *sodda* va *murakkab* turga boʻlinadi:

Sodda morfema tarixan qanday boʻlganligidan qatʼi nazar ajralmas, yaxlit, bir tarkibli morfemadir: [-lar], [-roq], [-chi], [-niki], [-sin], [-di], [-gach].

Murakkab morfemalar aslida mustaqil morfemaning maʼlum funktsiya bajarish maqsadida birlashishi: (*odamgarchilik*), (*uygacha*), (*xafachilik*), (*chorvachilik*), (*borganda*).⁴⁰

Hozirgi oʻzbek tilida mavjud boʻlgan soʻzlarning morfologik tuzilishi tahlil qilinar ekan, unda ajratiladigan har bir morfema hozirgi paytda anglanishi, yaʼni maʼnosi tushunarli boʻlishi shart. Shuning uchun hozirgi oʻzbek tilidagi morfemalarni soʻzning hozirgi davrda tushunarli boʻlgan, xotirada til elementi sifatida saqlanadigan eng kichik maʼnoli qismlari deb taʼriflash mumkin. Masalan, *talabalar-ning*, *sanʼat-kor-lar-imiz-ning*, *tin-ch-lik-parvar-lik*, *mustaqil-lik-ni* kabilar.

Qoʻshimchali sodda soʻzlarni (oʻzak va qoʻshimcha) morfemalarga ajratish tartibini qoʻshma, juft va takroriy soʻzlarga tatbiq qilinishi u qadar toʻgʻri boʻlmaydi. Chunki bu soʻzlar tarkibidagi har bir qism (komponent) aslida soʻzga xos boʻlgan grammatik tugallikka ega. Shuning uchun bu qismlar maʼlum «ichki» grammatik munosabatda boʻladi. Masalan, *Yangiyer*, *oshqozon*, *uchburchak*, *beshbarmoq* (ovqat) *Yangiobod*, *Mirzachoʻl*, *otquloq*, *osh-non*, *qozon-tovoq*, *baland-past*, *qop-qop* (*bugʻdoy*), *togʻ-togʻ* (*paxta*), *koʻm-koʻk* (*osmon*) kabi qoʻshma, juft va takroriy soʻzlarning har biri grammatik jihatdan toʻla shakllangan soʻzdan tashkil topgan. Bundan tashqari, ular tarkibida affiksalar ham yoʻq.

Ammo baʼzi qoʻshma va juft soʻzlarda affiks morfemalar boʻlishi mumkin. Bunday paytda ular morfemalarga ajratiladi. Masalan, *kun-ga-boq-ar*, *muzyor-ar*, *ol-ibsot-ar*, *qoʻl-ma-qoʻl*, *kun-dan-kun-ga*, *oy-ma-oy* kabi.

Shunday qilib, *morfema* soʻzning hozirgi paytda yangidan maʼnoli qismlarga boʻlinmaydigan har bir oʻzagi, har bir qoʻshimchasidir.

Morfemalar maʼno va vazifasiga koʻra 2 xil boʻladi:

Asos morfema va uning xususiyatlari

Asos morfema. Asos morfema soʻzning leksik maʼnosini bildiruvchi asosiy qism boʻlib, qoʻshimchalar shu asos bilan birgalikda qoʻllanadi. Shunga koʻra, asos morfema **asosiy morfema**, affiksali morfema esa **ergash** yoki **yordamchi** morfema deb ham yuritiladi. Asos morfema soʻz yasaliishi uchun ham, shakl yasaliishi uchun ham asos hisoblanadi. U soʻzning semantik yadrosini tashkil etadi.

Masalan, *paxtakor*, *paxtazor*, *paxtachilik* kabi soʻzlarda **paxta** – soʻz yasaliishi uchun asos boʻlyapti. *Paxtani*, *paxtaning*, *paxtalar* kabi soʻzlarda u shakl yasaliishi uchun asos hisoblanadi.

Soʻzga turli xil morfemalar qoʻshilib kelganda ham, asosning maʼnosi oʻzgarmaydi. Undan yasalgan yangi soʻzlarning – yasalmalarning maʼnosi har vaqt asos morfemaning maʼnosi bilan bogʻlangan, shu maʼnoga asoslangan boʻladi. Masalan *aql*, *katta*, *temir*, *arava*, *ter*, *oʻr* kabi soʻzlardan yasalgan *katta-lik*, *temir-chi*, *arava-kash*, *ter-im*, *oʻr-oq* kabi yasalmalarning maʼnosi yuqoridagi soʻzlarning maʼnosiga asoslanadi.

Asosning qoʻshimchaga nisbatan yetakchi ekani faqat semantik jihatdandir. Chunki u soʻzning tarkibiy elementi til birligi boʻlgan soʻzlar singari hali maʼlum grammatik qoida va qonunlar taʼsirida boʻlmaydi. Shuning uchun ham asos grammatik qiymatga ega boʻlgan birlik deb emas, balki leksik qiymatga ega boʻlgan eng kichik butunlik deb baholanadi.

Asos morfema yasama boʻlmaydi. U faqat tub boʻladi. Yasama asos deyish – bu soʻzda ikki va undan ortiq asos boʻlishi mumkin demakdir. Masalan, *terimchi* soʻzining *ter* – (tub) va *terim* – (yasama) asoslariga, *bilimdonlik* soʻzining *bil* – (tub) *bilim* – (1-yasama), *bilimdon* – (2-

⁴⁰ Sayfullayeva R., Mengliyev B. v.b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.: 2010, 133-bet.

yasama) asoslarga ajratish lozim bo'ladi. Vaholanki, bu so'zlarda bittadan (*ter* va *bil*) asos morfema bor. **Asos faqat qo'shimchali so'zlardagina mavjud.**

So'zni asos va qo'shimchaga ajratishning ikki sharti bor:

1. Asos deb ajratiladigan qism bugungi tilda mustaqil ma'no ifodalashi, boshqa qo'shimchalar qabul qila olishi shart.

2. Qo'shimcha deb ajratiladigan qism esa boshqa asoska ham qo'shila olishi shartdir. Masalan *yig'im*, *ter-im*, *yig'ma*, *bos-ma*, *bos-iq*, *to's-iq*, *o'r-im*, *bos-im* kabi.

Ta'kidlanganidek, asos avvalo, so'zdagi asosiy tub, eng tub leksik ma'noni ifodalaydi. U so'zning semantik yadrosini tashkil qiladi. Bu ma'no hali o'z xarakteriga ko'ra konkretlashmaganligi uchun abstrakt ma'no hisoblanadi. Ammo o'zbek tilida asosning ma'nosi faqat abstrakt (mavhum) bo'ladi, deyish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Ya'ni asosning ma'nosi ham konkret, ham abstrakt bo'ladi. Masalan, *terim*, *terma* so'zlarining asosi birinchisida «yig'ishtirib olish» (paxtani), ikkinchisida narsalarni (shaxslarni) «to'plash», «tanlash» (terma komanda) ma'nosini ifodalaydi. Bu holatda asos mavhum ma'no ifodalagan. Ammo *paxtani*, *paxtaning* kabi so'zlaridagi *paxta* - asosi ma'lum bir narsa tushunchasini (konkret ma'noni) ifodalagan.

Asosning ma'nosi ba'zi so'zlarda so'zning aniq leksik ma'nosiga teng kelsa, ba'zi so'zlarda teng kelmaydi. Masalan, *kitobdan* so'zining leksik ma'nosi shu so'zning asosi - *kitob* anglatgan ma'noga teng keladi. Shu o'rinda, demak, asosning ma'nosi leksik ma'nodan iborat. Ammo *boshliq*, *boshla*, *boshqarma* so'zlarining leksik ma'nolari *bosh* (*golova*) asosi anglatgan ma'nodan farq qiladi. Chunki yuqoridagi so'zlarning asosi *bosh* - o'sha so'zlarning leksik ma'nolarini ifodalamaydi, balki shu so'zlarning asosida yotgan umumiy, abstrakt tushunchani ifodalaydi. Bu tushuncha alohida *bosh* - (*golova*) so'zininggina leksik ma'nosi bo'lishi mumkin.

Asos morfema o'z konkret ma'nosidan uzoqlashib, umumiy xarakterda ma'no ifodalaydigan vositaga, ya'ni affiksial morfemaga aylanishi mumkin. Masalan, *oshxona*, *ishxona*, *choyxona*, *talabnoma*, *taklifnoma*, *ruxsatnoma* kabi so'zlardagi *xona*, *noma* elementlari shu o'rinda bir ish faoliyat joyi ma'nosini, biror narsa turi ma'nosini ifodalovchi qo'shimchaga aylangan.

So'z va asos.

1. **So'z** o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, turli xil grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan til birligidir. So'z gapning (nutqning) qurilish materialini hisoblanadi. Demak, so'z obyektiv borliqdagi narsa yoki hodisalar haqidagi tushunchaning tovush vositasi bilan ifodalanishidir. So'z, ma'no ifodalash bilan birga, his-tuyg'ularni ham bildirishi mumkin (masalan, undovlar). Kelib chiqadiki, so'z tushunchani ifodalaydi yoki his-tuyg'ularni bildiradi. Bularning hammasi so'zning ma'no tomonidir. So'z yakka holda bildirgan ma'nosidan tashqari, qo'llanishda, nutq ichida ko'chgan ma'noda ham ishlatilishi emotsional bo'yoqqa ega bo'lishi mumkin. Masalan: *bolam* so'zi o'rnida *bo'tam*, *qo'zim*, *chirog'im*, deyish, *bolasi ko'p* o'rniga *jo'jasi ko'p*, *farzand* o'rniga *tirnoq* (farzandga zor - tirnoqqa zor) deyish, *bo'tam*, *bolajonim*, *bolaginam*, *qizalog'im*, *otajon*, *jon otam*, *jonim otam* kabi qo'llashlar so'zlarning emotsional bo'yog'i hisoblansa, *Oh qanday go'zal manzara*, *hah, hali oqibat shumi?* *O, u yurak*, *o u tilla bosh*, (*U.Nosir*) kabi gaplardagi undov so'zlar turli xil emotsiyalarni (his-hayajon) ifodalagan.

2. **Asos.** Morfema strukturasi jihatidan bo'linmas holdagi so'zning asos bilan bir xil ko'rinishda kelishi bu elementlarning yaqin munosabatini ko'rsatadi. Ammo, shunday bo'lsa ham, ular bir-biriga teng hodisalar emas. Masalan, *temir- temirchi*, *o'r-o'roq*, *til - tilshunos*, *ish - ishla*, bunda *temir*, *o'r*, *til*, *ish* so'zlari nutqda boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirisha oladi (*qiziq kitob*, *temir panjara*, *o'zbek tili*, *ish boshlamoq*), ammo shu shakldagi *temirchi*, *kitobxon* *o'roq*, *ishla*, *tilshunos* so'zlaridagi asoslar esa so'zning bir elementi bo'lib, bunday xususiyatga ega emas. So'zning o'rnini bilan, morfemalarga bo'linishi, morfemaning esa ajralmas element ekanligi, so'zning grammatik jihatdan shakllangan bir butunlik bo'lib, aniq bir leksik-grammatik kategoriyaga - so'z turkumiga kirishi, bunday turkumlarga ajralishining so'zlagina

xosligi kabi hodisalar asos bilan soʻz orasidagi farqlardandir. Shuningdek, soʻz nutqda gap boʻlagi vazifasida keladi va oʻz maʼnosidan tashqari, turli xil qoʻshimcha maʼnolarni ham ifodalaydi. Demak, morfema soʻz ichida, soʻz esa nutq ichida yashaydi.

Aytilgan fikrlarni yakunlab, asosga shunday taʼrif berish mumkin: **asos soʻzning qoʻshimchalarni ajratgandan soʻng qoladigan, hozirgi tub leksik maʼnoni yoki leksik maʼno asosida yotgan umumiy tushunchani ifodalaydigan eng kichik qismidir. U qoʻshimchasi mavjud boʻlgan soʻzlardagina ajratiladi.**

Affiks morfema va uning xususiyatlari

Affiks morfema (lotincha *affixus* – «bogʻlangan», - «biriktirilgan»). Qoʻshimcha (affiks) mustaqil qoʻllanmaydigan, bogʻliq holda, asoska qoʻshilib keladigan, asosning leksik-grammatik xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan har xil maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemadir. Qoʻshimcha asosning maʼnosiga yangi leksik belgi - modal maʼno yoki faqat grammatik maʼnoda qoʻllanadigan asos yonidagi yordamchi maʼnodir. Koʻrinadiki, qoʻshimcha, birinchidan, asos ifodalaydigan tub leksik maʼnoga yangi leksik belgi qoʻshishi mumkin.

Masalan, *temirchi* soʻzidagi *-chi* qoʻshimchasi metallning bir turi maʼnosiga shu metall bilan shugʻullanuvchi shaxs belgisini qoʻshadi. Bu belgi alohida leksik maʼnoni tashkil etmasa ham, mavjud leksik maʼnoga qoʻshilgan yangi belgidir. Ikkinchidan, qoʻshimcha asos ifodalagan maʼnoga qoʻshimcha grammatik maʼno qoʻshishi mumkin. Masalan, *bolalar kitoblarini oʻqidilar* gapida *bolalar* (ega), koʻplikda boʻlgani uchun *kitoblarini* (toʻldiruvchi) *oʻqidilar* (kesim) ham koʻplikda kelgan. Bu oʻrinda *-lar* qoʻshimchasi, bir tomondan, narsaning koʻp sonli ekanligini (leksik belgi), ikkinchi tomondan esa, bu qoʻshimcha gapdagi boshqa soʻzning son jihatdan oʻziga mos boʻlishini talab qilgan.

Uchinchidan, affiks asos ifodalagan maʼnoga faqat grammatik maʼno qoʻshishi mumkin. Masalan, *kitob-ni, kitob-ning, kitob-dan, oʻqidi-m, oʻqidi-ng, oʻqi-di* kabi.

Toʻrtinchidan, qoʻshimcha asos yonida turadi. Oʻzicha asossiz qoʻllanmaydi. Va, nihoyat, beshinchidan, yakka holda maʼno xususiyati reallashmaydi. Qoʻshimcha oʻz maʼno xususiyatiga koʻra asos morfemaga, yaʼni asosiy morfemaga tayanadi. Shuning uchun qoʻshimcha ergash yoki yordamchi morfema hisoblanadi. Soʻzning qismlari boʻlgan asos bilan qoʻshimcha oʻziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1. Asos soʻzning tub maʼno yadrosini tashkil qiladi. Qoʻshimcha esa oʻzak morfemasiz leksik yoki grammatik maʼno ifodalamaydi, u nutqda oddiy tovushlar yigʻindisi boʻlib qoladi: *-chi, -li, -si, -g, -i, -lik, -gar, -chil, -ga (-gʻa, -qa, -ka)* kabi.

2. Asos leksik maʼno tomonidan butun bir tub soʻzga nisbatlanishi mumkin. Masalan, *ot (liq), bosh (la), ish(chi)* soʻzlari *ot, bosh, ish* soʻzlariga nisbatlanishi mumkin. Shuning uchun bu oʻrinda asosning maʼnosi butun soʻzning ham leksik maʼnosidir.

Asosning maʼnosi har vaqt ham soʻzning maʼnosiga teng boʻlavermaydi. Yaʼni soʻz ifodalagan maʼno hamma vaqt asos ifodalagan maʼnoga teng boʻlmaydi. Ayniqsa, soʻz yasovchi qoʻshimchalari boʻlgan soʻzlarning maʼnosi asosning maʼnosiga tayansa ham, yangi maʼno boʻladi. Masalan, *ish-chi, temir-chi, til-shunos, ish-la, oq-la, bilim-li, paxta-kor* soʻzlarining maʼnolarini *temir, til, ish, oq, bil, paxta* asoslarining maʼnolariga solishtirib koʻrsak, bir tomondan, ular orasida semantik farq borligini koʻramiz. Ikkinchi tomondan esa, oʻsha maʼnolar asoslarning maʼnolari bilan ichki jihatdan bogʻlanganligini, undan kelib chiqqanligi sezilib turadi.

Qoʻshimchalar esa butun soʻzga nisbatlanmaydi. Baʼzan fonetik jihatdan butun soʻzga teng kelib qolishi mumkinday koʻrinsa ham, uni qoʻshimchaning mustaqil soʻzga teng kelib qolishi deb tushunmaslik kerak. Masalan, (*iz*) *chil, mis (kar), oʻt (qiz), yoza(man), yoza(san), yoza(siz)* kabi soʻzlardagi qoʻshimchalar tovush tomonidangina soʻzga oʻxshashdir.

3. Asos unlisiz boʻlmaydi. U fonetik jihatdan kamida bir boʻgʻinga toʻgʻri keladi. Masalan, *osh, ish, u, bu, shu, un, bor, kel, yoz* kabi. Qoʻshimchalar esa unlisiz ham boʻla beradi. Masalan, (*oʻqi*)*t, (ishla)sh, (ela)k, (yaltira)q, (tin)ch, (ishla)y* kabi.

4. Asosning fonetik variantlari kamdan-kam boʻladi. Masalan, *yosh(lik), va (yash)a, ong(li) va ang(la), sariq va sargʻ(ay)* kabi. Qoʻshimchalarda esa fonetik variantlar nisbatan

ko'proq uchraydi. Masalan, (*turt*)ki, (*supur*)gi, (*chop*)qi, (*chol*)g'i yoki (*chol*)g'u; (*eg*)ik, (*sin*)iq, (*buz*)uq, (*tut*)qin, (*so'l*)g'in, (*tur*)g'un; (*o'yin*)choq, (*erin*)chak, (*sirg'an*)chiq, (*qizg'an*)chiq kabilar.

5. So'zning asos va qo'shimchalarga bo'linishi ma'no jihatdan o'zaro aloqador bo'lgan so'zlarni bir-biriga solishtirib ko'rganda, ayniqsa, aniq ajralib turadi. Masalan, *suvli*, *suvsiz*, *suvchi*, *suvdon*, *suvkira* so'zlari solishtirib qaralsa, ularda bir morfemaning aynan takrorlanganini ko'ramiz. Bu morfema *suv* bo'lib, u o'sha so'zlarning umumiy o'zagidir. Bir umumiy asoska ega bo'lgan bunday so'zlar *qarindosh* yoki *asosdosh* so'zlar deyiladi. Aksincha, so'zning tuzilishida asoslar har xil, qo'shimchalar esa bir xil bo'lishi mumkin. Masalan, *temirchi*, *ishchi*, *traktorchi*, *baliqchi* (*qush*) *doirachi* kabi. Biroq bunday so'zlar qarindosh so'zlar deb aytilmaydi.

6. Nutqda ishlatilishi jihatidan qaraganda asoska nisbatan qo'shimcha ko'proq takrorlanadi. Masalan, *Qish bo'yi allaqaysi yerlarda junjib chiqqan qush zotlari* – *chumchuqlar*, *chittaklar*, *to'rg'aylar*, *sa'valar...* o'z to'plari bilan vijir-vijir, *chug'ur-chug'ur sayrab kuladilar* (A.Qodiriy). Bu gapdagi *vijir* va *chug'ur* so'zlarini hisobga olmaganida so'zlarning birortasi ham takrorlangan emas. Vaholanki, *-lar* qo'shimchasi 8 marta, (*i*)*b* qo'shimchasi 2 marta, *-i* qo'shimchasi 3 marta takrorlangan.

Affiksial morfemalarning turlari

Affiksial morfemalar ma'nosi va fazifasiga ko'ra ikki turli bo'ladi: **1) so'z yasovchi qo'shimchalar; 2) shakl yasovchi qo'shimchalar.**

So'z yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalar turli so'zlarga qo'shilib, uning ma'nosi bilan bog'langan yangi so'z hosil qiladi. Masalan, *-m* (*-im*, *-um*) qo'shimchasi harakat va holat anglatgan *bilmoq*, *termoq*, *to'plamoq*, *kechirmoq*, *tuzmoq* kabi fe'llardan narsalik ma'nosini, ish-harakat natijasini ifodalovchi ot yasashga xizmat qiladi: *bilim*, *terim*, *to'plam*, *kechirim*, *tuzum* kabi.

Yasovchi qo'shimchalar bir turkum doirasiga mansub yangi so'z yasashga (*bola-lik*, *sirdosh*, *olma-zor* – otdan ot yasalgan) va bir turkumdan boshqa turkum so'zi yasashga xizmat qiladi: *suz-ma*, *qir-g'ich*, *o's-ma*, *kul-gi*, *to'sha-k* (fe'ldan ot yasalgan), *ko'z-la*, *varaqla*, *zavqlan*, *boy-i* (otdan fe'l yasalgan), *kes-kin*, *chop-qir*, *och-iq* (fe'ldan sifat yasalgan), *ko'k-ar*, *kengay*, *yangi-la*, *oq-la* (sifatdan fe'l yasalgan), *chirq-illa*, *shitir-la*, *gumbir-la*, (taqlidiy so'zdan fe'l yasalgan) kabi.

So'zga birdan ortiq yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan uning tarkibi murakkab qurilishga ega bo'lib boradi: *bilimdonlik* so'zi *bilimdon* yasash asosidan *-lik* qo'shimchasi orqali yasalgan. *Bilimdon* so'zi uchun esa *bilim* yasash asosi va *-don* yasash vositasi bo'lib xizmat qilgan. *Bilim* so'zi ham, o'z navbatida, *-im* qo'shimchasi orqali *bil* asosidan yasalgan.

Yasovchi qo'shimchalarning so'z yasash darajasi bir xil emas. Ayrim qo'shimchalar juda ko'p miqdorda yangi so'zlar yasash uchun xizmat qilsa, ba'zilar miqdor jihatidan kamroq so'z yasaydi yoki so'z yasash xususiyatini hozir umuman yo'qotgan. Yasovchi qo'shimchalar shu jihatdan uch turga bo'linadi: **1) unumli qo'shimchalar; 2) kamunum qo'shimchalar; 3) unumsiz qo'shimchalar.**

1. Juda ko'p yangi so'z yasashga xizmat qiluvchi qo'shimchalar *unumli qo'shimcha* deyiladi: *ish-chi*, *tarix-chi*, *traktor-chi*, *jang-chi*, *bo'yoq-chi*; *aql-li*, *bola-li*, *g'ayrat-li*, *yeyish-li*; *tuz-la*, *oq-la*, *joy-la*; *bo'l-ma*, *mosla-ma*, *qatla-ma*, *bola-lik*, *yosh-lik*, *tinch-lik*, *do'st-lik* kabi.

2. Kamroq so'z yasash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar *kamunum qo'shimcha* deyiladi: *taro-q*, *tirno-q*; *tosh-qin*, *yon-g'in*, *qir-g'in*; *mehnat-kash*, *chizma-kash*; *ek-in*, *yig'in*, *tug-un*.

3. Hozirgi o'zbek tilida yangi so'z yasash xususiyatini yo'qotgan qo'shimchalar *unumsiz qo'shimcha* deyiladi. Bu qo'shimchalar o'zbek tilida ma'lum davrlarda yangi so'zlar yasash uchun xizmat qilgan bo'lsa ham, hozirgi vaqtda tilda sanoqli so'zlar tarkibidagina saqlanib qolgan: *qoro-vul*, *dard-chil*, *ep-chil*, *yugur-dak*, *kekir-dak* kabilar.

So'z yasovchilarning asosiy qismini o'zbek tilining o'z qo'shimchalari tashkil qiladi. Shu bilan birga, o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan yasovchilar ham qo'llanadi; *-don*, *-dor*, *-kor*, *-zor*, *-shunos*, *ser-*, *no-* kabilar tojik tilidan o'zlashgan. Bu yasovchilar dastlabki

vaqtlarda tojik tilidan qabul qilingan soʻzlar tarkibida qoʻllangan boʻlib, keyinchalik soʻz yasash vositasi sifatida oʻzbek tilidagi soʻzlarga ham qoʻshilib, yangi soʻz yasash vazifasini oʻtay boshladi: *tuz-don, kul-don, salmoq-dor, olma-zor, uzum-zor, til-shunos, tuproq-shunos, paxta-kor, ser-suv, no-oʻrin* kabi.

Rus tilidan qabul qilingan *realist, redaksiya, student, aspirant, direktor* singari soʻzlar tarkibidagi *-ist, -izm, -tsiya, -ant (-ent), -tor* kabilar oʻzbek tilida soʻz yasovchi qoʻshimchalar qatoriga kiritilmaydi. Bunday soʻzlar oʻzbek tilida morfemalarga ajratilmaydi, balki yaxlit bir soʻz sifatida qaraladi.

Shakl yasovchi qoʻshimchalar. Bu qoʻshimchalar soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmaydi, yangi soʻz yasamaydi, balki shu soʻzning grammatik shaklini yasaydi, unga yangi grammatik maʼno qoʻshadi, kichraytirish, erkalash, takror, davomlilik kabi har xil qoʻshimcha maʼno anglatuvchi yoki soʻzning gapda biror vazifani bajarishga moslashgan shakllarini yasaydi. Masalan, *paxta-ning, paxta-dan, paxta-ni, paxta-ga; vatan-im, vatan-ing, vatan-i; kelgan-man, kelgan-san; oʻqi-di-m, oʻqi-di-ng; ikki-nchi, kel-ar, kel-ib; uy-cha, qush-cha, qoʻzi-choq, katta-gina* kabi.

Shakl yasovchi qoʻshimchalar oʻz xususiyatiga qarab ikki turga boʻlinadi: 1) *kategorial shakl yasovchi qoʻshimchalar*; 2) *nokategorial shakl yasovchi qoʻshimchalar*.

Kategorial shakl yasovchi qoʻshimchalar soʻzlarning oʻzgarishi bilan bogʻliq bir butun sistemani tashkil qilgan grammatik shakllarni hosil qiladi va ular maʼlum grammatik kategoriyalarga, paradigmalarga birlashadi. Jumladan, ot va otlashgan soʻzlarga xos grammatik son, egalik va kelishik shakllarini yasovchi qoʻshimchalar; feʼllarga xos shaxs-son shakllari, zamon shakllari va u bilan bogʻliq mayl shakllarini yasovchi qoʻshimchalar kategorial shakl yasovchi qoʻshimchalarga kiradi.

Nokategorial shakl yasovchi qoʻshimchalar grammatik maʼno ifodalovchi shakl yasaydi, lekin bu qoʻshimchalar shakllar sistemasini – paradigmani hosil qilmaydi. Bular asosan quyidagilar:

1. Otlarda kichraytirish, erkalash, chegara kabi har xil maʼnolarni anglatuvchi shakl yasovchi qoʻshimchalar: *-cha, -loq, -chak, -choq, -gina, -gacha: uy-cha, boʻta-loq, qoʻzi-choq, kelin-chak, shahar-gacha* kabi.

2. Ot, sifat va ravishlarda modallik (*-gina: qiz-gina, yaxshi-gina, tez-gina*), sifatlarda belgining kuchsiz ekani kabi maʼnolarni anglatgan shakl yasovchilar *-ish, - (i)mtir: koʻk-ish, koʻk-imtir..*

3. Sonlarda donalik, chama, jamlovchi, tartib son turlarini yasovchi qoʻshimchalar: *-ta, -cha, -ov, -ala, - (i)nchi: ikki-ta, uch-ov, besh-ta-cha, uch-ala, toʻrt-inchi* kabi.

4. Feʼllarda harakatning takror, davom, kuchsizlanish kabi miqdor shakllari yoki biror vazifani bajarishga moslashgan sifat-dosh, ravishdosh va harakat nomi shakllarini yasovchi qoʻshimchalar: *-(i)msira, -(i)nqira, -gila, -gan, -(i)b, -gach, -moq: kul-imsira, qizar-inqira, yugur-gila, kel-gan, kel-ib, kel-gach, kel-moq* kabi.

Qoʻshimchalarning soʻzga qoʻshilish tartibida maʼlum qonuniyat bor. Maʼlumki, soʻz yasovchi qoʻshimchalar soʻzning material qismiga, leksik maʼno ifodalovchi qismiga kiradi. Shunga koʻra, tabiiy ravishda, bu turdagi qoʻshimchalar soʻzga shakl yasovchi qoʻshimchalardan oldin qoʻshiladi: *ishchi-lar, ishla-di, chiroyli-roq* va b.

Shakl yasovchi qoʻshimchalarning sintaktik munosabat ifodalamaydigan turi sintaktik munosabat ifodalaydigan turidan oldin qoʻshiladi: *ishchi-lar-ga, ishla-ma-di, ishla-yap-ti* kabi.

Demak, soʻzda soʻz yasovchi qoʻshimcha, shakl yasovchi qoʻshimchaning sintaktik munosabat ifodalamaydigan va bunday munosabatni ifodalaydigan turi qatnashganda, ularning qoʻshilish tartibi quyidagicha boʻladi: **asos - soʻz yasovchi qoʻshimcha + sintaktik munosabat ifodalamaydigan shakl yasovchi qoʻshimcha + sintaktik munosabat ifodalaydigan shakl yasovchi qoʻshimcha**: *ish-chi-lar-ga, ish-la-yap-ti, paxta-kor+lar-imiz-ga, uqi-gan-man, yoz+ib-di*.

Oʻzbek tilida qoʻshimchalar suffiks xarakterida boʻladi, yaʼni soʻzda asosdan keyingi oʻrinda turadi: *ish-chi, qish-la, kuch-li, maktab-ni, bola-lar, ishla-sin, ishla-t-yap-man* kabi.

Lekin boshqa tillardan kirib, o'zlashib qolgan so'zlarda asos oldiga qo'shiluvchi qo'shimchalar (*prefikslar*) ham bor. Bular so'z yasovchilar doirasidagina uchraydi: *ser-harakat, no'-o'rin, ser-tashvish; ba-quvvat, be-nuqson, be-tashvish; anti-fashist, anti-demokratiya* kabi.

Qo'shimchalar struktura jihatidan sodda yoki qo'shma bo'ladi. Masalan, *paxtakor, paxtadan* so'zlaridagi *-kor* va *-dan* qo'shimchalari sodda qo'shimchalardir. Demak, sodda qo'shimcha, hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan bir-butun yaxlit holda bo'ladi.

Qo'shma qo'shimchalar hozirda mustaqil qo'shimcha sifatida qo'llana oladigan ikki yoki undan ortiq qo'shimchaning o'zaro birikib, bir qo'shimcha - bir morfema holiga kelishidan tug'iladi. Masalan, *mo'lchilik, odamgarchilik*. Hozirgi o'zbek tilida *-chi, -lik* va *-gar* qo'shimchalari so'z yasash uchun xizmat qiladi, ya'ni ularning har biri alohida bir qo'shimchadir (*suv-chi, do'st-lik, zar-gar* kabi). Lekin *mo'lchilik, odamgarchilik* so'zlari tarkibidagi *-chilik* va *-garchilik* qo'shimchalari yaxlitligicha bir qo'shimcha hisoblanadi (ular qismlarga ajralmaydi). Shunki hozirgi o'zbek tilida *mo'lchi, odamgar* yoki *odamgarchi* so'zlari yo'q. Demak, birdan ortiq affiksalar morfemaning o'zaro birikib, bir butun holga kelishidan hosil bo'lgan qo'shimcha **murakkab qo'shimcha** deyiladi.

Qo'shma qo'shimchalar vazifasi bir xil yoki har xil bo'lgan qo'shimchalarning birikuvidan hosil bo'lishi mumkin. Masalan, *serobgarchilik* so'zidagi *-garchilik* uchta so'z yasovchi qo'shimchaning birikishidan hosil bo'lgan. *Zavqlanmoq* so'zidagi *-lan* qo'shimchasi bir so'z yasovchi (*-la*) va bir shakl yasovchi (daraja yasovchi *-n*) qo'shimchaning birikishidan hosil bo'lgan. *Kelmoqda* so'zidagi *-moqda* qo'shimchasi ikki shakl yasovchi (*-moq* va *-da*) qo'shimchaning birikishidan hosil bo'lgan.

leksemalarga xos bo'ladi; o'zlashgan leksemada ko'pma'nolilik voqe bo'lishi uchun bunday leksema tilda uzoq vaqt yashashi, shu til lug'atiga singib ketishi kerak.

Bundan tashqari, hozirgi o'zbek tili lug'at boyligidagi o'z qatlamda aniq ma'noli leksemalar, o'zlashgan qatlamda esa mavhum ma'noli leksemalar ko'p va b.

•
“**So'z yasalishi**” atamasi ikki xil hodisaga nisbatan qo'llanadi: 1) tilshunoslikning so'z yasalishi bilan bog'liq hodisalarni tekshiruvchi bo'limini; 2) umuman so'z yasalishi, so'z hosil qilinishini bildiradi.

Nutqda so'zlar **tub** yoki **yasama** shaklda qo'llanadi.

Yasovchi affikslarga yoki yasovchi qismlarga ega bo'lmagan so'z **tub so'z** deyiladi: *inson, xalq, millat, suv, non, havo, yaxshi, ziyorat, xursand, besh, o'n, yigirma, biz, hamma, ba'zi, bormoq, kelmoq, o'qimoq, sekin, birga, hozir* va h.k.

Tilda mavjud usullar bilan yangi hosil qilingan so'z **yasama so'z** deb yuritiladi. Masalan, *tinchlik, bog'bon, gulzor, jonlan, birlash, ko'kar, sezgir, zavqli* so'zlari o'zakka yasovchi affikslar (*-lik, -bon, -zor, -lan, -lash, -ar, -gir, -li*) qo'shish usuli bilan yasalgan bo'lsa, *Dilorom, Oqtepa, bilaguzuk, sohibjamol, sofдил, erksevar* so'zlari so'zlarni yoki so'z shakllarini qo'shish, birlashtirish usuli bilan hosil qilingan.

Tilda mavjud bo'lgan so'z (yoki so'zlar, so'z shakllar negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so'zlarni hosil qilish **so'z yasalishi** deyiladi.

O'zbek tilidagi so'z yasash usullar haqida

O'zbek tilida so'z yasalishining **affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya** kabi usullari bo'lib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi.

Affiksatsiya usuli. So'zga so'z yasovchi affiks qo'shish bilan yangi so'z hosil qilish **affiksatsiya usuli** deyiladi. Masalan, *paxtakor, sinfdosh, quvonch, do'stlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, o'yla, kengay, shodlan, tinchi, tasodifan, oqilona, ko'pincha, ertalab* va boshqalar.

So'z yasovchi affikslar o'zbek tilida asosan suffiks tarzida qo'llanib, so'z o'zagidan so'ng qo'shib keladi. Ba'zan bunday affikslar o'zak oldiga prefiks tarzida qo'shib, yangi ma'nodagi so'z yasashi mumkin. Masalan, *serhosil, serunum, badavlat, ba'mani, beminnat, beg'araz, noo'rin, nohaq, badfe'l, badbashara* va h.k.

O'zbek tilida so'z yasovchi affikslardan tashqari, o'z xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan *xona, noma, obod* kabi so'z-affikslar ham mavjud. Bunday so'z-affikslar tilshunoslikda

affiksoidlar deb ham yuritiladi: *ishxona, mehmonxona, oshxona, qabulxona, tabriknoma, Xalqobod, Yangiobod*.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma'noli so'z yoki so'z shakllarining qo'shiluvi, birikuvini orqali yangi so'z yasash **kompozitsiya usuli** bilan so'z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo'shma, ayrim juft so'zlar hosil qilinadi. Masalan, *guldasta, gultojxo'roz, asalari, tomorqa, xushfe'l, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havo rang, e'lon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, har gall, yonmayon, zo'r-bazo'r, ketma-ket* va b.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga ko'ra, bir butun holda qo'llanadigan to'g'ri ma'noli turg'un birikmalarning qismlari har xil yo'l bilan qisqartirilib so'z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo'lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: *BMT* – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, *MDH* - Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, *ATS* – Avtomatik telefon stantsiyasi, *ToshMI* – Toshkent meditsina instituti, *filfak* – filologiya fakulteti, *akademlitsey* – akademik litsey, *peduniversitet* – pedagogika universiteti va b.

Fonetik usul. Bu usulga ko'ra, so'zda fonetik o'zgarish yuz berib, yangi so'z hosil qilinadi. Chunonchi, so'z urg'usining o'rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so'z turkumiga doir so'zlar hosil bo'lishi mumkin: *yóзма* (fe'l) - *yozmá* (sifat, *súзма* (fe'l) - *suzmá* (ot), *fízik* (ot) *fizík* (sifat), *akadémik* (ot), *akademík* – (sifat) va b.

Semantik usul. Bu usulga binoan, so'z ma'nosida o'zgarish ro'y berib, ma'nosi boshqa-boshqa, shaklan o'xshash yangi so'z hosil bo'ladi: *kun* – sutkaning yorug' qismi, *kun* - quyosh, planeta; *ko'k* – osmon, *ko'k* - havorangga o'xshash rang, *bir* – son, *birga, birdan, birda* – ravish.

Fonetik va semantik usul hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan nafaol tarixiy so'z yasash usullari deb qaraladi.

Derivatsiya. Dastlab tayanch tushunchalar bo'lgan **derivatsiya** va **relyatsiya** atamalariga sharh berish zarur. Tilshunoslik an'anasida **derivatsiya** (lot.*derivatio*– “ayrilish”) so'z yasash jarayoni deganda so'z yasash asosi va hosila orasida denotativ (atash, nomlash) ma'nolarda farqning bo'lishi tushuniladi. Chunonchi, *qushparranda, hayvonot olamining bir turi; qushchi* – qushlar bilan shug'ullanuvchi / aloqador shaxs. Ikki so'z borliqdagi ikki xil hodisani atab kelmoqda. So'zlarning nomemasi ham, sememasi ham har xil – ularda faqat tarixiy o'zakdoshlik aloqasi mavjud, xolos. Shu asosda derivatsiyani odatda **leksik** hodisalar sirasiga kiritadilar

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot bering.
2. O'zbek tilidagi so'z yasash usullar haqida gapiring.
3. So'zlarning tuzilish jihatidan turlarini ayting.
4. Derivatsiya va relyatsiyani tushuntiring.
5. Tarixiy va sinxron derivatsiya haqida gapiring.
6. So'z yasash (derivatsion) qolipi haqida gapiring.
7. Yasama so'z va yasalgan so'zning farqli xususiyatlarini bayon qiling.

6- MAVZU: Morfologiya so'z turkumlariga xos turkum sifatida.

Turkumlari. Mustaqil so'z turkumlari. Ot, sifat, son va olmosh so'z turkumlari.

So'z turkumlari

Nutqimizda mavjud so'zlar bir-biridan ma'no va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladi. Shu jihatdan so'zlar ayrim-ayrim leksik-grammatik guruhlariga, turkumlarga ajratiladi. So'zlarning ma'no va grammatik belgilarining o'xshashligiga qarab guruhlariga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

- 1) leksik-semantik tamoyil;
- 2) morfologik tamoyil;
- 3) sintaktik tamoyil.

Leksik-semantik tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlariga ajratishda, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor beriladi. Masalan: *tuz, non, tinchlik, daryo, tog', osmon* kabi so'zlar predmet yoki predmetlik tushunchasini (bunday so'zlar ot so'z turkumi deb nomlangan); *katta ko'cha, shirin olma, tiniq osmon, ko'k ko'ylak* kabi ajratilgan so'zlar predmetning belgisini (bunday

soʻzlar sifat deb nomlangan), beshta daftar, yuzlab odam, oʻntadan oʻquvchi, ikkinchi kurs kabilarda ajratilgan soʻzlar predmetning miqdorini, tartibini (bunday soʻzlar son deb nomlangan); ayrim soʻzlar *bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlamok* kabi harakat va holat tushunchasini (bunday soʻzlar feʼl deb nomlangan); asta oʻqidi, doʻstona gapirdi, piyoda yurdi kabi ajratilgan soʻzlar esa ish-harakatning belgisini (bunday soʻzlar ravish deb nomlangan) bildiradi.

Chunonchi, ayrim soʻzlar predmet, belgi, miqdor maʼnosini nomlab koʻrsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi: men, sen, bu, shu, qancha, har kim, qandaydir kabi (bunday soʻzlar olmosh deb nomlangan).

Tilda shunday soʻzlar (*bilan, va, ammo, uchun, chunki, xuddi, faqat, albatta, yoʻq, eh, oh, dupur-dupur, yalt-yult* kabi) ham borki, ular mustaqil holda leksik maʼno ifoda etmaydi, biror tushunchaning atamasi boʻla olmaydi. Bunday soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal, undov, taqlid soʻzlar deb yuritiladi.

Morfologik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlariga ajratishda ularning morfologik xususiyatlari asos qilib olinadi. Soʻzlarning qanday morfologik shaklda kelishi uning maʼno xususiyati bilan bogʻliq. Masalan: predmet tushunchasini anglatadigan soʻzlar (otlar) son, egalik, kelishik kabi grammatik shakllarga; predmetning, ish-harakatning belgisini bildiradigan soʻzlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat maʼnosini bildirgan soʻzlar (feʼl) nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik shakllarga ega.

Predmet yoki shaxsga ishora qiluvchi soʻzlar (olmosh) ham morfologik jihatdan oʻzgarib, son, egalik, kelishik shaklida kela oladi.

Predmetning miqdori va tartibini anglatuvchi soʻzlar (son) morfologik jihatdan oʻzgarmaydi. Shuningdek, leksik maʼno anglatmaydigan soʻzlar (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻz, undov va taqlid soʻzlar) ham morfologik shakllarga ega emas.

Sintaktik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlariga ajratish esa uning sintaktik tomoni, yaʼni qanday soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga koʻra belgilanadi. Masalan: predmet maʼnosini anglatuvchi soʻzlar (ot) bosh kelishik shaklida ega va kesim vazifasini, qaratqich kelishigi shaklida aniqlovchi, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shakllarida toʻldiruvchi va hol vazifalarida keladi: dars boshlandi, odamning koʻrki, xatni yozdi, universitetda oʻqiydi kabi.

Belgi bildiradigan soʻzlar (sifat, son, ravish) predmet yoki harakat ifodalovchi soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi (toʻgʻri soʻz, oʻz, beshta bola, koʻp kitob, yaxshi oʻqiydi, birinchi keldi kabi).

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular oʻrnida almashinib qoʻllanuvchi soʻzlar (olmoshlar) gapda nimaga ishora qilishi va qanday soʻzlar bilan birikishiga koʻra gapda ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi (men gapirdim, maqsadim – shu, bu bino, nimani oʻqiding, qayerda yashaydi kabi).

Tildagi leksik maʼno ifoda etmaydigan soʻzlar esa (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama) leksik maʼno ifodalovchi soʻzlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiradi, gap pyoki uning tarkibidagi ayrim soʻzlarga qoʻshimcha maʼno qoʻshadi. Bunday soʻzlar sintaktik vazifa bajarmaydi.

Shuningdek, leksik maʼno ifodalamay, biror hodisaning atamasi (nomi) boʻlmasa ham, lekin gap boʻlagi sifatida yoki mustaqil holda soʻz-gap sifatida qoʻllana oladigan soʻzlar (modal, undov, taqlid soʻzlar) ham mavjud (*kerak, zarur, bor, oh, eh, uf, ey, gup-gup, dupur-dupur* kabi).

Demak, soʻzlarning gapda qanday gap boʻlagi boʻlib kelishi, uning qanday soʻzlar bilan aloqaga kira olishi, maʼnosiga va grammatik shakliga bogʻliqdir.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlar leksik-semantik, morfologik va sintaktik tamoyilga tayangan holda quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1) mustaqil soʻzlar, 2) yordamchi soʻzlar, 3) alohida guruh soʻzlar.

Mustaqil holda leksik maʼno ifoda eta oladigan, biror morfologik shaklda kelib, gap boʻlagi vazifasini bajaradigan soʻzlarga **mustaqil soʻzlar** deyiladi. Mustaqil soʻzlarga **ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish** kabi soʻz turkumlari kiradi.

Mustaqil holda leksik ma'no ifoda etmay, gap bo'lagi vazifasini bajarmaydigan, faqat so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan yoki ularga qo'shimcha ma'no qo'shishga xizmat qiladigan so'zlar **yordamchi so'zlar** deyiladi. Yordamchi so'zlarga **ko'makchi, bog'lovchi, yuklama** kiradi.

Modal so'zlar modal ma'no ifodalashi jihatidan yuklamalarga o'xshasa-da, lekin undan farqli ravishda gapda gap bo'lagi (kesim, sostavli kesim tarkibida) vazifasida, butun bir gap tarzida kela oladi.

Undov va taqlid so'zlar mustaqil so'zlar kabi biror hodisaning nomi bo'la olmaydi, lekin gap bo'lagi vazifasida, so'z-gap vazifasida kela oladi. Shuning uchun ham bunday so'zlar **alohida guruhni** tashkil etadi.

Otning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning nomini (keng ma'noda) bildiruvchi mustaqil so'z turkumiga **ot** deyiladi. Ot so'z turkumiga oid so'zlar *kim? nima? kimlar? nimalar? qayer?* savollaridan biriga javob beradi: *o'qituvchi, xonanda, tilshunos* – kim?, *yer, suv, tuz, non* – nima?, *shahar, joy* – qayer? kabi.

Keng ma'noda predmet ma'nosini ifodalash otning leksik xususiyatidir. Predmetlik ma'nosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabi), yer va osmonga oid narsalarning nomi (*quyosh, oy, tog', tosh, daryo* kabi), kundalik turmushga oid narsalarning nomi (*tuz, non, choynak, qatiq* kabi), o'simliklarning nomi (*paxta, sholi, jo'xori, beda* kabi), voqea-hodisa, belgi, xususiyat va munosabatlarning nomi (*to'y, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash* kabi), o'rin va vaqt nomlari (*yoz, kuz, pastlik, tepalik* kabi), shuningdek atab qo'yilgan shaxs va predmet nomlari (*Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «O'qituvchi» nashriyoti* kabi) ifoda etadi.

Ot shu ma'no xususiyati jihatidan ikki turga bo'linadi: turdosh otlar va atoqli otlar. *Kitob, daftar, tinchlik* – turdosh otlar; *Samarqand, Akmal, «Qora ko'zlar» (roman), «Fan» (nashriyot)* - atoqli otlar.

Ot o'ziga xos morfologik xususiyatlarga ega, ya'ni:

Ot son kategoriyasiga ega, ya'ni predmet anglatuvchi so'zlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi. Otlar birlik sonda yakka bir predmetni ifodalaydi: *daraxt* – yakka bir predmet, birlik son shaklida kelgan; *daraxtlar* - noaniq ko'plik son shaklida kelgan; **Otlarning ma'no turlari**

Otlar ma'no jihatdan ikki turga bo'linadi: **atoqli otlar va turdosh otlar.**

Bir xildagi predmet (shaxs) yoki hodisalardagi birinchi ayirib ko'rsatadigan otlar **atoqli otlar** deyiladi. Atoqli otlar atab qo'yilgan nomlardir. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

- 1) kishilarning ismi va familiyalari: *Murod, O'ktam, O'tkir, Mahmudov, Ahmedov* kabi;
- 2) yozuvchi va shoirlarning taxalluslari: *Oybek, Uyg'un, Muqimiy, Furqat* kabi;
- 3) uy hayvonlariga atab qo'yilgan nomlar: *Olapar, To'rtko'z, Mosh* kabi;
- 4) planeta, yulduzva sayyoralarning nomi: *Yer, Zuhra, Etti qaroqchi, Mirrix* kabi.
- 5) geografik nomlar (shahar, qishloq, tog', daryo, ko'l, cho'l, qit'a nomlari): *Samarqand, Chotqol, Pomir, Ohangaron, CHirchiq, Osiy* kabi;
- 6) oliy davlat va yuqori tashkilotlarning nomlari: *O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Kengashi* kabi;
- 7) ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari, vazirliklar va korxonalar nomi: *Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent Davlat Pedagogika universiteti, Moliya vazirligi, Davlat banki* kabi;
- 8) yuqori mansab, oliy faxriy unvon nomlari: *O'zbekiston Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi raisi, Bosh Qo'mondon* kabi;
- 9) turli anjuman, hujjat va rezolyutsiyalar, tarixiy voqealar nomi: *Ulug' Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Toshkent anjumani* kabi;
- 10) fabrika, zavod, jamoa xo'jaligi, sport jamiyatlari, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal nomlari: *«Sharq yulduzi» xo'jaligi, «O'rtoq» konditer fabrikasi, «Yosh kuch» sport jamiyati, «Turkiston» kontsert zali, «Yulduzli tunlar» romani, «Ma'rifat» gazetasi, «Guliston» jurnali* kabi.

Atoqli otlar, odatda, bosh harf bilan yoziladi, shuningdek, ko`plik son shaklida qo`llanmaydi. Shu xususiyatlari bilan turdosh otlardan farq qiladi.

Bir turdagi predmet, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi **turdosh** ot deyiladi: stol, kitob, tanbur, baxt, g`oya, anjuman kabi. Turdosh otlar atoqli otlarga nisbatan ko`p miqdorni tashkil etadi. Turdosh otlar kichik harf bilan yoziladi.

Atoqli otlar turdosh otlarga yoki aksincha, turdosh otlar atoqli otga o`tishi mumkin. Masalan, frantsiyalik ustaning nomi *Batist* (atoqli ot) so`zi turdosh otga (matoning nomi) aylangan bo`lsa, *muhabbat* turdosh oti (abstrakt ot) atoqli otga (ismga) aylangan.

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko`ra konkret (aniq) va abstrakt (mavhum) otlarga ajratiladi. Bevosita predmet anglatadigan otlar **konkret** otlar deyiladi: *qalam, daftar, bola, tog`* kabi. Konkret otlarni bevosita sanash va ko`rish mumkin: *o`nta daftar, beshta bola* kabi. Birlik va ko`plik shaklida kela oladi: *bola* (birlik) – *bolalar* (ko`plik) kabi.

Mavhum tushunchani, belgini predmet sifatida ifodalaydigan otlar mavhum ot deyiladi: *tinchlik, iroda, baxt, quvonch* kabi.

Abstrakt otlarni sanash va ko`rish mumkin emas. Ko`plik son shaklida qo`llanmaydi.

Turdosh otlar birlik shaklda kelib yakka bir predmetni yoki predmetlarning to`dasini ifodalashi mumkin. Shu xususiyatga ko`ra turdosh otlarning ikki turi mavjud: yakka ot va jamlovchi ot.

Birlik shaklda kelib bir turdagi predmetlardan bittasini ifodalaydigan ot **yakka** ot deyiladi: *daraxt, stol, kishi, daryo* kabi.

Birlik shaklda kelsa ham, lekin bir turdagi predmetlarning jamini, to`dasini ifodalaydigan ot **jamlovchi** ot deyiladi: *xalq, lashkar, to`da, olomon, ko`pchilik, ozchilik* kabi.

Otlardagi egalik kategoriyasi

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba`zan predmetga) taalluqli ekanligini ko`rsatuvchi umumiy ma`nolar va bu ma`nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga **egalik kategoriyasi** deyiladi.

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga, ya`ni so`zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o`zga (III shaxs) shaxsga taalluqliligini ifodalaydigan affikslar **egalik affikslari** deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma`nosi bilan birga uning sonini (birlik yoki ko`plik ma`nosini) ham ifodalaydi. Egalik affikslari quyidagi jadvalda berilgan.

Shaxs	Birlik	Ko`plik
I shaxs	-(i)m	-(i)miz
II shaxs	-(i)ng	-(i)ngiz
III shaxs	-i, -si	-i, -si

Jadvaldan ko`rinadiki, III shaxs egalik affiksi birlik va ko`plik son uchun umumiy. Predmetning bir shaxsga yoki ko`p shaxsga taalluqliligi egalik affiksi olgan ot bog`lanib kelgan so`zning grammatik son shakliga qarab aniqlanadi: *uning kitobi* – birlik, *ularning kitobi* – ko`plikdir.

Shuningdek, egalik affikslari ot negizining unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab ikki xil shaklda qo`llanadi.

Shaxs	Birlik		Ko`plik	
	unlidan so`ng	undoshdan so`ng	unlidan so`ng	undoshdan so`ng
I shaxs	sovg`a+ -m	daftar+ -im	sovg`a+ -miz	daftar+ -imiz
II shaxs	sovg`a+ -ng	daftar+ -ing	sovg`a+ -ngiz	daftar+ -ingiz
III shaxs	sovg`a+ -si	daftar+ -i	sovg`a+ -si	daftar+ -i

Kelishik kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot

Ot (yoki otlashgan soʻz)ning boshqa soʻzlarga boʻlgan sintaktik munosabatini koʻrsatuvchi maʼnolar va bu maʼnolarni ifodalovchi shakllar tizimiga **kelishik** kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltita grammatik maʼno va uni ifoda etuvchi shakllarni oʻz ichiga oladi. Bularga bosh kelishik,

qaratqich kelishik, tushum kelishik, joʻnalish kelishik, oʻrin-payt kelishik va chiqish kelishik kabi grammatik maʼnolar hamda bu maʼnolarni ifodalovchi *-ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan* kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik oʻz nomi, ifoda shakliga ega, maʼlum bir soʻroqlarga javob beradi.

Kelishiklar	Turlanishi	Soʻroqlari
Bosh kelishik	<i>Saida, kitob, Toshkent</i>	<i>kim? nima? qayer?</i>
Qaratqich kelishigi	<i>Saidaning, kitobning, Toshkentning</i>	<i>kimning? nimaning? qayerning?</i>
Tushum kelishigi	<i>Saidani, kitobni, Toshkentni</i>	<i>kimni? nimani? qayerni?</i>
Joʻnalish kelishigi	<i>Saidaga, kitobga, Toshkentga</i>	<i>kimga? nimaga? qayerga</i>
Oʻrin-payt kelishigi	<i>Saidada, kitobda, Toshkentda</i>	<i>kimda? nimada? qayerda</i>
Chiqish kelishik	<i>Saidadan, kitobdan, Toshkentdan</i>	<i>kimdan? nimadan? qayerdan?</i>

Otlarda kelishik affikslari **turlovchi affikslar** deb ham yuritiladi. Otlarning kelishiklar bilan oʻzgarishi **turlanish** deb yuritiladi.

Otlarning yasalishi

Hozirgi oʻzbek tilida ot soʻz turkumi lugʻat tarkibida mavjud boʻlgan soʻzlarning miqdorini tashkil qiladi. Chunki ot soʻz turkumi boshqa soʻz turkumlariga nisbatan yangi soʻzlar hisobiga tez boyib boradigan turkumdur.

Oʻzbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbreviatsiya usullari bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasash. Bu usulga koʻra soʻz negiziga maxsus ot yasovchi affikslarni qoʻshish bilan yangi ot yasaladi. Ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, feʼl va ravish kabi mustaqil soʻz turkumlari, shuningdek, modal va taqlid soʻz negizlaridan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasovchi affikslar maʼno jihatdan quyidagi guruhdagi otlarni yasaydi:

- 1.Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar.
- 2.Narsa, qurol, oʻlchov birligi otlarini yasovchi affikslar.
- 3.Oʻrin-payt otlarini yasovchi affikslar.
- 4.Abstrakt ot yasovchi affikslar.

Shaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qoʻshilib, negizdan anglashilgan predmet bilan bogʻliq shaxs otlarini va maʼlum bir soha, kasb bilan shugʻullanuvchi kasb-hunar otlarini yasaydi.

Bu affikslarga quyidagilar kiradi:

- chi: tarbiyachi, terimchi, sportchi, tijoratchi, navbatchi
- dosh: fikrdosh, kursdosh, zamondosh, suhbatdosh, muallifdosh
- gar,-kor: zargar, kimyogar, gʻallakor, sanʼatkor
- bon,-boz: bogʻbon, darvozabon, darboz, bedanaboz
- paz: oshpaz, somsapaz, kabobpaz
- kash: suratkash, aravakash, mehnatkash
- dor: chorvador, mulkdor
- shunos: tilshunos, tuproqshunos, tabiatshunos
- xon: kitobxon, gazetxon, gʻazalxon
- soz: mashinasoz, traktorsoz, soatsoz
- doʻz: doʻppidoʻz, etikdoʻz, mahsidoʻz, gilamdoʻz
- xoʻr: choyxoʻr, oshxoʻr.

Shaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslardan *-chi* eng mahsuldor ot yasovchi affiks sanaladi.

Yuqorida qayd etilgan –kash, -xo`r, -paz, -do`z, -boz, -gar, -soz, -xon, -shunos so`z yasovchi affikslari tojik tilida fe`l o`zaklari bo`lib, o`zbek tilida so`z yasovchi affiks vazifasini bajaradi.

Narsa Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning doimiy, o`zgarmas belgisini ifodalaydigan so`zlar **sifat** deyiladi.

Sifat mustaqil so`z turkumi sifatida uch xil belgiga ega:

1. Leksik-semantik belgisi. Sifat belgi ma`nosini bildiradi.

2. Morfologik belgisi: Sifat *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?* so`roqlaridan biriga javob bo`ladi.

Sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi keng bo`lib, ma`nosiga ko`ra bir necha guruhga ajratiladi:

a) rang-tus ma`nosini bildiradigan sifatlar: *oq, qizil, sariq, havo rang, kul rang, yashil, zangori*;

b) hajmi ma`nosini bildiradi: *keng, tor, baland, past, uzun, chuqur, yirik, mayda*;

d) shakl va ko`rinish ma`nosini bildiradi: *dumaloq, yassi, egri, qiyshiq, do`ng*;

e) maza-ta`m ma`nosini bildiradi: *shirin, achchiq, nordon, sho`r, taxir, chuchmal, bemaza*;

f) xarakter-xususiyat ma`nosini bildiradi: *muloyim, odobli, shirinso`z, chaqqon, sho`x, yalqov, dangasa, chechan, qo`rs, qaysar*. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni ifodalaydi;

j) hid ma`nosini bildiradi: *sassiq, qo`lansa, badbo`y, xushbo`y, muattar*;

h) holat ma`nosini bildiradi. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo`ladi:

1) psixik holatni ifodalaydi: *xursand, xafa, shod, kasal, injiq*;

2) tabiiy holatni ifodalaydi: *yosh, qari, keksa*.

Ba`zi adabiyotlarda sifat quyidagi lug`aviy ma`noviy guruh(LMG)ga eka ekanligi aytib o`tilgan.(R. Sayfullayeva, B. Mengliyev v.b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 2010.)

Sifat LMGLari. Darslik va qo`llanmalarda sifaming 9 ta LMGSi ajratiladi:

1.Xususiyat bildiruvchi sifat. 2.Holat bildiruvchi sifat. 3.Shakl bildiruvchi sifat. 4.Rang-tus bildiruvchi sifat. 5.Maza-ta`m bildiruvchi sifat. 6.Hid bildiruvchi sifat. 7.0`lchov bildiruvchi sifat. 8.0`rin bildiruvchi sifat. 9.Payt bildiruvchi sifat.

1.Xususiyat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko`p qo`llanadi: *yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash, yaxshi, yomon, loqayd kabi*. Xarakter-xususiyat ijobiy yoki salbiy bo`lishi mumkin.

2.Holat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning holat yoki vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifat o`z o`mida yana ichki guruhlarga bo`linadi:

1) tabiiy holat bildiruvchi sifat: *go`zal, mo`min, o`ktam, cho`loq, bukri,*

2)jismoniy holat bildiruvchi sifat: *bardam, baquwat, tetik, yosh;*

3)ruhiy holat bildiruvchi sifat: *xafa, g'amgin, ma'yus, xursand, shod;*

4)iqtisodiy holat bildiruvchi sifat: *boy, badavlat, kambag'al, nochor,*

5)harorat holatini bildiruvchi sifat: *iliq, salqin, sovuq, issiq;*

6)tozalik holatini bildiruvchi sifat: *toza, ozoda, kir, musaffo, isqirt;*

7)eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: *yangi, eski, ko'hna, juldur,*

**8)ho`l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat:** *ho`I, quruq, nam, nanvcush;*

9)tinch va notinch holatni bildiruvchi sifat: *tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, bezovta;*

10) yetilganlik holatini bildiruvchi sifat: *xom, pishiq, g' o' r, puxta.*

3. **Shakl bildiruvchi sifat.** Bu turdagi sifat narsa/predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi: *novcha, yassi, uzunchoq, dumaloq, yapaloq, aylana.*

4. **Rang-tus bildiruvchi sifat:** *oq, qora, qizil, pushti, sariq, zangor.*

5. **Maza-ta'm bildiruvchi sifat:** *shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r.*

6. **Hid bildiruvchi sifat:** *xushbo'y, badbo'y, qo'lansa.*

7. **O'lchov bildiruvchi sifat:** *keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir.*

8. **O'rin bildiruvchi sifat:** *ichki, tashqi, devoriy, qishloq, oldin, keyin, yuqori, past, baland.*

9. Payt bildiruvchi sifat: *kuzgi, yozgi, qishki, chillaki, ertapishar, barvaqt, bir mahal, kech.*
Ba'zi adabiyotlarda **miqdor** sifatleri ham berilgan: *oz, ko'p, mo'l, butun, to'la.*

Sifat belgini bevosita yoki bivosita ifodalaydi. Predmetning doimiy belgisini bildiradigan belgini bevosita ifodalaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi. Sifatning yuqoridagi ma'no turlari sifatni bevosita ifodalaydi.

Asliy sifatlar belgini darajalab ko'rsata oladi: katta, kattaroq, eng katta kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: yosh-qari, yaxshi-yomon kabi.

Belgini bivosita, ya'ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, o'xshatish orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa so'z turkumlaridan yasaladi va xoslik, o'xshashlik, o'rin yoki paytga munosabat, mo'ljallanish ma'nolarini bildiradi:

a) xoslik ma'nosini ifodalaydigan sifat ot turkumidagi so'zga -iy, -viy qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: zamonaviy, oilaviy, ma'naviy, siyosiy;

b) o'xshashlik ma'nosini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zga -simon, -sifat affiksini qo'shish bilan yasaladi: odamsimon, hayvonsifat, devsimon;

v) o'rin va payt ma'nolarini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zlarga -gi, -qi, -ki, -dagi affiksini qo'shish bilan yasaladi: qishki, yozgi, bahorgi, bulturg, tushki, kechki;

g) mo'ljallanganlik, xoslik, o'lchov ma'nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi so'zlarga -lik affiksini qo'shish bilan yasaladi: ko'rpalik, ko'rpachilik, toshkentlik, ko'ylaklik.

Sifat ba'zan ravish o'rnida qo'llanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: ma'noli gapirmoq, chiroqli yozmoq, yaxshi o'qimoq kabi.

Sifatning belgisini darajalab ko'rsatishi (qizil, qizilroq, eng qizil, qip-qizil), yasallish sistemasiga egaligi otlashishi uning morfologik belgilaridan hisoblanadi.

3. Sifatning sintaktik belgisi. Sifat gapda otga, ba'zan fe'lga bitishuv usuli orqali bog'lanadi va o'zi bog'lanib kelayotgan so'zga to'beqlanadi.

Sifat otga bog'lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: Biz do'stlarning eng yaxshi do'sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin. (Yo. Shukurov).

Sifat fe'lga bog'lanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: Yulduzlar odatdagidan ko'ra toza, kattaroq, yorqinroq ko'rinardi. (P. Qodirov).

Predmetning miqdorini, sanog'ini, joylashish tartibini, ba'zan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil so'z turkumi son deyiladi. Son necha? nechanchi? nechta? qancha? kabi so'roqlardan biriga javob beradi.

Son otga bog'lanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, ba'zan fe'lga bog'lanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: to'rtta daftar, ikki oy o'qidi, birinchi keldi kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, fe'lga bog'lanmagan holda keladi. Bunda

son ifodalagan miqdor mavhum ma'noga ega bo'ladi: ikki qo'shuv uch besh. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qo'shilishi bilan besh hosil bo'lishi aniq emas.

Sonlar ko'pincha raqamlar bilan yoziladi:

1) arab raqamlari bilan 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.

2) rim raqamlari bilan: **birliklar:** I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9); **o'nliklar:** X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90); **yuzliklar:** C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900); **mingliklar:** M (1000), MM (2000), MMM (3000) ...

Badiiy asarlarda sonlar so'z bilan yoziladi: **To'rt yil kutdi.**

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan 23 ta sodda son bo'lib, boshqa sonlar shularning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard.*

Eski yozuv tilida tuman (o'n ming), lak (yuz ming) kabi sonlar bo'lgan. Tarixiy asarlarda manna shu sonlar uchraydi.

Son predmetning aniq (beshta daftar) yoki noaniq (besh-oltita daftar) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalanagan. Ravish so'z turkumiga doir ko'p, oz, kam, mo'l kabi so'zlar ham predmetning noaniq miqdorini bildiradi, lekin bu so'zlar raqam bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham bu so'zlar son so'z turkumiga oid emas.

Olmosh haqida ma'lumot

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba'zan so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llana oladigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumi olmosh deb ataladi:

1.Ot o'rnida: *Karim juda quvondi, chunki u o'z orzusiga erishgan edi.*

2.Sifat o'rnida: *Kechagi kitobingni berib tur, men shu kitobdan misollar olmoqchiman.*

3.Son o'rnida: *Menda ikkita qalam bor, senda nechta bor?*

4. Ravish o'rnida: *Men bugun ketaman, sen qachon ketasan?*

5. So'z birikmasi o'rnida: *Yomon so'z bosh qozig'idir, shunday so'zni gapirmagan ma'qul.*

6. Gap o'rnida: *Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan, bu esa insondagieng yomon xislatdir.* Olmoshlar turlanadi, gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi, aniqllovchi va undalma bo'lib keladi: Hamma keldi. Bizni tabriklang. Shu kitobni bering.

Ma'lumki, so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch turga bo'linadi:

a)mustaqil ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);

b)bo'sh – ishora ma'noli so'z (olmosh);

d) yordamchi ma'noli so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).

«Ishoraviylik» ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib «ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'z» sifatida o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmosh guruhiga *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi shaxsga; *kim, nima, bu, ana, mana, mana bu* kabi predmetga; *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga; *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga; *qachon* kabi paytga; *qayer* kabi o'ringa; *shunday bo'lmoq, qanday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksema kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni «almashtirib», uning o'rnida kelavermaydi. Misollar: 1.*Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.* 2. *Men kecha keldim. Sen buni bilasan.* 3.*Nima qilsam ham, men o'zim bilaman.* 4. *Hamma mehmonlar biznikida.* 5.*Barcha mushkulotlar oson bo'ldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshi hech bir so'zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmosh alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida «yashirin ma'noli so'z» (*zamirlar*) sifatida alohida guruhlariga ajratilgan. Chunonchi, *kitob, daftar, Abbos* – aniq ma'noli ot bo'lsa, *men, sen, kim* – yashirin ma'noli ot (zamid otlar) dir. Yoxud *oq, qizil, chiroyli* — ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, *bunday, shunday* kabilar «zamid sifat» dir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'z kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani bajaradi: **O'qituvchi** darsga kirdi. **U** o'quvchilar bilan salomlashdi. Olmosh o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod. U kitobni o'qidi.*

Olmoshning grammatik xususiyatlari :

- 1) so'z yasaliş xususiyati yo'q (lekin olmoshlar asosida ot, fe'l, ravish, sifat yasalişlari mumkin: *o'zlik, sensirama, o'zicha, menbop*);
- 2) juftlanib, boshqa so'z turkumi vazifasida keladi: *o'sha-o'sha, shu-shu* (ravish);
- 3) olmoshlar otlarga xos so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni olishi mumkin: *unga, shunisi*;
- 4) olmosh hech vaqt o'zidan oldin aniqlovchi olmaydi.

Olmoshlarni gapda bajargan vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lsa bo'ladi:

1. ot toifasidagi olmoshlar
2. sifat toifasidagi olmoshlar.
3. son toifasidagi olmoshlar.

Boshqa turkumga oid so'zlarning olmoshlarga ko'chishi

Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so'zlar olmoshga ko'chadi:

1. ot: *odam, kishi, inson, narsa, ish*;
2. sifat: *ba'zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi*;
3. son: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* so'zlari bilan keladigan ko'pgina so'zlar olmoshga ko'chishi mumkin: *hech narsa, bir narsa, har yerda*.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Grammatika atamasini izohlab bering.
2. Grammatik ma'noning qo'shimchalar bilan ifodalanishini misollar bilan tushuntiring.
3. Grammatik ma'no yordamchi so'zlar vositasida ifodalanishini misollar bilan yoritib bering.
4. So'zlarni juftlash va takrorlash orqali ifodalanishiga misollar keltiring.
5. Urg'u yordamida, ohang yordamida, so'z tartibi orqali ifodalanishiga misollar keltiring
6. So'z shakli deganda nimani tushunasiz?
7. So'zning grammatik shakli deganda nimani tushunasiz?
8. Grammatik kategoriyani ifodalanishini izohlang..
9. So'z turkumlariga ajratish tamoyillarini tasniflang.

7- Mavzu: Fe'l va ravish so'z turkumlari. Ko'makchi fe'l va fe'llarning yasalişlari.

Yordamchi so'z turkumlari. Modal, undov va taqlid so'zlar.

Reja:

1. Fe'l, uning grammatik xususiyatlari.
2. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.
3. O'timli va otimsiz fe'llar.
4. Fe'l nisbatlari haqida ma'lumot.

Tayanch so'z va iboralar: fe'l so'z turkumi, fe'lning grammatik xususiyatlari, fe'lning ma'no guruhlari, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar, fe'l nisbatlari.

Fe'l, uning grammatik xususiyatlari

Predmetning harakatini bildirib, *nima qilmoq? nima bo'lmoq?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar fe'l deyiladi (Qolgan so'roqlar shu so'roqlardan hosil bo'ladi: *nima qildi? nima qilgan?* Masalan: o'qidi, yozdi.

Fe'llarning morfologik xususiyatlari: 1) bo'lishli va bo'lishsiz shakllarga ega: *bordi, bormadi*; 2) o'timli-o'timsizlik xususiyatlariga ega: *o'qidi* (o'timli), *keldi* (o'timsiz); 3) nisbat,

zamon, shaxs-son va mayl ifodalay oladi: *yozdi* (o'tgan zamon, aniq nisbat, 3-shaxs, birlikda, xabar maylida); 4) o'zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega: *keldi* (sof fe'l), *kelib* (ravishdosh), *kelgan* (sifatdosh), *kelish* (harakat nomi); 5) fe'llar faqat boshqa turkumlardan yasallish xususiyatiga ega: *ishla*, *ko'kar*.

Fe'llarning sintaktik xususiyati:

• Fe'llarning sintaktik xususiyati: 1) gapda ko'pincha fe'l-kesim vazifasini bajaradi: *Kuz keldi*. 2) bundan tashqari, vazifadosh shakllari orqali barcha bo'lak vazifasini bajara oladi: ega (*O'qimoq* – *maqsadim*.), ot-kesim (*Maqsadim* – *o'qimoq*), to'ldiruvchi (*Tushuntirishni boshladim*), sifatlovchi-aniqllovchi (*Oqigan odam qiynalmaydi*), qaratqich aniqllovchi (*Olmoqning bermog'i bor*), hol (*U jo'shib gapirdi*).

Fe'llarning lug'aviy (leksik) jihatdan ma'no guruhlari

Fe'llar lug'aviy (leksik) jihatdan quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi

1. Yurish-harakat fe'llari: *yurmoq*, *yugurmoq*, *chiqmoq*, *bormoq*, *qimirlamoq*, *yelmoq*, *sudralmoq*, *sakramoq*, *uchmoq*, *o'tmoq* va h.

2. Nutq fe'llari: *gapirmoq*, *pichirlamoq*, *demoq*, *so'zlam*oq, *so'ramoq*, *yalinmoq*, *o'tinmoq*, *yo'lvormoq*, *vaysamoq*, *surishtirmoq*, *baqirmoq*.

3. Tafakkur fe'llari: *o'ylamoq*, *fikrlamoq*, *hayol qilmoq*, *tasavvur qilmoq*, *hukm chiqarmoq*, *o'yga botmoq*, *ko'z oldiga keltirmoq*, *gavdalandirmoq*.

4. Natijali faoliyat fe'llari: *chizmoq*, *yozmoq*, *yasamoq*, *qurmoq*, *yaratmoq*, *bino qilmoq*, *asos solmoq*, *bo'yamoq*, *tozalamoq*, *yiqlamoq*.

5. Holat fe'llari: *uxlamoq*, *kulmoq*, *yig'lamoq*, *tirjaymoq*, *dam olmoq*, *shoshmoq*, *qizarmoq*, *semirmoq*, *ranjimoq*, *xursand bo'lmoq*.

A.Nurmonov "O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya" darsligida fe'l anglatgan ma'nolar qator mazmuniy guruhlariga ajratiladi, bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish so'zlash, sezish, yo'naltirish bilan, holatga xos ruhiy-psixologik, iqtisodiy, tafakkur bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinadi.

1. Jismoniy harakat fe'llari inson, hayvon, jonsiz, predmetlarga xos dinamikaga taalluqli faoliyatni ifodalaydi:

-yaratish harakati fe'llari: *solmoq*, *ko'rmok*, *yopmoq*, *o'rnatmoq*, *yasamoq*, *tuzmoq*;

-buzish harakati fe'llari: *kesmoq*, *buzmoq*, *suymoq*, *yemirmoq*, *yo'qotmoq*;

-o'zgartirish harakati fe'llari: *bo'yamoq*, *bezamoq*, *kertmoq*, *yamamoq*, *buklamoq*, *gijimlamoq*, *dazmollamoq*, *yeymoq*;

-ta'sir etishga bog'liq harakat fe'llari: *yubormoq*, *eltmoq*, *jo'natmoq*, *tikmoq*, *ag'darmoq*, *oqizmoq*, *tashlamoq*, *keltirmoq*;

-zarb berish bilan bog'liq harakat fe'llari: *urmoq*, *savalamoq*, *tepmoq*, *zarb bermoq*, *tarsakilamoq*, *bug'moq*, *do'pposlam*oq;

-jamlash harakati bilan bog'liq fe'llar: *yig'moq*, *to'plamoq*, *jamlamoq*, *jamg'armoq*;

Bular ichida yaratish va buzish harakati fe'llari o'zaro zidlanish munosabatida bo'ladi: *ko'rmok*-*buzmoq*, *yasamoq*-*emirmoq*, *tuzmoq*-*yo'qotmoq*. O'zbek tilida yo'nalma harakat fe'llari munosib o'rin tutadi. Bu fe'llarga *bormoq*, *yurmoq*, *ketmoq*, *jo'namoq*, *suzmoq*, *egilmoq*, *uchmoq* singarilar kiradi. Ular o'rtasidagi qarama-qarshilik vektor antonimlarni ifodalaydi: *bormoq*-*kelmoq*, *kirmoq*-*chiqmoq*.

2. Nutq fe'llari nutqiy jarayon bilan bog'liq harakatni o'z ichiga oladi, bunday fe'llar inson faoliyati bilan aloqador bo'ladi:

-so'zlashuv fe'llari umumiy: *gapirmoq*, *so'ylamoq*, *so'zlam*oq;

-axborot anglatish bilan bog'liq fe'llar: *bildirmoq*, *aytmoq*, *ta'kidlamoq*, *xabar berm*oq;

-nutqiy aloqa fe'llari: *gaplashmoq*, *suhbatlashmoq*, *so'ramoq*, *surishtirmoq*, *bahslashmoq*;

-nutqiy undash fe'llari: *targ'ib qilmoq*, *tashviq qilmoq*, *iltimos qilmoq*, *undamoq*, *buyurmoq*, *da'vat qilmoq*;

-nutqqa xos baholash fe'llari: *so'kmoq*, *urishmoq*, *jerkm*oq, *maqta*moq, *yomonlam*oq, *qarg'am*oq;

-talaffuz darajasi bilan bog'lik, fe'llar: baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, dodlamoq, shang'illamoq, ming'illamoq, pichirlamoq;

Nutq fe'llari doirasidagi ayrim so'zlar darajalanish munosabatini hosil qiladi: pichirlamoq, shivirlamoq, mingillamoq, so'zlam, baqirmoq, dodlamoq.

3. Sezgi fe'llari inson yoki hayvonga xos sezish ifodasini namoyon qiladi:

-ko'rish sezgisi fe'llari: ko'rmoq, qaramoq, boqmoq, tikilmoq, javdiramoq, nazar solmoq, ko'z tashlamoq;

-eshitish sezgisi fe'llari: tinglamoq, eshitmoq, quloq solmoq;

-ta'm-maza sezgisi bilan bog'liq fe'llar: totmoq, ichmoq, chaynamoq, yutmoq;

-hid bilish bilan bog'liq sezgi fe'llar: hidlamoq, iskamoq.

4. Tafakkur bilan bog'liq fe'llar inson faoliyati, mushohodasi bilan aloqador tushunchalarni qamraydi:

-fikir yuritish bilan bog'liq fe'llar: o'ylamoq, fikrlamoq mulohaza qilmoq;

-xotirlash bilan bog'liq tafakkur fe'llari: eslamoq, xotirlamoq esga tushirmoq, yodlamoq;

-anglash bilan bog'liq, tafakkur fe'llari: tushunmoq, anglamoq, uqmoq, fahmlamoq.

5. Hayvonot dunyosi, jonotlar faoliyati bilan bog'liq fe'llarga xos bo'lgan turlicha xususiyatlarni gavdalandiruvchi harakatlar mansubdir:

-hayvonlar, qushlar ovozi bilan bog'liq faoliyat: kishnamoq, akillamoq, ma'ramoq, miyovlamoq, hangramoq, bo'kirmoq, sayramoq;

-hayvonlar, qushlar, harakati bilan bog'liq fe'llar: yo'rtmoq, uchmoq, lo'killamoq, qanot qoqmoq, kemirmoq, chaqmoq, qopmoq, tishlamoq, suzmoq (shox bilan), kavlam.

6. Tabiat hodisalari bilan bog'lik, fe'llarga o'simliklar dunyosi, osmon jismlari faoliyatiga taallukli so'zlar kiritiladi:

-o'simliklar o'zgarishi bilan aloqador fe'llar: ko'karmoq, gullamoq, o'smoq, ochilmoq, qizarmoq, sarg'aymoq, urug'lamoq, ildiz otmoq;

-ob-havo o'zgarishlari, osmon jismlari faoliyati bilan bog'liq fe'llar: yog'moq, esmoq, guldirmoq, miltirmoq, charaqlamoq (oy, quyosh), nur sochmoq, yorishmoq, botmoq.

7. Umumiy holat anglatuvchi fe'llar jonli va jonsiz dunyodagi o'zgarishlar asosida ajratiladi:

-organik dunyodagi jismoniy holat o'zgarishi fe'llari: yashamoq, o'lmoq, og'rirmoq, hayot kechirmoq; mavjlanmoq, sog'aymoq, xastalanmoq;

-noorganik dunyodagi jismoniy holat o'zgarishi fe'llari: aynimoq, ko'karmoq, buzilmoq, xidlanmoq, chirimoq.

8. Ruhiy holat fe'llari insonga xos ruhiy-psixologik faoliyat bilan bog'liq, tushunchalarni qamraydi:

-quvonch bilan bog'liq ruhiy holat fe'llari: shodlanmoq, zavqlanmoq, xursand bo'lmoq, quvonmoq, sevinmoq;

-qayg'u-tashvish bilan aloqador ruhiy holat fe'llari: yig'lamoq, tashvishlanmoq, o'kinmoq, o'ksimoq, bo'zlam;

-umumiy ruhiy holat fe'llari: uyalmoq, ikkilanmoq, bezovtalanmoq, berilmoq, ardoqlamoq.

9. Iqtisodiy holat bilan aloqador fe'llarga kishining iqtisodiy o'zgarishi bilan aloqador fe'llar kiradi: boyimoq, kambag'allashmoq, kasodga uchramoq, zariqlamoq.

10. Munosabat fe'llariga so'zlovchining ijobiy va salbiy baholashi e'tiborga olingan fe'llarni kiritish mumkin: aljimoq, anqaymoq, vaysamoq, kekkaymoq, jilpanglamoq, laqillamoq.

R.Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida fe'llarni anglatgan qator ma'nolariga ko'ra turli mazmunli guruhlariga bo'lgan. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi. Bulardan xarakterlilarini ko'rib o'tamiz.

Harakat fe'li jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq

harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko‘rinib turadi. Oyoq bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi fe‘llar: *yurmoq, kezmoq, yo‘rg‘alamoq, pildiramoq, lapanglamoq, gandiraklamoq, do‘konglamoq, tentiramoq, tepkilamoq, tepmoq, toptamoq, depsinmoq, tisarilmoq*; qo‘l bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi fe‘l: *urmoq, solmoq, ushlamoq, silamoq, tirnamoq, shapaloqlamoq, chimchilamoq, uqalamoq, qitiqlamoq, changallamoq, mushtlamoq, chertmoq, hovuchlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq*;

Yuz, gavda, og‘iz, lab, quloq, burun va h. bilan bog‘liq harakat ham mavjud.

Nutq fe‘llari insonning gapirish faoliyati bilan bog‘liq harakatlarni ifodalaydi: *gapirmoq, so‘zlamoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, to‘ng‘illamoq, g‘o‘ldiramoq, vaysamoq, vaqillamoq, javramoq, bobillamoq, javob bermoq, vag‘illamoq* kabi.

Holat fe‘llari. Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turlichasiyatga ega. Holatni to‘rtga bo‘lish mumkin:

a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog‘liq): *eslamoq, unutmok, yodlamoq, tubanlashmoq*;

b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq): *xafa bo‘lmoq, shodlanmoq, esankiramoq, dovdiramoq, g‘azablanmoq*;

d) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog‘liq): *holsizlanmoq, kuymoq, kuchlanmoq, zaiflashmoq*;

e) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog‘liq): *boyimoq, kambag‘allashmoq, ko‘tarilmoq, urilmoq, quvg‘in bo‘lmoq*.

Natijali faoliyat fe‘llari tizimi yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil bo‘lmoq, chizmoq, yozmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermok, randalamoq, sindirmoq, yemoq, o‘chirmoq kabi birliklarni o‘z ichiga oladi.

Tafakkur fe‘llari sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog‘liq o‘ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o‘yga botmoq, ko‘z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq kabilar kiradi.

Munosabat fe‘llari qatori *erkalamoq, suymoq, yaxshi ko‘rmoq, parvona bo‘lmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo‘lmoq, e‘zozlamoq* kabi ijobiy xarakterdagi munosabat fe‘llari, *beti qursin, xudo olsin, qorasi o‘chsin, baloga giriftor bo‘lsin, juvonmarg bo‘lgur* kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe‘llaridan tashkil topadi.

Fe‘l ma‘noviy guruhlarida ham markaz va qurshov leksemalari farqlanadi. Masalan, ma‘nodosh fe‘llarda bosh (dominanta) so‘z, uyadoshlik paradigmasida uya (giperonim) markaz leksemi hisoblansa, boshqa ma‘nodosh va uyadosh (giponimlar) qurshov leksemi deyiladi. *Kulmoq* fe‘li dominanta sifatida bunga ma‘nodosh boshqa leksemalarni, *buzmoq* esa buzishning turli ko‘rinishini ifodalaydigangiponim leksemi uyushtirib turadi. So‘zlar yirikroq butunliklarga birlashtirilganda, markaz leksemasigina bu butunlikdan joy oladi. Qurshov leksemalari esa uning «soyasi» sifatida quyida qolaveradi. Masalan, *kulmoq, yig‘lamoq, xursand bo‘lmoq* leksemalari o‘z atrofida ko‘plab fe‘llarni birlashtirgan. Lekin ular bu uch leksema mansub tizimga kira olmaydi, quyi bosqichda qoladi.

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar

• **B o‘l i sh l i** fe‘llar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodaslaydi: *yozdi, yozyapti, yozmoqchi*.

• **B o‘l i sh s i z** fe‘llar bajarilmagan, bajarilmayotgan, bajarilmaydigan harakatni bildiradi: *yozmadi, yozmayapti, yozmoqchi emas*. Bo‘lishsiz fe‘llar fe‘l negiziga *-ma* qo‘shimchasini qo‘shish, fe‘llardan keyin *emas, yo‘q* so‘zlari keltirish, fe‘llardan oldin *na* so‘zini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi: *Yozgani yo‘q. Na yozdi, na o‘qidi. Boradi, boradiya! (bormaydi)*.

Fe‘lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari o‘zaro zidlanadigan ikki a‘zoli paradigma hosil qiladi. Bo‘lishsiz shakl markerli bo‘lib, asosan *-ma* affiksi bilan yasaladi; bunday affiks qo‘shilmagan shakl bo‘lishli shakl deyiladi; bo‘lishli shakl nol ko‘rsatkichli morfema bilan ifodalanadi: *kel + □□-□ ↔ kel + ma-* kabi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydigan morfema nisbat morfema-sidan keyin qo'shiladi, shunga ko'ra aniq nisbatdagi fe'lning bo'lishli shakli $ko'r + \square\square\square + \square\square\square -$, $kel + tir + \square\square\square + \square\square\square -$, $yuv + in + tir + \square\square\square + \square\square\square -$, $mushtla + sh + tir + \square\square\square + \square\square\square -$ tarzida yozib ko'rsatiladi; bunda birinchi nol ko'rsatkichi aniq nisbat uchun, ikkinchi nol ko'rsatkichi bo'lishli shakl uchun yoziladi; bularni o'zaro rim raqamlari qo'yib farqlash zarur: $ko'r + \square\square\square I + \square\square\square II -$ kabi.

Majhul nisbat, shuningdek o'zlik shakli va birgalik shakli affiks bilan yasaladi, shunga ko'ra $\emptyset II$ ramzining o'zi yoziladi: $ko'r + il + \emptyset II -$, $yuv + in + \emptyset II -$, $mushtla + sh + \emptyset II -$ kabi.

O'timsiz fe'l leksema nisbat yasallishidan xoli bo'lgani tufayli nisbat ko'rsatkichi yozilmaydi: $bor + \emptyset II - \leftrightarrow bor + ma -$ kabi.

Ayrim fe'l shakllarida bo'lishsizlik ma'nosi *emas* morfemasi bilan ham ifodalanadi: $bor + ma + gan + man || bar + gan + emas + man$ kabi. Umuman, *emas* morfemasi asosan fe'l bo'lmagan turkum leksemalariga qo'shiladi: *duradgor emasman*, *sinchkov emassiz* kabi.

Juda cheklangan holda yo'q inkor leksemasi bo'lishsiz shakl yasovchisi vazifasini bajaradi. Bunda yo'q leksemasi *-gan*, *-yotgan* affikslari bilan yasalgan zamon shakliga qo'shiladi, zamon yasovchisidan keyin nisbatlovchi qatnashadi: $bor + gan + im + yo'q$, $bor + a + yotgan + im + yo'q$ kabi.

Bo'lishsizlik shaklining bunday yasallishini $bor + gan + emas + man$ kabi shakl yasallishiga, shuningdek $bor + ma + gan + man$ kabi shakl yasallishiga transformatsiyalash mumkin. Ko'rinadiki, *borganim yo'q* kabi qurilma tarkibida qatnashayotgan yo'q qismi *emas*, *-ma* morfemalariga muqobil, shunga ko'ra bunday qurilma tarkibida qatnashadigan yo'q qismini inkor morfemasi deb atash mumkin. Demak, bu uch bo'lishsizlik shakli yasovchilari o'zaro sino-nim.

Tarixan yo'q leksemasi qatnashadigan bunday qurilma *Mening borganim yo'q* ko'rinishiga ega bo'lib, qaratuvchili birikmashakl ega vazifasida, yo'q leksemasi esa kesim vazifasida kelgan; qaratuvchining kelishigi bosh keli-shikka almashganidan keyin bu leksemashakl ega vazifasini, qurilmaning qolgan qismi (*borganim yo'q*) yaxlitlanib kesim vazifasini bajaradigan bo'lgan. Bunday sintaktik qayta bo'linish natijasida kesimning yangicha shakllanishi vujudga kelgan. Bunday qurilmada shaxs-son ma'nosi tuslovchi bilan *emas*, nisbatlovchi bilan ifodalanadi: $bor + ma + gan + man = bor + gan + im + yo'q$ kabi.

"Mustaqil fe'l + ko'makchi fe'l" qurilishli analitik grammatik shakllarda bo'lishsiz shakl yasovchisi uch xil qo'shiladi:

1) Mustaqil fe'lga qo'shib, shu fe'l anglatadigan harakatning voqe bo'lmasligini ifodalaydi: $kel + ma + y + qo'y + di$ kabi;

2) Ko'makchi fe'lga qo'shib, harakat shu ko'makchi fe'l ifodalaydigan ma'noda voqe bo'lmasligini ifodalaydi: $ayt + \emptyset I + ib + qo'y + ma + di$ kabi;

3) Har ikki qismga qo'shib, bo'lishli shakl yasaladi; bunda bo'lishlilik ma'nosi qat'iy tarzda ifodalanadi: $ayt + ma + y + qo'y + ma + y + di = 'albatta aytadi'$ kabi.

Ayrim istisnolardan tashqari, har bir fe'l shakli bo'lishli va bo'lish-siz shaklda ishlatiladi: $kel + \emptyset II \leftrightarrow kel + ma$, $kel + \emptyset II + di \leftrightarrow kel + ma + di$, $kel + \emptyset II + ib \leftrightarrow kel + ma + y$ kabi. Bu umumiy qoidadan ayrim cheklanishlar quyidagicha:

1) Maqsad ravishdoshi yasaladigan asos faqat bo'lishli shaklda bo'ladi: *ko'rgani* (< *ko'rgali*) *keldim* kabi;

2) *-moqchi* affiksi bilan yasaladigan istak mayli shaklida bo'lishsizlik *-ma* affiksi bilan yasalmaydi, balki *emas* morfemasi bilan yasaladi: $bor + moqchi + emas + man$ kabi.

Bo'lishli-bo'lishsiz shakl yasallishi paradigmasini chizma bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Fe'l shakllari	Bo'lishli shakl	Bo'lishsiz shakl
1) Barcha fe'l shakllari (quyidagi juz'iy istisnolar bilan)	$bor + \emptyset II + di$	$bor + ma + di$
2) Analitik grammatik	$ayt + \emptyset I + ma + y +$	$ayt + \emptyset I ma + y + qo'ydi,$

shaklda	qo'y + ma + y + di	ayt + Ø I + ib + qo'y + ma + di
3) -gan, -yotgan affiksi bilan yasalgan zamon shakllari	bor + Ø II + gan + man	bor + ma + gan + man, bor + gan + emas + man, bor + gan + im yo'q
4) -moqchi affiksi bilan yasalgan istak mayli	bor + Ø II + moqchi + man	bor + moqchi + emas + man
5) -gani (< -gali) affiksi bilan yasalgan maqsad ravishdoshi	ko'rgani (keldim)	-

O'timli va o'timsiz fe'llar

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarga bog'lana oladigan fe'llardir: *o'qidi (kitobni)*, *yozdi (xatni)*.

O'timsiz fe'llar esa tushum kelishigidagi so'zlarga bog'lana olmaydigan fe'llardir: *yugurdi*, *bordi*, *turdi*, *o'tirdi*.

1 Fe'l nisbat(daraja)lari haqida ma'lumot

2. Aniq nisbatdagi va o'zlik nisbatdagi fe'llar.

3. Majhul nisbatdagi, birgalik nisbatidagi va orttirma nisbatdagi fe'llar haqida ma'lumot

O'timli-o'timsizlik avvalo biror grammatik ko'rsatkich olmagan fe'l leksemaning o'zidan anglashiladi, harakat bilan ushbu harakat qaratiladigan predmet – vositasiz to'ldiruvchi orasidagi munosabat asosida belgilanadi.

O'timli yoki o'timsiz bo'lish fe'l anglatadigan leksik ma'noga bog'liq. Masalan, *tashla*-leksemasi 'nimanidir bir joydan boshqa bir joyga kuch bilan yo'naltir-' ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifi tarkibidagi 'nimanidir' semasi bu fe'l leksema o'timli ekanini ko'rsatadi. *Yot*-leksemasi 'ma'lum bir sathni yotiq holatda egalla-' ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifi tarkibida harakat qaratiladigan predmet (vositasiz to'ldiruvchi) mavjudligini ko'rsatadigan sema yo'q, shunga ko'ra bu leksema o'timsiz deyiladi.

Ko'rinadiki, o'timli-o'timsizlik biror grammatik ko'rsatkich olmagan fe'l leksemalarda leksik-semantik hodisa sifatida mavjud. Lekin bunday fe'llarning o'timli ekani tashqi ko'rsatkichga ega: bunday fe'lga bog'lanadigan vositasiz to'ldiruvchi – tushum kelishigidagi leksemashakl o'timlilikning tashqi markeri vazifasini bajaradi (fr. *marquer* - 'belgili qilish'). Demak, o'timli fe'l leksema biror grammatik ko'rsatkich olmagan holda *nimani*, *kimni* so'rog'iga javob bo'ladigan vositasiz to'ldiruvchini boshqaradi, o'timsiz fe'l leksemada bunday boshqaruv bo'lmaydi. Ko'rinadiki, bunday fe'l leksemalarda o'timli-o'timsizlik sof semantik hodisa emas, balki semantik-sintaktik hodisa.

O'timli-o'timsizlik fe'l leksemalarga-gina xos muhim xususiyat bo'lib, fe'llikka mansub nisbat, orttirma kabi hodisalar o'timli-o'timsizlikka asoslanadi.

O'timli fe'l leksema vositasiz to'ldiruvchidan tashqari vositali to'ldiruvchini ham boshqarishi mumkin: *ol- - kim kimdan nimani*, *ber- - kim kimga nimani* kabi. Fe'l leksemaning o'timlilikini belgilashda vositali to'ldiruvchining bor-yo'qligi ahamiyatsiz.

Fe'l nisbatlari haqida umumiy ma'lumot

Fe'l orqali ifodalangan harakatni amalga oshiradigan shaxs yoki narsa **harakatning bajaruvchisi (sub'ekti)** deb ataladi, harakat o'tgan narsa yoki shaxs **ob'ekt** deb ataladi. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada qatnashishini ifodalovchi fe'l shakllari **fe'l nisbati** deyiladi.

Fe'l nisbatlari besh xil:

1. *Aniq nisbati*
2. *O'zlik nisbati*
3. *Majhul nisbati*
4. *Birgalik nisbati*
5. *Orttirma nisbati*

2-slayd

Aniq nisbatdagi va o'zlik nisbatdagi fe'llar

1. **Aniq nisbatdagi** fe'llar harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalagan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi. Aniq nisbatdagi fe'llarda maxsus nisbat qo'shimchalari bo'lmaydi: *o'qidi, kelyapti, bormoqchi*.

2. **O'zlik nisbatdagi** fe'llar ish-harakatning boshqa buyumga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganini, o'zi ustida bajarilganini anglatadi. Bunday fe'llar, asosan, o'timli fe'llarning unli bilan tugagan negiziga **-n, -l, -il**, undosh bilan tugagan negiziga **-in, -il** qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe'lda **-(i)sh** qo'shimchasi bilan yasaliş bor: *kerishdi, joylashdi*): *tarandi, sevindi, sudraldi. Jonlanmoq, xo'rsinmoq, odatlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq, afsuslanmoq* fe'lari tarkibida **-n** ko'rsatkichi mavjudligiga qaramasdan, bu fe'llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi **-n** qo'shimchasi ajratilmaydi. *Yayra, qichqir, uxla, bor* kabi fe'llardan o'zlik nisbat yasalmaydi.

Majhul nisbatdagi, birgalik nisbatidagi fe'llar

Majhul nisbatdagi fe'llar ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi. Bu fe'llar ham *n, -in, -l, -il* qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *to'kildi, to'plandi, ochildi, olindi*. O'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bir hil qo'shimcha yordamida hosil bo'lganda, ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe'ldan oldin **o'zi** so'zini keltirib ko'rish bilan aniqlanadi: *Mukofotlar berildi. Alisher o'qishga berildi*. (1-fe'l majhul, 2-fe'l o'zlik nisbatdadir). O'zlik nisbatda harakatning bajaruvchisi aniq bo'ladi va u gapda ega vazifasida keladi (**Sanjar imtihonga tayyorlandi**), majhul nisbatda esa bajaruvchi noaniq bo'ladi va u gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasini bajarib keladi (*Devoriy gazeta Sanjar tomonidan tayyorlandi*).

Majhul nisbat shakllari, ko'pincha o'timli fe'llardan yoki orttirma nisbat shaklidagi o'timsiz fe'llardan yasaladi: *kitobni o'qidi – kitob o'qildi; mashqni yozdirdi – mashq yozdirildi*.

Birgalik nisbatidagi fe'llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa-buyum tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiradi va unli bilan tugagan negizga **-sh**, undosh bilan tugagan negizga **-ish** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: Bunday fe'llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa tomonidan bajarilganligini yoki birgalik-ko'plik ma'nolarini ifodaslaydi: *Karim va Ahmad maqola yozishdi. Bolalar paxta terishdi. To'qnashdi, o'rtoqlashdi, ommalashdi, hazillashdi, go'zallashdi, boqishdi, qarashdi (yordamlashdi), aytishdi, tortishdi (bahslashdi)* fe'llari hozirgi o'zbek tilida ajralmas holatga kelib qolganligi uchun **aniqlik** nisbatidadir.

Orttirma nisbatdagi fe'llar ish-harakatning bajaruvchi ta'sirida boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradi va **-t** (asosan, unli bilan tugagan ko'p bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi), **-tir** (jarangsiz undosh bilan tugagan bir bo'g'inli (*kel* fe'lidan tashqari), ko'p bo'g'inli fe'llarning ko'pchiligiga qo'shiladi), **-dir** (asosan, jarangli undosh bilan tugagan bir bog'inli fe'llarga qo'shiladi), **-ir, -ar, -iz, -giz, -kiz, -g'iz, -gaz, -qiz, -sat** qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *o'qit, keltir, yozdir, bitir, uchir, pishir, qochir, ochir, toshir, chiqar, qaytar, tomiz, emiz, oqiz, yurgiz, ko'rgaz, turqiz, ketkiz, tutqaz, o'tkaz, ko'rsat*. Bu qo'shimchalar o'timsiz fe'llarni o'timli fe'llarga aylantiradi: *keldi – keltirdi, yurdi – yurgizdi, uchdi – uchirdi, pishdi – pishirdi, chiqdi – chiqardi, o'tdi – o'tkazdi*.

Ayrim fe'llar orttirma nisbat shaklida yangi ma'no ifodaslaydigan bo'lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo'llab bo'lmaydi: *erkalamoq – erkalatmoq* (ikkala shaklda ham orttirma nisbat mahnosini ifodalayapti).

- So'zlovchining ish-harakatga moyilligi **fe'l mayli** deyiladi.
- Fe'llarda beshta mayl bor:
 - 1.Xabar (ijro, aniqlik) mayli
 - 2. Buyruq - istak mayli
 - 3.Shart mayli
 - 4. Shatli mayli
 - 5. Maqsad mayli

Shaxs-son kategoriyasi. Shaxs-son kategoriyasi kesimlik kategoriyasi UGMsini «ega valentligini muayyanlashtirish orqali gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish» tarzida xususiylashtiradi. Hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichlarining quyidagi turlari mavjud:

1. a)

sha xs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	<i>borgan+</i> man	<i>borgan+</i> miz	<i>borib+ma</i> n	<i>borib+miz</i>
II	<i>borgan+s</i> an	<i>borgan+s</i> iz	<i>borgan+s</i> an	<i>borib+siz</i>
III	<i>borgan+</i> o	<i>borgan+(</i> lar)	<i>borgan+d</i> i+o	<i>borgan+di(lar)</i>

b)

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	<i>boryap+</i> man	<i>boryap+</i> miz	<i>bora+</i> man	<i>bora+miz</i>
II	<i>boryap+s</i> an	<i>boryap+</i> siz	<i>bora+</i> san	<i>bora+siz</i>
III	<i>boryapti</i> +o	<i>boryapti</i> +lar	<i>boradi</i> +o	<i>boradi+(lar)</i>

d)

shaxs	birlik	ko'plik
I	<i>bormoqchi+</i> man	<i>bormoqchi+miz</i>
II	<i>bormoqchi+s</i> an	<i>bormoqchi+siz</i>
III	<i>bormoqchi+o</i>	<i>bormoqchi+(lar)</i>

2. a)

sha xs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	<i>bordi</i> +m	<i>bordi+</i> k	<i>bor</i> <i>gan</i> <i>edi+m</i>	<i>borgan edi+k</i>
II	<i>bordi</i> +ng	<i>bordi+</i> ngiz	<i>bor</i> <i>gan</i> <i>edi+ng</i>	<i>borgan edi+ngiz</i>
III	<i>bordi</i> +o	<i>bordi+</i> (lar)	<i>bor</i> <i>gan</i> <i>edi+o</i>	<i>borgan edi+(lar)</i>

b)

s haxs	birlik	ko'plik
I	<i>borsa+m</i>	<i>borsa+k</i>
I	<i>borsa+ng</i>	<i>borsa+ngiz</i>
I	<i>borsa+o</i>	<i>borsa+(lar)</i>
II		

3. a)

S haxs	birlik	ko'plik
I	<i>borgan+im yo'q</i>	<i>borgan+imizyo'q</i>
II	<i>borgan+ing yo'q</i>	<i>borgan+ingizyo'q</i>
II I	<i>borgan+i yo'q</i>	<i>borgan+(lar)iyo'q</i>

b)

shax s	birlik	ko'plik
I	<i>borayotgan+im yo'q</i>	<i>borayotgan+imizyo'q</i>
II	<i>borayotgan+ing yo'q</i>	<i>borayotgan+ingizyo'q</i>
III	<i>borayotgan+i yo'q</i>	<i>borayotgan+(lar)iyo'q</i>

4.

S haxs	birlik	ko'plik
I	<i>bor+ay</i>	<i>bor+aylik</i>
I	<i>bor+0 \ bor+gin</i>	<i>bor+ing(giz)</i>
I II	<i>bor+sin \ bor+sin(lar)</i>	<i>bor+ishsin</i>

Fe'l derivatsiyasi. Fe'l o'ziga xos so'z yasash tizimiga ega. U, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli keng qamrovli. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zdan fe'l yasaladi.

Yasash asosiga qo'shib, fe'l hosil qiluvchi affiksning so'z yasash darajasi ham turlicha. -*la*, -*lan*, -*lashtir*, -(a)/r, -(a)y kabi affiks ancha mahsuldor bo'lib, ko'p miqdorda fe'l hosil qiladi. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida fe'l yasaydi:

1. ot/sifat/ravish/olmosh/taqlid/undov + *la* =1) asosdan anglashilgan narsa/predmetga ega holatli qilish harakati; 2) asosdan anglashilgan asbob vositasida bajariladigan harakat; 3) asosdan anglashilgan narsa/predmetni yuzaga keltirish harakati qolipi ko'p ma'noli bo'lib, uning hosilalari quyidagicha:

- 1) o'g'itla, moyla, betonla, jilovla, kishanla, tikla, tekisla, dumaloqla, to'g'rila, tushovla;
- 2) randala, qaychila, egovla, arrala;
- 3) urug'la, mog'orla, bolala, chuhla, dodla, gumburla, sizla, senla, hozirlakabi.

2. ot/sifat/son + *lan/lash* + subyektning asosdan anglashilgan belgiga ega bo'lishi harakati qolipi tarkibidagi -*lan/lash* affiksi o'zining murakkab tabiati bilan xarakterlanadi. Zohiran ular ikki affiksning birikuvi (-*la*+ -*n* va -*la*+ -*sh*) dek ko'rinadi. Chunki hozirgi o'zbek tilida -*la* so'z yasovchi va -*sh* hamda -*n* nisbat shakllari faol bo'lib, ko'p hollarda ular birgalikda keladi. Shuningdek, -*lan/lash* affiksalarida birgalik va o'zlik nisbati ma'nolari ham uqilib turadi (*shodlanmoq*, *salomlashmoq*, *afsuslanmoq*, *ajablanmoq*, *zavqlanmoq*, *lazzatlanmoq*, *janjallashmoq*, *ravshanlashmoq* kabi). Biroq bu misollarda -*lan/lash* affiksini ajratib bo'lmaydi. *Maydalanmoq* kabi fe'llarda esa ular ajraladi (*mayda+la+n+moq*). Demak, bunda -*la* va -*n* – mustaqil affiks.

-*lan* affiksining aslida -*la* va -*n* affikslarining birikuvidan iborat ekanligini sezish qiyin emas.

3. *taqlid+illa/ira=asos bildirgan tovush yoki obrazni harakat tarzida ifodalash qolipi* faqat taqlid soʻzlardan feʼl yasaydi: *chirqillamoq, chirsillamoq, likillamoq, guvillamoq, shuvillamoq, moʻltillamoq, bezillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, moʻltiramoq, yaltiramoq*.-illa va -ira qoʻshimchalari orasida maʼnoviy farq kuzatilmaydi, balki ular qaysi soʻzga qoʻshilishi bilan farqlanadi, xolos.

4. *ot/sifat/taqlid+a(oshamoq, qonamoq, oʻynamoq, boʻshamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq), sifat/ravish+(a)y (qoraymoq, toraymoq, koʻpaymoq, ozaymoq), sifat+(a)r (oqarmoq, koʻkarmoq,qisqarmoq, eskirmoq), ot/olmosh+sira (qonsiramoq, suvsiramoq,tuzsiramoq, gumonsiramoq), son/ot/ravish+(i)k(i)q (birikmoq, yoʻliqmoq, kechikmoq, zoʻriqmoq), sifat/ot+i (tinchimoq, boyimoq, changimoq), sifat+t (toʻlatmoq, berkitmoq))* qoliplari unumsiz qolip boʻlib, birinchidan, ularning hosilalari sanoqli boʻlib, bugungi kunda bu qolip asosida yangi-yangi soʻz hosil qilib boʻlmaydi, ikkinchidan, bu hosila davr oʻtishi bilan derivatsion maʼnosi jihatidan bir-biridan shu darajada uzoqlashib ketganki, ular asosida qolipning oʻng, yaʼni maʼnoviy tomonini chiqarib, aniqlab boʻlmaydi. (*Kamsitmoq*), (*boshqarmoq*), (*gʻivirsimoq*), (*yoʻqolmoq*), (*kuchanmoq*), (*yotsinmoq*), (*qiziqsinmoq*) kabi feʼlning ham yasamaligi aniq, lekin ulardagi affiksalar ayrim soʻz doirasida chegaralangan. Ularga nisbatan ham yuqorida aytilgan fikr oʻrinli.

Eslatma: (*siltala*), (*tortqila*), (*opichla*)kabi soʻzdagi shakl yasovchi-la affiksini feʼl yasovchi -la affiksi bilan chalkashtirmaslik kerak. Ular – omonim affiks.

-kila (-qila, -gila,- gʻila), -imsira, -inqira, -sh/ish (*toʻlish, qizish, ozish*), -q/iq/k/ik (*toliq, koʻnik*), -qi/gʻi affikslari hozirgi oʻzbek tilida harakatning tarzini (*kuchli/kuchsizligi, takroriyli*gi kabi) bildirganligi uchun shakl yasovchi sifatida qaraladi.

2. Sintaktik usulga koʻra ikki (baʼzan undan ortiq) soʻz asosi birikishi bilan yangi soʻz qoʻshma feʼl yasaladi. Masalan: *Borligʻimizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qilmoqdamiz (I.Karimov). Sustkashlik oson ishni mushkullashtiradi, qiyin ishni esa, chorasiz bir ahvolga olib keladi (Tafakkur gulshani)*. Bu misollardagi ayon qilmoqdamiz, olib keladi feʼllari sintaktik usul bilan yasalgan qoʻshma feʼllardir.

Qoʻshma feʼllarning qismlari qaysi soʻz turkumidan tuzilishiga koʻra ikki turga boʻlinadi: 1) ot+feʼl qolipidan qoʻshma feʼllar. Bunday feʼllarda birinchi qism feʼldan boshqa soʻz turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid)dan tuzilib, ikkinchi qismi feʼl boʻladi: *javob bermoq, qoʻl qoʻymoq, nazar tashlamoq, xursand boʻlmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq* kabi. 2) feʼl+feʼl qolipidan qoʻshma feʼllarning har ikkala qismi feʼllardan tuziladi: *olib chiqmoq, sotib olmoq, yutib olmoq, ola kelmoq* kabi. Bunday qoʻshma feʼllarning birinchi qismi –b (-ib), -a (-y) qoʻshimchasi bilan yasalgan ravishdosh shaklida keladi, tuslovchi qoʻshimchalar ikkinchi qismga qoʻshiladi.

Feʼl+feʼl qolipidagi qoʻshma feʼllar kam miqdorni tashkil etadi.

Qoʻshma feʼllarning har bir qismi oʻz leksik maʼnosini saqlagan holda, birgalikda bitta murakkab harakat tushunchasini anglatadi. Shu jihatdan qoʻshma feʼllar koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmalaridan (analitik shakllardan) farqlanadi, chunki bunday feʼllarda leksik maʼno uning birinchi qismi bilan ifodalanib (etakchi qism), ikkinchi qismi esa (koʻmakchi feʼl) unga (etakchi qism maʼnosiga) qoʻshimcha modal maʼno qoʻshadi: *aytib koʻr, olib tur, koʻrib chiq* kabi qoʻshilmalarda *aytib, olib, koʻrib* qismi etakchi, *koʻr, tur, chiq* qismlari esa koʻmakchi feʼldir.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qoʻshma va juft feʼl yasaladi.

Qoʻshma feʼl. Qoʻshma feʼltarkibiga koʻra ikkiga boʻlinadi:

a) ism+feʼl;

b) feʼl+feʼl.

Ism+feʼl tipidagi feʼlni hosil qilishda yordamchi feʼl vazifasida *qilmoq, etmoq, aylamoq, boʻlmoq, bermoq, olmoq, topmoq, yemoq, urmoq, koʻrmoq, kelmoq, keltirmoq* kabi birlik keladi: *abgor qilmoq, ado boʻlmoq, ayyuhannos solmoq, javob bermoq, javob olmoq, xalal bermoq, xabar olmoq, qiron solmoq, tartibga keltirmoq, oh urmoq, tush koʻrmoq, qoʻnim topmoq* kabi.

Oʻzbek tilida feʼl+feʼl tipidagi feʼl barmoq bilan sanarli: *sotib olmoq, olib bormoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, olib qochmoq, ishlab chiqarmoq* kabi.

Juft fe'l. Juft fe'l grammatik shakliga ko'ra ikki ko'rinishda bo'ladi:

a) biri ravishdosh, ikkinchisi boshqa shaklda: *aylanib-o'rgilmoq, yelib-yugurmoq, yayrab-yashnamoq, o'ynab-kulmoq, qo'llab-quvvatlamok;*

b) har ikki qismi bir xil shaklda: *aylanib-o'rgilib, o'ylamay-netmay, aralashib-quralashib, achib-bijib, tejab-tergab, qisinib-qimtinib, yuvib-tarab, yayrab-yashnab.*

Tilshunosligimizda fe'l ibora bilan qo'shma fe'l chegarasi aniq oydinlashtirilmagan.

Juft fe'llar tarkibiy qismining qo'llanishiga ko'ra quyidagi shakllarda bo'ladi:

1) qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:

a) qismlari o'zaro sinonim: *hormay-tolmay, qo'llab-quvvatlamok;*

b) qismlari o'zaro antonim: *kelib-ketib, o'lib-tirilib, kirib-chiqib, o'tirib-turib;*

d) qismlarining ma'nosi yaqin: *aylanib-o'rgilmoq, yeb-ichmoq, o'ynab-kulmoq, oshirib-toshirib, yuvib-tarab.*

2) ikkinchi qismi yakka (mustaqil) ishlatilmaydigan fe'l: *aldab-suldab, yig'lab-siqtab, yamab-yasqab, qolgan-qutgan.*

Fe'lning tuzilish jihatdan turlari

1. Sodda fe'llar:

1) tub: *kel, yur;* 2) yasama: *ishla.*

2. Qo'shma fe'llar: *olib keldi, javob berdi, qarshi oldi, gurs etdi.*

3. Juft fe'llar ikki fe'lning qo'shaloq kelishidan hosil bo'ladi: *kirmadi-qo'ydi, aytdi-qo'ydi, gapirdi-qo'ydi. Oldi-berdi, keldi-ketdi, qo'ydi-chiqdi* fe'llari ot turkumi, *oldi-qochdi* (gaplar), *kuydi-pishdi* (odam) fe'llari esa sifat turkumiga o'tgan hisoblanadi.

4. Takroriy fe'llar bir fe'lning takrorlanishidan hosil bo'ladi: *o'qidi-o'qidi, yozdi-yozdi, ko'ra-ko'ra, yig'lay-yig'lay*

Ravish o'zgarmas so'z turkumi sifatida. Ravish – mustaqil ma'noli o'zgarmas so'z. U belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi va bu jihatidan ot, sifat, songa yaqin turadi. Ulardan farqli jihati shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimcha bilan birika olmaydi. Masalan, ot ko'plik, sifat daraja shaklini qabul qiladi. Masalan, *tongda, oqshomda, kunduzlari, ko'proq, ozroq, balandroq* kabi. Ayrim til birligida uchraydigan EK, KK shakli ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni o'zak bilan yaxlit holga kelib qolgan: *birdan, zimdan, to'satdan, kechasi, birga.* Bundan tashqari, qadimgi davrda keng iste'molda bo'lgan *-ra* (jo'nalish kelishigi) (*so'ngra, uzra*), *-a*, (*qayta, ko'tara*), *-in (-un)* (*birin-ketin, ostin-ustun*) qo'shimchasi ham ravish tarkibida qotib qolgan.

Ravish turkumini talqin qilishda o'zgarmaslik xususiyatini e'tiborga olish uning so'z turkumi sifatidagi xususiyatini belgilashda qator qarama-qarshilikka nuqta qo'yadi.

Ilmiy manba, darslik va qo'llanmalarda *eng, juda, nihoyat, g'oyat, lang, g'irt* kabi so'z kuchaytiruv ravishi deb qaraladi. Holbuki, bu shakllar ravish oldidan kelib, belgi ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar bu unsurlarning ravish emasligini, chunki ravish kabi mustaqil lug'aviy ma'nodan xoliligini ta'kidlashib, kuchaytiruv yuklamasi sirasida o'rganish lozimligini uqtiradi.

Ravish o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) ravish boshqa so'z bilan bog'lanib kelganda morfologik jihatdan o'zgarmaydi (so'z o'zgartiruvchi affikslarni olmaydi). Lekin ma'lum kelishik yoki egalik kelishik shaklida (qotib qolgan holda) ravishga ko'chgan so'zlar mavjud: *kunda, yiliga, kunduzi, chindan, rostdan, yaqinda, birdan, birga* kabi.

2) ravish belgi bildiruvchi so'z bo'lgani uchun sifat kabi belgini (harakatning belgisini) darajalab, chog'ishtirib ko'rsatish xususiyatiga ega. Biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas. Ravish ham uch daraja ko'rinishiga ega: oddiy daraja, qiyosiy daraja, ortirma daraja. Daraja ma'nosi sifat darajalaridagi vositalarning o'zi bilan ifodalanadi. Belgini darajalab ifodalash, asosan, holat ravishlari (ayrim payt va miqdor)ga xos.

Oddiy daraja. Oddiy darajada ravish ish-harakat belgining normal holatda (chog‘ishtirilmagan holatda) ekanligini bildiradi va o‘ziga xos morfologik ko‘rsatkichga emas: Usmonjon gunoxkorona jilmaydi (S.Z.).

Qiyosiy daraja. Qiyosiy darajadagi ravish harakat belgisining boshqa belgi bilan chog‘ishtirish orqali belgining kamligi, kuchsizligi, ko‘pligi, ya‘ni kuchaytirish ma‘nosini ko‘rsatadi va ravishlarga -roq affiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi: astaroq, ozroq, barvaqtroq, keyinroq kabi: Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga kirishdi (A.Qodiriy). Ba‘zan qiyosiy darajadagi ravishdan oldin sal, yana, tobora kabi ravishlar keladi. Bunday holda kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ekspressiv yo‘l bilan yanada orttirilgan bo‘ladi: Sal burunroq o‘tkazilsa, ancha bo‘y bergan bo‘ladi (SH.Rashidov).

Orttirma daraja esa ravishdan oldin juda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so‘zlarni keltirish bilan hosil qilinadi va harakat belgisining normal holatdan o‘ta ortiqligini, kuchaytirilganligini ifodalaydi: Bu yurtida eng avval senda tong otar, Eng keyin tark etar seni quyoshing (E.Vohidov). Imon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas (Hadisidan).

3) ravishning fe‘lga bog‘lanib, gapda ko‘pincha hol vazifasida kelishi, uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biri sanaladi: Ogahiy yaratgan she‘riy misralar o‘zining serjiloligi bilan kishilarni hamon o‘ziga rom qilib kelmoqda (Kaykovus).

4) ravish sifat va ravishga, ba‘zan otga bog‘lanib kelib, belgini belgisini bildiradi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasi bajaradi: Tog‘day og‘ir bilak berdim... (H.O.).

Ba‘zi ravishlar otga ham bog‘lanib, uning belgisini ko‘rsatadi va sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Fe‘lga bog‘lanib, harakatning belgisini bildirgan sifatlar ravish so‘z turkumiga o‘tib ketmagani kabi, otga bog‘langan ravishlar ham sifat turkumiga o‘tmaydi: U ancha jo‘yaklarni oraladi, ancha qovunlarni ushlab, qay birini uzishni bilmadi (O.). Etti qizning onasi haligacha kelinchak (Topishmoq).

ravish otlashish xususiyatiga ega, ya‘ni ravish bog‘lanib kelgan ot gapda qo‘llanmasligi mumkin. Bunday holda ravig otga xos egalik, kelishik, ko‘plik affikslarini qabul qiladi va gapda ot kabi ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to‘ldiruvchi vazifalarida keladi: Ko‘pni ko‘rgan ko‘hna dunyoda Baxt axtarib ko‘plar o‘tdilar (H.O.). Ilm ko‘pga etkazar, hunar esa ko‘kka (Maqol). Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o‘g‘lim (O.).

Mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmay, gap bo‘laklari va gaplarni o‘zaro bog‘lash, xilma-xil munosabatlarni ko‘rsatish yoki ularga qandaydir qo‘shimcha ma’no qo‘shishga xizmat qiladigan so‘z turkumlari yordamchi so‘z turkumlari deyiladi. Yordamchi so‘z turkumlariga bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklama kiradi.

Ko‘makchi haqida ma‘lumot

t, olmosh, harakat nomi va otlashgan so‘zlardan (sifat, son, sifatdosh, ravish) keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga tobelanish yo‘li bilan bog‘laydigan yordamchi so‘zlar **ko‘makchi** deyiladi: O‘z qo‘li bilan to‘g‘riladi. Ko‘makchi qaysi so‘zdan keyin kelsa, o‘sha so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘lib, bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi.

Gap bo‘laklarini yoki qo‘shma gapning qismlarini bog‘laydigan yordamchi so‘zlar **bog‘lovchi** deyiladi. Bog‘lovchilar gap bo‘laklari va ayrim sodda gaplarni o‘zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko‘rsatadi. Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur») Kumush ichkariga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa erga mixlangandek qotib turdi. (A.Qod.)

Bog‘lovchilar qo‘llanishiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: 1. Yakka bog‘lovchilar. 2. Takroriy bog‘lovchilar. **Yuklama**

Ayrim so‘z yoki gapga qo‘shimcha ma’no berish uchun qo‘llanadigan yordamchi so‘zlar yuklamalar deb ataladi. Masalan: *Haqiqiy kasbu kamol faqat ilm bilan hosil bo‘ladi.* (M.Hasaniy). *Quyosh ham atayin nurlarini to‘kib, mag‘rur ko‘tarildi.* (O.)

YUklamalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil: a) qo‘shimcha holatdagi yuklamalar: -mi, -chi, -a, -ya, -oq (-yoq), -da, -u (-yu), -gina (-kina, -qina), -ku; b) so‘z holatidagi yuklamalar: axir, faqat, xudi,

nahotki, ham, naq, xolos. To‘ydan faqat Anor xabardor (H.O.) Eshik «g‘irch etib ochildi-da, ruxsat so‘rab ukasi Darvishali kirdi. (O.) Bir vaqi G‘iyosiddin Kichkina, xudi shu erda, daricha ostida o‘tirib, uni erkalatmasmidi. **Undov so‘zlar haqida ma‘lumot**

His-hayajon, tuyg‘uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so‘zlar turkumi **undov** deyiladi: *eh, uh, o, e, uf, voy, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo‘sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo‘y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, ie, o‘h, o‘hho‘, hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o‘, ha, iyi.* Bu so‘zlar mustaqil so‘zlarga ham yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan ayrim so‘z turkumidir.

Taqlid so‘zlar

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so‘zlar **taqlid so‘zlar** deyiladi. Bunday so‘zlar ma‘no jihatidan ikki turga bo‘linadi:

1. **Tovushga taqlid** bildiradigan so‘zlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g‘arch-g‘urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo‘o‘, maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g‘a-g‘a, qag‘-qag‘, pit-pildiq, parr, viz-viz.*

2. **Holatga taqlid** bildirgan so‘zlar: *yalt-yult, apil-tapil, g‘uj-g‘uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo‘lt-mo‘lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g‘ivir-g‘ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi. **Modal so‘zlar**

So‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini bildiradigan so‘zlar **modal so‘zlar** deyiladi: **Ehtimol, bugun etib kelar.**

Modal so‘zlar ma‘no jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so‘zlar:
 - 1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx.);* 2) fikrning qat‘iyligi ta‘kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so‘zsiz* 3) ishonch: *albatta* 4) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o‘z-o‘zidan,* 5) fikrning chinligi eslatiladi: *to‘g‘ri, xoytaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.*
 2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so‘zlar:
 - 1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chog‘i;*
 - 2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*
 - 3) fikrning tussmolli ekanini bildiradi: *aftidan;*
 - 4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay.*
 3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan.*
 4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*
 5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*
 6. Achinish: *afsus, attang, esiz.*
 7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim.*
 8. Quvonch: *xayriyat.*
 9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yo‘q.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fe‘lning lug‘aviy ma‘noga ko‘ra turlarini ayting.
2. Fe‘lning harakat ob‘yektiga munosabatini bayon qiling.
3. Fe‘l LMGLari unda markaz va qurshov leksemalarini bayon qiling.
4. Fe‘l derivatsiyasi haqida gapiring.
5. Fe‘lning tasniflovchi kategoriyalari haqida gapiring.
6. Nisbat kategoriyasi haqida gapiring.
7. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik haqida gapiring.
8. O‘timli-o‘timsizlikni farqlab bering.
9. Fe‘l nisbatlarini bir-biridan farqlab bering

8- Mavzu: Sintaksis haqida umumiy ma‘lumot. So‘z birikmalari va gap. Gap bo‘laklari. Bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklar.

Reja:

1. **Sintaksis haqida umumiy ma'lumot.**
2. **So'z birikmalari va gap.**
3. **Gap bo'laklari.**
4. **Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar.**

Sintaksis gapning tuzilishi, qurilishini o'rganadi. Lekin bu gaplar qanday hosil bo'ladi, nimalar asosida vujudga keladi. Bog'lovchisiz, bog'langan, ergash gapli qo'shma gaplarda bir qancha muammolar mavjudki, bular o'z yechimini kutmoqda.

So'z birikmalari haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun avvalo til unsurlarining sintaktik aloqalari xususida bilimga erishmoq kerak. Sintaktik aloqa, albatta, gorizontal chiziq asosida vujudga keladi. Boshqacha aytganda, til unsurlarining paradigmatic munosabatlari sintaktik aloqani taqozo etmaydi. Sintaktik aloqa sintakmatik zanjir asosida vujudga keladi. Masalan: kishilik olmoshlari men, sen, u, biz, siz, ular tarzida gorizontal chiziq bo'ylab joylashtira olmaymiz. Ularni faqat vertikal chiziqda tasavvur etish mumkin. Ammo ularda kelishik yoki egalik affiksini qo'shish lozim bo'lsa, men-inchi, sen-inchi, men-i, tarzida gorizontal chiziq orqali harakat qilinadi. Chunki olmosh kategoriyasidagi so'zlar ayni paytda kelishik qo'shimchalari bilan sintaktik rejaga ko'ra berila boshlaydi. Hatto oddiy bir so'z tarkibida ham sintaktik aloqani kuzatish mumkin. Masalan: ish-chi, til-shunos, kurs-dosh.

Keltirilgan misollarda tilning ikki unsuri bir so'z qobig'ida munosabatga kirishayotganini kuzatamiz. Masalan: Ish so'zi til belgisi bo'lsa, -chi affiksi ham ayni paytda morfema tarzidagi til belgisidir. Demak, til unsurlarining mikrosintakmatik munosabatlari belgi ichidagi belgilari aloqasini taqozo etadi.

Til unsurlarining nisbatan kattaroq shakldagi munosabati so'zlarning o'zaro birikuvini taqozo etadi. Bu jarayonda turli morfologik kategoriyalardagi so'zlar aloqasi vujudga keladi.

Masalan: men uchun, men kabi, dadam singari; universitet bog'i, yaxshi odam, uch o'rtoq.

Berilgan misollarda so'zlarning o'zaro munosabati kuzatiladi. Lekin birinchi guruh misollarda mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlar, ikkinchi guruh misollarda esa faqat mustaqil so'zlar birikmoqda. Hozirgi tilshunoslikda ikkinchi guruh misollarini so'z birikmalari deb yuritiladi. Chunki, kamida ikki mustaqil so'zning ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida birikuviga so'z birikmasi deb yuritiladi. Bunda so'zlarning o'zaro birikishi ergashish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Til unsurlarining biri ikkinchisiga ergashib, munosabatga kirishuvi uch xil usul orqali hosil bo'ladi. Bu usullar moslashuv, boshqaruv, bitishuv deb yuritiladi.

Moslashuv: Tobe komponent vazifasidagi so'z o'z formasini hokim so'z formasiga moslab, muvofiqlashtirib kelishi moslashuv deyiladi.

Masalan: mening kitobim. Qo'ng'iroq chalindi. Qaratqich bilan qaralmish moslashuvida komponentning shaxsda va otda muvofiqlashuvi qat'iydir.

Masalan: Azizaning fikri.

Qaratqichli birikmada tobe so'z qaratqich kelishigi affiksini, hokim komponenti egalik qo'shimchalarini olib keladi va harakat, belgining kimga yoki nimaga qarashli ekanligi anglashiladi. Ba'zan tobe komponent belgisiz holda qo'llaniladi, bunda umumiy holda qarashli ekanligi anglashiladi.

Masalan: talabalar shaharchasi. Universitet bog'i. Abdulla Oripov she'rlari... Shuni alohida qayd qilish kerakki, qaratqich va qaralmish aloqasi bog'lanishning alohida turini hosil qiladi. Bunda birini hokim, ikkinchisini tobe deb qarash qiyin. Qaralmishni hokim bo'lak deb hisoblasak, u tobe so'zning qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Qaratuvchi tobe bo'lak deb hisoblasak, hokim bo'lak hisoblangan so'zning egalik qo'shimchasini olib kelishini talab qiladi. Bu o'rinda munosabatdorlik (o'zaro hokimlik-tobellik) munosabati mavjud.

Masalan: talabalarning yiqilishi birikmasida yiqilish so'zi talabalar so'zini qaratqich kelishigi qo'shimchasini, talabalar so'zi esa yiqilish so'zini egalik qo'shimchasini olib kelishini talab etmoqda.

Bunday hollarda har bir kishi ikki bo'lak bir-biriga tobe va hokimdir. Bundan tashqari, qaratuvchi va qaralmish aloqasidagi olmoshning qaysi shaxs va sonda kelishiga qarab, qaralmish vazifasidagi so'z o'sha shaxs va sondagi egalik affiksini oladi. Qaralmish esa qaysi shaxs va sondagi egalik affiksini kelishiga qarab, o'sha shaxs va sondagi qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan munosabatga kirishadi. Mana shu ma'nodagi bunday bog'lanishni moslashuv deb hisoblash mumkin. Masalan: mening vazifam, sening maqsading, uning qalami.

Boshqaruv – deganda, hokim so'zning talabiga ko'ra boshqa so'zlarning (tobe so'zlarning) ma'lum kelishik qo'shimchalarini olishini tushunamiz:

M: 1. Cho'lda bizga g'ishtdan uy qurdirdilar: qurdirdilar (nima?) uy; (kimga?) bizga; (nimadan?) g'ishtdan; (qaerda?) cho'lda.

2. Boshi fikr bilan to'la.

.... fikrga..... (ot boshqaruv).

Bitishuv - bu so'zlarning morfologik vositalarsiz bitishuvidir:

Masalan: ikki talaba, keksa bog'bon.

Hol vazifasida keluvchi ravish, ravishdosh bilan fe'lning birikuvi ham bitishuvini taqozo etadi:

tez gapirdi, tinmay gapirdi, yarqirab ko'rindi.

Bundan tashqari, ko'rsatish olmoshlari va sifatdosh bilan hokim so'zning aloqasi ham bitishuv usulida bo'ladi:

Masalan: Shu qiz, bu shahar, o'qigan bola.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tilshunoslik fanida so'z birikmalari tushunchasi ancha murakkablashtirib yuborilgan. Buning natijasida bugungi kungacha o'zaro teng bog'langan so'zlar birikma sanalmaydi:

Masalan: Bog'imizda olma, anor, o'rik va shaftolilar bor.

Ayni paytda darslik va qo'llanmalarda erkin so'z birikmalarigina tan olingan. Erkin so'z birikmalari, odatda, ikkiga bo'lib o'rganiladi: ot birikmalar, fe'l birikmalar. Ot birikmalar deganda, hokim unsuri ot yoki uning o'rnida qo'llanilgan boshqa bir so'z orqali ifodalangan so'z birikmalari tushuniladi:

Masalan: Samarqand olmasi, yaxshi bola, uch o'rtoq, xunik ish. So'zlarning bunday munosabati aniqlovchi-aniqlanmish aloqasini taqozo etadi va predikativ-nopredikativ birikmani ifodalaydi.

Fe'li birikmalarda hokim unsur fe'l yoki uning o'rnida qo'llaniladigan boshqa biror so'z orqali ifodalanadi:

Masalan: Vazifani bajarmoq, yaxshi ishlamoq, munozara yuritmoq kabilar.

Fe'l birikmalarining xarakterli tomoni shunda ko'rinadiki, ular nutqda voqelikka to'g'ridan - to'g'ri munosabat bildiradi va shu sababli predikativ qurilmalar sanaladi.

Masalan: Ular bugun ham shu mavzuda munozara yuritdilar. Mavjud adabiyotlarda ot birikmalarni ham, fe'l birikmalarni ham nopredikativ va predikativ birikmalar deb o'rgatiladi. Bizningcha, mazkur mulohaza haqiqatdan birmuncha yiroq ko'rinadi. Chunki fe'l birikmalarining nutqda predikativ qurilmalar tarzida kelishi izoh talab qilmaydi. Ot birikmalarda ham predikativlik belgisi yashirin bo'lsa-da, ko'zga tashlanadi.

Masalan: Universitet bog'i (bog' universitetnikidir). Chiroyli qiz (qiz chiroyli). Biroq ot birikmalarda predikativlik yashirin holda bo'lganligi uchun ularni nisbiy nominativ birikmalar deb atash mumkin. Albatta, nominativlik bilan kommunikativlikni keskin qarama-qarshi qo'yish noo'rin, zero, alohida olingan bir so'z orqali ham xabar ifodasini berish mumkin.

Turg'un birikmalar xususida ham ikki og'iz so'z. Turg'un birikmalar leksikologiyada o'rganilib kelinsa-da, ularni so'z birikmalar deb emas, fraziologik birikmalar deb talqin qilinmoqda. Lekin fraziologik iboralar turg'un virikmalar ekanligini tan olishmayaptilar. Faqat 1995 yilda chop etilgan "O'zbek tilining nazariy grammatikasi"da bu haqda ijobiy fikr bildirilgan,¹ xolos.

1 Qarang: P.Nurmonov., N.Mahmudov. "O'zbek tilining nazariy grammatikasi". -T., O'qituvchi, 1995.

Bizningcha, fraziologik iboralar turg'un birikmalar sanaladi. Ammo ular, farqli ravishda til unsurlarini passiv aloqasini taqozo etadi:

M: Ishtahasi ochilmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, umr yo'ldoshi, mehnat kuni, hurmat taxtasi.

Shunday qilib, so'z birikmalari talqini hozirgi tilshunoslikda munozarali ekanligini ko'ramiz. Bunga ko'proq akademik. V.V.Vinogradovning ta'limoti ta'sir qiladi. Negaki, milliy tillarning qariyb barchasida ham aytish mumkinki, V.V.Vinogradov ta'limoti asos qilib olingan.

Bizningcha, bugungi kunda turg'un va erkin so'z birikmalarini ham qaytadan nazariy asosda ko'rib chiqish lozim. Bundan tashqari, teng bog'lanishli so'z birikmalari ham izoh talabdir.

So'z birikmalari komponentlarning grammatik tabiatiga ko'ra tasnif qilinganda, hokim bo'lakning qaysi so'z turkumidan ekanligi, tobe bo'lakning esa sintaktik vazifasi asos qilinib olinadi. So'z birikmalari hokim so'zning qaysi so'z turkumidan ekanligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'tli so'z birikmasi.
2. Fe'li so'z birikmasi.
3. Ravishli so'z birikmasi.
4. Sifatli so'z birikmasi.
5. Modal so'zli birikma.

Gapning tuzilishi jihatdan turlari

Gaplar tuzilishi jihatdan ikkiga bo'linadi: sodda gaplar va qo'shma gaplar. Sodda gaplar ma'lum bir fikrni ifodalaydi. Tarkibi ayrim gaplarga bo'linmaydigan gaplar sodda gap deyiladi. Ikki va undan ortiq sodda gaplardan tuzilib, bir butun fikrni ifoda qilgan gaplar qo'shma gaplar deyiladi.

Masalan: Chor - atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to'ldi (sodda gap). Keng bog'dagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib o'sa boshladi (qo'shma gap).

Gapning asosini ega bilan kesim tashkil qiladi. Shuning uchun ham ega va kesim gapning bosh bo'laklari hisoblanadi. Sodda gaplar ikkinchi darajali bo'laklarning qatnashishi va qatnashmasligiga ko'ra yig'iq va yoyiq gapga bo'linadi. Bosh bo'laklardangina (ega va kesim) tashkil topgan gaplar yig'iq sodda gap deyiladi. Masalan: Yomg'ir tindi, bulutlar hamon qaysarlik bilan quyosh yuzini to'sib turardi. Birinchi gap yig'iq sodda gap. Ikkinchi gap yoyiq sodda gap. Bunda ikkinchi darajali bo'laklar ham mavjud.

(Hamon qaysarlik bilan - hol, quyosh - belgisiz aniqlovchi, yuzini- vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan).

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarga ergashib, ularni aniqlaydi, fikrni to'ldiradi.

Ikkinchi darajali bo'laklarga aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kiradi. Ikkinchi darajali bo'laklar gapda mustaqil qo'llana olmaydi, ular bosh bo'laklarga bog'langandagina, nutqda ishtirok etadi. Ikkinchi darajali bo'laklarning mavjudligi bosh bo'laklar tufaylidir. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning grammatik-semantik munosabati shuni ko'rsatadi-ki, ikkinchi darajali bo'laklar tobe, bosh bo'laklar hokim bo'lak sanaladi.

Gapning bosh bo'laklari. Ega va uning ifodalanishi

Kesim orqali izohlangan, predmetni anglatuvchi, gapda mutloq hokim so'z vaziyatni egallaydigan bosh bo'lak ega deyiladi. Ega keng ma'noda predmet tushunchasini bildiradi va kesimdan anglashilgan belgi, harakat, holatning kimga yoki nimaga qarashli ekanligini ko'rsatadi. Ega bosh kelishikdagi so'z bilan ifodalanib, kim? kimlar? nima? nimalar? kabi so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi: 1. Bosh kelishik formasidagi turdosh va atoqli otlar bilan Masalan: Qumri patirlarni dasturxonga tera boshladi. Mashina qishloq yo'lini larzaga solib o'tib ketdi (Hamid Olimjon); 2. Bosh kelishikdagi olmoshlar bilan!

a) Kilishik olmoshlari bilan ifodalanishi. Masalan: Siz bilan biz xalqning xizmatkorimiz. U uzoqqa, qor do'ppili tog' ustiga qarab hayol surdi. Sen odam bo'lsang, men buni yaxshi bilaman.

b) Belgilash olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Hamma shod, hamma bir-birini sevinch va muhabbat bilan qarshilardi. Barchamiz ishladik. Har kim ekkanini oladi.

c) Gumon olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Allakim gandirakladi. Birov tunuka tomida yurganday bo'ldi. Nimadir qarsillab sindi, kimdir qichqirdi.

d) Egalik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Biznikilar birinchilikni oldilar.

e) Bo'lishsizlik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Uyda hech kim yo'q. Qurchilikka hech narsa pisand emas.

j) So'roq olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Bugun kim navbatchi? Yana nima kerak?

i) Ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Bu buyuk tarix ishi edi. Bu men tanigan aldamchi.

k) O'zlik olmoshi bilan ifodalanadi. Masalan: Hamma gapni o'zim gapirib berdim. Aytilgan narsalarni o'zing olib kel.

3. Otlashgan sifatlar bilan ifodalanadi. Masalan: Qo'rqqoq o'lmasdan burun o'ladi.

4. Otlashgan sonlar bilan ifodalanadi. Masalan: Ikkallasi ham yosh. Bittasi shifokor, ikkinchisi arxitektor.

5. Harakat nomi bilan ifodalanadi. Masalan: Halimaxonning ovozi eshitmoq kishiga zavq bag'ishlaydi. Ertalab yo'llarda qatnov boshlandi.

6. Ravish, undov bilan ifodalanadi. Masalan: Namoyishda talabalarning urrasi eshitildi. Ko'pimiz til to'garigiga qatnashamiz.

7. Otlashgan ko'makchi, bog'lovchi, taqlidiy so'z, his-hayajon undovlari, hattoki, ayrim tovushlari bilan ifodalanadi. Masalan: "bilan" sof ko'makchilar qatoriga kiradi. Masalan: Har yomonning bir ammosi, har yaxshining bir lekini bor. Childirmaning birdan ko'tarilgan, taq-taqa, "g'ij-bong"i quloqlarni qomatga keltirdi. Uzoqdan "dod-voy", "oh-uf" eshitildi. "D" - bunday yoziladi.

8. Otlashgan shaxsli fe'l bilan ifodalanadi. Masalan: Fermaning "oldi-sotdi", "o'ldi-tug'ildi"lari hisobga olindi.

9. Frazologik birikmalar bilan ifodalanadi. Masalan: Gapning po'st kallasi shuda. Havas bo'lsa, anqoning urug'i ham topiladi.

Ega tuzilishiga ko'ra sodda, murakkab bo'ladi. Birgina tushuncha anglatadigan ega sodda ega deyiladi. Sodda ega barcha so'z turkumlari bilan ifodalanadi.

Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning tobelanish munosabatidan tuzilib, bir butun holda qo'llanadigan, bir murakkab tushuncha anglatadigan egalar murakkab ega deyiladi. Bular quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Davlat, hukumat nomlari bilan ifodalanadi. Masalan: Toshkent - O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir.

2. Ilmiy-siyosiy va madaniy muassasalarning nomlari bilan ifodalanadi. Masalan: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi katta ishlarni amalga oshirmoqda. O'rta va Oliy ta'lim Vazirligi kadrlar masalasini ko'rib chiqdi.

3. Kitob, jurnal, gazeta nomlari bilan ifodalanadi. Masalan: "Samarqand universiteti" gazetasi talabalarning sevimli gazetasi. "Yosh kuch" jurnali - sevimli jurnal.

4. Turli xil joy nomlari bilan ifodalanadi. Masalan: Kattaqo'rg'on suv ombori dashtlarni "oq oltin" makoniga aylantirishga asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

1. Ism, familiya birgalikda murakkab ega bo'lib keladi. Masalan: Abdulla Qahhor - kichik hikoyalar ustasi.

2. Murakkab sifat bilan ifodalanadi. Masalan: Sizga jigar rang yarashar ekan.

3. Unvon, daraja, mansab kabilarning nomlari bilan ifodalanadi. Masalan: Universitetimizda ko'plab filologiya fanlari nomzodi etishib chiqqan.

4. Murakkab son bilan ifodalanadi. Masalan: Bir yuz etmish besh ikkiga qoldiqsiz bo'linmaydi.

5. Murakkab olmosh bilan ifodalanadi. Masalan: Mana bu bino juda yaxshi. Ana u ko'rinmay qoldi. Buni men o'zim olib boraman.

Murakkab ega ajralmas so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Masalan: Dunyoning go'zalligi inson bilan. Fasllarning asli - bahor. Musobaqada bo'yi novcha yigit birinchilikni oldi.

Ega haqidagi hukmni bildirgan bosh bo'lak kesim deyiladi. Kesim egaga nisbatan tobe bo'lib, o'ziga bog'lanib kelgan ikkinchi darajali bo'laklarga nisbatan hokimdir. Egada belgining mavjud yoki mavjud emasligi kesimda tasdiq yoki inkor etiladi. M: Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda. Bu gapda Ochil buva so'zi grammatik tomondan mustaqil bo'lib, bu so'zning belgisi o'sha tobe bo'lgan kesim vazifasida qo'llanayotgan "xayrlashmoqda" so'zi orqali tasdiq yo'li bilan ifodalangan.

Bugun yomg'ir yog'madi gapida esa, eganing belgisi kesimda inkor belgisi bilan ifodalangan.

Kesim predmetning faol ish-harakat yoki passiv (holat) belgisini ifodalaydi. Predmetning faol belgisini uning o'z faoliyati natijasida hosil qilinadi. Masalan: Sevinch uning ko'ziga uyqu qo'ndirmasdi gapida kesim "qo'ndirmaydi" eganing (sevinch) faol belgisini ifodalaydi. Predmetning passiv belgisi uning o'zida mavjud bo'lgan belgidir. Masalan: Ukam olib kelgan kitob juda ajoyib. Bu gapda kesim (juda ajoyib) passiv belgisini ifodalamoqda.

Passiv belgilar kim? nima? qanday? so'roqlariga javob bo'ladi. M: Kunlarimiz yillardan salmoqli (qanday?). Yillarimiz tugal bir-umr (nima?). Suv - biz uchun kuch, kon va katta xazina (nima?). Kesimga beriladigan so'roqlar uning formasining ko'rinishiga xos bo'ladi. Quyidagi gaplarni qiyoslaylik. M: Bu yangi hayot Xolmurodovning ruhan va jismonan o'sishiga kun sayin ta'sir qilar edi (nima qilar edi?). Shu buyuk xalqning farzandisan (kimsan?). Demak, kesim keng ma'noda belgi ifodalaydi, biroq predikat yo'l bilan ifodalanadi va egaga aloqador bo'ladi. Kesimning harakat doirasi keng, u egaga bog'lanadi, shu bilan birga o'ziga tobe bo'lgan boshqa bo'laklar bilan ham munosabatga kirishadi.

Ikki tarkibli gaplarda kesimsiz gap shakllanmaydi. Bunday gaplar qanchalik yoyiq bo'lmasin, kesim qo'llanmaguncha, fikrni ifodalab bo'lmaydi.

Masalan: Asta-sekin men bu yigit haqida bir hikoya yozishni o'ylay boshladim, gapida kesim qo'llanmasa, fikr ham ifodalanmaydi. Demak, kesim fikrning ob'ektiv borliq bilan, zamon bilan aloqasini ifodalaydi.

Kesim gapning eng muhim belgisi bo'lgan fikrni ifodalashda katta rol o'ynaydi. Kesim tushunchasi gap tushunchasi bilan uzviy bog'langan. Kesim gapning mazmun-mundarajasini, tuzilishi jihatdan turlarini belgilashda ham xizmat qiladi. Masalan: U kunduzi ustaga qarashar edi (darak anglatuvchi fe'l kesim). Kesimlar ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Fe'l kesim. 2. Ot kesim.

Fe'l kesim .

Turli fe'l formalari orqali ifodalangan kesim fe'l kesim deyiladi. Kesim vazifasida qo'llanilgan fe'lning semantikasiga ko'ra harakat bildiruvchi fe'l kesim predmetning fizik harakatini anglatadi. Bu harakat har uch zamondan birida sodir bo'ladi. Masalan: Talabalarimiz olimpiadaga tayyorlanmoqdalar. Kimdir unga darrov bir kosa ovqat keltirib berdi.

Holat bildirgan fe'l kesim eganing har hil psixologik holatini ifodalaydi.

M: Nazirada butun borliq mudraydi. Bu gapdan Saida hayajonlanmadi.

Fe'l kesim fe'lning quyidagi formalari bilan ifodalanadi:

1. Sof fe'l bilan ifolanadi. Masalan: Pol top-toza yaltiraydi. Komila stolga o'tirdi.

2. Ravishdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Qor yog'ib, yo'llar sirpanchiq bo'ldi. Men kecha uyimizga borgan edim.

3. Sifatdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Tunlari cho'l osmonida porlagan yulduzlar cho'g'ini ko'rdim. Paxta terimida uchinchi kurs talabalari belgilangan normani bajargan.

Ot kesim.

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanagan kesim ot kesim deyiladi. Ot kesim quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan ifodalanadi. M: Yaxshi tarbiya - yaxshi meros. O'zbekistonning poytaxti - Toshkent. Ukam - muhandis. Ba'zan ot kesim jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari bilan ifodalanishi mumkin. M: Sevaraning sirg'asi tillodan. Men Toshkentdanman. Aytgan gaping ko'nglimda, yozgan xating qo'limda. Hamma saylovga!

2. Sifat bilan ifodalanadi. Masalan: Ahmoq do'stdan, aqlli dushman yaxshi.

3. Son bilan ifodalanadi. Masalan: Endi ishimiz besh. Sakkizning yarmi - to'rt.

4. Olmosh bilan ifodalanadi. Masalan: Uyimiz - shu. Men aytgan minora- ana o'sha.

5. Ravish bilan ifodalanadi. Masalan: Ko'chada mashinalar ko'p. Buncha achchig'ing tez.

6. Taqlidiy so'z bilan ifodalanadi. Masalan: Buncha auditoriya shov-shuv. Hamma yoq taqir-tuqur.

7. Harakat nomi bilan ifodalanadi. Masalan: Bir ko'rgan - bilish, ikki ko'rgan tanish. O'qimoq - ilmni oshirmoq.

8. Bir butun holda qo'llaniladigan bog'lamalar ot kesim bo'lib keladi. Masalan: Vatanimiz - O'zbekiston Respublikasidir.

9. Turg'un bog'lamalar bilan ifodalanadi. Masalan: Bu ishda hammamiz bir yoqadan bosh chiqarmog'imiz kerak.

Kesimlar tuzilishi jihatidan sodda, tarkibli va murakkab bo'ladi. Sodda kesim yakka bir negizli fe'llar bilan ifodalanadi, hamda bog'lanmalarsiz kelgan ot kesimlar sodda kesim bo'ladi. Kesimning bu turi so'zning sintaktik formasi bilan ifodalanadi.

Sodda kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab ikki xil bo'ladi: sodda fe'l kesim va sodda ot kesim. Sodda fe'l kesim bir leksik ma'noli fe'l bilan ifodalanadi. Bu funktsiyada asosan sof fe'l bilan ifodalanadi. Shaxs-son, zamon, mayl, daraja, modallik kabi xilma-xil grammatik ma'nolarni anglatadi. Sof fe'l kesim ba'zan fe'lning ravishdosh va sifatdosh formalari bilan ham ifodalanishi mumkin.

Masalan: Meni kutgil va men qaytarman. Yomg'ir yog'ib, ko'chalar loy bo'ldi. Sodda ot kesim, ot, sifat, son, olmosh va fe'llarning harakat nomi formasi bilan ifodalanadi. Bularga misollarni yuqorida ko'rib o'tdik.

Tarkibli kesim. Mustaqil so'z bilan turli grammatik ma'nolarni ifodalovchi yordamchi so'zlarning birikishidan hosil bo'lgan kesim tarkibli kesim deyiladi. Tarkibli kesim so'zning analitik formasi bilan ifodalanadi. Tarkibli kesimlar ham ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: tarkibli fe'l kesim va tarkibli ot kesim.

Tarkibli fe'l kesimlar ikki yoki undan ortiq negizdan tuzilgan fe'llar bilan ifodalanadi. Bunda o'zining leksik ma'nosini saqlagan fe'li etakchi fe'l hisoblanadi, etakchi fe'ldan anglashilgan harakatning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydigan fe'lar ko'makchi fe'l deyiladi. Tarkibli fe'li kesimning etakchi kesim quyidagicha bo'ladi:

1. Sof fe'li bilan ifodalanadi. Masalan: U nimani o'yladi ekan.

2. Ravishdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Darslar boshlanib ketdi. Olov gurullay boshladi.

3. Sifatdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Bayramni ular bilan kutishdilar.

Tarkibli ot kesimlar: fe'ldan boshqa so'zlarning bog'lama vazifasida kelgan ko'makchi fe'l bilan yoki to'liqsiz fe'l bilan birikishidan yuzaga keladi. Tarkibli ot kesimda asosiy ma'no birinchi so'zda bo'ladi. Ikkinchi so'z esa, qo'shimcha ma'no ifodalaydi. Birinchi so'z ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, harakat nomi, bor, yo'q so'zlari bilan kelishi mumkin. Masalan: Kelgan ikki kishi mehmon ekan. Til o'rganishga qobiliyatingiz yaxshi ekan. Ular to'rtta edi. Qoida-qonunlarni yaxshi bilishimiz zarur. Zal shovur-shuvur edi. Uyda hech kim yo'q ekan. Men aytgan narsa do'konda bor edi.

Murakkab kesim.

Ikki va undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topgan, bir butun holda kesim sifatida qo'llangan so'zlarga aytiladi. Murakkab kesim quyidagicha ifodalanadi:

1. Turg'un birikma bilan ifodalanadi. Masalan: Bu er - ishlab chiqarish boshqarmasi.
2. Frazologik birikma bilan ifodalanadi. Masalan: U tegirmonga tushsa butun chiqadi.
3. Son va numerativ so'zlarning qo'shimchasidan hosil bo'ladi. Masalan: Tog'ning balandligi uch ming oltmish besh metr.
4. Bir umumiy affiksga ega bo'lgan birikmalar bilan ifodalanadi. Masalan: "Paxtakor" o'yingohi oltmish besh ming o'rinli.
5. Ko'chma ma'noli qaratqichli birikmalar bilan ifodalanadi. Masalan: Otalar so'zi - aqlning ko'zi
Bog'lama.

Kesimdan keyin kelib, uni ega bilan munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi vositalar bog'lama deyiladi. O'zbek tilida quyidagi bog'lamlar mavjud:

1. Edi, ekan, emish to'liqsiz fe'llar: go'zal edi, borgan emish, ko'rgan ekan. Edi bir voqeaning o'tgan zamonda aniq yuz berganligini bildiradi. Ekan - ma'lum bo'lmagan voqeaning keyin ma'lum bo'lganligini bildiradi. Emish - so'zlovchining gumon, konkret bo'lmagan voqealarini ifodalaydi.
2. Lozim so'zi harakatni bajarishga kirishishga mo'ljallanganligini bildiradi. Masalan: O'tilgan darslarni qunt bilan o'qish lozim.
3. Mumkin yordamchisi - harakatni bajarilishidagi imkoniyatni anglatadi. Masalan: Bu ishni Behzod bajarishi mumkin.
4. Bor, yo'q, emas - so'zlari kesimdan keyin kelib, harakat, holat yoki belgining tasdiq va inkorini ko'rsatadi. Masalan: U marraga etolgan emas. Stol bor. Sarvar uyda yo'q.
5. Iborat so'zi - u chiqish kelishigidagi otdan keyin keladi. Masalan: Vazifang shundan iborat. Ba'zi bog'lamlar o'z leksik ma'nolarini yo'qotib, ular faqat ega, kesim orasidagi grammatik munosabatni ko'rsatuvchi vositadir. Bunday bog'lamlar asliy bog'lamlar deyiladi. Ba'zi yordamchi so'zlar bog'lama vazifasida qo'llansa-da, ular o'z leksik ma'nosini tamoman yo'qotmagan bo'ladi. Ular gapning mustaqil vazifasida ham qo'llanadi. Bunday bog'lama nisbiy bog'lama deyiladi. M: Men borishim kerak - bog'lama. Insonga baxt kerak - kesim. Opam talaba bo'ldi.

Kesimning ega bilan moslashuvi.

Kesim egaga tobe bo'lak bo'lganidan, ko'pincha ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ega bilan kesim moslashuv yo'li bilan aloqaga kirishadilar.

Masalan: U anchagina ukasi bilan o'ynab o'tirdi. Men o'qituvchiman. Shoir g'azal o'qidi.

Lekin o'zbek tilida kesimning ega bilan son jihatdan mos bo'lishi uchinchi shaxsning ko'plik formasida shart emas. Bunda ba'zan ega uchinchi shaxs ko'plikda, kesim esa uchinchi shaxs birlikda bo'lishi mumkin.

Masalan: Qo'ylar o'tlamoqda. Xatlar yozildi.

Ega va kesimning birlik va ko'plikda kelishi quyidagi hollarda uchraydi:

Ega ko'plik formadagi shaxs otlari bilan ifodalanganda kesim birlikda ham, ko'plikda ham qo'llanadi. Ega shaxs anglatadigan ko'plik formasidagi jonli predmetlar bilan ifodalanganda, kesim birlikda ham, ko'plikda ham qo'llanadi. M: Mehmonlar keldilar. Mehmonlar keldi.

Ega jonsiz predmetlar bilan ifodalanganda kesim ko'pincha birlik formada bo'ladi. M: Daraxtlar gulladi. Chigitlar ekildi.

Ba'zan ega birlik formada, kesim esa hurmat ma'nosini bildirish uchun ko'plik formada bo'ladi. M: Onam keldilar, dadam ketdilar.

Kesim, sifat, son, miqdor ravishlari bilan ifodalanganda ega ko'plikda bo'lsa ham, kesim birlik formada qo'llanadi. M: Ko'klam quyoshidan ko'kargan qirlar ko'm-ko'k. Dalada ishlar ko'p.

Ega jamlovchi otlar bilan ifodalanganda kesim birlikda bo'ladi. M: Xalq to'plandi. Hamma keldi.

moq - formasi orqali yasalgan harakat nomi bilan ifodalangan ega ko'plik ma'nosini olmaydi. M: o'qimoq - maqsadim.

Ega kelishik olmoshlarining ko'plik formasi bilan ifodalanganda, ba'zan -lar affiksini olishi mumkin. M: Biz keldik. Bizlar keldik.

Ega bilan kesim orasidagi tirening ishlatilishi.

1. Kesim ot, olmosh va son bilan ifodalanib, kesimlik qo'shimchalarini olmasa, ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi. M: Donolikning bir belgisi - adolat, zulm bilan hamroh erur jaholat. U - paxta bilan tirik. Ikki karra ikki - to'rt.

2. Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalansa, ular orasiga tire qo'yiladi. M: O'qish - ulg'ayish. Chuchvaradan maqsad - go'sht eyish.

3. Ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalansa, ular orasiga tire qo'yiladi. M: Bu - maktab. Ana u - talaba.

Agar ega bilan kesim orasida kirish so'z yoki undalma bo'lsa, har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi. M: Nodir, shubhasiz, intizomli bola.

1. **Aniqlovchi va uning ifodalanishi**

Predmetning belgisini, sifatini, miqdorini, xususiyatini, qarashlilikini anglatuvchi ikkinchi darajali bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchilar: Qanday?, Qanaqa?, Qaysi?, Qancha?, Kimning?, Nimaning?, Qaerining? degan so'roqlariga javob bo'ladi.

Aniqlovchi ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalangan har qanday bo'laklarga bog'lanib keladi. Aniqlovchi bog'lanib kelgan so'z aniqlanmish deyiladi. M: Bizning halol mehnatimiz, sevikli vatanimizni bog'-bo'stonlarga aylantirdi. Moviy osmonda kulrang bulutlar sayir qilmoqda. Birinchi va ikkinchi gapdagi bizning, kulrang, halol, sevikli, moviy so'zlari aniqlovchi, predmet vatanimizni, sifatini rangini (kulrang), biz aniqlovchisi esa qarashlilikni ifoda qilib kelayapti.

2. **Aniqlovchining ma'no turlari .Izohlovchi.**

Ma'nosiga ko'ra aniqlovchilar ikki turga bo'linadi:

1. Sifatlovchi aniqlovchi. 2. Qaratqichli aniqlovchi.

Sifatlovchi aniqlovchilar aniqlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi va predmetning xilma-xil belgilarini (rangi, xususiyati, maza-ta'mi, hidi, xarakteri, hajm-shakli, miqdori va tartibi, turi, jinsi kabilarni, biror payt va o'ringa mansubligini bildiradi.

Qaratqichli aniqlovchi bir predmetning ikkinchi bir predmetga, bir shaxsning ikkinchi shaxsga qarashli ekanligini bildiradi. Qaratqichli aniqlovchi kimning? nimaning? qaerining? degan so'roqlarga javob bo'ladi. M: Bahorning shamoli. Uzunlikning ko'zi. Shoirning asarlari.

Qaratqichli aniqlovchilar grammatik – semantik jihatdan ikkiga bo'linadi:

1. Belgili qaratqichli aniqlovchilar.

2. Belgisiz qaratqichli aniqlovchilar.

Belgili qaratqichli aniqlovchilar predmetning boshqa predmetga yoki boshqa shaxsga A

2. To'ldiruvchi aniqlovchiga bog'lanadi. M: Betga aytganning zahri yo'q.

3. To'ldiruvchi boshqa bir to'ldiruvchiga bog'lanadi. M: Xushxabarni keltirganga rahmat.

4. To'ldiruvchilar ot, olmosh, otlashgan sifat, son, sifatdosh, harakat nomi, modal so'z, taqlidiy so'zlar bilan ifodalanadi.

5. Ot bilan ifodalanadi. M: Bo'ston Botirga qarab qo'ydi. Ukam uchun oldim.

6. Olmosh bilan ifodalanadi. M: Mustaqillik bizlarga ozodlik berdi.

7. Sifat bilan ifodalanadi. M: Yaxshini maqtaydilar, maqtagan yarashur, yomonni maqtagan adashur.

8. Son bilan ifodalanadi. M: Birni birov beradi, ko'pni mehnat.

9. Sifatdosh bilan ifodalanadi. M: Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi.

10. Harakat nomi bilan ifodalanadi. M: Biz o'qishni, ishni yaxshi kishilardan o'rganamiz.

11. Modal so'zlar bilan ifodalanadi. M: Yo'qni kerak toptirar.

12. Taqlidiy so'z bilan ifodalanadi. M: Qiy-chuvni bas qil. Taqir-tuqurni yig'ishtir.

13. So'z birikmasi bilan ifodalanadi. M: U etti yoshga to'lishni sabrsizlik bilan kutdi. To'ldiruvchi bog'lanib kelishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Vositali to'ldiruvchi. 2. Vositasiz to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi harakatni o'ziga, bevosita o'tgan predmetni bildiradi va kimni? nimani? qaerni? degan so'roqlarning biriga javob bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchi ayrim vaqtlarda chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi. Bunday vaqtda harakat predmetning bir qismiga o'tganini ifodalaydi. M: Biz ro'znoma yangiliklaridan o'qidik.

Vositasiz to'ldiruvchining affiksi -ni hamma vaqt ham saqlanavermaydi. So'zlovchi va tinglovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan predmet, voqea-hodisa yoki belgi ifodalanganda, tushum kelishigining affiksi saqlanadi. Predmet voqea – hodisalar, belgilar yoki predmetlarning biror turi umumga oid bo'lganda tushuriladi. M: Ishdagi muvaffaqiyatlar har bir kishini quvontiradi. Majlisda o'zbek tilini o'rgatish haqida gap bo'ldi. Botirlari kanal qazadi. Shoirleri g'azal yozadi. Vositasiz to'ldiruvchi quyidagi hollarda tushum kelishigi formasida keladi.

Holning ifodalanishi va ma'no turlari. Hol ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lib, kesimdan anglashilgan harakatning bajarilishidagi turli holatlarini bildiradigan, harakat-belgini xarakterlashtiradigan bo'lakka aytiladi. Harakatning bajarilishi, biror bir holatning yuzaga kelishi, shu bilan birgalikda bog'langan shart, sabab, maqsad, o'rin, payt kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, hol ish-harakatni biror jihatdan tavsiflaydigan, xarakterlaydigan ikkinchi darajali bo'lakdir. Hol asosan fe'l bilan ifodalangan kesim bilan aloqaga kirishadi. Bunda hol tobe, kesim hokim bo'lak hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan ham hol va kesim munosabati bitishuv ba'zan boshqaruv bog'lanishlari orqali amalga oshiriladi. M: Shokir maktabga shoshilib yurib ketdi. Avaz avvaliga bu xushxabarga tezda ishongisi kelmadi.

Hol asosan quyidagi so'roqlarga javob bo'ladi: qanday qilib? qaerda? qaerdan? qaerga? qayergacha? qachon? qachongacha? qachondan beri? nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima maqsadda? qancha? necha marta? qanchalik? qanchalab? va boshqalar.

M: U maqolani tez o'qib chiqdi. Ko'p o'yla, oz so'zla. Biror narsa olsang, ko'rib-ko'rib ol.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1- Mavzu: Til haqida umumiy ma'lumot. Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari. Mashqlar bajarish

6-mashq. *Hind-yevropa hamda oltoy tillar oilasiga kiruvchi tillarni aniqlab yozing.*

Osetin, tojik, bolgar, litva, ozarbayjon, arman, rumin, yoqut, pushtu, shor, turk, fransuz, qumiq, oyrot, sloven, Chuvash, Bengal, gujarot, qrim-tatar, lak, dungan, turkman, mo'g'ul, ingliz, nemis, shotland, chex.

7-mashq. *Tirik va o'lik tillarni aniqlab, guruhlariga ajratib yozing.*

Portugal, arab, lotin, ispan, so'g'd, golland, gagauz, mo'g'ul, sanskrit, xitoy, balqar, qadimgi xorazmiy, fin, qorachoy, tuva, tatar, slovyan, shved, xakas, uyg'ur, qadimgi prus, serb, norveg, chex, qadimgi fors, makedon, slovak, island, xorvat, kurd, no'g'ay, moldovan, grek, alban, yangi hind tili, latish, qadimgi arab tili.

8-mashq. *Xalqaro tillarni ajratib, ko'chiring.*

Shotland, ingliz, irland, chjuan, xitoy, kartaliy, abxaz, ingush, udmurt, nemis, eston, venger, mordov, fransuz, darg'in, rus, svan, avar, batsbiy, guriy, ispan, tuareg, Somali, arab, kobil, oysor, irvit, shilx.

9-mashq. *Quyidagi so'zlarni o'zbek tili lahjalari bo'yicha ajratib yozing.*

Elay (elak), jur (yur), oka (aka), geldi (keldi), adamni (otamni, dag' (tog'), aad (ot), taka (yosti), secha (chumchuq), sov (sog'), sari (sariq), o'qiyatir (o'qiyotir), ertay (ertak), o'd (o't), jazvotir (yozayotir), duz (tuz), opa (ona), jamg'ir (yomg'ir).

10-mashq. *Arab, rus, tojik va o'zbekcha so'zlarni aniqlab yozing.*

So'roq, purkagich, paypoq, bog'dorchilik, haq, barkash, maorif, chiroq, stol, mansab, sanoat, panjara, yaxshi, pulemyot, dimog', ittifoq, undalma, gilam, obdasta, dars, ovqat, me'da, zavod, avlod, poydevor, darhol, mehnat, samovar, millat, patnis, hujum.

2-ilova.

"Lisoniy tahlil qoliplari"dan variantlar bajariladi. (Kitob shaklida mavjud).

3- ilova.

Mavzu bo'yicha test topshiriqlarini bajarish (test variantlari alohida beriladi).

1. Quyidagi tillardan qaysi biri oltoy tillar oilasiga mansub emas?

- A) yapon tillari tarmog'i B) barchasi oltoy tillari oilasiga mansub. C) turkiy tillar tarmog'i D) eron tillari tarmog'i

2. Qadimgi turkiy til qaysi davrlargacha qo'llangan?

- A) X asrgacha B) XV asrgacha C) VIII asrgacha D) XIV asrgacha

3. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra yer yuzida nechta til mavjud?

- A) 2000 dan ortiq B) 2000 ga yaqin C) 3000 dan ortiq D) 3000 ga yaqin

4. Qanday til o'lik til hisoblanadi?

- A) jamiyatdan uzilgan til B) o'z yozuviga ega bo'lmagan til C) insonlarning aloqasiga xizmat qilmaydigan til D) A, C.

5. Quyidagi topishmoqning javobini toping. Oq'izdan chiqquncha meniki, oq'izdan chiqqani elniki.

- A) gap B) til C) so'z D) ilm

6. Nima sababdan til ijtimoiy hodisa sanaladi?

- A) chunki til jamiyatga xizmat qiladi B) chunki til insonlarning o'zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi C) chunki til jamiyatlar o'rtasidagi aloqa uchun xizmat qiladi D) A, B.

7. Nutq nima?

- A) so'zlar orqali ma'lum fikr bayon qilish nutq hisoblanadi B) so'zlash orqali ma'lum fikr bayon qilish nutq hisoblanadi C) yozish orqali ma'lum fikr bayon qilish nutq hisoblanadi D) A, B.

8. Hind-yevropa tillar oilasiga kirmaydigan til nomi qaysi javobda berilgan?

- A) eron B) pahlaviy C) qumiq D) osetin

9. Xorazm shevasiga xos soʻzlar qaysi javobda berilgan?

A) Olopti, gʻoʻlim, inak B) Borutti, kelutti, eshik (hovli) C) Axtiq, secha, arja D) Oxun, shahar, uy

10. Quyidagilardan qaysilari uzoq vaqtgacha oʻzgarmasligi mumkin? 1) gap boʻlaklarining joylashuvi; 2) lugʻat boyligi; 3) nutq tovushlari; 4) soʻz turkumlari tizimi; 5) tildagi soʻzlar;

A) 1, 2, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 4, D) 1, 4, 5

11. Oʻzbek tili leksikasi tarkibidan chiqib ketish arafasida turgan soʻzlar qaysi qatorda berilgan?

A) marketing, menejment, kompyuter B) oblast, rayon, xirurg C) tadbirkor, ishbilarmon, dallol D) diler, makler, kontrakt.

12. Yer yuzida kamida 5 mln. aholi gaplashadigan nechta til bor?

A) 200 B) 13 C) 70 D) 50

13. Yer yuzida kamida 1 mln. aholi gaplashadigan nechta til bor?

A) 13 B) 50 C) 70 D) 200

14. Yer yuzida kamida 50 mln. aholi gaplashadigan nechta til bor?

A) 50 B) 13 C) 70 D) 200

15. Qarindosh tillarning belgilari notoʻgʻri koʻrsatilgan javobni toping.

A) umumiy tomonlari koʻp boʻlgan tillar B) grammatik belgilari bir xil boʻlgan tillar C) bir-biriga yaqin boʻlgan tillar D) A, C.

16. XI-XIV asrlarda xalqimiz foydalangan til qanday nomlanadi?

A) eski turkiy til B) qadimiy turkiy til C) qadimgi oʻzbek tili D) eski oʻzbek tili

17. Tilshunoslik fani qaysi fanlar guruhiga kiradi?

A) tabiiy fanlar; B) texnika fanlari; C) ijtimoiy-gumanitar fanlar; D) matematika fanlari.

18. Tilshunoslik fanining turlari notoʻgʻri berilgan javobni toping.

A) umumiy va xususiy tilshunoslik; B) nazariy va amaliy tilshunoslik; C) qiyosiy va tavsifiy tilshunoslik; D) barcha javoblar toʻgʻri.

19. Umumiy tilshunoslik fanining maqsadlari notoʻgʻri koʻrsatilgan javobni toping.

A) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash; tillarning tasnifini yaratish; B) til haqidagi fanning sathlarini va ularni oʻrganuvchi sohalarini belgilash; C) lingvistik bilimlarni tajribada qoʻllash D) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish.

20. Qaysi javobda shevaga xos soʻzlar berilgan?

A) ushbu, kitob, daftar B) bu yoqqa, ana u erda C) kelopti, borvotti, aytovuz D) oliynasab, mujgon, goʻja

21. Til taxminan qaysi davrda paydo boʻlgan?

A) oʻq-yoy kashf qilingandan keyin; B) oila paydo boʻlgandan keyin; C) ibtidoiy jamoa tuzumi davrida; D) gzildirak kashf qilingandan keyin.

22. Tilning tarkibiy qismlari notoʻgʻri berilgan javobni aniqlang.

A) tovushlar tizimi; B) harflar tizimi; D) grammatik qurilishi; D) lugʻat boyligi.

23. Fikr qanday vosita orqali ifodalanadi?

A) tovush; B) soʻz ;C) ibora; D) gap.

24. Oʻzbek tili leksikasida yangi maʼno kasb qilgan soʻzlarni toping.

A) dallol, bozorboq B) ishbilarmon, tadbirkor C) firmachi, fermer D) barchasi toʻgʻri

25. Oʻzbek tiliga xos boʻlmagan boʻgʻin turlari berilgan javobni toping.

A) teologiya B) kontrakt C) tashvish D) A,B.

26. Til oilalariga xos xususiyatlar notoʻgʻri koʻrsatilgan javobni belgilang.

A) lugʻaviy jihatdan yaqin boʻlgan tillar B) kelib chiqish manbasi bir xil boʻlgan tillar C) fonetik jihatdan yaqin boʻlgan tillar D) grammatik jihatdan yaqin boʻlgan tillar

27. Quyidagi qaysi boʻlinish toʻgʻri?

A) til oilasi > til turkumi > muayyan til B) til turkumi > til oilasi > muayyan til C) muayyan til > til turkumi > til oilasi D) til turkumi > muayyan til > til oilasi

28. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarashning taqiqlanganligi "Davlat tili haqida"gi qonunning qaysi moddasida yozilgan?

A) 1-moddasida B) 2-moddasida C) 24-moddasida D) 14-moddasida

29. Quyidagi maqolni davom ettiring: Ovqatni tuzi mazali qiladi, odamni - ...

A) yuzi B) ko'zi C) o'zi D) so'zi

30. Til va nutqning o'zaro farqlari ko'rsatilgan javobni toping.

A) tilni xalq yaratadi, nutq esa ma'lum shaxsga tegishli bo'ladi B) til aloqa vositasi, nutq esa shu aloqa jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi C) tilning umri uni yaratgan xalq umridek uzundir, nutq umri qisqa bo'ladi D) barchasi to'g'ri.

2- Mavzu: Fonetika. Nutq tovushlarining tasnifi. Fonetik jarayonlarga oid mashqlar bajarish. Fonetik tahlil ko'nikmasini hosil qilishga doir mashqlar.

14-mashq. Nuqtalar o'rniga unli yoki undosh fonemalardan qo'yib ko'ring, hosil bo'lgan so'zlarni yozing.

1. B...z, s...z, t...z, k...z; t..n, j...n, k...n, t...t, b...t, s...t; sh...m, sh...r, sh...x; x...n, x...l, x...m, x...s, x...t, x...sh; z...l, z...r, k...r. 2. O...a, a...a, e...a, u...a, o'...a, a...i. 3. O..., u..., e..., i..., o'...

II topshiriq. Birgina fonema bilan farq qiladigan so'zlarni toping va ularni yonma-yon yozing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibidagi unilarni tilning gorizontal harakatiga kura tasniflang.

Roziq, sho'ra, tolmoq, tong, tin, pona, botmoq, ko'z, so'ra, Ber, qin, bayt, qoziq, bong, xona, ko'ra, bo'z, din, qayt, solmoq, jo'ra, dong, so'z, fin, hoziq, olmoq, chin, payt, shona, sotmoq, qin, qo'ra, qona, totmoq, xo'ra, to'z, ter, qotmoq, cho'z, g'o'ra, sher, sin.

15-mashq. O'qing. Har bir so'z tarkibidagi unli va undosh fonemalarni ko'rsating. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibidagi unilarni tilning vertikal harakatiga va lablarning ishtirokiga ko'ra tasniflang.

Ko'zlarim tindirolmas,

Na dovrug'u, na davlat.

Izmiga indiroldmas,

Na mansabu, na savlat. (Z.O.)

16-mashq. O'qing. Unli fonemalarni tilning gorizontal, vertikal harakatiga va lablarning ishtirokiga ko'ra guruhlang va chizma chizib chizmaga joylang.

Tilim bormas aslo ko'r qiz demakka,

Siz ham bir eshiting «Dugoh», «Bayot»ni.

Chamamda, ko'z nuri ko'chgan yurakka,

Shuning-chun u kuylar qaynoq hayotni. (O. Xoldor.)

Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra			Lablarning ishtirokiga ko'ra	
Til oldi	Til orqa	Yuqori tor unililar	O'rta keng unililar	Quyi keng unililar	Lablangan	Lablanmagan

17-mashq. Matnni ko'chiring, undosh fonemalarni hosil bo'lish o'rniga ko'ra guruhlab, berilgan chizmaga joylang

Lab undoshlari	Lab-lab	
	Lab-tish	
Til undoshlari	Til oldi	
	Til o'rta	
	Til orqa	
	Chuqur til orqa	
Bo'g'iz undoshi		

19-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Qaysi guruhdagi soʻzlar tarkibida faqat til undoshlarigina qatnashganligini aniqlang.

1. Agar(da), agent, adadsiz, adolat, aygʻoqchi, akashak, alang-jalang, anarxist, antiqa, asilzoda, attang, achchiqtosh, ajdod.
2. Asalari, aslaha, argʻuvon, asrandi, attor, ashaddiy, aqidaparast, aholi, abjir, admiral, aysberg, aka-singil, aksiyador.
3. Gavhar, gajim, galstuk, giyoh, girdob, gugurt, gultuvak, gulqaychi, goʻsxoʻr, gulxayri, gulkaram, gulxan, gazanda.
4. Gajak, gazetxon, garaj, gardish, general, gilos, guldasta, gultojixoʻroz, gulqand, goʻngqargʻa, gulshan, gazak.

20-mashq. Berilgan gaplarni oʻqing. Undosh fonemalarni hosil boʻlish usuliga koʻra guruhlab, quyidagi chizmaga joylang.

1. Umid jasoratli odamlarda boʻladi.
2. Mashaqqatsiz kelgan rohat tuzsiz oshga oʻxshaydi.
3. Odamning eng shirin, laziz va halol taomi oʻz mehnati, qoʻl kuchi bilan topgan rizqidir.
4. Nafsning davosi ochkoʻzlikni tark qilishdir. (*“Oz-oz oʻrganib, dono boʻlur”*)

Portlovchilar	Oddiy portlovchilar	
	Qorishiq portlovchilar	
Sirgʻaluvchilar		
Portlovchi-sirgʻaluvchilar	Burun tovushlari	
	Yon tovush	
	Titroq tovush	

21-mashq. Matnni oʻqing. Ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra undosh fonemalarni guruhlab, chizmaga joylang.

1. Suqrot hakimning: “Ilmdan ortiq xazina boʻlmas; nodondan yomonroq dushman boʻlmas, ilmu hunardan aʼloroq hurmat boʻlmas!” – degan hikmatini har vaqt yodimda tuturmen. (*K.Moiseeva.*)
2. Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir toʻgʻri tadbir bilan amalga oshirish mumkin. (*“Amir Temur oʻgitlari”*)

Shovqinlilar	Jaranglilar	
	jarangsizlar	
Sonorlar		

3-Mavzu Orfoepik meʼyorlar. Grafika.

50-mashq. Orfoepik normaga mos holda berilgan soʻzlarni oʻqing. Har bir soʻzning orfografik shaklini yozib, ularni “Imlo lugʻati”dan tekshiring; talaffuzi va yozilishidagi farqni izohlang.

Bangkir, botinka, koʻngilchang, mungkaymoq, toʻngka, finka, chungki, esangkiramoq, shoʻxchang, bangkrot, bangket, bangka, koʻlangka, masqaraboz, maxtov, qizixchilik, bixsimoq, boxcha, boʻyoxchilik, vaxt, vaxtincha, vaxtichogʻlik, zixna, zorixtirmoq, ixtisod, nixtamoq, oxsamoq, oxshom, oxshoq, poyloxchi, soxchi, taxchil, toʻxson, toʻxmoq, chaxchaymoq, oʻxtalmoq, quloxchin, alangga, banggi, barzanggi, vatanggado, vaholangki, gunggalak, goʻshangga, davanggir, danggal, danggasa, buxangka, varangka, denggiz, domanggir, enggiltak, janggavor, kalaminka, karzingka, jinggalak, kunggaboqar, kunggira, kunggay, tangketka, koʻlangka, koʻtaringki, mingashmoq, nongkoʻr, chekangka, sarpoychang, tangga, toʻngka, changgal, shinggil, shtanga, shoʻxchang, enggash, yanggi, harakatchang, qiziloʻnggach.

51-mashq. Oʻqing. Avval sirgʻaluvchi, soʻngra, qorishiq j undoshini ifodalovchi harf ishtirok etgan soʻzlarni ajrating. Ularni ikki ustun shaklida yozing.

Jabr, jabra, jadval, janr, jangvar, jargon, jasur, gijda, jamoat, anjir, abajur, ajablanmoq, ajdargul, ajriq, gijja, dyujina, daraja, javob, jadval, jandarm, jemper, jingalak, jirafa, jumla, jurnalist, jurnalxon, joʻyak, juft, zanjir, zijigalka, zotiljam, ijizat, ijobiy, injener, iskanja,

kenjatoy, kinorejissyor, mavj, majlis, morj, natija, passajir, projektor, reja, rejim, sabotajchilik, tajriba, tarjima, falaj, xorijiy, shajara, o`lja, g`ijim, hajv.

52-mashq. O`qing. Fonetik tamoyil asosida yozilgan so`zlarni ko`chiring va izohlang.

G`ayrat, qolib, qo`lyozma, qo`llanma, qo`llanma, o`toq, g`alla, g`avvos, qultum, quvonch, o`rama, yagana, yaktak, yagona, yuqumli, yupanch, ekologiya, ezgu, eskiz, shudring, shulxa, shilel, chayqov, chastota, cherkov, xaridorbop, xokkey, fermer, firuza, uyqu, ushu, tajriba, tazkira, teletayp, simvol, simob, romans, razolat, poyabzal, papirus, orangutan, og`ayni, nogoron, neftg`, mardonavor, marketing, lashkarboshi, lagerg`, konfet, kokain, katapulg`ta, kaptar, yo`qlov, inhom, zag`cha, zenit, jarangdor, jarima, jandarm, dilorom, dilozor, dardkash, guberni, gavhar, vazelin, boqatdan, bodroq, anvoyi, akvarelg`.

53-mashq. So`zlarni o`qing. Ularning yozilishi va talaffuziga ehtibor bering. Orfografiyaning shakliy-anhanaviy tamoyil asosida yozilgan so`zlarni ko`chirib, tegishli izohlang.

Direktor, mavhum, dirijyor, makkor, doktorant, minbar, dolzarb, izhor, kristall, mirzaterak, muolaja, mollyuska, mazkur, mukofot, matbaa, olijanob, motor, naqdina, okean, orbita, og`zaki, palg`to, pasport, piramida, rasmiyatchilik, reportaj, ravoch, rusumli, safsata, sekund, separator, sirop, solqi, tabor, tadqiqot, tarozi, tembr, tokqaychi, tumonot, xoin, xokkey, xo`tik, chilangar, chirmovuq, sharmsor, shahodat, shifer, elevator, ehtiyoj, yashovchan, qalamtarosh, qopag`on.

54-mashq. Berilgan so`zlarni talaffuz va yozuv qoidasiga rioya qilgan holda o`qing. Nuqtalar o`rniga shu so`zlarning yozuvdagi shaklini namunadagidek yozib ko`rsating.

N a m u n a : 1) aktsioner – aksioner;

2) delegatsiya – delegatsiya.

Affiksatsiya - ..., vulkanizatsiya - ..., instantziya - ..., stsensariy - ..., kulg`tivatsiya - ..., kantsler - ..., penitsillin - ..., platskarta - ..., reaksiya - ..., sotsiologiya - ..., tsisterna - ..., okkupatsiya - ..., sterilizatsiya - ..., rezidentsiya - ..., publitsistika - ..., annotatsiya - ..., kvitantsiya - ..., konferents-zal - ..., investitsiya - ..., infektsiya - ..., punktuatsiya - ..., platsdarm - ..., sanktsiya - ..., mototsikl - ..., tsiklon - ..., konstruktsiya -

Mavzu bo`yicha test topshiriqlarini bajarish (test variantlari alohida beriladi).

1. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi bo`lim o`rgatadi?

A) orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika

2. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taalluqli va ular qaysilar?

A) VII asrlarga, O`rxun–Enasoy yodgorliklari B) XIV asrlarga, A.Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari C) XI – XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiyning ba`zi she`rlari D) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asarining Namangan va Kohira nusxalari, Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asari

3. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so`zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.

A) 23,20,17,19,8,12,13,8,13. B) 23,20,17,19,8,12,13,8,29

C) 23,17,19,8,12,13,8,29 D) 22,19,17,18,8,12,13,8,29

4. Qaysi qatordagi so`zlarda «ng» harfi bir tovushni ifodalamoqda?

A) tanga, jang, menga B) zang, ko`ndalang, ingramoq

C) durang, onangiz, nonga D) kongress, menga, singil

5. Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uyning balandligi anglashiladi?

A) baland so`zidan so`ng pauza bo`lsa B) boloxonali so`zidan keyin pauza bo`lsa C) uchala so`z orasida pauza mavjud bo`lmasa D) har qanday holatda ham uyning balandligi anglashiladi

6. Tarkibidagi tovush va harflar soni bir xil bo`lmagan so`z qaysi qatorda qo`llangan?

A) hikoyang B) ko`ylak C) nomus D) poliz

7. Qaysi qatorda harflar alfavit tartibida yozilmagan?

A) j, z, i, y, k B) n, o, p, r, s C) f, x, ch, sh D) e, o`, q, g`.

8. Bir unli yo bir undosh bilan farq qiladigan so`zlar qatorini toping.

A) bilim, baliq

B) kamon, zamin

C) bolg'a, bolta

D) boshliq, toshloq

9. O'rta Osiyoda XV asrda arab yozuvi bilan bir qatorda yana qanday yozuv ishlatilgan?

A) turkiy yozuv B) rim yozuvi C) uyg'ur yozuvi D) lotin yozuvi

10. Y harfi tushirib qoldirilganda ham ma'no anglata oladigan so'zlar qatorini aniqlang.

A) kiyma, piyma, choynak B) siyla, ziyrak, biyron

C) mayda, qayda, soyda D) qiyma, qayirma, sayla

11. Qaysi qatordagi so'zlarda harf to'rtta, tovush uchta?

A) yashil, buyuk B) tongi, ta'na C) da'vo, qal'a D) so'ng, bong

12. Turkiy xalqlar qaysi asrlarda O'rxun-Enasoy yozuvidan keng foydalanganlar?

A) II-III asrlarda

B) V-VIII asrlarda

C) V-IX asrlarda

D) VII-XI asrlarda

13. Og'zaki nutqning qonun va qoidalarini tilshunoslikning qaysi bo'limi o'rganadi?

A) fonetika B) orfografiya C) orfoepiya D) morfologiya

14. Harflar tartibidan foydalanib, «Bilim baxt keltirar» maqoli kiril yozuvida to'g'ri chiqarilgan javobni aniqlang.

☐ A 2, 10, 13, 10, 14, 2, 1, 23, 20, 12, 6, 13, 20, 10, 18, 1, 17.

☐ B 2, 10, 13, 10, 14, 2, 1, 23, 20, 12, 6, 13, 20, 10, 18, 1, 18.

☐ C 2, 10, 13, 10, 14, 2, 1, 23, 20, 12, 6, 13, 21, 10, 18, 1, 18.

☐ D 2, 10, 3, 4, 2, 1, 20, 23, 12, 6, 13, 20, 10, 18, 1, 18.

15. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, hunar so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.

A) 7,20,13,1,17

B) 6,21,12,3,9

C) 7,20,12,1,17

D) 5,22,14,2,17

16. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan va unda nechta harfdan iborat alifbo joriy etilgan?

A) 1929 yilda, 35 ta harf. B) 1934 yil o'zbek tilshunoslarining

I qurultoyida, 30 ta harf. C) 1993 yil 2 sentyabrda, 31 harf va

1 tutuq belgisi. D) 1995 yil 6 mayda, 29 ta harf.

17. «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» qaror qachon qabul qilindi va unda yangi alifbodagi harflar miqdori nechta deb belgilandi?

A) 1996-yil 26-avgustda, 32 ta harf va tutuq belgisi.

B) 1995- yil 24-avgustda, 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi. C) 1995- yil 6-7-mayda, 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi. D) 1929- yil, 30 ta harf.

18. Adabiy talaffuzning umumiy me'yoridan chekinish bo'lgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) ushta, usso'm, besso'm, yussiz, qushdi, eshdi, issiz

B) oshshi, ishshi, yuzzi, qorri, o'tta, aqqa, baqqa C) pas, go'sh, xursan, Samarqan, dart, balant, bant D) bo'sa, kesa, bo'gan, kegan, qogan, opti, qopti

19. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorida ko'rsatilishicha, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish qachon to'liq tugallanishi shart?

A) 1998-1999-o'quv yilida

B) 2009 yilda

C) 1999-2000-o'quv yilida

D) 2010 yilda

20. Qaysi so'zlarda tutuq belgisi unlini undoshdan ajratib aytilishini bildiradi?

A) she'r, ma'no B) sur'at, jur'at C) sa'va, ma'vo

D) mas'ul, fe'l

21. Qaysi so'zlarni yozganda tutuq belgisi tushinb qoldirilsa, ma'no o'zgaradi?

A) ma'qul, ma'mur, ma'no B) sa'va, qal'a, sur'at C) a'lo, a'zo, ba'zi D) me'mor, ta'na, ta'sir

22. Qaysi qatordagi so'zlar alifbo tartibida yozilmagan?

A) akademiya, dovyurak, rais B) nazm, javob, yodgor C) rahbar, talaffuz, shoir D) erksevar, kashfiyot, matonat,

23. Qaysi so'zlarda (') belgisi unlining undoshdan ajratib aytilishini bildiradi?

A) ma'vo, sa'va

B) she'r, ma'no

C) mas'ul, fe'l

D) sur'at, jur'at

24. Og'zaki nutqning tovush tizimini yozma nutqda qanday berilishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?

A) orfografiya B) orfoepiya C) fonetika D) grafika

25. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan undosh tovushlar yozuvda necha harf vositasida ifodalanadi?

A) 23 B) 22 C) 21 D) 24

26. Berilgan so'zlarning qaysi birida n va g ikki alohida tovush hisoblanadi? 1) langar; 2) tenglik; 3) reyting; 4) alanga; 5) manqu; 6) ingliz.

A) 3,6 B) 1,4,5,6 C) 2,3,4,6 D) 1,3,6

27. Qaysi qatorda harflar yangi alfavit tartibida yozilmagan?

A) e, s, sh, ch B) f, h, k, sh C) n, o, p, r, s D) j, z, i, y, k, l

28. O'rxun-Enasoy obidalaridagi yozuv yo'nalishi qanday bo'lgan?

A) o'ngdan chapga B) chapdan o'ngga C) balanddan pastga D) A va C.

29. Qaysi qatordagi so'zlar o'z tarkibidagi tovushlar sonidan ko'p harf bilan qayd etilgan?

A) endi, yana; B) yanch, yung; C) aya, yayov; D) noyabr, ton;

30. Qaysi so'z o'z tarkibidagi tovushlar miqdoriga teng harf bilan qayd etilgan?

A) yacheyka; B) yeyarmon; C) yashang;

D) yalang

3- Mavzu: O'zbek tilining imlo qoidalari. Matnni imloviy jihatdan tahlil qilish ustida mashqlar.

45-mashq. Tushirib qoldirilgan unli harflarni o'z o'rniga qo'yib, so'zlarni ko'chirib; aytilishi va yozilishini tushuntiring. Yozgan so'zlaringizni imlo lug'atidan tekshiring.

1. N...tarius, ...bligatsiya, ...rganizm, ...rol, p...rtret, pr...spekt, pr...tokol, r...mantik, t...lqon, t...mat, f...ntan, sh...fer, b...rona, v...jatiy, v...ronka, g...rizont, d...klad, d...mino, d...tsent, kisl...rod, kisl...ta, k...llevktiv, k...lorit, k...manda, k...mbayn, k...meta, k...mitet, k...mpot, k...nspekt, k...nfet, k...ntsert, lab...rant, m...zaika, m...n...lit, m...ntaj, m...totsikl, n...vator, n...rmal.

2. Uch...n, but...n, ul...sh, turg`...n, tuz...m, turm...sh, tug...n, turk...m, uyq..., tuyg`..., ud...m, uz...m, uz...nlik, uz...nchoq, uyq...chan, ung...r, un...tuvchan, ust...n, uch...q, uchq...r.

3. D...lar, d...mna, d...nor, zav...d, z...na, z...nt, kal...riya, kart...n, k...lba, k...mik, nas...s, n...rma, ...braz, ...blastg', ...krug, ...rgan, ...rden, s...da.

4. B...ho, b...hona, b...hor, v...bo, v...gon, g...vda, g...vjum, g...vhar, d...vlat, d...vomat, d...vron, z...l, zo'r...von, m...vj, m...bodo, n...vbat, n...vqiron, n...moyon, naq...rot, n...hor, t...mom, x...votir, x...vf, h...vaskor, h...vza, h...vo, sarl...vha, hash...rot.

5. ...stiq, ...lkan, ...tuk, ...lpiz, ...lchimoq, ...mish, ...pun, ...lmog`iz, ...lg`iz, ...mush, ...ridik, ...ntoq, ...mg`ir, ...ngil, ...qumli, ...sanmoq, ...noq, ...tarli, ...daki, ...shirin, ...rfaqamoq, ...lduzsimon, ...qinlashmoq, ...g`log`i, ...g`och, ...g`du, ...vosh.

46-mashq. O`qing, ayrim so'zlardagi unilarning yozilishida yo'l qo'yilgan xatolarni topib, qaysi imlo qoidasi asosida yozilishi lozimligini izohlang.

1. CHol salomimga alik olish o'rniga, boshi aylangandek ko'zlarini yumub, ingradi-da, gandraklab ketdi. (S.Nazar.) 2. Ruxsat bergin mushkil damda olib ketay boshimni. (SH.Rustaveli.) 3. To'lun oyday yorug` sochar, shu payt uning jamoli. (SH. Rustaveli.) 4. Ahmadjon aka, hali sizga katta mukofatlar chiqar. (A.Q.) 5. Tutqin qizning qayg`usini chekar faqat bu Asmat. (SH. Rustaveli.) 6. Kamarbasta xizmatkorlar g`oyat xushmuomila. (SH. Rustaveli.) 7. Qizdur, juvondur, ayol zotida hayo, iffat nomus bo'lishi shart.(SH.) 8. Matluba yaqinlashganida, u nima deyishini bilmay qizarib, kulimsirab qarab turaverdi.(A. Eshonov.) 9. Ikkinchi soatning so'nggi minutlari o'tayotganda, Saidiyning ko'zi charchab, turtuna boshladi. (A. Q.)

47 -mashq. Soʻzlarni avval chapdan oʻngga, soʻngra oʻngdan chapga qarab oʻqing; ularning tovush tizimi va mahnosidagi oʻzgarishlarini soʻzlang.

Koʻp, qiz, shod, arava, bez, kirib, dush, ibo, qoʻl, tosh, mosh, nok, top, madad, jigʻ, narsa, sal, tilak, tuf, sur, fan, biri, mato, kit, nos, tirik, sur, ilon, loy, kech, adad, ado, toza, allo, mol, nam, amal, amin, omma, qora, aslo, matoh, lab, bit, tub, dada, kod, gʻijim.

48-mashq. Orfografik jihatdan notoʻgʻri yozilgan soʻzlarni aniqlab, qoidaga muvofiq yozing.

Mushdekgina, tabel'chi, koʻz oynak, ustgi, tongi, diakretik, alyuminiy, buringi, yorugʻga, gul tojixoʻroz, ranggin, sada rayhon, etirof, exxe, echkemar, vaqt, tavofut, albom, qoyda, murojat, ogʻizi, yozganakan, yugirdak, xafsiramoq, biznesmen, ikki yuzlamachi, rejissyor, repititor, kelin tushdi, avraastar, tavakal, tajjub, muhum, har-xil, ola qargʻa.

49-mashq. Quyidagi soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish qoidalariga muvofiq tarzda koʻchirib yozing.

Tinchimoq, televizor, tonggi, inssenirovka, fakul'tet, gramm, sessiya, konspekt, mudofaa, muddao, avliyo, BMT, A.Navoiy, TVDPI, singil, qit'a, ma'yus, taassurot, itoat, da'vat, ko'ngil, bumerang, A.S.Ma'rupov

TEKSHIRUV DIKTANTI

Hakimjon bir dasta gazeta-jurnallarni boshiga yigʻib olib, divanda gazeta oʻqib yotardi. Nigora qoʻgʻirchoq yasash bilan ovora. Uning yonida buvisi tasbeh oʻgirib, mudrab oʻtiribdi. Oʻgʻli ham allaqanday kitobga mukka tushgan. Hamidaxon stol yoniga kelib, bugun oʻqimoqchi boʻlgan qoʻlyozmasini titkiladi. Lekin uning nazari ham, oʻyi ham qizida edi. Nigora qoʻgʻirchogʻini qoʻyib, esnadi. Atrofga javdiragancha indamay oʻtirib qoldi. Hamidaxon qoʻlyozmasini nari surib, qizining yoniga bordi.

-Qoʻgʻirchogʻingni uxlatdingmi?-dedi uning sochlarini silab.

Nigora avval hech narsa tushunmayotgandek onasiga qaradi. Keyin kallasini qimirlatib, jilmaydi.

(S.Zunnunova. "Lola sayri")

5-Mavzu: Leksema va soʻz. Maʼno koʻchish turlari. Omonimya, sinonimya, antonimya hodisalari. Oʻzbek tilining boyish manbalari.

1-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Har bir soʻzning leksik maʼnosini, nominativ (nomlash) xususiyatini izohlang.

Ajriq, ayvon, amaki, ari, asov, oʻnta, barvasta, men, bastakor, avval, baxil, bahs, bedana, bezatmoq, bildirgi, allakim, burro, boʻron, vergul, gerb, goʻzal, dardchil, diyor, mana shu, dimlamoq, doim, dono, dum, dubulgʻa, yetmak, yetmish, yechintirmoq, yoyiq, yongʻoq, yoppasiga, jadval, jiyan, jiddiy, jilgʻa, jussa, ziyofat, ziroat, ziqna, zubr, ikkinchi, iljaymoq, injiq, inʻom, irkit, istiqloq, itoatkorona, yoʻgʻon, kalit, kaltafahm, kashta, keyin, kimyogar, koʻp, hech kim.

2-mashq. Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning leksik va grammatik maʼnolarini izohlang.

1. Farzand umr bogʻida Hayotdek aziz, shirin. (*T.Saydaliev*) 2. Tuhmatning oyogʻi qisqa, uzoqqa bormaydi. Haqiqat toʻq danak, koʻmsa ham koʻkarib chiqadi. (*Shuhrat*) 3. Mehnat bilan topilgan non beminnat boʻladi. 4. Qahramon ota, jasur oʻgʻil, jafokash ona, hijronzada qalliq, hurmatli yodgorlik oldida uzoq bosh egib turdim. (*S.Ahm.*) 5. Yaramas, fosiq odamlar bilan suhbatdosh boʻlish ilonni asrashga oʻxshaydi. Ilon har qancha asralsa ham, zahari va ziyoni kamaymaydi, balki koʻpayadi. (*"Oz-oz oʻrganib dono boʻlur"*)

3- mashq. Matnlarni oʻqing, monosemantik soʻzlarni aniqlang va qaysi sohaga oidligini ayting.

I. Bakteriya hujayralari massasining asosiy qismn oqsil va nuklein kislotalaridan hosil boʻlgan tsitoplazma va yadrodan iboratdir. Oqsillar juda murakkab organik moddalar boʻlib,

ularning molekullari yuz va minglab atomlardan tuzilgandir. Oqsillar tarkibiga uglerod, vodorod va kislorodlardan tashqari azot, oltingugurt va ba'zan fosfor ham kiradi.

II. Mahmud Koshg'ariy yirik fonetist sifatida har bir tovushni alohida o'rganib, uni fiziologik va akustik tomondan tasvirladi. Tovush va harf orasidagi munosabatga to'xtalib, arab yozuv sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini ko'rsatdi...

Mahmud Koshg'ariy so'zlarni uch turkumga ajratadi. Bular: ot, fe'l, yordamchi so'zlar. Mahmud Koshg'ariy ko'pgina affikslarning ma'no va funktsiyalarini ko'rsatib bergan edi. Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli.

III. Alisher Navoiy katta badiiy va ilmiy asarlari qatorida maxsus lingvistik asar yozganligi barchaga ma'lum.

Navoiy eski o'zbek tilining morfologiyasini yaxshi analiz qildi. Masalan, u fe'lning o'zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni, sifatning orttirma darajasini va kuchaytirma shakllarini, ayrim so'z yasovchi affikslarning ma'nolarini ko'rsatib, ularni misollar bilan izohlab beradi.

Navoiy eski o'zbek adabiy tilining fonemalariga, ayniqsa, unlilariga ham ahamiyat berdi. (S. Usmonov.)

4-mashq. Gaplarni o'qing, o'z va ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlang. Ko'chma ma'noli so'z ishtirok etgan gaplarni ko'chirib, ma'nosi ko'chgan so'zlarning tagiga chizing.

I. 1. Agar derlar ko'ngil yosh bo'lsa, Oq soch o'zi bir husn erur. (Sh.) 2. Oqsoch har baloni eplaydi, xumpar, nayrangdan shaytonga dars beradi. (O.) 3. Avval o'z bolalaringni va jigarlaringni oq podshoh qo'shiniga yuborib ko'ringlar-chi. (S. Kalmikov.) 4. Yuzim chaydim chiroyingga, oyingga... (Qo'shiqdan.) 5. Ishonmasdan qarardi Do'ndiq, go'zal yuzlarga. (Mirm.) 6. Kechqurun u maktabga kelganda, kechaning tantanali qismi tugab, o'yin-kulgi avjiga chiqqan edi. (O'. U.) 7. Karim yo'lda borar ekan, qulog'iga Bibining ovozi eshitildi. 8. Bu suvning qulog'iga yaqin, tekis yer edi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 9. Bir samovar bilan bir necha choynak meniki bo'ldi. (S. A.) 10. Otlarni saroyga bog'lab, o'zlari samovarga kirishdi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)

II. 1. U yil oxirida xizmati uchun boydan ma'lum miqdorda tuyoq oladi. Bu yilgi oladigan tuyog'i ham noma'lum. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 2. Otlarning tuyoqlari... qattiq yerdan... toshlarni taraqlatib ketar edi. (S. B.) 3. Mana menam suv to'la ariq labida quruq labman. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 4. Barmog'imning tirnog'i etidan ajrab ketdi. (N. S.) 5. Xushro'y bitta-yu bitta qizi. Befarzand o'tdim deganda ko'rgan tirnog'i. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 6. — Sizlar menga ishonaveringlar, — dedi Nosir mamash ohu ko'z yigitga choy uzatib... — Siz Haydarbek emassiz! — dedi burgut ko'z yigit. — Bu yog'i endi o'zlaringizga bog'liq. To'g'ri yurib, bechorachilikni bo'yinlaringizga olsalaring, oshlaringni yeysizlar. — Bo'lmasam-chi?! — dedi Nosir mamash so'zini kesib burgut ko'z. (N. S.)

5- mashq. O'qing. Metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarni aniqlang. Gaplarni ko'chirib, ma'nosi ko'chgan so'zlarning tagiga chizing va ma'no ko'chish xususiyatini izohlang.

1. Yo'ldoshboy soy yoqasidan pastga tomon qiyalab yurdi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 2. ... Ikki ko'zi har nav mollar bilan to'la xurjunni.elkaga tashlab, ...inqillab kirdi. (O.) 3. Charchamagan bo'lsangiz «Nautilus»ning quyruq tomoniga yuring. (J. Vern.) 4. Darhaqiqat, suv osti kemasining tumshuq qismini ko'rib bo'lgan edim. Kemaning o'rtasidan tumshug'igacha joylashgan xonalar o'z tartibi bilan quyidagicha edi... (J. Vern.) 5. Bulbullarning dudog'idan uchgan navoni Qo'shiqlarim qanotida olib keltirdim. (E. V.) 6. Tog'larning etagidan uchib maysaga yetar. (Mirm.) 7. Quyosh botib ketdi. Bir tutam nuri Varrak dumlariga ilashib qoldi. (Shukrullo.)

6-mashq. Metonimiya yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarni topib, izohlang.

1. Butun vujudi bilan Berildi u o'qishga. Har kun olib papkasini, Qatnar u "Navoiy"ga. (Mirm.) 2. Ko'zimning oldidan o'tadur g'amgin Navoiy tobutin ko'targan Hirot. (A. Eshonov) 3. Siz ham uzoq yashaysiz, yuzga kirasiz. (Shuhrat) 4. Butun qishloq bizni so'zlaydi, To'yimizni doim ko'zlaydi. (H. G'.) 5. Dod deymen! Mahallani boshimga ko'taraman. (H. G'.) 6. Bir

«Opa-doktor» degan Yoqib qolgandi xalqqa; Yarim Toshkent tanirdi. (*Mirm.*) 6. Qosh qoraygach, barcha yig'iladi: Maktab, ferma, hamma xonadon... (*Mirm.*) 7. Zal gurillab kulib yubordi. (*A. Q.*) 8. London xushchaqchaq bir kuyni eshittirardi. 9. Beshinchidagi Anorgulni aytsang-chi, har kuni yuz yetmish besh kilogrammdan teryapti-ya. (*A. Muhiddin.*) 10. — Sizning kelishingizni eshitib, butun Marg'ilon ko'chib chiqdi. (*H. Nu'mon, A. Shorahmedov.*) 11. Qishlog'imiz asosan bog'dorchiligu chorvachilik bilan shug'ullanar edi. (*E.A'zamov*)

7-mashq. Ko'chiring. Metonimiya yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarni topib, tagiga chizing, uning metaforadan farqini tushuntiring.

1. «Cho'l kezding»,—debsiz,—muncha? Ne der eshitgan quloq? (*Mirm.*) 2. Sakkizda eding, o'n oltiga qadam qo'yding. (*H. G'.*) 3. Ulug' qabrning ustida Hirot yig'ladi. (*O.*) 4. Til bilan dil boshqa-boshqa bo'lmasin, Egri qo'llar bizni aldab yurmasin. (*H. G'.*) 5. Menga lazzat berar shashmaqom, yalla, To'ychi hofiz kuyi, CHaykovskiy, Bax. (*U.*) 6. Gospitalg' shu tarafga yordamchi xo'jalik qilmoqchi. (*S. Ahm.*) 7. Sport maydoninig etagida esa katta hovuz bo'ladi. (*H.G'.*) 8. Qishloq uyg'onmoqda, har joy-har joyda mo'rildan tutun chiqmoqda. (*L. SH.*) 9. Olijanoblikni qutlar yer yuzi, Qurbonsiz bo'lmadi va lekin yarash... (*Mirm.*)

8-mashq. Gaplarni o'qib, ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlang. Sinekdoxa yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zli gaplarni ko'chiring; ma'nosi ko'chgan so'zning tagiga chizib, uning metonimiyadan farqini tushuntiring.

1. Quvnoq tongning oltin bo'sag'asida Tongni kutar quvnoq ming-ming ko'z. (*Mirm.*) 2. — Qanaqa tashvishni aytyapsiz, oqsoqol? (*H. N.*) 3. Egizakni ko'p tug'ar qo'ylar, Ko'payadi suruvda tuyoq. (*Mirm.*) 4. Hoshim zo'r, Ergash polvon va boshqa qing'ir oyoqlarning ishlari Haydarbekka ayon. (*N. S.*) 5. — ... Qulingizdan qoladigan yolg'iz tirnoq bu. Ishqilib mendan keyin yetimligi bilinmasin! (*Y. Sulaymon.*) 6. Qiyig'ing uchida sen ko'tarib kelgan to'rtta olma yeyman deb turgan sakkiz og'izga nima bo'ladi. (*H.G'.*) 7. Eshitgan quloq nima deydi? (*H. G'.*) 8. Uqubatli kunlarni Endi ko'rmasin boshlar. (*Mirm.*) 9. Yo'li menga besh qo'ldek ravshan bo'ldi. (*Yo.Sh.*)

9-mashq. O'qing. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni toping. So'z ma'nosi qaysi yo'li bilan ko'chganligini izohlang.

1. Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini uzundan-uzoq duo qildi. (*I. R.*) 2. Oyoqda og'ir etik asfaltda taraqlardi, Soldatlar etigidek Tumshug'i yaraqlardi. (*Mirm.*) 3. Bir oshnam «she'r» o'qib, chapak chalmasa, zalga o'shqiribdi — «talant» emish u... (*Mirm.*) 4. Sen o'zing go'zalsan, ey O'zbekiston, Bog'imiz husniga jahon boqmoqda. (*Mirm.*) 5. Shinelni yechmasdan frontdan to'g'ri Zavod quchog'iga otilding tetik. (*Sh.*) 6. Igna zahrin mendan so'ramang, Tob berganman ne zahmatlarga. O'ttizga kirsam ham cho'chib turaman, Ko'zim tushsa oq xalatlarga. (*E. V.*) 7. «Akamdan bitta-yu bitta shu tirnoq qoldi», — dedi u. (*Y. Sulaymon.*) 8. Modomiki maslahatni mendan emas, mahalla qora ko'zlaridan so'ramoqchi ekansiz, so'rang, qani bular nima der ekanlar. (*N. S.*) 9. Oyga uchayotgan kosmonavt agar so'rasa ne kitob olishni, u dam — Navoiy-yu Pushkin, G'afuru Tagor Va olib uch derdim Tixonovni ham. (*Mirm.*) 10. Qizning mehrini, iltijosini sezgan saman ot buloq boshida bo'yin egib turib berdi. (*H.G'.*)

17-mashq. O'qing. Sinonimlarni aniqlang, omonimlardan farqini ayting.

1. ...Keyin maskayog' surtib, likobchaga qo'ydi. (*R. Zahir.*) 2. U likobchadagi ustiga sariyog' surtilgan... ikki bo'lak nonni olib, yeya boshladi. (*R. Zahir.*) 3. Yoshlik — fundament. ...Poydevorni qiyshiq qo'ysang, imorat qulaydi. (*Mirm.*) 4. Borib onangni va ro'zg'orlaringni bu yerga oldirib kel. (*J. Zaydon.*) 5. Bo'lmasa farmoningizni validamga yetkazish uchun uyga borishga ijozat bersangiz. (*J. Zaydon.*) 6. Qo'shin orqada qolib ketgani uchun, Temur ilgari yurmay to'xtadi. (*S. B.*) 7. Bosqinchilarning askari tor tog' cho'liga kirib kelgan mahalda, yerli aholi bu joyni toshlar bilan himoya qilgan. (*S. B.*) 8. Bir sohib ikkala qo'li bilan yo'g'on asosiga tayanib o'tiribdi. (*R. Zahir.*) 9. O'ng qo'lida hassasini yerga tiq-tiq urgancha chiqib keldi. (*J. Zaydon.*) 10. Jamila dastgohiga kombinat gudok chalib turgan paytda yetib keldi. (*Mirm.*) 11. Stanok ustiga qo'ngan changni cho'tka bilan artidi. (*Mirm.*) 12. Begona yurtda, bolasi diydoridan uzoqda armon bilan ko'z yumdi. (*S.Ahm.*) 4. Tolibjon ko'p mashaqqatlarni birga kechirgan xotinini yot el tuprog'ida qoldirdi. (*S.Ahm.*) 14. Intiqom ol! — der edi. Har gunohsiz oqqan qon.

O'ch ol! — derdi Maratga Har tong chiqqan zar quyosh. (*Sh.*) 15. Bu qo'shiq bilmaydi nedir to'siq-g'ov. (*Sh.*) 16. Olam yaralmishki, bandisan, osmon, Sukunat domiga o'tmishing asir. (*G. J.*) 17. Ana bedazor. ...Dilni yashnatgan yo'ng'ichqazor ham o'rib olinib, o'rni shudgor qilib qo'yilgan edi. (*S. Z.*)

18-mashq. Sinonim so'zlarni aniqlab, ma'no jilvasidagi farqni tushuntiring.

1. Saharlab turaman, qutlayman tongni, Bo'ynimga osilar subh shamoli. (*Mirm.*) 2. Yel keltirar mayin bir ohang. Yana olib ketar nariga. (*Mirm.*) 3. Dalamizda salqin shabboda yeldi, Uxla, jonim bolam, allayo-alla. (*Mirm.*) 4. Martabador shaxslarni fuqaroga tez-tez siyosat qilib, avom jilovini mahkam ushlab turishga undardi. (*Mirm.*) 5. Eldan qo'rqqan qozi keyinchalik uni bo'shatib yubordi. (*Mirm.*) 6. Ulug' Gimnning yangroq ohangini Olib ketdi tungi sho'x sabo. (*Mirm.*) 7. Qovjiragan palaklarning u yer-bu yerida qolib ketgan sapchalardan uzib, chaylaga olib bordi. (*H. N.*) 8. Qani, bu hamaklarni chanqovbosdi qilib turaylik. (*H. N.*) 9. Sendan hech sirimni yashirmayman. (*A.Q.*) 10. ...Ammam boyaqishning o'g'lini dadam musofirlar, mardikorlar orasiga qo'shib qo'ydi. Dadamda sira insof yo'q. (*O.*) 11. Ba'zan uni o'qiyman oshkor, Ba'zan xufiya — g'oyatda pinhon. (*Mirm.*) 12. Siddiqjon bunga mutlaqo ishonmasa ham, Ro'zimatning ko'ngli uchun yoqasini ushladi. (*A. Q.*) 13. Endi u butunlay qo'rqmay ham qoldi. (*P. T.*) 14. Siz asti xavotir bo'lmang. (*Ya.*) 15. CHoy qog'ozga yozilib, to'rt buklangan xatni boy ochdi. (*O.*) 16. Maktubning bosh tomonini o'qiganda Homidning yuzida ko'rilgan shodlik o'zgarishlari... o'rnini chuqur bir mulohaza olgandek bo'ldi. (*A. Qod.*) 11. Bu noma ertasi kun xonga yuboriladigan bo'lib, bunga maxsus kishi belgilandi. (*A. Qod.*)

19-mashq

6- Mavzu: Morfema va uning turlarini aniqlash. So'zlarning morfemik tahlili yuzsidan test va mashqlarlar bajarish.

57-mashq. O'qing. Mustaqil so'zlarni morfemalarga ajrating: o'zak va shakllarni (modal funksional shakl va so'z o'zgartish shakli) ko'rsating.

N a m u n a: ko'zlarini — ko'z/lar/i/ni — so'z o'zgartish shakli; jilmayib — jilmay/ib — modal shakl.

1. Kampir ko'zlarini ochdi va ro'parasida jilmayib turgan yigitga tikildi. (*H. N.*) 2. Qunduz universitetning uchinchi kursida o'qir, uning maqsadi hayvonot dunyosini o'rganish, shu sohada ilmiy ish bilan shug'ullanish ekan. (*J. Abd.*)

58-mashq. O'qing. Mustaqil so'zlarni morfemalarga ajrating; o'zak va affikslarini belgilang; affikslarning turini ayting.

To'lishgan oy shu'lasida qor qoplagan vodiy kumushdek yarqirardi, faqat o'rtadagi daralarni qop-qora soya bosgandi, leknn u yerda ham qor dam-badam kuyadori singari yalt-yalt qilib turardi. Qarag'ay shoxlaridagi qor uyumlari hamlaga hozirlanib turgan yirtqich hayvonlarga o'xshardi. Uzoqda elektrostansiya dvijogi gupillardi: uning shovqini shamol esgandagina eshitilardi. (*Yu. Semyonov.*)

59- mashq. Gaplarni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi so'z yasovchi affikslarni belgilang va qanday negiz yasaganini ayting.

1. Ular raisning o'tkir, jonli, goh piching, goh tashvish va hazil bilan tovlangan so'zlarini, dadil fikrlarini diqqat bilan tinglashar, o'z takliflari bilan to'ldirishar, gali kelganda ochiq e'tiroz qilishar edilar. (*O.*) 2. Qishki imtihon kunlari yaqinlashgandi, dars tayyorlash uchun kechqurunlari fakultetga kelishga to'g'ri keldi. (*A. Q.*) 3. Bu birinchi bo'linma komandiri okopga yetib,... qat'iy ovozda so'radi. (*F. Niyoziy.*) 4. O'ktamning sal suzuk ko'zlari endi beixtiyor ravishda hovlida aylanib qoldi. (*O.*) 5. Ko'p ham o'tmay so'radi shoh: "Qani mening shoh qizim, Hayotimning suyanchig'i, yupanchim ham yolg'izim?" (*Sh. Rustaveli.*)

2-ilova.

"Bliss"dan variantlar bajariladi.

№	Savollar (1-variant)	To'g'ri javob	Talaban ing javobi	Javoblar
1.	Qaysi qatordagi yasama soʻzning asosi faqat bir boʻgʻindan iborat?			iztopar
2.	Tilning lugʻat boyligini kengaytiruvchi vosita.			kengash
3.	Maʼnoli qismlarga ajralmaydigan soʻz.			issiq-sovuq
4.	Tarkibida kishilik olmoshi bilan omonimlik hosil qiluvchi soʻz yasovchi qoʻshimcha mavjud yasama sifat.			Soʻz yasovchi qoʻshimcha
5.	Kompozitsiya usulida yasalgan soʻz			suvsiz
6.	Asos+soʻz yasovchi+sintaktik shakl yasovchi tartibidagi soʻz.			Vaqtichogʻlik
7.	Qaysi qatordagi oʻzak holiday feʼl otga koʻchgan?			badavlatlik
8.	Tarkibida birdan ortiq yasovchi qoʻshimcha qatnashgan soʻz.			bugun
9.	Ikki mustaqil qarama-qarshi maʼnoli soʻzning birikishidan hosil boʻlgan yasama soʻz			ishchimiz
10.	Ham kompozitsiya ham affiksatsiya usulida yasalgan soʻz.			qisqich

№	Savollar (2-variant)	To'g'ri javob	Talabani javobi	Javoblar
1.	Soʻz yasovchi qoʻchimchasiz yasalgan yasama soʻz.			Saboq
2.	Soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida taqlid soʻzdan feʼl yasalgan soʻz.			qahqaha
3.	Qaysi qatorda tub soʻz berilgan?			Koʻkimtir
4.	Hech bir soʻz yasash usuli yordamida yasalamagan soʻz.			qaqshatqich
5.	Qoʻshma soʻzni toping.			hozirjavob
6.	Tarkibidagi soʻz yasovchi faqat bitta tovushdan iborat yasama ot.			Tub soʻz
7.	Tarkibidagi soʻz yasovchi shakl yasovchidan keyin joylashgan yasama soʻz.			namgarchiliklar da
8.	Tarkibidagi qoʻshimchalar faqat lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha boʻlgan tub soʻz.			tinchimoq
9.	Tarkibida 2 ta yasovchi va 1 ta lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha bor soʻz.			Olib chiqmoq
10.	Tarkibi 4 ta maʼnoli qismdan iborat soʻz.			Tupirmoq

3- ilova.

Mavzu boʻyicha test topshiriqlarini bajarish (test variantlari alohida beriladi).

1. Uyum soʻzi qaysi qatorda toʻgʻri tahlil qilingan?

A) uy(ot) + im (egallik qo'shimchasi) B) uy(fe'l) + im (so'z yasovchi qo'shimcha) C) uy(fe'l) + um(so'z yasovchi qo'shimcha) D) uy(ot) + im (ot yasovchi qo'shimcha)

2. **1) minglab; 2) saharlab; 3) ishlab** so'zlaridagi **-lab** qo'shimchasi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) 1. so'z yasovchi; 2. shakl yasovchi; 3. so'z yasovchi

B) 1. shakl yasovchi; 2. so'z yasovchi; 3. -la so'z yasovchi, b shakl yasovchi C) 1. shakl yasovchi; 2. shakl yasovchi; 3. -la so'z yasovchi, b shakl yasovchi D) har uchala so'zda ham so'z yasovchi

3. **Tintuv** so'zidagi so'z yasovchi qo'shimcha qaysi qatorda berilgan?

A) -v B) -t C) -tuv D) -uv

4. **-ma** qo'shimchasi vazifasiga ko'ra qanday qo'shimcha?

A) faqat ot yasovchi B) shakl yasovchi va sifat yasovchi

C) faqat shakl yasovchi D) faqat sifat yasovchi

5. Qaysi so'z tarkibida ikkita so'z yasovchi mavjud?

A) tilakdosh B) sersuvroq C) boshladik D) mehnatkashlardan

6. **Oziqlantirmoq** so'zi tarkibidagi so'z yasovchi qo'shimchalar miqdorini aniqlang.

A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta

7. Qaysi qatorda tub so'z bor?

A) tarqoq B) saboq C) qaynoq D) quvnoq

8. **Tinchimoq** so'zidagi faqat so'z yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda?

A) -ch, -i, -moq B) -ch C) -chi D) -ch, -i.

9. So'z yasovchi qo'shimchalar orqali qaysi turkumdagi so'zlarni yasash mumkin?

A) ot, sifat, fe'l, ravish B) ot, fe'l, ravish, son

C) ot, sifat, olmosh, ravish D) ot, sifat, fe'l, son

10. Qanday qo'shimchalar turlovchi qo'shimchalar hisoblanadi?

A) ko'plik qo'shimchasi B) sifat darajalarini hosil qiluvchi qo'shimchalar C) fe'l nisbatlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar

D) kelishik qo'shimchalari

11. Qaysi qo'shimchalarni tuslovchi qo'shimchalar deymiz?

A) egallik B) shaxs-son C) kelishik D) sifatdosh

12. Qaysi qatordagi qo'shimchalar so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar deyiladi?

A) ko'plik, sifatdosh, nisbat qo'shimchalari B) daraja, kichraytirish-erkalash, ravishdosh qo'shimchalari C) mayl, ko'plik, harakat nomi qo'shimchalari D) shaxs-son, kelishik, egallik qo'shimchalari

13. Shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar berilgan qatorni aniqlang.

A) -zor, -ni, -lik, -do'z B) -do'z, -ning, -siz, -xon. C) -cha, -lar, -gan, -(i)l D) -gi, -loq, -da, -(i)b

14. **Oyimga ko'maklashdim.** Ushbu gapdagi **ko'maklashdim** so'zi so'z tarkibi bo'yicha qaysi qatorda to'g'ri tahlil qilingan?

A) ko'mak - o'zak; -la so'z yasovchi; -sh shakl yasovchi; -dim shakl yasovchi; B) ko'mak - o'zak; -lash shakl yasovchi; -di shakl yasovchi; -m shakl yasovchi; C) ko'mak - o'zak; -la so'z yasovchi; -sh harakat nomi shaklini yasovchi; -dim so'z o'zgartuvchi; D) ko'mak - o'zak; -lash so'z yasovchi; -di shakl yasovchi; -m so'z o'zgartuvchi.

15. Tilning lug'at boyligini oshiruvchi vositalar qatorini toping.

A) so'z yasovchi qo'shimchalar B) shakl yasovchi qo'shimchalar C) so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar D) so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar

19-mashq

7-Mavzu: Morfemika, so'z yasalishi va grammatikaga kirish materiallari yuzasidan kollokvium o'tkazish.

60-mashq. O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi shakl yasovchi va so'z o'zgartiruvchi affikslarni belgilang.

O'ktam siyrak tut yoki meva daraxtlar qatori bilan, ariqlar, zovurlar bilan bir-biridan chegaralangan keng dalalarni yoqalab kezdi. G'o'zaning o'sishida katta tafovut ko'rdi u. Hatto

bir-biriga yondosh dalalarning manzarasi keskin farq qilar edi. U bir yoqqa qarab xursand bo'lsa, zavqlansa, ikkinchi yoqqa boshini o'girib, o'sishi mujmal, allaqanday kasalsimon g'o'zalarni ko'rar, yuragi achishar edi. U turli brigadalarda, zvenolarda g'o'za parvarishi bir xilda emasligini angladi. (Oybek.)

61-mashq. O'qing, so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang. Qo'shma, juft va murakkab so'zlarni alohida-alohida ko'chiring.

I. Egnida qizg'ish, nim qora aralash matodan tikilgan gimnastyorka, galife shim. Oyog'ida chiroyli qora xrom etik. Boshida qorako'l telpak. Belida kamar, kamarida chiroyli jajji xanjar, to'pponcha, qora qosh, xushmo'ylov, xushqomat, behad ko'rkam Haydarbek qurolli ikki yigiti o'rtasida, qo'li ko'ksida, bosh egib, o'ng va so'lida zanjirband odamlar orasiga kirib borardi. Uning jozibador chehrasidagi alomat shodlikmi, qayg'umi, payqab bo'lmas edi.

II. Bizni Orzi amaki boshlab boryapti. Uning so'ziga qaraganda, qishloqning kun chiqish tarafida bir oshnasi bor emish. Mehmondo'stlikda unga yetadigani yo'qmish. Doim eshigi, dasturxoni ochiqmish. Yuz-ko'zi kulib turadigan, ko'ngli ochiq odammish. Uning suhbatida bo'lgan kishi zerikmasmish, bama'ni gaplaridan kishining miyasi to'larmish. Tunashga joy bemalol, ot-eshaklarga ham yemish mo'l emish. Xayriyat, eson-omon qo'nadigan yerga borib yetdik. (N. Safarov.)

62-mashq. O'qing, tub va yasama so'zlarni aniqlang. Yasama so'zlarning qaysi usul bilan yasalganini ayting. Avval morfologik, keyin sintaktik usul bilan yasalgan so'zlarni yozing.

I. Ular bog'dan chiqib, yolg'izoyoq yo'ldan paxta maydonlari bo'ylab yurisharkan, qiz «Dam olish uyi»ning ahamiyati, o'zga qurilishlar, ishlar haqida so'zladi. Suhbat, muomala minut sayin ko'proq bevosita va do'stona bo'la boshladi. O'ktamga gidrostansiya dastlab oddiy va yengil qurilish kabi ko'rindi. O'ktam balandga ko'tarilib, quvur bo'yicha katta sur'at va kuch bilan otilayotgan suvni tomosha qildi, keyin stansiyaning mustahkam g'ishtin binosiga kirib agregatni va asboblarni ko'rди. (Oybek.)

II. 1. Sening shunchalik olihimmat bola ekanligingni bilmagan ekanman. (O. Jo'rayev.) 2. Odamgarchilik, mehribonchilik qanaqa bo'lishini o'sha kinodan o'rganish kerak ekan. (L. Mahmudov.) 3. Bu — faqat bizning asrimiz kishilarining aql-zakovati, kuch-qudratiga xos inshoot. (A. Nazarov.) 4. Ko'zlarida bo'lsa ko'zoynak, Kitoblarin soni juda ko'p. (Mirm.) 5. Rais uning ko'ziga kamsavlatroq ko'rindi. (A. Q.) 6. Anjirlar obdan sarg'aygan, anorlar endi piyoladay bo'lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko'm-ko'k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. (H. G.) 7. Farzand diydoriga tashna qalbi... Chinobod tomon parvoz qilishga undadi. (A. Nazarov.)

2-ilova.

“Bliss”dan variantlar bajariladi.

№	Savollar (1-variant)	To'g'ri javob	Talaban ing javobi	Javoblar
1.	Qaysi qatordagi yasama so'zning asosi faqat bir bo'g'indan iborat?			iztopar
2.	Tilning lug'at boyligini kengaytiruvchi vosita.			kengash
3.	Ma'noli qismlarga ajralmaydigan so'z.			issiq-sovuq
4.	Tarkibida kishilik olmoshi bilan omonimlik hosil qiluvchi so'z yasovchi qo'shimcha mavjud yasama sifat.			So'z yasovchi qo'shimcha
5.	Kompozitsiya usulida yasalgan so'z			suvsiz
6.	Asos+so'z yasovchi+sintaktik shakl yasovchi tartibidagi so'z.			Vaqtichog'lik
7.	Qaysi qatordagi o'zak holiday fe'l otga ko'chgan?			badavlatlik
8.	Tarkibida birdan ortiq yasovchi qo'shimcha			bugun

	qatnashgan soʻz.			
9.	Ikki mustaqil qarama-qarshi maʼnoli soʻzning birikishidan hosil boʻlgan yasama soʻz			ishchimiz
10.	Ham kompozitsiya ham affiksatsiya usulida yasalgan soʻz.			qisqich

№	Savollar (2-variant)	Toʻgʻri javob	Talabning javobi	Javoblar
1.	Soʻz yasovchi qoʻchimchasiz yasalgan yasama soʻz.			Saboq
2.	Soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida taqlid soʻzdan feʼl yasalgan soʻz.			qahqaha
3.	Qaysi qatorda tub soʻz berilgan?			Koʻkimtir
4.	Hech bir soʻz yasash usuli yordamida yasalamagan soʻz.			qaqshatqich
5.	Qoʻshma soʻzni toping.			hozirjavob
6.	Tarkibidagi soʻz yasovchi faqat bitta tovushdan iborat yasama ot.			Tub soʻz
7.	Tarkibidagi soʻz yasovchi shakl yasovchidan keyin joylashgan yasama soʻz.			namgarchiliklar da
8.	Tarkibidagi qoʻshimchalar faqat lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha boʻlgan tub soʻz.			tinchimoq
9.	Tarkibida 2 ta yasovchi va 1 ta lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha bor soʻz.			Olib chiqmoq
10.	Tarkibi 4 ta maʼnoli qismdan iborat soʻz.			Tupirmoq

3- ilova.

Mavzu boʻyicha test topshiriqlarini bajarish (test variantlari alohida beriladi).

1. Uyum soʻzi qaysi qatorda toʻgʻri tahlil qilingan?

A) uy(ot) + im (egallik qoʻshimchasi) B) uy(feʼl) + im (soʻz yasovchi qoʻshimcha) C) uy(feʼl) + um(soʻz yasovchi qoʻshimcha) D) uy(ot) + im (ot yasovchi qoʻshimcha)

2. 1) minqlab; 2) saharlab; 3) ishlab soʻzlaridagi -lab qoʻshimchasi qaysi qatorda toʻgʻri izohlangan?

A) 1. soʻz yasovchi; 2. shakl yasovchi; 3. soʻz yasovchi
B) 1. shakl yasovchi; 2. soʻz yasovchi; 3. -la soʻz yasovchi, h shakl yasovchi C) 1. shakl yasovchi; 2. shakl yasovchi; 3. -la soʻz yasovchi, h shakl yasovchi D) har uchala soʻzda ham soʻz yasovchi

3. Tintuv soʻzidagi soʻz yasovchi qoʻshimcha qaysi qatorda berilgan?

A) -v B) -t C) -tuv D) -uv

4. -ma qoʻshimchasi vazifasiga koʻra qanday qoʻshimcha?

A) faqat ot yasovchi B) shakl yasovchi va sifat yasovchi
C) faqat shakl yasovchi D) faqat sifat yasovchi

5. Qaysi soʻz tarkibida ikkita soʻz yasovchi mavjud?

A) tilakdosh B) sersuvroq C) boshladik D) mehnatkashlardan

6. Oziqlantirmoq soʻzi tarkibidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar miqdorini aniqlang.

A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta

7. Qaysi qatorda tub soʻz bor?

A) tarqoq B) saboq C) qaynoq D) quvnoq

8. Tinchimoq soʻzidagi faqat soʻz yasovchi qoʻshimchalar qaysi qatorda?

A) -ch, -i, -moq B) -ch C) -chi D) -ch, -i.

9. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali qaysi turkumdagi soʻzlarni yasash mumkin?

A) ot, sifat, feʼl, ravish B) ot, feʼl, ravish, son

C) ot, sifat, olmosh, ravish D) ot, sifat, feʼl, son

10. Qanday qoʻshimchalar turlovchi qoʻshimchalar hisoblanadi?

A) koʻplik qoʻshimchasi B) sifat darajalarini hosil qiluvchi qoʻshimchalar C) feʼl nisbatlarini hosil qiluvchi qoʻshimchalar

D) kelishik qoʻshimchalari

11. Qaysi qoʻshimchalarni tuslovchi qoʻshimchalar deymiz?

A) egalik B) shaxs-son C) kelishik D) sifatdosh

12. Qaysi qatordagi qoʻshimchalar soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar deyiladi?

A) koʻplik, sifatdosh, nisbat qoʻshimchalari B) daraja, kichraytirish-erkalash, ravishdosh qoʻshimchalari C) mayl, koʻplik, harakat nomi qoʻshimchalari D) shaxs-son, kelishik, egalik qoʻshimchalari

13. Shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar berilgan qatorni aniqlang.

A) -zor, -ni, -lik, -doʻz B) -doʻz, -ning, -siz, -xon. C) -cha, -lar, -gan, -(i)l D) -gi, -loq, -da, -(i)b

14. Oyimqa koʻmaklashdim. Ushbu gapdagi koʻmaklashdim soʻzi soʻz tarkibi boʻyicha qaysi qatorda toʻgʻri tahlil qilingan?

A) koʻmak - oʻzak; -la soʻz yasovchi; -sh shakl yasovchi; -dim shakl yasovchi; B) koʻmak - oʻzak; -lash shakl yasovchi; -di shakl yasovchi; -m shakl yasovchi; C) koʻmak - oʻzak; -la soʻz yasovchi; -sh harakat nomi shaklini yasovchi; -dim soʻz oʻzgartuvchi; D) koʻmak - oʻzak; -lash soʻz yasovchi; -di shakl yasovchi; -m soʻz oʻzgartuvchi.

15. Tilning lugʻat boyligini oshiruvchi vositalar qatorini toping.

A) soʻz yasovchi qoʻshimchalar B) shakl yasovchi qoʻshimchalar C) soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar D) soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalar

8- Mavzu: Soʻz turkumlariga ajratish. Ot, sifat, son, olmosh soʻz turkumlariga xos grammatik kategoriyalar. Morfologik tahlil boʻyicha mashqlar.

63-mashq Berilgan gaplarni oʻqing, ajratib koʻrsatilgan soʻzlardan grammatik maʼnoni ifodalovchi vositalarni aniqlab, ularni izohlang.

Toʻlishgan oy shuʼlasida qor qoplagan vodiy kumushdek yarqirardi, faqat oʻrtadagi dalalarni qop-qora soya bosgandi, leknn u yerda ham qor dam-badam kuyadori singari yalt-yalt qilib turardi. Qaragʻay shoxlaridagi qor uyumlari hamlaga hozirlanib turgan yirtqich hayvonlarga oʻxshardi. Uzoqda elektrostansiya dvijogi gupillardir: uning shovqini shamol esgandagina eshitilardi. (YU. Semyonov.)

Oʻktam siyrak tut yoki meva daraxtlar qatori bilan, ariqlar, zovurlar bilan bir-biridan chegaralangan keng dalalarni yoqalab kezdi. Gʻoʻzaning oʻsishida katta tafovut koʻrdi u. Hatto bir-biriga yondosh dalalarning manzarasi keskin farq qilar edi. U bir yoqqa qarab xursand boʻlsa, zavqlansa, ikkinchi yoqqa boshini oʻgirib, oʻsishi mujmal, allaqanday kasalsimon gʻoʻzalarni koʻrar, yuragi achishar edi. U turli brigadalarda, zvenolarda gʻoʻza parvarishi bir xilda emasligini angladi. (Oybek.)

64-mashq. Oʻqing, soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlarini aniqlang. Qoʻshma, juft va murakkab soʻzlarni alohida-alohida koʻchiring.

I. Egnida qizgʻish, nim qora aralash matodan tikilgan gimnastyorka, galife shim. Oyogʻida chiroyli qora xrom etik. Boshida qorakoʻl telpak. Belida kamar, kamarida chiroyli jajji xanjar, toʻpponcha, qora qosh, xushmoʻylov, xushqomat, behad koʻrkam Haydarbek qurolli ikki yigiti oʻrtasida, qoʻli koʻksida, bosh egib, oʻng va soʻlida zanjirband odamlar orasiga kirib borardi. Uning jozibador chehrasidagi alomat shodlikmi, qaygʻumi, payqab boʻlmas edi.

II. Bizni Orzi amaki boshlab boryapti. Uning soʻziga qaraganda, qishloqning kun chiqish tarafida bir oshnasi bor emish. Mehmondoʻstlikda unga yetadigani yoʻqmish. Doim eshigi, dasturxoni ochiqmish. YUz-koʻzi kulib turadigan, koʻngli ochiq odammish. Uning suhbatida boʻlgan kishi zerikmasmish, bamaʼni gaplaridan kishining miyasi toʻlarmish. Tunashga joy bermalol, ot-eshaklarga ham yemish moʻl emish. Xayriyat, eson-omon qoʻnadigan yerga borib yetdik. (N. Safarov.)

65-mashq. O'qing, berilgan gaplardan grammatik ma'noni ifodalovchi vositalarni aniqlab, ularni izohlang.

I. Ular bog'dan chiqib, yolg'izoyoq yo'ldan paxta maydonlari bo'ylab yurisharkan, qiz «Dam olish uyi»ning ahamiyati, o'zga qurilishlar, ishlar haqida so'zladi. Suhbat, muomala minut sayin ko'proq bevosita va do'stona bo'la boshladi. O'ktamga gidrostansiya dastlab oddiy va yengil qurilish kabi ko'rindi. O'ktam balandga ko'tarilib, quvur bo'yicha katta sur'at va kuch bilan otilayotgan suvni tomosha qildi, keyin stansiyaning mustahkam g'ishtin binosiga kirib agregatni va asboblarni ko'rdi. (Oybek.)

II. 1. Sening shunchalik olihimmat bola ekanligingni bilmagan ekanman. (O. Jo'rayev.) 2. Odamgarchilik, mehribonchilik qanaqa bo'lishini o'sha kinodan o'rganish kerak ekan. (L. Mahmudov.) 3. Bu — faqat bizning asrimiz kishilarining aql-zakovati, kuch-qudratiga xos inshoot. (A. Nazarov.) 4. Ko'zlarida bo'lsa ko'zoynak, Kitoblarin soni juda ko'p. (Mirm.) 5. Rais uning ko'ziga kamsavlatroq ko'rindi. (A. Q.) 6. Anjirlar obdan sarg'aygan, anorlar endi piyoladay bo'lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko'm-ko'k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. (H. G'.) 7. Farzand diydoriga tashna qalbi... CHinobod tomon parvoz qilishga undadi. (A. Nazarov.)

2-ilova.

“Bliss”dan variantlar bajariladi.

№	Savollar (2-variant)	To'g'ri javob	Talabanin g javobi	Variant	Javoblar
1.	Grammatik kategoriya turlarini toping.	E		A	<i>Darveshsifatning</i>
2.	Takrorlash usuli bilan grammatik ma'no ifodalangan javobni toping.	I		B	<i>So'zning ma'lum turkumiga mansubligini ko'rsatuvchi, so'zning ma'lum grammatik shaklini ifodalaydigan ma'no</i>
3.	Paradigmaning ta'rifini toping.	F		D	<i>Ot, sifat, son</i>
4.	Qaratqich kelishigi kategoriyasi bilan ifodalangan so'zni toping.	A		E	<i>Morfologik, sintaktik</i>
5.	Grammatik shakl ta'rifini toping.	G		F	<i>So'zning grammatik shakllari tizimi</i>
6.	Fe'llarga xos grammatik kategoriya bilan ifodalangan so'zni toping.	K		G	<i>So'zning biror grammatik ma'no ifodalaydigan ko'rinishi</i>
7.	Grammatik ma'noning ta'rifini toping.	B		H	<i>Leksik-semantik, morfologik , sintaktik.</i>
8.	So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillarini toping.	H		I	<i>Xirmon-xirmon paxta</i>
9.	Morfologiya ta'rifini toping.	J		J	<i>So'z turkumlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi</i>
10.	Morfologik kategoriyaga qaysilar kiradi?	D		K	<i>kelmadi</i>

3- ilova.

Mavzu bo'yicha test topshiriqlarini bajarish (test variantlari alohida beriladi).

1. Morfologiya so'zning qaysi tomonini tekshiradi?

- A) soʻzning lugʻaviy maʼnosini B) soʻzning grammatik shaklini C) soʻzning grammatik maʼnosini D) B va C
- 2. Qaysi qatordagi soʻz grammatik jihatdan shakllangan?** A) oʻqiyapsan B) bogʻ tomon C) asta-sekin D) A, B, C
- 3. Qaysi soʻz turkumlari grammatik maʼnolar ifodalashga xizmat qiladi?**
A) kesim vazifasida kela oladigan barcha soʻz turkumlari
B) barcha mustaqil soʻz turkumlari C) barcha yordamchi soʻzlar D) barcha soʻz turkumlari
- 4. Soʻzlarni turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar hisobga olinadi?**
A) soʻzning maʼnosi B) soʻzning baʼzi morfologik xususiyatlari C) soʻzning sintaktik vazifasi D) A, B, C.
- 5. Borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni bildirish-bildirmasligiga koʻra soʻzlar qanday turlarga boʻlinadi?**
A) atoqli otlar va turdosh otlar B) mavhum otlar va aniq otlar bildiruvchi, belgi bildiruvchi va harakat bildiruvchi soʻzlar C) mustaqil soʻzlar va mustaqil boʻlmagan soʻzlar D) narsa
- 6. Qaysi vositalar grammatik maʼno ifodalovchi hisoblanmaydi?**
A) soʻz yasovchi qoʻshimchalar B) shakl yasovchi qoʻshimchalar
C) soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar D) takrorlar
- 7. Soʻzlarning umumiy grammatik maʼno va vazifalariga koʻra maʼlum guruhlariga boʻlinishi qanday nomlanadi?**
A) gap boʻlaklari B) soʻz turkumlari C) bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar D) adabiy tilga va shevaga xos soʻzlar
- 8. Soʻz turkumlarining taʼrifi notoʻgʻri berilgan javobni toping.**
A) soʻzlarning soʻrogʻiga koʻra guruhlariga boʻlinishi
B) soʻzlarning umumlashgan maʼno ifodalashiga koʻra guruhlariga boʻlinishi C) soʻzlarning grammatik maʼno ifodalashiga koʻra guruhlariga boʻlinishi D) A va B.
- 9. Qaysi qatorda yangi soʻz yasalmagan?**
A) yigʻim B) yigʻindi C) yigʻma (uy) D) yigʻish.
- 10. Qaysi qatorda yasama soʻz berilgan?**
A) maqtanmoq B) yaxshiroq C) iliqroq D) dasturxonimizda
- 11. Juft soʻzlar, takroriy soʻzlar, qoʻshma soʻzlardan qaysi birining tarkibi ikki xil soʻz turkumlariga oid soʻzlardan tuzilishi mumkin?**
A) juft soʻzlar B) takroriy soʻzlar C) qoʻshma soʻzlar D) juft va qoʻshma soʻzlar
- 12. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida qaysi soʻz turkumiga oid soʻzlarni yasash mumkin?**
A) ot, sifat, olmosh, ravish B) ot, sifat, feʼl, son C) ot, sifat, feʼl, ravish D) ot, feʼl, ravish, son
- 13. Takroriy soʻzlarda ayni bir soʻzning takror holda qoʻllanishi natijasida asosan qanday maʼno ifodalanadi?**
A) leksik maʼno B) grammatik maʼno
C) uslubiy maʼno D) leksik va grammatik maʼnolar
- 14. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarsiz yasalgan yasama soʻzlarni toping.**
A) sergaplik, isrofgarchilik B) iztopar, hozirjavob
C) qahramonlarcha, gazetxon D) serdaromad, chizmachilik.
- 15. Boshqa soʻz turkumlaridan yasovchi qoʻshimchalar yordamida yasalmaydigan soʻzlar turkumini aniqlang.**
A) ot, sifat, feʼl B) ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi C) son, olmosh, feʼl D) son, olmosh, modal soʻzlar.
- 16. 1) fikr-mulohaza; 2) ota-ona; 3) kuch-qudrat; 4) koʻrpa-toʻshak; 5) mehr-muhabbat; 6) yigit-qiz; 7) qiz-juvon. Berilgan juft soʻzlardan qaysilari -lar qoʻshimchasini qabul qilmaydi?** A) 1,3,5,6,7
B) 3,6,7 C) 4,5,7 D) 3,5
- 17. Oʻzbek tilidagi soʻzlarning tuzilish turlari qaysi qatorda berilgan?**
A) sodda, murakkab B) qoʻshma, sodda, aralash C) juft, sodda, toq D) sodda, tub, yasama

18. Qanday soʻzlar tub soʻzlar?

A) oʻzga tillardan olinmagan soʻzlar B) bitta soʻz yasovchi qoʻshimchasi bor soʻzlar C) tarkibida soʻz yasovchi qoʻshimcha boʻlmagan soʻzlar D) yasovchi qoʻshimchasi bor soʻzlar

19 Oʻzakdosh soʻzlarni koʻrsating.

A) taxmin, taxmon, taxminiy B) koʻz, koʻzgu, koʻza
C) soʻzing, soʻzi, soʻzim D) betinim, tindi, tinch

20. Qaysi qatorda yasama soʻz bor?

A) bebaho B) bir necha C) taklif qilmoq D) A, B va C.

70-mashq. Oʻqing, atoqli va turdosh otlarni aniqlang, ularning farqini izohlang.

Odatda katta iste'dod egalari hayotda ham yorqin shaxslar boʻladi. Men Oybek va Gʻafur Gʻulom, Mirtemir va Shayxzoda kabi ulkan soʻz san'atkorlari suhbatida boʻlib, shunday e'tiqodga kelganman. Bu ustozlar kirib kelgan uylarda chiroq yoqilganday boʻlar, oʻzgacha bir fayz qoʻshilar edi. Aminmanki, Hamid Olimjon, Usmon Nosirlar ham shunday farishtali odamlar boʻlishgan.

... Usmon Nosirning "Yurak", "Nil va Rim" she'rlari, "Naxshon" dostoni oʻzbek she'riyati xazinasidan joy olgan. Shoir qilgan tarjimalar bu olijanob san'atning yorqin namunalari sifatida koʻp avlod tarjimonlar uchun mahorat maktabi boʻlib xizmat qiladi. (E. Vohidov)

Sifatning ma'no jihatdan turlarini toping.

Oʻzbek qizlari.

Bu momo havodan ularga odat:
Ushlasa gul ushlar qoʻlini faqat,
Kuyovga chiqmagan oʻzbek qizlarin.
Oʻpsa faqat shamol oʻpar yuzlarin.
Bu momo havodan ularga odat:
Nozik belda qirqta kokili qavat,
Silasa yomgʻirlar silaydi faqat,
Koʻrsa faqat osmon koʻrar koʻzlarin
Kuyovga chiqmagan oʻzbek qizlarin.
Jilmaysa nur yogʻar gul yanoqlardan,
Hatto sir yashirar qizgʻaldoqlardan.
Oftob botgandan soʻng xilvat bogʻlardan,
Behuda izlamang sira izlarin –
Kuyovga chiqmagan oʻzbek qizlarin.
Koʻngli daryoday keng, mehri ulugʻvor,
Dugonasi Hayo, sinfdoshi Or.
Ayting farishtadan nima farqi bor,
Kuyovga chiqmagan oʻzbek qizlarin?
Bardoshi oldida togʻ-oddiy tuproq,
Ular etagidan jannat bir qadam.
Beayb parvardigor degandek faqat,
Yoʻq emas kichkina kamchiligi ham.
Sevadi,
Kuyadi,
Qiladi alam,
Dorga osing, ammo aytmas birovga.
Aytmas sevishini sevganiga ham,
Tegib ketaverar boshqa kuyovga.

«Saylanma». M. Yusuf.

9-Mavzu: Feʼlning nibat, shaxs-son, zamon, mayl, vazifadosh shakllarini aniqlash. Feʼl va ravish soʻz turkumlari yuzasidan umumiy tahlil mashqlari.

146-mashq. Oʻqing, fe'llarni topib, qanday soʻroqqa javob boʻlishi va ma'nosini izohlang; gapdagi vazifasini ayting. Kesim vazifasidagi fe'lni ega bilan birga koʻchiring.

Komila o'rtog'ining xonasiga kirib, har narsaga zo'r qiziqish bilan qaradi. To'shak ustida keng, qorday choyshab tashlangan, sodda temir karavot oldidagi yangi dubdan yasalgan etajerkada taxt-taxt kitoblar, ko'chaga qaragan qo'sh derazadan biriniig oldida qora-qizil yog'ochdan yasalgan silliq va ixcham stol. Buning ustida oddiy va qalin daftarlar ham o'zga yozuv ashyolari muntazam tartib bilan terilgan. Odamzod a'zolarining tuzilishini ko'rsatuvchi karta derazalar o'rtasidagi devorga knopkalar bilan yopishtirilgan. Bunga qarshi yaxlit devorga tiralgan pianino qop-qora yaltiraydi. Eshik bilan pianino o'rtasida oddiy, sarg'ish faner garderob. Stol top-toza yiltiraydi. Komila qo'l tegizmay hamma narsaga bir-bir tikilib, stulga o'tirdi-da, boshini asta aylantirib, iljayib yana tomosha qildi. Uy dim edi. Komila har ikki derazani ochdi. Oqshom shabadasi darrov qizning yuzlariga g'ir etib urdi. Yo'lka bo'ylab, adl, yosh akatsiyalar orasidan oqqan ariqning' sho'xligi eshitildi. Qarshidagi hovlidan, quyuq, daraxtlar orasidan bayan tovushi va "Paren molodoy" qo'shig'i yangradi. Komila stolga suyanib, o'tkinchlarni ko'zdan kechirdi... (O.)

147-mashq. O'qing, o'timli va o'timsiz fe'llarni topib, ma'nolaridagi farqni tushuntiring. Avval o'timli, keyin o'timsiz fe'llar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

Shu o'rinda olis zamonlarda o'tgan ajdodimiz Shiroqning Vatan yo'lidagi buyuk fidokorligi yodimga tushadi. Biz bu odamning oddiy cho'pon bo'lganini bilamiz, xolos. Uning o'zi qanaqa odam bo'lgan, yoshmi, keksami, bola-chaqalari bo'lganmi-yo'qmi ekanidan butunlay bexabarmiz. Lekin shuni aniq aytish mumkinki, u biror maktabda o'qib, xat-savod chiqarmagan bo'lsa kerak. Yana shunisi aniqki, u televizor ko'rmagan, radio eshitmagan, gazeta o'qimagan. Binobarin, Vatanni sevish, unga jon fido qilish kerakligi haqidagi xitoblar-u siyqasi chiqqan balandparvoz chaqiriqlarni eshitmagan. Lekin yurtiga bostirib kelgan yovni sahroga olib borib adashtirib kelishga qaror qilganida, sahrodan o'zining ham sog' qaytib kelmasligini yaxshi bilgan. Demak, ona-Vatanini yovdan saqlab qolish uchun ongli ravishda jonini qurbon qilishga otlangan. (O. Sharafiddinov)

148-mashq. O'qing. O'timli va o'timsiz fe'llarni aniqlab, o'timli-o'timsizlik qanday usul bilan ifodalanganini tushuntiring.

Hayajondan Yo'lchining yuragi, sandonga tushgan og'ir bolg'aday, ko'krakni "gurs-gurs" urmoqda edi. ...Alamli va yarali ko'ngillardan ro'yi-rost otilib, havoni yangratgan haqiqat ovozi uning butun vujudini titratdi, mazlumlarning, haqoratlanganlarning, tepkilanganlarning ulug', azamat kuni tug'ilganiga shubha qolmadi. Qanday kun? Zolimlarning, zamon zo'ravonlarining yoqalarini tutib, toptalgan huquqlarini dovlash, qonxo'r oq podshohning qora dovrug'ini, uning mazlum xalqlar boshida jilpanglagan ilon qamchinini sindirish kuni! Yo'lchi ko'pdan kutgan va sevgisi qadar chuqur, ma'noli bir kun! U ko'p yillardan buyon bu kunga intizor emasdimi? Ko'p yillardan buyon bu kunning dardi va sevgisi bilan yashamasdimi? Ayniqsa, keyingi vaqtlarda bu ulug' kunning ruhini o'z yuragi bilan chuqur sezib, har yerda: mahallada, choyxonada, bozorda o'zi kabi ezilganlar, alamdiydalarning ko'kragini bu ruhning otashi bilan yondirishga intilmaganmide? (O.)

149-mashq. O'qing, o'timli va o'timsiz fe'llarni aniqlang. Ko'chirib, o'timli fe'lni o'timsizga aylantirgan affiks tagiga to'g'ri chiziq, o'timsiz fe'lni o'timliga aylantirgan affiks tagiga esa to'lqinli chiziq chizing.

I. Tala, talandi, kul, boshla, qotirma, o'tlat, yugur, qutqaz, tushovla, gapir, keltir, egil, qoldir, bo'shat, bitir, ko'rin, o'tkaz, ko'taril, to'lat, ko'rsat, yubortir, ilintir, uxlat, chiq, suyan, so'ra, maqtandi, eshit, eshitildi, to'g'rila, to'g'rilandi, qizar, qizartir.

II. 1. Kech kirib qelardi: Kun bo'yi yiqqan haroratini endi ufurayotganday, hamon yerdan issiq ko'tarilmoqda. (L. Bat.) 2. Axir... ko'chatzordagi har bir tup daraxtni ko'kartirish uchun qanchadan-qancha mehnat sarf bo'lgan. (S. An.) 3. Bunday uchrashuvda bo'ladigan hamma gap bo'lib o'tdi: quchoqlashdik, kulishdik; har kim o'z institutidan gapirdi; maktabni, o'rtoqlarni esladik, qizlardan gapirdik. (As. M.) 4. Quyuq barglar orasida hech narsa ko'rinmaydi. (S. An.)

150-mashq. O'qing. Fe'llarga ketma-ket qo'shilgan o'timlashtiruvchi va o'timsizlashtiruvchi affikslarni toping. Bu fe'llarning o'timli yoki o'timsiz ekanligini ayting.

1. Eshikni ochgan xizmatkor ogohlantirilgan bo'lsa kerak, «marhamat msъe» deganicha boshlab ketdi. (SH.) 2. Sulton Navoiyni o'z huzuriga chaqirtirdi. (L. Batb.) 3. Ularni uyg'onmasidan qo'lga olib, qurolsizlantirish zarur. (L. Batb.) 4. Xitoydan keltirilgan pakana-pakana daraxtlarning egri-bugri shoxlariga rang-barang hind qushchalari qo'nib o'tiribdi. Hovlining zangori va havo rang koshin yotqizilgan yo'lkalarda chiroyli tovuqlar yurishadi. (L. Batb.) 5. Mehmonlar Eron gilamlari to'shalgan qirq ustunli qasrda to'planishmoqda edi. (L. Batb.) 6. Xalqni yo'ldan ozdirishda shubhalanilgan kishilar qo'llari orqalariga mahkam bog'langan holda keltirilardi. (L. Batb.) 7. Uning: «Serhosil dalalar va bog'-rog'larga aylantirilmagan bir qarich ham sho'rxok yer qolmasligi kerak», — deb aytganidan beri oradan bir necha yil o'tgandi. (L. Batb.) 8. CHo'l-biyobondagi jamiki bo'sh yotgan yerlarga jon kirgizildi. (L. Batb.)

151-mashq. O'qing. Fe'llarni topib, ularning nisbatini, o'timli-o'timsizligini ayting.

1. Biz juda ko'p ish qildik. Yaqinginda esa juda ajoyib tajriba o'tkazdik, ya'ni otash ta'sirida ba'zi toshlarning tusini o'zgartirmoqchi bo'ldik. Bir parcha yoqutni ko'rada obdan qizdirdik. Keyin soviganiga qadar qo'l tegizmadik. Qizdirilgan yoqutning hajmi otash ta'siridan bir oz kichraygan bo'lsa-da, rangi tiniqlashdi. (K. Moiseeva.)

2. Bir dovonga chiqqanda ular tomiri bilan ag'darilib yo'lda ko'ndalang yotgan baqaterakka o'tirib dam olishdi. O'ngda bir xil kiyingan, bo'y-basti ham bir xildagi behisob ko'k archalar uzun-uzun saf tortib, qiyalikka chiqib ketayotgan askarlardek ko'rinar edi. Yengil shabnam hali yerda, o't-o'lanlar, gullar orasida yotadi, tiniq osmon tagida butun vodiy ko'z oldingizda kaftdek yastangan, qaerdadir chashma ko'zi miltillaydi, havo sofligidan archa hidi, asal hidi anqiydi. (As. M.)

152-mashq. O'qing, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlab, ma'nosidagi farqni tushuntiring. Ularni ikki ustun shaklida yozib, bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalovchi vositalar tagiga chizing.

1. Miyasi g'ovlab ketgan Mirzo Ulug'bek boshini ko'tarib yon-veriga qaraydi. Oftob ko'rinmas, osmonni qora bulut qoplab olgan edi. Dalalar va adirlarda, o'rib olingan bo'g'doyzorlarda, hatto olis-yaqindagi bog'larda biron-bir odam qorasi ko'zga chalinmas hatto qirlarda mollar ham ko'rinmas edi. Go'e Mirzo Ulug'bek lashkari emas, talanchi qo'shin bostirib kelayotganday, tirik jon borki, bari qochib in-iniga kirib ketgan. Ha, fuqaro bobosi Amir Temur davridayoq jang-jadaldan bezgan, yuragi zirqirab qolgan.

Mirzo Ulug'bek og'ir xo'rsinib oldinga, ko'kimtir tuman orasida elas-elas ko'zga chalingan tog'larga tikildi. Ilgarilab ketgan qo'shin ko'rinmas, faqat oldindagi yassi qir va adirlarda ot o'ynatib yurgan suvorilar guruhi ko'zga chalinardi edi, xolos. (O. Yoqubov.)

II. 1. Navoiy Binoiyni iste'dodini mehr bilan parvarish qildi, har bir ishda do'stona ko'magini ayamadi. (L. Batb.) 2. SHunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (As. M.) 3. SHunday paytlarda u na chala olardi, va na ashula ayta olardi. (J. Ikromiy.)

153-mashq. O'qing, bo'lishsiz fe'llarni topib, bo'lishsizlik ma'nosi qanday ifodalanganini ayting, ularni bo'lishli shaklga aylantiring.

1. Hechqisi yo'q, azizim, men dunyoda juda katta boylikka — sof vijdonga va xushomadgo'ylik qilmay ilmu fan bilan shug'ullanish imkoniga egamen. Buni mendan hech kim tortib ololmaydi. Bilimlarimni boshqalar bilan o'rtoqlashmoqni ham hech kimsa taqiqlay olmaydi. (L. Batb.)

2. Ahillik bor yerda temir ham suvga cho'kmaydi. (SH.) 3. CHin do'stlikning alangasi so'nmasin der ekanmiz, Birinchi shart — bo'lmog'imiz lozim do'st-la birga biz, Ikkinchi shart — do'st yo'lida ayamaslik simu zar, Uchinchi shart — do'st-la bo'lmoq og'ir kunda barobar. (SH. Rustaveli.) 4. Ilm-hikmat bilan ko'tariladigan shosupaga qurol bilan chiqib bo'lmaydi. (K. Hamro.) 5. Munisxon va'da bergan vaqtida kelmay qolmaydi. (A. Q.) 6. Na cho'zilar, na yonboshlar — bo'sh turardi to'shak-joy. (SH. Rustaveli.)

189-mashq. O'qing, ravishlarni topib, ma'nosi, so'rog'i va grammatik xususiyatlarini ayting; o'zi bog'langan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring.

1. Ozroq podada yurmasa, biz bunda eplolmaydiganga o'xshaymiz. (S. Ahm.) 2. Nizomjon u yoqdan-bu yoqqa yuradi, sal tovush kelsa darrov alanglaydi. (S. Ahm.) 3. Tilmocho'jim o'tirganini

ko'rgan O'g'ilniyoz xola pastdan luqma tashladi. (X. Deryaev.) 4. Qo'shninikiga tomizg'i so'rab kirgan Hajalxon bir zumda bir talay gap topib chiqdi. (A. Muhiddin.) 5. Kattagina kul rang chamadonini ko'tarib olgan Feruza hozirgina o'zi tark etgan vagon bilan yigirma qadamcha yonma-yon yurib bordi. (H. G'.) 6. Qiz etaklarini hilpiratib oldinda shamoldek yelib borardi. (S. Ahm.) 7. Geologlar ekspeditsiyasidagi Matluba degan qiz jo'rttaga bir ish bilan Yakkakapada qolib ketdi. (A. Eshonov.) 8. «Villis» hanuz shu yerda edi. (A. Q.)

190-mashq. O'qing. Holat ravishlarini aniqlab, so'rog'i va gapdagi vazifasini ayting; ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan ko'chiring.

1. Toshpo'latning yordamchilari birin-sirin kelishdi. (N. Biryukov.) 2. Gulzordagi anvoyi gullarning yaproqlarini birov erinmasdan bittalab artib chiqqanday. (H. G'.) 3. Karima oshxonaga asta kirib ketdi. (H. G'.) 4. Ular yonma-yon o'tirdilar. (H. G'.) 5. Vodiylarni yayov kechganda, Bir ajib his bor edi menda. (H. O.) 6. Ashula eshitayotgan bo'lib, zimdan CHorini kuzatdi. (X. Deryaev.) 7. Siz bahuzur dam olib yotavering, darrov kelib ovqatga unnab yuboraman. (S. Ahm.) 8. ...Yarim kechagacha chuvalchangnamo harflarni o'z qo'li bilan terib, birinchi nutqini zo'rg'a yozib bo'ldi. (A. Q.) 9. Halima o'zining uchqo'rg'onlik ekanini bexosdan eslab qoldi. (N. Biryukov.)

10-Mavzu: Yordamchi so'z turkumlari. Modal, undov, taqlid so'zlar. Mashqlar bajarish.

204-mashq. O'qing. Yordamchi so'zlarni topib, ularning mustaqil so'zlardan farqini tushuntiring.

1. Askiyabozligi va gapga chechanligi uchun Navoiy uni sevardi ham. (L. Bat.) 2. Lektsiyalar tashkil etishni boshladik-u, afsuski, ularni ma'lum tartibga solib, oqartuv ishlarini rivojlantirib yuborolmay turibmiz. (O.) 3. Bu masalani bir yoqlik qilmoq uchun Hirotga faqat amir Alishernigina yubormoqlik mumkin. (L. Bat.) 4. Biroq Buxoroga ketgunga qadar u singlisi Robiyaga ko'p narsalarni o'rgatgandi. (L. Bat.) 5. Basharti o'z so'zi va yo tanqidi bilan narigi taraf qizarsa yoki ta'sirlansa, unga ikkinchi martaba hujum qilmay qo'yadi, chunki dushman oyog'i ostida-da. (A. Qod.) 6. O'ktam uyg'onganda, uning boshi uzra jiydaning qip-qizil shamaloq novdalari shamolda vazmin tebralar edi. (O.) 7. Tanim nimjon, ammo ruhim yengil. Men qilich ko'tarmaymen, biroq so'zlarimavvalgiday keskir. (L. Bat.)

205-mashq. O'qing. Mustaqil va yordamchi so'zlarni topib, ularning grammatik xususiyatini qiyoslab tushuntiring.

1. Husayn bu ishni Alishergagina ishonib topshirish mumkinligini tushunar, chunki u xalq o'rtasida shoirning e'tibori naqadar balandligini bilardi. (L. Bat.) 2. Saidakbar hoji qutini beparvogina ochdi-yu, ko'zi tinib ketdi. Unda chindan ham zavqi benihoya baland va serhafsa ustaning mo'jizakor san'ati o'zining butun jozibasini namoyish qilib turardi: bu «etti qaroqchi» yulduzining gavhar donachalari bilan aks etgan oltin uzuk edi! (SH.) 3. Bunday muhabbat na qilich damidan, na jallod doridan qo'rqadi. (SH.) 4. Irodali, go'zal va sitamkor Xadichabegim Husaynning qalbini batamom asir etgandi: u hech qachon hech narsani so'rab o'tirmas, balki talab qilardi. (L. Bat.)

206-mashq. O'qing, ko'makchilarni topib ma'nosi va vazifasini ayting.

1. Yunus Rajabiyning o'zbek muzika san'atini rivojlantirish uchun qo'shgan hissasi bebaho va ulkandir. (S. Karomatov.) 2. Goho ilon kabi buralib, Goh bo'linar mingta irmoqqa. (Mirm.) 3. Butun qo'shinda Navoiyga Musabekdan ko'ra sodiqroq kishini topish mahol edi. (L. Bat.) 4. Nag'alli og'ir etiklar endigina yoqqan qor ustida sabrsizlik bilan deysinishadi. (N. T.) 5. SHu yo'ldan jo'nagan po'lat parovoz, Xuddi shu yo'l uzra to'xtaydi sokin. (Mirm.) 6. Yoqub... shoshilgancha Samarqand sari yo'l oldi. (K. Moiseeva.) 7. SHu tariqa malika bu yerda qiyomga qadar bo'lar, keyin qal'aga qaytib ketardi. (K. Moiseeva.) 8. Rostgo'ylik bilan inson kamolotga yetishgay, Qo'sh til bo'lar el ichra odamlarning iloni. (Mirm.)

207-mashq. O'qing, ko'makchilarni aniqlab, ularni asl ko'makchilar, ot-ravish ko'makchilar va fe'l ko'makchilarga ajratib, o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga uch ustun shaklida yozing.

1. CHEvarasining surati kelgandan beri kampir oromini yo'qotdi. Toshkentga qarab talpinib qoldi. (S. Ahm.) 2. Kosmonavt bo'lish uchun matematikani, fizikani yaxshi bilish kerak. (S. Ahm.) 3. Urushdan avval qanaqa yashashgan bo'lsa, undan keyin ham o'zgarishsiz bir xil umr boshlandi. (S. Ahm.) 4. Navoiy she'riyat olamining ana shu sheri bilan bellashmog'i kerak. (L.

Bat.) 5. Bola-chaqalardan tortib kampirlarga qadar barchasi dalada mehnat zavqini suradilar. (O.) 6. Qadimiy falakiyot olimlarning kitobati bilan tanisha borganing sari, ilgari senga muammo bo'lib ko'ringan jumboqlarning sirini asta-sekin yecha borishing turgan gap. (K. Moiseeva.) 7. yolg'iz mayin, yengil shabboda Vodiy ichra tanho tentirar. Simob kabi tiniq havoda SHitirlashib yaproqlar titrar. (H. O.)

208- mashq. O'qing. Ko'makchi otlarni va ot ko'makchilarni aniqlab, alohida-alohida ko'chiring, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Karomatov unga Akbarov va Toshev haqida savollar berdi. (P.Q.) 2. U studentlar ichida eng yaxshi modalarni tanlab kiyardi, sochini bo'lsa kuniga har xil prichyoska qilmasa, ko'ngli joyiga tushmasdi. (S. Ahm.) 3. So'zlari orasida «Sug'd» va «Xorazm» madaniyatlari, Navoiyning tili, Amudaryo to'g'oni masalalaridan boshlab to atom bombasiga qadar turli mavzularda gap borar edi. (O.) 4. Ismoiljon Bashoratning qo'lidan chamadonchani olib, mashina tomonga yurdi. (S. Ahm.) 5. Po'latjon ariq bo'yida, o'rilgan pichanning ustida, chalqancha yotib ashula aytmoqda edi. (O. Yo.) 6. Kattakon bak oldida choy damlangan tunuka choynakni cho'qqa qo'yib o'tirgan cholning yoniga tushib ketayotgan edi, uzoqdan mashina chirog'ini ko'rib to'xtadi. (S. Ahm.)

209-mashq. Nuqtalar o'rniga sari, bilan, uchun, beri, keyin, qadar, dovur, ichra ko'makchilaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring, ularning qaysi kelishik shaklidagi so'z bilan kelganini ayting.

1. Yurak dala ... talpinardi. (Mirm.) 2. Umr — dono ... juda qisqa, tanbal ... keragidan ortiq uzun! (SH.) 3. U uyga yaqinlashgan ... bahona topishga shoshardi. (S. Ahm.) 4. Zebixon shu tariqa o'zini olisroqdan bir muddat namoyish qilib turgandan... gavdasini g'alatiroq egib keskin burildi-da, ketdi. (S. Ahm.) 5. Majlis yarim kechaga... cho'zildi. (SH. Siddiqiy.) 6. Yunus Rajabiy xalq boyligini to'plab, besh tomlik kitob qilib nashr etdi va bu ... besh bebaho haykal yaratdi. (S. Karomatov.) 7. SHukrona ayt avval parcha non uchun, So'ng qultum suv uchun shukrona takror... (A.O.) 8. Uzoqdan Navoiyning qorasi ko'ringuniga ... u amirning kelishiga ishonmasdi. (L. Bat.) 9. Zulmat ... nur yog'ilganday, huvillab turgan hovli bir nafasda shodlikka to'ldi. (J. Abd.)

210-mashq. O'qing. Qo'makchi va ravishlarni topib, farqini izohlang. Ko'makchilarni o'zidan oldin kelgan ot yoki otlashgan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Ular ikki yonidan qalin daraxtlar saf tortgan tep-tekis xiyobonlar, ilon izi so'qmoqlar, kishiga ajoyib ertaklar hadya etuvchi g'orlar yonida bo'lishdi. (J. Abd.) 2. Yaqinda tashkil etilgan o'zaro musobaqalarning natijalari to'g'risidagi xabarlar ham vaqt-vaqti bilan yetkazib turiladi. (J. Abd.) 3. Oxiri Tuyabuloqqa yaqin bir pioner lagerining avtobusini yollashga to'g'ri keldi. (J. Abd.) 4. Tepaliklar ustida qor uyumlari... tushga yaqin erib yana qumga singib ketardilar. (J. Abd.) 5. SHamsi avvaliga angrayib turib qoldi-yu, keyin shoshib. egarga mindi. (S. Ahm.) 6. Nonushtadan keyin, odatdagidek, kiyinib, kombinat sari jo'nadi. (Mirm.)

11-Mavzu: So'z birikmalari turlar, so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida tahlil.

1-mashq. Gaplar tarkibidagi teng va tobe bog'langan so'zlarni aniqlab ko'chiring.

Namuna: Kuz va qishda – teng bog'langan, sokin maskaniga – tobe (ergash) bog'langan.

1.Kuz va qishda moyjuvoz qo'shadi, ko'klam va yozda dehqonchilik qiladi. (A.Qod.) 2.Tabiatning sokin va lekin benihoyat go'zal maskaniga turli tomonlardan so'qmoqlar ochiladi. (S.Ahm.) 3.Biz hamma bo'rilarini, hamma qonxo'larni, zolimlarni yanchib tashlaymiz! (O.) 4.Barotning haqqoniy so'zi, hukmi mingboshini yerga kirgizib yubordi. (M.Ism.) 5. Turibkani shaqillatib tashladi-yu, motorga gaz berdi. (S.Ahm.) 6.Bu gapdan keyin Kesakpolvon bilan Chuvrindi ma'nodor ravishda ko'z urishtirib olishdi. (T.Malik.) 7.O'ttiz besh yoshdagi Barot polvon o'zining hech kimda yo'q kuchi, ajoyib va qaltis hunari bilan shuhrat cho'qqisida turib, Madumarni o'z ko'lankasida qoldirib kelardi. (M.Ism.) 8. U shaharning serqatnov ko'chalariga, gavjumroq joylariga shoshildi. (As.M.)

2-mashq. Gaplar tarkibidagi soʻz birikmalarini aniqlab, otli va feʼlli soʻz birikmalariga ajratib yozing, Bosh va ergash sozʼlarning ustiga yozing.

1. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qoʻshni afzal. (Gʻ.Gʻ.) 2. Kon ishlarini bobolarimiz oʻz bobolaridan, ularning bobolari bobokalonlarimizdan oʻrganishgan. (S.Karomatov.) 3. Ketma-ket kelayotgan quruvchilar, texniklar tuproq qazuvchilar, montajchilar uchun birinchi navbatda makon kerak. (J.Abd.) 4. Ertasiga Ergash kuni boʻyi roʻzgʻor ishlari bilan ovora boʻldi. (As.M.) 5. Boʻronboyning xizmatchisi qoʻl qovushtirib, darvoza oldida turmoqda edi. (H.O.) 6. Muhiidin Jabborovich shularning barini oʻlchamay turib, toʻgʻri topayotgan edi. (Oʻ.Usm.) 7. Husayin Boyqaro Navoiyning uyida uch kun oʻtirdi. (M.O.) Hotam bilan Umid nozu neʼmatlarga toʻla stol yonida yonma-yon oʻtirishdi; uzatilgan choydan hoʻplab, non tishlashdi. (Mirm.) 8. Namozboy bu gal ishni sal boshqacharoq tashkil etgan. (X.T.) 9. Tonggi salqin oʻrnini asta iliq shabada tafti egallay boshlaydi. (J.Abd.) 10. Farmonov bu juvonnini dashtda bir-ikki marta koʻrgandi. (O.Yo.) 11. Vazir Sherzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi. (P.Q.)

3-mashq. Gaplar tarkibidagi murakkab soʻz birikmalarini aniqlab yozing.

1. Aziz Qosimov yaratgan bu yangi navga oʻzi nafaqat sherik, balki qonuniy mualliflardan biri ekanini qatʼiyat bilan miyasiga quya boshladi. (Oʻ.Usm.) 2. Birin-ketin ishga tushgan mexanizmlarning ovozi quloqqa chalinganday boʻldi. (J.Abd.) 3. Barxanlar orasida bosh koʻtargan qoʻyosh nurlari osmon ufqini loladay qizartirdi. (J.Abd.) 4. Bizning maydonchaga yana bir yoʻlovchi chiqdi. (A.Nesin) 5. Boshiga guldor qizil durra oʻragan, egniga boʻzdan boʻlsa ham, oʻziga yarashgan qizil koʻylak bu qiz katta-katta hurkak koʻzlarini qayoqqa yashirishini bilmay, “lov” etib ketar edi. (O.Yo.) 6. Tohir yelkasida qalin guldor roʻmol, ariq boʻyida mungʻayib oʻtirardi. (O.Yo.).

12-Mavzu:Gap boʻlaklari. Bosh boʻlaklar va ikkinchi darajali boʻlaklarni aniqlashga doir mashqlar.

1-mashq. Oʻqing. Gaplar tarkibidagi bosh boʻlaklarni aniqlang.

1. Men oʻsha gazetani hamon saqlayman. (H.Gʻ.) 2. Shu orada tramvay toʻxtagan edi. (O.) 3. Qilichning tigʻi goʻyo taxtaga aylanib qolgan edi. (Gʻ.Gʻ.) 4. Keng dala yoʻlida qatnovchilar siyrak. (O.) 5. Shu vaqtda qadirdan agronom olsidan koʻrinib qoldi. (O.) 6. Nafasi qisadigan dardi bor u kishining. (S.Anorb.) 7. Bu toʻpolonlardan bezgan qancha hind beklari qochib kelib mendan panoh topganlar. (P.Q.) 8. Yillar mana shu xilda osoyishda oʻtar edi. (A.Q.) 9. Bu soyda, bu orotchalarda qanchadan – qancha shoʻxliklari qolgan uning. (S.Ahm.) 10. Saltanat yoʻlning pastidagi xu anavi baland imorat turadi. (Oʻ.Usm.) 11. Uyqu arslonni ham yiqitar. (Maqol.) 12. Mening nimam bor, kimim bor. (S.Ahm.)

2- mashq. Gaplarning egalarini topib, qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganini ustiga yozing.

I. Ogʻzaki. 1. Ular bedapoyaga qaratib solingan ayvonga oʻtqazildi. (O.) 2. Mana shunday sermaʼno ulfatchilikdan foydalanib kamina siz yoshlarga bir – ikki ogʻiz soʻz aytmoqchi. (Oʻ.Usm.) 3. Men umrimda ilk bor gʻoʻza ekyapman. (T.Malik.) 4. Bular yana bir – ikki oy turishar. (P.Q.) 5. Uchovlari ariq labiga choʻqqayibdilar. (Gʻ.Gʻ.) 6. Uchib yoʻrishlar nihoyasiga yetib, koʻzlarini ochdi. (T.Malik.) 7. Shoazimning boʻlmagʻur pichinglarga durust javob qaytara olmagan yana esiga tushdi. (P.Q.) 8. Bu yerdagisi tilingni kuydiradi. (Sh.) 9. Yoʻq, bunga bardosh qilib, bir chikkada tomoshabin boʻlib turish – jinoyat! (O.Yo.) 10. Saidiy ertalab oʻzini uyquga solib yotaverdi. (A.Q.)

II. Yozma. 1. Shu jihatidan bu toʻy unga, har bir kutilmagan hodisa kabi, qiziq taʼsir qildi. (O.) 2. Binoiyning eʼtiqodicha, turkiyda sheʼr soʻylamoq – behuda harakat. (O.) 3. Koʻplar yoʻq, juda koʻplar – joylari jannatda boʻlsin – olamdan oʻtdi. (O.Yo.) 4. Bor otasiga ettisiga osh beradi, deb shuni aytadilar – da, - dedi kimdir past ovozda. (N.A.) 5. Borlari ham

daladan bo'shamaydi. (S.Ahm.) 6. Rus, qozoq, latish, turkman... Hammasidan bor. (J.Abd.) 7. Tatar savdogarlardan ham ko'rinadi. (O.) 8. Shaharliklardan yaxshi o'ynagan Qumri bo'ladi. (CH.) 9. Mehnat nonini shirin bilganlar bunda yashaydi. (Sh.) 10. Ikkisi ham uzoq jim qoldilar. (A.Qod.)

3- mashq. Gaplardagi fe'l – kesimlarini topib, ega bilan birgalikda ko'chiring va namunadagidek to'liq tahlil qiling.

Namuna : umidlantirdi – sof fe'l bilan ifodalangan,sodda.

1.Kengash daragi Ahmadjonni ham umidlantirdi. (H.G'.) 2. Yer yorig'idan bir bochka neftga o't ketganday tim qora, quyuq tutgan osmonga o'rlab chiqibdi. (G'.G'.) 3. Mana endi sahroda suv uchun kurashga bosh qo'shmoqda u. (E.Abd.) 4. Ziyod Shermatovich, mana, bosh agranom ham tasdiqlayapti. (T.Malik.) 5. Bir tomonda „chars – churs ” bilan gulxan yonadi. (O.) 6. Balki Komil – To'xtamish mojarosi shundan kelib chiqar? (T.Malik.) 7. Bu “Qorag'ujanak” ning ishi . U hammani yo'ldan urmoqchi. (J.Abd.) 8. Bu yerda o'n choqli jangchi to'plangan. (A.Q.) 9. Chol takror so'ragach, u javob berdi. (O.) 10. Birdan Halimaxonim quling o'rgilsin bir ashulani kuylab yuborsa – ya! (O.) 11. Siz menga bir masalani yichishda ko'maklashing. (T.Malik.) 12. Uning kunlari shu atariqa kecha boshladi. (O.Husanov.) 13. Davolovchi virach Latofatning hampalatasini emlash bahonasida olib chiqib ketdi. (T.Malik.) 14. Shu ketishda hademay dumi tutiladi. (P.Q.) 15. Fashist qanchalab onalarga, kelinlarga qora kiydirdi. (S.Ahm.) 16. Tog' – toshlarning qaldirashi uni qandoq uxlatadi. (S.Ahm.) 17. Bir zumdan keyin hamqishloqlarning g'ovg'asi aniq eshitiladi. (O.)

Oraliq nazorat savollari

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining predmet, maqsad va vazifalari.
2. Tilning tasnifi .
3. Unli tovushlar tasnifi .
4. Fonetik birliklari.
5. Fonetik tahlil: "bayroq".
6. Urg'u va uning turlari .
7. Til fanining bo'limlari .
8. O'zbek tili va uning taraqqiyot bosqichlari .
9. Unlilar tavsifi .
10. Fonetik tahlil: "talaba".
11. Fonetikaning turlari.
12. Tillarning morfologik tasnifi .
13. So'z va gap urg'usi .
14. O'zbek tili dialekti .
16. Infra va ultra tovushlar.
17. Undosh tovushlar tasnifi.
18. O'zbek tili va uning taraqqiyot bosqichlari .
19. Fonetik tahlil: "daftar".
20. Nutqning fonetik bo'linishi .
21. Adabiy til va uning shakllari.
22. Artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli
23. Tilning paydo bo'lishi.
24. Fonetik tahlil: "kitob".
25. Fonetikaning predmeti va maqsadi .
26. Lahjalar haqida gapiring
27. Fonetik tahlil: "bayroq".
29. Fonetik tahlil: "talaba".
30. Tovush balandligi va tovush tembi .
31. Urg'u va uning turlari.
32. Milliy va adabiy til .
33. Fonetik birliklar.
34. Fonetik tahlil: "parta".
35. Nutqning organlarining vazifalari.
36. So'z va gap urg'usi .
37. Til tuzilishi
38. Fonetik tahlil: "ona".
39. Tarixiy fonetika .
40. Fonetik tahlil: "qalam" .
41. Eksperimental fonetika.
42. Tovush kuchi va balandligi .
43. Qipchoq lahjasi .
44. Fonetik tahlil: "farzand".
45. Ega va uning ifodalanishi. (kesim orqali ifodalanib..., ot, olmosh, taqlidiy so'z, ayrim tovush).
46. Ajratilgan hollar. (oborot va oddiy gap bo'lagi formasidagi).
47. Ergash bog'lanish (boshqaruv, moslashuv, bitishuv)
48. So'roq gaplarni hosil qiluvchi vositalar (yuklama, so'roq olmoshlari, intonatsiya)
49. Predikativ va nopredikativ birikmalar (otli, fe'li)

50. To'ldiruvchi. Vositasiz to'ldiruvchi (belgili, belgisiz)
51. So'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishuv (yordamchi so'zlar, so'z tartibi, urg'u...)
52. Hol va uning ifodalanishi (ot, olmosh, son,...)
53. Sodda gapning murakkablashuvi (ajratilgan bo'laklar, undalma,...)
54. Gap va uning belgilari (voqelikni va unga bo'lgan munosabatni ifoda qilish...)
55. So'zlarning grammatik tabiatiga ko'ra tasnifi. (hokim bo'lakning qaysi so'z turkumidanligi,...)
56. Tarkibli kesim haqida tushuncha (ikki yoki undan ortiq negizdan tuzilgan fe'lar ...)
57. Kesimning tuzilishiga ko'ra turi (sodda, tarkibi, murakkab)
58. Undalmaning ifodalanishi. (ot, sifat, olmosh...)
59. Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi (kesim, ot olmosh...)
60. Kesimning ega bilan moslashuvi (kesim egaga tobe bo'lak)
61. Holning ma'no turlari (tarz, o'rin holi, sabab holi...)
62. Gapning tarkibiga ko'ra turlari (ikki tarkibli, bir tarkibli)
63. Undalmaning ifodalanishi. (ot, sifat, olmosh...)
64. Sintaktik aloqalar (ko'makchi, bog'lovchi, yordamchi so'z...)
65. Kiritma gap (yo'l- yo'lakay izoh berilib...)
66. O'zlashtirma gap. (o'zaklar gapni o'ziniki ...)
67. Uyushiq bo'laklarda bog'lovchilarning ishlatilishi (u yushiq bo'laklarning mazmuni jixatidan o'zaro)
68. Aniqlovchining ma'no turlari (sifatlovchi aniqlovchi, ...)
69. Shaxsi noaniq gap (ish-harakatni bajaruvchi shaxslar...)
70. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchi aniqlovchilar.
71. So'z –gaplar
72. Undov gap (darak undov, so'roq bo'yuq undov, gaplar)
73. Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar (ajratilgan bo'lak, undalma, kirish so'z).
74. Infinitiv gaplar haqida. (kesim infentiv bilan ifodalangan gaplar...)
75. Gapning maqsad ifodasiga ko'ra turlari (darak, so'roq, darak – undov, so'roq-undov)
76. Fe'l kesim va uning ifodalanishi (sodda, tarkibli)
77. Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining ishlatilishi (vergul, tire)
78. So'z birikmalarini turg'un birikmalardan farqi va o'xshash tomonlari (sintaktik vazifasi va turlari)
79. Bog'lama (edi, ekan, bor, yo'g',...)
80. Bo'laklarga ajratilmaydigan gaplar (so'z – gaplar)
81. Ajratilgan izohlovchi.
82. Tarkibli kesim. (fe'l kesim, ot kesim)
83. Tasdiq va inkor gaplar (predmetda biror belgining mavjidliligini...)
84. Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari (sodda, tarkibli, murakkab)
85. So'z birkmasining klassifikasiyasi (tuzilishi va grammatik tabiati)
86. Bir tarkibli gaplar (egasiz, kesimsiz, egasi topladigan,...)
87. Undalma va uning ifodalanishi (ot, olmosh, son,...)
88. Ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan ko'makchili)
89. Tobelanish vositasida hosil bo'lgan birkmalar
90. Kiritma gap (yo'l yo'lakay izoh,...)
91. Ikkinchi darajali bo'laklarning uyushib kelishi (Aniqlovchi, tuldiruvchi)
92. Uyushiq hollar (fe'l-kesimga bog'lanadi)
93. Izohlovchi (predmetni boshqa bir nom bilan)
94. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'zlar
95. Kirish so'z va kirish birikmalar (medalso'zlar, gumon, ishonch)
96. Gapning tarkibiga ko'ra turlari (ikki tarkibli gaplar)
97. Ergash bog'lanish (boshqaruv, moslashuv, bitishuv)

98. So'roq gaplarni hosil qiluvchi vositalar (yuklama, so'roq olmoshlari, intonasiya)
99. Qaratqichli aniqlovchi (belgili qaratqichli, belgisiz qaratqichli aniqlovchi)
100. Fe'lli so'z birikma (ot, ravishdosh, ravish,...)
101. Sintaksisning o'rganish ob'ekti (tuzish, kirish)
102. So'roq gapning ma'no turlari (sof, ritorik, so'roq-buyuyruq)
103. Predikativ va nopredikativ birikma (otli, fe'li)
104. Shaxsi aniq gaplar (ega, keism)
105. Hol va kesim universiyasi (hol, kesim)
106. So'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishuvi (afflikasiyasi so'z tartibi,...)
107. Shaxsi aniq gaplar (ega, kesim)
108. Eganing tuzilishiga ko'ro turlari (sodda va murakkab egalar)
109. Qaratqichli aniqlovchi (belgili, belgisiz)
110. Ot kesim va uning tuzilishiga kura turlari (sodda tarkibli)

TEST SAVOLLARI

1. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taaluqli va ular qaysilar?

- A) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarining Namangan va Qohira nusxalari, Maxmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari.
- B) XXV asrlarga, A.Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarlari.
- V) XI – XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiyning ba'zi she'rlari
- G) VII asrlarga, O'rxun-Enasoy yodgorliklari

2 Bizning davrimizda jahon halqlarining necha foizi lotin alifbosini o'z yozuvlariga asos qilib olganlar?

- A) 30 foizi
- B) 40 foizi
- V) 50 foizi
- G) 20 foizi

3. O'zbek xalqi 1929 yilgacha qaysi yozuvda ish ko'rgan?

- A) Arab grafikasidagi o'zbek yozuvida
- B) Uyg'ur alifbosi asosidagi yozuvida
- V) Lotin grafikasidagi o'zbek yozuvida
- G) Rus grafikasidagi o'zbek yozuvida

4. Qaysi yillarda arab grafikasidagi eski o'zbek yozuvi qisman isloh qilinadi?

- A) 1929-1927 yillarda
- B) 1917-1918 yillarda
- V) 1921-1923 yillarda
- G) 1924-1925 yillarda

5. Lotin grafikasidagi birlashgan turk alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi qachon amalga kiritildi?

- A) 1927-1929 yillarda
- B) 1923-1924 yillarda
- V) 1924-1925 yillarda
- G) 1925-1926 yillarda

6. Lotin grafikasidagi o'zbek yozuvida qaysi yillargacha ish ko'rilgan?

- A) 1941 yillarda
- B) 1938 yillarda
- V) 1939 yillarda
- S) 1940 yillarda

7. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosining ikkinchi (o'zgartirilgan) variant qachon tasdiqlandi?

- A) 1995 yilning 6 mayida
- B) 1993 yilning 2 sentyabrida
- V) 1993 yilning 21 dekabrda
- G) 1994 yilning 8 mayida

8. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvining imlo qoidalarini qachon tasdiqlandi?

- A) 1995 yilning 24 avgustida
- B) 1994 yilning 8 mayida
- V) 1993 yilning 2 sentyabrida
- G) 1995 yilning 6 mayida

9. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuviga to'la o'tish jarayoni qachon yakunlanishi kerak edi?

- A) 2010 yilida
- B) 2002 yilida
- V) 2003 yilida
- G) 2005 yilida

10. O'zbek xalqi 1929 yilgacha qaysi yozuvda ish ko'rgan?

- A) Arab grafikasi o'zbek yozuvda.
- B) Uyg'ur alifbosi asosida yozuv.
- V) Lotin grafikasidagi o'zbek yozuvda.
- G) Rus grafikasidagi o'zbek yozuvda.

11. Rus grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi qachon tasdiqlandi?

- A) 1940 yilning 8 mayida
- B) 1939 yilning 18 noyabr.
- V) 1939 yilning 28 martida.
- G) 1939 yilning 23 oktyabr.

12. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosining birinchi varianti qachon tasdiqlandi?

- A) 1993 yilning 2 sentyabrida.
- B) 1995 yilning 6 mayida.
- V) 1995 yilning 24 avgustida.
- G) 1995 yilning 21 dekabrda.

13. Qaysi qatordagi so'zlar qo'sh undoshli yozilsa ham talaffuz qilinganda, bitta undosh aytiladi?

- A) kongress, million
- B) pilla, tilla.
- V) katta, gramm
- G) grammofoon, shinni

14. X undoshini H undoshi bilan almashtirganda so'zlar ma'nosi o'zgaradigan qatorni toping?

- A) xiyla, uxlamoq, shox
- B) kutubxona, tuxum, taxlit
- V) axloq, shag'dam, shaxsan
- G) xiyobon, xattot, xolis

15. Adabiy talaffuz ma'yorlarni tilshunoslikning qaysi bo'limi o'rganadi?

- A) Orfoepiya
- B) Morfologiya
- V) Morfologiya
- G) Orfografiya

16. Harflarga nisbatan kam miqdordagi tovushlar bilan talaffuz qilinadigan so'zlarini tovushlar bilan talaffuz qilinadigan so'zlar qatorini topish.

- A) G'isht, farzand, yurist, do'st,

- B) Metr, farzand, zarurat, magistir
- V) Do'st, baland, go'sht, dastyor
- G) Jahl, johil, jarang, metr

17. Sayoz til orqa «ng» bilan talaffuz qilinadigan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) Bolangiz, singil, ingramoq, ko'ngil
- B) Jang, tebrangan, menga, yengil
- V) Tanga, jang, tebrangan, ko'ndalang
- G) Kongress, durang, zang, nonga

18. Q. Tovushi x kabi talaffuz qilinadigan so'zlar qatorini toping

- A) Saqla, taqsimot, maqsad, oqsil
- B) Oqibat, iqlim, ishqor, faqir
- V) Qalpoq, qamoq, qalqon, so'roq
- G) To'qson, to'qmoq, saqich, muqova

19. Qaysi qatordagi so'zlarning oxirida kelgan jarangli undoshlar talaffuzda jarangsizlashadi.

- A) Maktab, talab, avlod, madad
- B) Girdob, qishloq, ang'iz, anhor
- V) Sayoz, tog', barg, armon
- G) Bargak, asal, araz, anjir

20. Talaffuziga ko'ra ma'nosi o'zgargan so'zni aniqlang.

- A) To'rt
- B) Juft
- V) Samarqand
- G) G'isht

21. Yopiq bo'g'inlarni toping.

- A) osmon, maktab, tokzor
- B) yubor, hamdam, olma
- V) gulli, soat, peshvoz
- G) quloq, soya, jang.

22. Qaysi qatorda bo'g'in ko'chirish qoidasi buzilgan?

- A) ing-liz
- B) ko'-ngil
- V) men-ga
- G) si-ngil

23. Bo'g'inning amaliy ahamiyati nimadan iborat?

- A) B, G, V
- B) Birinchi sinf o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatish ham bo'g'inga asoslanadi.
- V) She'riy misralarda bo'g'in sonining teng bo'lishi e'tiborga olinadi.
- G) Yozuvda bir satirga sig'may qolgan so'z keyingi yo'lga bo'g'in asosida ko'chiriladi.

24. Faqat ochiq bo'g'inli so'zlarni toping.

- A) g'o'za, baraka, ibora. B) arava, ashula, ilgari.
- V) ilova, olim, andisha. G) ijod, izza, rubob.

25. Quydagi so'zlarning qaysi biri tarkibida ochiq bo'g'in bor?

- A) biriktirmoq
- B) otlantirmoq
- V) ishlatmoq.
- G). san'atkorlik

26. Kongress so'zi qaysi qatorda bo'g'inlarga to'g'ri ajratilgan?

a. A) kon-gres

- B) kong-res
- V) kong-res-s
- G) hammasi noto'g'ri ajratilgan.

27. Bo'g'inga ajratilmaydigan so'zlar qatorini belgilang.

- A) hukm, gramm, ong.

- B) qit'a, qal'a, yechim.
- V) ongi, yangi, yengil.
- G) A, B, V.

28. Bunday bo'g'in bir unli yoki unli bilan tugaydi. Ushbu izoh quyidagi qaysi tushunchaga taalluqli?

- A) ochiq bo'g'in.
- B) berkitilmagan bo'g'in.
- V) yopiq bo'g'in.
- G) berkitilgan bo'g'in.

29. Bo'g'inning tuzilishiga oid qaysi ma'lumotlar to'g'ri?

- A. V va G
- B. Bo'g'in undoshsiz tuzilmaydi.
- V. Bo'g'in bir unliga teng bo'lishi mumkin, ammo bir undoshdan iborat bo'g'in bo'lmaydi.
- G. Bo'g'in unlisiz tuzilmaydi.

30. Yozuvda bir yo'lga sig'may qolgan so'zning keyingi satrga ko'chirganda, xatoga yo'l qo'yilgan qatorni aniqlang.

- A. mesh-chan, sin-gil, voqye-a.
- B. ish-chan, so'ng-ra, mat-baa.
- V. dan-gasa, tan-ga, jur'-at.
- G. Oi-la, ko'-rik, un-gur.

31. Bunday bo'g'in unli bilan tugaydi yoki bir unlidan iborat bo'ladi. Ushbu izoh quyidagi qaysi tushunchaga taalluqli?

- A. Ochiq bo'g'in.
- B. berkitilmagan bo'g'in.
- V. yopiq bo'g'in.
- G. berkitilgan bo'g'in.

32. Birinchi bo'g'in ikki tovushdan, keyingi bo'g'in yesa uch tovushdan iborat bo'lgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. Quyosh, yozuv, yashin.
- B. pilla, faryod, panja.
- V. arslon, gazmol, artist.
- G. yelkan, yodgor, yaylov.

33. Qaysi qatorda so'zlarning urg'usi ko'chsa, so'z ma'nosi o'zgaradi?

- A) qo'llar, yangi, bog'lar
- B) oshiq, surma, mudir
- V) bahor, atlas, yaxshi.
- G) hovli, zavqli, shaharga

34. Qaysi qatordagi so'zlarning ma'nosi urg'u yordamida farqlanadi?

- A) bog'lar, ishlar, etik, qishloqcha
- B) xiyla, belcha, beshala
- V) ishchi, bolada, qo'lla, ahil
- G) burun, gajim, uylar

35. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

- A) respublika, albatta, gazeta.
- B) hatto, matematika, xunar.
- V) ruchka, katta, kimdir.
- G) hamma, gazeta, ishchi.

36. Qaysi tarkibida mantiqiy urg'u yozda so'ziga tushgan?

- A) Biz Xumonga dam olish uchun yozda boramiz.
- B) Biz yozda Xumsonga dam olish uchun boramiz.
- V) Yozda biz Xumsonga dam olish uchun boramiz.
- G) Xumsonga biz yozda dam olish uchun boramiz.

37. O'zbek tilida urg'uning qaysi turi leksik ma'no hosil qiladi?

- A) so'z urg'usi
- B) intanasion urg'u
- V) ritmik urg'u
- G) gap urg'usi

38. Segment va supersegment fonetik birliklar qaysi qatorlarda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. V va G
- B. Segment birliklar – nutq tovushlari, bo'g'in va morfemalar.
- V. Supersegment birliklar – urg'u, ohang (intonasiya), melodika, pauzalar.
- G. Segment birliklar – nutq tovushlari va bo'g'inlar.

39. Aksentuasiya nima?

- A. Urg'ular tizimi.
- B. pauzalar.
- V. Sanash intonasiyasi.
- G. Ohang turlari.

40. So'z urg'usining o'rniga ko'ra turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. V va G
- B. Erkin urg'u.
- V. Yarim urg'u.
- G. Bog'langan urg'u.

41. Bog'langan va erkin urg'uli tillar qanday farqlanadi?

- A. V va G
- B. Erkin urg'uli tillarda urg'uning turli bo'g'inlarga tushish holatlari kuzatiladi. Masalan, o'zbek tilidagi urg'u shu xususiyati bilan xarakterlanadi.
- V. Erkin urg'uli tillarda urg'uning turli bo'g'inlarga tushishi me'yor sanaladi. Rus tilidagi urg'ubunga misol bo'ladi.
- G. Bog'langan urg'uli tillarda urg'u asosan so'zdagi biror bo'g'inga doimiy bog'langan bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi urg'u shu xususiyatga yega.

42. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

- A. radio, kofe, traktor.
- B. mukofot, zimiston, vatandosh.
- V. polvon, mehnat, najot.
- G. Albatta, afsuski, fonetika.

43. Intonasiya nima?

- A. Og'zaki nutqning ritmik-melodik tomoni, undagi ovoz (ton) tovlanishlari
- B. Unlilarning fizik-akustik belgilari.
- V. Undoshlarning fizik-akustik va artikulyasion xususiyatlaridan kelib chiqadigan talaffuz shakllari.
- G. Bo'g'inlar tizimining nutqdagi ishtiroki.

44. Intonasiya qanday birlik?

- A. Supersegment birlik.
- B. Semantik birlik.
- V. Grammatik birlik.
- G. Segment birlik.

45. Qaysi so'z talaffuz qilinganda, undagi ikki o'xshash tovushdan biri noo'xshash tovushga almashishi mumkin?

- A) zarur
- B) yigitcha
- V) bojxona
- G) tuzsiz

46. Tambur-tanbur, manba-mamba, o'n besh-o'mbesh, sunbul-sumbul kabi so'zlarning talaffuzi va imlosiga tegishli bo'lgan qanday fonetik hodisa yuz bergan?

- A) tovush almashinishi
- B) tovush tushishi
- V) tovush moslashishi
- G) hech qanday fonetik hodisa ro'y bermaydi.

47. Son-sana, boq'-bogqa, shahar-shahri, men-mening kabi o'zak va qo'shimchalarning qo'shilishida tovush o'zgarishlarining qaysi turlari vujudga keladi?

- A) tovush almashishi va tushishi.
- B) tovush tushishi
- V) tovush almashishi va tovush ortirilishi
- G) tovush almashishi

48. Pasay, susay so'zlarida o'zak va qo'shimchalarning qo'shilishida qanday fonetik o'zgarish vujudga keladi?

- A) unli tovushlar tushishi.
- B) undosh tovushlar almashishi
- V) undosh tovushlar tushishi
- G) hech qanday fonetik o'zgarish vujudga kelmaydi.

49. Bo'yni, ayrim so'zlarida o'zak va qo'shimchalarning qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarish vujudga kelgan?

- A) unli tovushlar tushishi
- B) undosh tovushlar tushishi
- V) undosh tovushlar almashishi
- G) unli tovushlar almashishi

50. Qaysi so'z talafuz qilinganda, keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi?

- A) yozsin
- B) aytdi
- V) yurakka
- G) zarur